

XAMRAQULOV ZAFARJON YIGITALIYEVICH

HUQUQ SOHALARI

(Jinoyat huquqi)

o'quv qo'llanma



TOSHKENT – 2020

Qo'llanma Oily va o'tra maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 6 oktyabrdagi 522-sonli buyrug'iga asosan 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya etilgan.

Mazkur qo'llanma pedagogika ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanmada jinoyat qonunchiligi asoslari, jinoyat huquqi tizimi, tarkibi, javobgarlik, jazo, voyaga yetmaganlar javobgarligi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari hamda jinoyatlarning turlari o'rganiladi. Undan o'qituvchilar, magistrlar va mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

Muallif:

Xamraqulov Z.Y.

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

Mas'ul muharrir:

N.Siddiqov

QDPI dotsenti, yuridik fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

M.O'rozaliev

TDYuU dotsenti, yuridik fanlari doktori (DSs)

U.Shokirov

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sud'yasi

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida erkin, demokratik davlat barpo etish inson huquq va erkinliklarini himoyalashni, davlat va jamiyat hayotida qonun ustuvorligiga erishishni talab etadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati inson omilini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, barcha demokratik o'zgarishlar ushbu asosda amalga oshirilmoqda. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini yangilanishlarga olib kelishga yo'naltirilgan islohotlar davlatning qudratli huquqiy mexanizmi bilan qo'riqlanishi vositasida ro'yobga chiqariladi.

Huquqning qo'riqlovchi funktsiyasi davlat siyosati samaradorligini ta'minlashda yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday hollarda javobgarlik asoslarini belgilovchi huquq sohalarining o'rni ko'zga tashlanadi. Jinoyat huquqi bunday huquq sohalarida ichidagi yeng ahamiyatli tarmoq hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi qonun ustuvorligining ta'minlanishi ko'p jihatdan jinoyat huquqining davlat va jamiyatda amal qilish darajasiga bog'liqdir. Jinoyat huquqi shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Mazkur qonunchilik doirasida qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilganlik uchun belgilanadigan jazolar o'zining og'ir salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi bilan ajralib turadi.

Jinoyat kodeksi jazolari liberallashtirib boradigan qonunchilik hujjati hisoblanib 1994 yil 22 sentyabrdan boshlab hozirgacha 300 dan ortiq o'zgartish va qo'shimchalar bo'yicha 70 ga yaqin qonunlar qabul qilingan. Yangi kiritilgan huquqiy normalar mamlakatimizdagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlariga uyg'unlashtirilgan bo'lib, ularning asosiy qismi jazolarning yengillashtirilganligi xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zgartish va qo'shimchalar

jinoyatchilikka qarshi kurashda adolat tantanasini ta'minlash maqsadlariga qaratilgan. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni dekriminallashtirish, jazolarning ozodlikni mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan turlarini amaliyotga ko'proq qo'llash sud-huquq tizimi islohotlarining bugungi bosqichida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim"ligi xususida zarur topshiriqlar berishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi PQ-3723-sonli "Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish kontseptsiyasi" ishlab chiqildi.

Kontsepsiya jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish, jinoiy jazolar tizimi va ularni tayinlash tartibini qayta ko'rib chiqish, jazoni yengillatish yoki jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishni ko'zda tutuvchi normalarni kengaytirish, xavfliligi yuqori bo'lmagan jinoyatlarni dekriminallashtirish kabi vazifalarni o'zida aks ettirgan. Kontsepsiya vositasida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, inson huquq va erkinliklari himoyalashining kafolatlash nazarda tutilgan.

Jamiyatimizda jinoyatchilikni kamaytirish, aholining huquqiy savodxonligi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadlarida jinoyat huquqi asoslarini xalqimizga yetkazish hozirgi davrda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Sodir etilgan jinoyat uchun qo'llaniladigan jazolar og'ir oqibatlar keltirib chiqarishiga yo'l qo'ymaslik uchun jinoyat qonunchiligini fuqarolarimizga to'g'ri yetkazilishini yo'lga qo'yishimiz zarur. Qonunchilik asoslarini yosh avlod ongiga singdirish uchun pedagog mutaxassislar tayyorlanadigan ta'lim muassasalarida ushbu huquq sohasi samarali o'qitilishini ta'minlashimiz talab etiladi.

Pedagogik ta'limning 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabalari uchun jinoyat huquqi bo'yicha esa darslik va

qo'llanmalar ayni paytlarda yetarli emas. Shu kungacha jinoyat huquqi bo'yicha huquqshunos olimlardan M.Usmonaliev, M.Rustamboev, Y.Karaketov, F.Tohirov, B.Ahrorov, To'xtamurod Rustam, S.Saxaddinov, D.Kenjaboev va boshqalar tomonidan oliy yuridik ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun darslik va qo'llanmalar tayyorlangan. Ularning mehnatlarini e'tirof etgan holda shuni qo'shimcha qilamizki, jinoyat huquqiga oid darslik va qo'llanmalar yuridik ta'lim muassasalarida keng o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, ushbu o'quv predmetini o'rganadigan bo'lajak pedagoglar uchun ayrim muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shu bois pedagogik ta'lim muassasalarida mazkur fanni soddalashtirilgan holga keltirib, talabalar va magistr'larga taqdim etishni zarur deb topdik.

Qo'llanmada huquqshunos olimlarimizning asarlaridagi ilmiy-nazariy qarashlardan, shuningdek Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Oliy sud qarorlari va boshqa manbalardan foydalanilgan.

Qo'llanmaning maqsadi talabalarning jinoyat qonunchiligi bo'yicha nazariy bilimlarini kengaytirishdan iborat. Shuningdek, hayotda uchraydigan voqeliklar yordamida amaliy ko'nikmalar rivojlantirilishiga harakat qilingan.

1 BOB. JINOYAT HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining predmeti va vazifalari

Jinoyat huquqi – O'zbekiston milliy huquq tizimining mustaqil tarmog'i bo'lib, qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish, javobgarlik va jazoni belgilash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i hisoblanadi. Ushbu huquq sohasi haqida berilgan ta'rif va tavsiflar anchagina ko'p bo'lib, ular jinoyat huquqining mazmun-mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Jinoyat huquqi to'g'risida bildirilgan qarashlar ham xilma-xil bo'lib, jumladan, M.Rustamboevning fikricha, jinoyat huquqi tushunchasi qonunchilik sohasi, huquq tarmog'i, yuridik fan va o'quv tarmog'i ma'nolarida qo'llaniladi ¹. Uning har qanday ma'nodagi shaklini o'rganish jinoyat huquqi fanini yanada yaxshiroq anglash uchun ahamiyatlidir.

Ushbu huquq sohasi umumiy va maxsus qismlarga ajratiladi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismi jinoyat huquqining vazifa va printsiplari, uning amal qilish doirasi, javobgarlik asoslari, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari o'z ichiga oluvchi huquqiy munosabatlarni qamrab oladi. Ushbu qism o'zida nazariy tushunchalarni aks ettiradi hamda Maxsus qismda bayon etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Jinoyat huquqi o'z predmeti, vazifalari, o'rganish metodlari, printsiplariga ega. Har qanday fan o'z o'rganish doirasiga ega bo'lgani kabi jinoyat huquqi ham yuridik fan sifatida ijtimoiy munosabatlar doirasida qaror topadi. Fanning predmeti jinoyat huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Mazkur munosabatlar shaxsga, tinchlik va xavfsizlikka, mulkchilikka, atrof muhitga, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga hamda harbiy xizmatni o'tash

¹ Rustamboev M. Jinoyat huquqi. Darslik. –T.: ILM ZIYO, 2006. –18 bet.

tartibiga qarshi qaratilgan tajovuzlar natijasida kelib chiqadi. Bu jihatdan jinoyat huquqi ma'muriy huquqbuzarlik sohasining predmetiga o'xshash munosabatlarni qamrab olayotgandek taassurot paydo bo'ladi. Haqiqatdan har ikki soha o'rtasida o'xshashliklar mavjud, lekin jinoyat huquqi tufayli kelib chiqadigan oqibatlarining og'irligi sohani ajratib turadi.

Jinoyat huquqi sohasi predmetining o'ziga xos jihati shundan iboratki, Jinoyat kodeksiga kiritilmagan ijtimoiy munosabatlar fanning predmeti hisoblanmaydi. Fan faqat Jinoyat kodeksi bilan chegaralangan munosabatlarga ta'sir o'tkazadi. Jinoyat kodeksida ko'zda tutilmagan ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilishi uchun jinoiy jazo berilishi ta'qiqlanadi. Bundan kelib chiqadiki, jinoyat huquqi fani uchun predmetning asosi Jinoyat kodeksining huquqiy normalarida aks etadi.

Jinoiy huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismiga kiradi. Bu munosabatlar salbiy yoki ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lgan shaxslar o'z xatti-harakati yoki harakatsizligi natijasida kelib chiqqan ijtimoiy og'ir oqibat uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Haqli ravishda jinoyatning og'ir-yengilligiga qarab jinoiy jazo beriladi. Bu uning salbiy xususiyatlarini ifodalaydi.

Jinoyat huquqi faqat jazo berish maqsadlarini ko'zlamaydi. Uning rag'batlantiruvchi, ya'ni ijobiy xususiyatlari ham mavjud. Agar jinoyat sodir etilishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy ravishda qaytgan, jinoyat ochilishiga yordam bergan, aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan hamda javobgarlik va jazodan ozod qilish, shartli hukm qilish, muddatidan oldin jazodan ozod qilish bilan bog'liq holatlarda ushbu xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shu bois jinoyat huquqi predmeti rag'batlantiruvchi xususiyatga ega ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Jinoyat huquqi tartibga solish va muhofaza qilish uslublariga ega.

Fanning vazifalari Jinoyat kodeksining 2-moddasida bayon etilgan. Vazifalarni quyidagi qismlarga ajratish mumkin, ya'ni: shaxs, uning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik va insoniyat

xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash; jinoyatlarning oldini olish; fuqarolarni konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash.

Jinoyat huquqining asosiy vazifasi ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadlarida jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat. Kurash jarayonida ijtimoiy munosabatlar himoya qilinadi. Olib borilgan protsessual harakatlar natijasida jinoyatchining jinoiy faoliyatiga chek qo'yiladi. Unga jazo va boshqa ta'sir chorasining qo'llanilishi jamiyat a'zolariga ruhiy ta'sir o'tkazadi. Bunda ozodlikdan mahrum qilish jazosining ahamiyati sezilarli ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyat uchun jazoning muqarrarligi huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan fuqarolarni es-hushini yig'ib olishga majbur qiladi. Ularda Konstitutsiya va qonunlarimizga nisbatan itoatkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur vazifalar ko'proq umumiy xarakter kasb etadi.

JKning 2-moddasining ikkinchi qismida maxsus xususiyatga ega vazifalar ham o'rin olgan. Unda umumiy xususiyatli vazifalarni bajarish uchun Jinoyat kodeksida sodir etilgan qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligi, ularni jinoyat printsiplariga mos kelish-kelmaslik darajasi va uning uchun belgilanadigan javobgarlik asoslari aniqlanadi. Bunda qilmishni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan jazo va boshqa ta'sir choralari belgilanadi. Tasavvur hosil qilish uchun biror faktni olamiz. Aytaylik, 19 yoshga to'lgan A.ismli fuqaro dehqon bozoridagi B. ismli tadbirkorga tegishli kiyim-kechak do'koniga o'g'rilikka kirdi va u yerdan qiymati 8 million so'mlik tovarlarni yashirincha talon-taroj qilib, uni o'z ehtiyojlari uchun ishlatib yubordi. Mazkur holatni jinoyat sifatida e'tirof etish uchun jinoyat huquqi qilmishning tarkibini tashkil qiluvchi o'zganing mulkni talon-taroj qilinishi, harakat bilan sodir etilganligi, sub'ektning qonun bilan belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, qasddan sodir etilganligi bilan bog'liq vaziyatni oydinlashtiradi. Sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining barcha alomatlarining mavjudligi shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmasligi mumkin. Xususan, qo'shnining bog'idan bitta olmaning o'g'irlanishi A.ismli shaxsning do'konni o'marganidan farq qiladi. Har ikki holatda ham JKning 169-moddasida ko'zda tutilgan alomatlar mavjud, lekin ularning ijtimoiy xavfliligi

turlichadir. Ularga jazo berilishi jinoyat printsiplari vositasida aniqlanadi. Qilmishning xavflilik darajasi jazo yoki boshqa ta'sir chorasi qo'llanishini ham belgilaydi.

Jinoyat huquqining vazifalari bular bilan tugab qolmaydi. Zotan, mazkur huquq sohasi fan sifatida jinoyat, javobgarlik, jazo asoslarini o'rganish, jinoyatchilikning oldini olish, jamiyat a'zolarini tarbiyalash bilan cheklanib qolmasdan, tadqiqotchi, o'quvchi, talaba va oddiy qiziquvchilarga o'rgatish vazifalarini ham bajaradi.

Jinoyat huquqining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Yuridik fanlar o'z ahamiyati jihatidan ijtimoiy fanlar orasida ajralib turadi. Ularning har biri huquqiy normalar vositasida ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini tartibga soladi.

Jinoyat huquqi huquqshunoslikning muhim tarmog'i hisoblanib, jinoyat va jinoyatchilik sohasining umumiy xususiyatlari, belgilari, normalari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Jinoyat huquqi o'z normalari, institutlari bilan jinoyat huquqi sub'ektlarining xatti-harakati va harakatsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu huquq Jinoyat kodeksi normalarida aks etgan harakat yoki harakatsizliklarni amalga oshirishni ta'qiqlaydi.

Topshiriq

O'zbekiston fuqarosi ishlash uchun Rossiya Federatsiyasiga borib, Tojikiston fuqarolari bilan bir joyda bo'lib turgan vaqtida Turkiya davlatida turib, odamlarni jihatga da'vat qilayotgan millati o'zbek, Qirg'iziston fuqaroligiga ega bo'lgan, shartli ismi Abdulloh nomli kishi bilan tojikistonliklar orqali internet vositasida tanishdi. Uning telefon orqali jo'natgan ekstremistik g'oyalar aks etgan elektron fayllarini Qozog'istondagi tanishlariga ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natib turdi.

- Uning qilmishi qaysi davlat qonunchiligi bilan kvalifikatsiyalanadi?

Jinoyat huquqining normalari shakllanishiga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro standartlar va boshqa normativ hujjatlarda aks etgan me'yorlar ta'sir ko'rsatadi. Normativ hujjatlar Jinoyat kodeksida belgilangan

sanktsiyalarni bevosita o'zida aks ettirmaydi. Ular Jinoyat kodeksi bilan tayinlanadigan sanktsiyaning gipotezasi va dispozitsiyasiga taalluqli me'yorlarni o'zida saqlaydi. Jumladan, JKning 226-moddasi "Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish" deb nomlanadi, ammo ushbu nazorat qoidalari nimalardan iborat ekanligi kodeksda bayon etilmaydi. Bu kabi misollarni JKning 144, 146, 148, 174, 200, 204 va boshqa normalari dispozitsiyasida ham ko'rishimiz mumkin.

Jinoyat huquqining normalari ko'proq imperativ xususiyatga ega bo'lib, sub'ektlarning xohish-irodasidan ustun turadi. Yarashilganlik munosabati bilan javobgarlik va jazodan ozod qilish imkonini beruvchi moddalarda tomonlarning tengligini ta'minlashga yordam beruvchi me'yorlar ham o'rnatilgan.

Huquqning ma'naviyat, axloq, din, ruhiyat tushunchalari bilan o'zaro aloqadorligi fonida jinoyat huquqi ham boshqa fanlar bilan aloqadordir. Xususan, qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish uchun shaxsning aqli rasoligi, jinoyatni sodir etishda qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi aybning mavjudligi jinoyatning sodir etilishiga ruhiy munosabat masalalarini hal etishda, shuningdek, qilmishning jamiyatga nisbatan xavflilik darajasini aniqlashda ijtimoiy fanlar yordam beradi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda tergovchi, prokuror va sud'yaga ushbu fan sohasidagi bilimlar qo'l keladi. Shuningdek, jinoyat-protsessual huquqi jarayonga ekspert va mutaxassisni ham jalb etishning huquqiy asoslarini belgilagan. Ayblanuvchilar jinoiy javobgarlikdan qochish yoki jazoni yengillashuviga umid qilib tergov jarayonida turli vajlarni keltirishadi. Shulardan ayrimlarida o'z xatti-harakatini boshqara olmay qolgan holatga (fanda affekt holat deyiladi) tushib qolgani sababli jinoyatni qanday sodir etganligini eslay olmasligini aytishadi. Ba'zan haqorat, kamsitish, ruhiy yoki jismoniy tazyiq o'tkazilganligi tufayli jinoyatga qo'l urganliklarini ta'kidlashadi. Umuman bunday vaziyatga tushib qolgan har qanday shaxs ham nimadir qilib bo'lsada, javobgarlik va jazodan omon chiqishga harakat qilishi tabiiy hol, albatta. Bunday holatlarda aniq xulosalarga kelish uchun psixologiya, etika, sotsiologiya kabi fanlarning qonuniyatlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Arxeologiya, numizmatika (tangashunoslik), lingvistika singari fanlarga oid bilimlar talab etiladigan vaziyatlar ham jinoyat

huquqi doirasida paydo bo'lishi mumkin. Ashyoning madaniy qiymati, tangalarning qadimiyligi, ishlatilgan so'zlarning salbiy mazmuni kabi masalalarda jinoyat huquqi mazkur fanlarga bog'lanishga majburdir.

Jinoyat huquqining boshqa fanlar bilan aloqadorligi, nafaqat ijtimoiy, balki tabiiy fanlar doirasida ham mavjud bo'ladi. Moddalarning tarkibi, xususiyatlari, ularning zararlilik darajasi, o'simliklarning biologik xossalari, inson fiziologiyasi, hududning sanitariya holati, fizika va mexanika qonuniyatlari, portlash kuchi kabi komponentlar ham borki, ularsiz jinoyatni aniqlash mumkin bo'lmay qoladi.

Buxgalteriya, audit bilan bog'liq, ba'zan rasmning originalligi, taqinchoqning qalbakiligi singari jinoiy ish uchun ahamiyatli masalalar chiqadiki, bunda boshqa fanlarga ehtiyoj ortib ketadi.

Jinoyat huquqining geografiyaga aloqador xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu JKning ikkinchi "Kodeksning amal qilish doirasi" bobidan o'rin olgan moddalar doirasida ko'zga tashlanadi. Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikning o'rni jinoyatni kvalifikatsiya qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat huquqi qilmishni jinoyat ekanligini aniqlash, javobgarlikka tortish, jazo belgilash, javobgarlik va jazodan ozod qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlarni o'rganadi. Boshqa yuridik fanlardan o'zining ta'sir choralari va jazolarining og'irligi bilan alohida ajralib turadi.

Jinoyat huquqi dialektika, analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, qiyoslash kabi uslublardan foydalanishi jihatdan boshqa yuridik fanlar bilan umumiylikka ega. Davlat va huquq nazariyasi jinoyat huquqi o'rganadigan nazariy masalalarni tadqiq etadi. Jumladan, huquqiy munosabat, huquq normasi, javobgarlik, jazo kabi tushunchalarning nazariy asoslari jinoyat huquqi manbalari yordamida o'rganilmaydi. Shuningdek, jinoyat huquqining maxsus qismidagi normalar davlat va huquq nazariyasining o'rganish ob'ektiga kirmaydi.

Konstitutsiyaviy huquq, oila huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi o'z tizimlariga ega bo'lib, ularda vakolat beruvchi normalar nisbatan ko'proqdir. Ushbu huquq sohalari huquq

sub'ektlariga huquq va erkinliklar beradi. Majburiyat yuklovchi va ta'qiqlovchi normalar mavjudligiga qaramay, ushbu huquq sohalari fuqarolar uchun jinoyat qonunchiligi darajasida og'ir oqibatlar keltirib chiqarmaydi. Ularda huquqiy munosabatlar taraflarning teng huquqliligiga asoslanadi. Mazkur sohaldagi huquq va erkinliklarga qarshi qaratilgan tajovuzlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lsa, jinoyat huquqi himoyalash funktsiyasini bajarishga kirishadi.

Yuridik fanlar tizimidagi javobgarlik intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik shakllariga bo'linadi. Shunga mutanosib ravishda intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy jazolar qo'llaniladi. Ular orasida jinoiy jazolar og'ir oqibat keltirib chiqarish darajasi bo'yicha boshqalaridan keskin farqlanadi.

Jinoyat huquqi boshqa yuridik fanlar uchun moddiy fan vazifasini ham bajaradi. Jumladan, jinoyat-protsessual huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminologiya, kriminalistika fanlari o'z asoslarini jinoyat huquqidan oladi. Jinoyat huquqining normalari ushbu huquq sohalarini shakllanishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, jinoyat huquqi ham mazkur fanlarsiz o'z mohiyatiga ega bo'lmaydi.

Jinoyat qonunining printsiplari

Printsip so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "asos" degan ma'noni anglatadi. Huquqshunoslik fanlari doirasida printsiplar huquqiy normalarning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilaydi. Qisqa qilib aytganda, printsiplar huquqiy normalarning mazmun-mohiyatini belgilovchi rahbariy g'oyalardir.

Huquq printsiplari huquqning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va harakatlanishining rahbariy g'oyasi, ibtido qoidasi, yetakchi mezon sifatida maydonga chiqadi¹. Huquq printsiplari huquq va ijtimoiy tizimga singib ketib, ular o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Buni tushunish uchun axloq va huquq munosabatlariga diqqatni qaratamiz.

Axloq jamiyat tomonidan vujudga keltirilgan xulq-atvor qoidalari hisoblanadi. U uzoq vaqtlar davomida jamiyatda amal qilgan urf-odatlar, an'analar

¹ Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.H.Boboev tahririda. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – B.215.

asosida shakllanadi hamda kishilar ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Axloqqa zid xatti-harakatlar uchun jamiyat kurashadi.

Huquq davlat organlari tomonidan vujudga keltiriladi, umummajburiy kuchga ega bo'ladi va davlat tomonidan qo'riqlanadi. Huquqning shakllanishida jamiyatda qaror topgan axloqiy munosabatlar ham o'z o'rniga ega. Shuningdek, huquqiy me'yorlar ishlab chiqilishida axloqiy qadriyatlar bilan birga mamlakatda yashovchi xalqlarning milliy o'ziga xosligi, mentaliteti, dini kabi omillar ham inobatga olinadi. Lekin axloqiy me'yorlar huquqiy normalar asosini belgilab beradi, deyish ham to'g'ri emas. Sabab bir davlat hududida axloq tamoyillari va qadriyatlari uning turli chekkalarida turlicha darajada amal qiladi.

Huquq va axloqning amal qilish chegaralarini belgilash mumkin bo'lsa, bunda axloqning ustunligini ko'ramiz. Huquq ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olish imkoniga ega emas.

Huquq printsiplari jamiyatning ma'naviy-axloqiy omillari bilan huquqiy me'yorlarining o'zaro muvofiqlashuviga xizmat qiladi. Printsiplar bunda bog'lovchi vazifasini o'taydi. Javobgarlik, jazo masalalarida muammoni jamiyat foydasiga o'zgartirish uchun asos vazifasini bajaradi.

Davlat va huquq nazariyasiga oid adabiyotlarda printsiplar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Ular qay yo'sinda tasniflanishidan qat'iy nazar, o'z mazmun-mohiyatini o'zgartirmaydi. Jinoyat huquqi printsiplari 4-10-moddalarida o'z aksini topgan.

Qonuniylik. Ushbu printsipl sodir etilgan qilmishning jinoyiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari Jinoyat kodeksi bilan belgilanishini o'zida ifoda etadi. Shuningdek, hech kim sudning hukmi bo'lmay turib, jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi. Jinoyat kodeksining 4-moddasida bayon etilgan ushbu qoidalar jinoyat huquqiy munosabatlarining faqat qonunga bo'ysunishini ifoda etadi. Qilmishni jinoyat deb e'tirof etish,

javobgarlikni belgilanishi, jazoning tayinlanishi bilan bog'liq barcha jarayonlar Jinoyat kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kodeksda nazarda tutilmagan qilmishlar jinoiy jazoga tartilish uchun asos bo'lmaydi. Qonuniylik printsipida aybsizlik prezumtsiyasi asoslari ham aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu printsip jinoyat qonunchiligi normalarini analogiya bo'yicha kvalifikatsiya qilinishiga yo'l qo'ymaydi.

Fuqarolarning qonun oldida tengligi. Ushbu printsip konstitutsiyaviy printsip sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etgan tamoyillariga ham mos keladi. Jinoyat qonunchiligi normalari mazkur printsip vositasida sodir etilgan qilmish uchun javobgarlik va jazo belgilanishida shaxsning millati, tili, irqi, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa me'yorlardan qat'iy nazar barchaning tengligini ifodalaydi.

Demokratizm. Jinoyat qonunining ushbu printsipti jinoyat sodir etgan shaxsni axloqiy tuzalish yo'lga kirishida jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki jamoalarning mavqeini oshirish maqsadlarini ko'zlaydi. Jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatchilarni tarbiyalash vazifalarini bajarishda ushbu organlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam beradi. Jamoalarning kafilligi jinoyatchilarga nisbatan sud tomonidan ularning tuzalish yo'lga kirishlari uchun jazo yoki huquqiy ta'sir choralari qo'llashda ahamiyatli bo'ladi.

Insonparvarlik. Har qanday qonun hujjati singari Jinoyat kodeksi ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ hujjatlar jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadlarini ko'zlamaydi. Hech kimni qiynoqqa solish, tazyiqqa duchor qilish, unga jismoniy yoki ruhiy azob berish mumkin emas. O'zbekistonda nafaqat Jinoyat kodeksi, balki barcha normativ hujjatlar ham ushbu printsipga asoslangan xususiyatli normalarga ega.

Odillik. Jinoyat kodeksining 8-moddasida belgilangan ushbu printsip ikki qoidadan iborat. Birinchi qismi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan

qo'llaniladigan jazo yoki ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jazo jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishini o'zida ifodalaydi. Ikkinchi qismida hech kimning aynan bitta jinoyati uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi bayon etiladi. Odillik printsipli qo'llaniladigan jazoning jinoyatchini axloqiy tuzalish yo'liga kirishi uchun yetarli bo'lishiga, uning aybiga yarasha jazo berilishiga asoslanadi.

Ayb uchun javobgarlik. Ayb ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ruhiy munosabatini aks ettiruvchi tushuncha hisoblanadi. Javobgarlik belgilanishi uchun shaxsning sodir etilgan qilmishni qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etgan bo'lishi kerak hamda bu dalillar vositasida isbotlanmog'i lozim. Ushbu printsipl jinoyat sodir etilishida qonun bilan belgilangan yoshga yetgan, aqli raso, o'z harakati yoki harakatsizligining xavflilik darajasini anglagan, xavfli oqibat kelib chiqishini oldindan ko'ra olgan va ongli ravishda uning kelib chiqishini istagan yoki yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan javobgarlik qo'llanilishini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur printsipl beparvolik va o'z-o'ziga ishonish oqibatida jinoyat sodir etilishiga sababchi bo'lgan shaxslarga ham taalluqlidir.

Javobgarlikning muqarrarligi. Printsipl sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishida jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan shaxs uchun javobgarlikka tortilish muqarrarligini belgilaydi. Javobgarlikning belgilanishi va jazoning qo'llanishi davlat va jamiyatda odil sudlov kafolatlanishining isboti bo'ladi. Shuningdek, jinoiy tajovuz oqibatida zarar ko'rgan ob'ekt uchun adolat tiklanadi.

Jinoyat huquqi tizimi

Jinoyat huquqi jinoiy huquqiy munosabatlarda amal qiladigan normalar va institutlar majmuidan iborat tizimni tashkil qiladi. Ushbu huquq normalari va institutlari Jinoyat kodeksida jamlangan. Shu o'rinda norma va institut tushunchalarining mohiyatini tushunib olishimiz zarur.

Norma lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "qoida", "namuna" ma'nolarini anglatadi. Davlat va huquq nazariyasida huquq normalari huquq tizimining yeng

quyi bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi. Huquq normasi – davlatning vakolatli organi tomonidan o'rnatiladigan, bajarilishi barcha uchun umummajburiy bo'lgan hamda davlat tomonidan qo'riqlanadigan xulq-atvor qoidasi hisoblanadi.

Topshiriq

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi arab mamlakatlaridan birida o'g'rilik qilganligi uchun qidiruvda bo'lgan. Turli yo'llar bilan bir amallab O'zbekistonga yetib kelgach, IIB xodimlari tomonidan qo'lga tushirilgan. Arab davlati aybloviga ko'ra, O'zbekistonda jinoiy javobgarlikka tortilib, uch yillik axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan. Arab davlati jazoning yengilligidan ranjib, aybdorning qo'lini kesishni talab qilgan va bunday bo'lmasa, diplomatik aloqalarni uzishni bayon etgan.

- O'zbekiston Respublikasi qanday yo'l tutishi kerak?

Huquq normalari o'zida ifodalangan xarakterga qarab vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va ta'qiqlovchi normalarga bo'linadi. Jinoyat huquqi normalarida ularning ta'qiqlovchi xarakteri ustunlik qiladi. Uning tarkibi uch element: gipoteza, dispozitsiya va sanktsiyadan tashkil topadi.

Gipoteza huquq normasining amal qilish doirasi, qoidaning kim tomonidan, qachon va qanday holatda bajarilishi bilan bog'liq chegaralarni belgilaydi. Masalan, JKning 17-moddasi o'zida gipotezani aks ettiradi. Ushbu moddada jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish yoshi belgilangan. Ushbu me'yorga ko'ra, JKning Maxsus qismidagi qoidalar shaxs belgilangan yoshga yetganidan so'ng amal qila boshlaydi.

Dispozitsiyada huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlari belgilanadi hamda unga rioya etish lozim bo'ladi. Dispozitsiya Jinoyat kodeksining Maxsus qismida to'rtta shaklda namoyon bo'ladi: oddiy, tasvirlov, havolaki va blanket dispozitsiyalar.

Oddiy dispozitsiya o'zida jinoyat nomini aks ettiradi. Bunda jinoyatning nomi uning butun mazmunini ochib berishi nazarda tutiladi. Buni oddiyroq anglash uchun JK Maxsus qismidagi moddaning sarlavhasi qabul qilinsa to'g'ri bo'ladi.

Tasvirlov dispozitsiya jinoyatning ta'rifini ifodalaydi. Bunda jinoyatning qanday harakat yoki harakatsizlikdan iboratligi va boshqa jihatlari namoyon

bo'ladi. Masalan, 169-moddani olaylik. O'g'rilik – sarlavhaning o'zi oddiy dispozitsiya. Uning mazmunini ochib beruvchi “O'g'rilik, ya'ni o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish” – tasvirlov dispozitsiyasi bo'ladi.

Qonunlarni ixchamlashtirish maqsadlarida **blanket dispozitsiyadan** foydalanish ko'zda tutiladi. Bunda jinoyatning belgilarini aniqlash uchun boshqa normativ hujjatlarga murojaat qilinadi. Masalan, “Er, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish” (JK 197-modda) jinoyatini olib ko'rsak, unda shartlar va talablar to'liq aks etmaydi. Balki sanksiya qo'llash uchun ekologiya sohasiga oid qonunlarga murojaat qilinadi.

Havolaki dispozitsiyada jinoyatning ob'ektiv tomonini aniqlash uchun boshqa normativ hujjatlarga emas, balki Jinoyat kodeksining boshqa moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga murojaat qilinadi. Jumladan, JK 108-moddasi “Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish” jinoyatiga bag'ishlangan bo'lib, badanga og'ir shikast yetkazish darajasi 104-moddada bayon etilgan dispozitsiyada aks etgan.

Jinoyat tufayli qo'llaniladigan jazo normaning sanksiya qismini tashkil etadi. **Sanksiya** dispozitsiyada nazarda tutilgan jinoyat uchun belgilangan jazo turi, miqdori va huquqiy ta'sir chorasini belgilaydi. Sanksiya asosida jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi belgilanadi.

Jinoyat huquqi tizimi norma va uning elementlaridan tashqari huquq institutlaridan ham iborat bo'ladi. Huquq instituti mazmun-mohiyati biri-biriga yaqin bo'lgan huquq normalari majmuini tashkil etadi. Jinoyat huquqida jinoyat qonunchiligi, javobgarlik, jazo, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, shaxsga qarshi jinoyatlar, tinchlik va xavfsizlik, mulkchilik, atrof-muhitga qarshi qaratilgan jinoyatlar kabi institutlar mavjud. Ushbu institutlar JKda bayon etilgan normalarni mohiyatiga ko'ra jamlash imkonini beradi.

Jinoyat huquqi tizimida JKning hudud va vaqt bo'yicha ta'sir etishi bilan bog'liq me'yorlar ham mavjud. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishi, uni amalga oshirishga suiqasd qilinishi va tamom bo'lishi O'zbekiston Respublikasi hududida

yoki ularning bir qismi mamlakatimizda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat O'zbekistonda sodir etilgan hisoblanadi. Agar jinoyat O'zbekistonga tegishli suv va havo transportida sodir etilib, u neytral hududdaligida ro'y bersa ham O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bo'yicha javobgarlik kelib chiqadi.

Javobgarlik va jazo masalalari jinoyat sodir etilgan vaqtdagi amalda bo'lgan qonun bilan hal qilinadi. Jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lgan shaxsning ahvolini yaxshilash maqsadida **qonunning orqaga qaytish kuchi** deb nomlanuvchi yengillik berish ko'zda tutilgan. Bunda shu narsa anglashiladiki, jinoyat sodir etilgan paytdagi qonunda yengilroq jazo ko'zda tutilib, ish tergov va sud qilinayotgan paytda JKga og'irlashtiruvchi sanksiyalar kiritilgan bo'lsa, jazo oldingi sanksiya bo'yicha berilishiga yo'l qo'yiladi. Masalan, S.ismli fuqaro JKning 188-moddasida nazarda tutilgan "Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati" olib borganligi uchun 2020 yil 3 may kuni javobgarlikka tortilgan, deb faraz qilaylik. Aynan shu paytda amalda bo'lgan jinoyat qonunchiligi bo'yicha jazoning miqdori maksimal holatda besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan cheklangan. Fuqaro 24 may kuni sudga jalb etildi. Bundan to'rt kun oldin ushbu modda sanksiyasiga o'zgartirish kiritilib, jazoning maksimal muddati 8 yilgacha uzaytirilgan bo'lsa, jazo 3 may kuni amalda bo'lgan sanksiya bo'yicha berilishi kerak. Chunki bu shaxsning ahvolini yengillashtirishga xizmat qiladi. Jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning ahvolini og'irlashtiradigan qonun ortga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Quyidagilar orasidan Jinoyat kodeksining asosiy vazifalaridan birini aniqlang
 - a) Jinoyatchilikning tugallanishiga erishish
 - b) Jinoyatlarning oldini olish
 - c) Aybdor shaxslarni jazolash
 - d) Odil sudlovni amalga oshirish
2. Jinoyat kodeksining printsiplariga kirmaydigan qatorni toping

- a) demokratizm
 - b) fuqarolarning qonun oldidi tengligi
 - c) odillik
 - d) shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish
3. Jinoyat kodeksining printsiplariga kiradigan qatorni toping
- a) Jinoyat ishlari yuritiladigan til
 - b) Ayb uchun javobgarlik
 - c) Jinoyat ishlari qo'zg'atishning muqarrarligi
 - d) Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi
4. Jinoiy jazolar qanday maqsadni ko'zlamaydi?
- a) Inson qadr-qimmatini kamsitish
 - b) Odil sudlovga ko'maklashish
 - c) Jinoyatchini axloqiy tarbiyalash
 - d) Qonun ustuvorligiga erishish
5. Huquq normasi nechta elementdan tashkil topadi?
- a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - c) 4 ta
 - d) 5 ta
6. Huquq normasining jazo va boshqa ta'sir choralarini o'zida aks ettiruvchi elementi nima deyiladi?
- a) Prekursor
 - b) Gipoteza
 - c) Sanktsiya
 - d) Dispozitsiya
7. Jinoyat kodeksining qaysi qismi jinoyat turlari va ular uchun belgilangan jazo choralaridan tashkil topadi?
- a) Kirish qismi
 - b) Umumiy qismi
 - c) Maxsus qismi

- d) Xulosa qismi
- 8. Qanday qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas?
 - a) Shaxsning ahvolini yaxshilaydigan
 - b) Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan
 - c) Jazoni kuchaytiradigan
 - d) Shaxs ahvolini yomonlashtiradigan
- 9. Huquq institutlari nimalardan tashkil topadi?
 - a) Huquq sohalaridan
 - b) Huquq tizimlaridan
 - c) Huquq normalaridan
 - d) Huquq gipotezalaridan
- 10. Jinoyat huquqiy fanlariga kirmaydigan qatorni ko'rsating
 - a) Viktimologiya
 - b) Kriminalistika
 - c) Kriminologiya
 - d) Jinoyat-ijroiya huquqi

Mavzu bo'yicha nazorat savollari


1. Jinoyat huquqining maqsad va vazifalarini ayting
2. Jinoyat kodeksi umumiy va maxsus qismlarining farqi nimada?
3. Printsipalar jinoyat huquqida qanday o'rin tutadi?
4. Jinoyat huquqining ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligini aytib bering.
5. Jinoyat huquqining yuridik fanlar bilan aloqadorligini tushuntirib bering
6. Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi nima maqsadda qo'llaniladi?
7. Jinoyat huquqi tizimi to'g'risida ma'lumot bering.
8. Jinoyatning vaqt bo'yicha amal qilishi qanday aniqlanadi?
9. Jinoyatning hudud bo'yicha aniqlanishi qanday amalga oshiriladi?
10. Jinoyat huquqining ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat?

2 BOB. JINOYAT VA JAVOBGARLIK ASOSLARI

Jinoyat tushunchasi va uning belgilari

Davlat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda barchaning amal qilishi majburiy bo'lgan qoidalarni yaratadi. Barchaning ushbu qoidalariga rioya qilishini nazorat qiladi. Inson ruhiyatining o'ziga xosligi shundaki, u ta'qiqlangan narsalarga ko'proq qiziqadi. Shu asosda jamiyatda qoidabuzarliklar, huquqiy tizimda huquqbuzarliklar kelib chiqadi. Huquqbuzarliklarni intizomiy, fuqaroviy va ma'muriy shakllari ijtimoiy munosabatlarga jinoyat darajasida zarar keltirmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida jinoyat tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "Ushbu kodeks bilan ta'qiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi". Berilgan ta'rifni tahlil qiladigan bo'lsak, huquqbuzarlikning belgilari mazkur ta'rifdan o'rin olganligini ko'ramiz. Davlat va huquq nazariyasida huquqbuzarlikning to'rt belgisi tilga olinadi. Ushbu belgilar huquqbuzarliklarning barcha shakli, jumladan jinoyat uchun ham xarakterlidir.



1-rasm. Jinoyatning belgilari

Jinoyatning belgilaridan birortasining bo'lmasligi uning jinoyat deb topishga yo'l qo'ymaydi. Zotan, bu belgilarning har biri sodir etilgan qilmishni jinoyat deb topish uchun ahamiyatlidir.

Jinoyatning birinchi belgisi qilmishning ijtimoiy xavfliligidir. Jinoyat kodeksida ijtimoiy xavfli qilmish tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Unga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Qilmishlarni jinoyat tushunchasi bilan aralashtirish mumkin emas.

Xususan, qilmish huquqbuzarlikning barcha elementlariga egaligidan tashqari, unda jinoyat tarkibining ob'ektiv va sub'ektiv alomatlari ham namoyon bo'lishi zarur. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyatni sodir etish usuli, joyi, vaqti, yetkazilgan zararining miqdori, aybning darajasi, jamiyatga o'tkazadigan ta'siri singari holatlarga bog'liq bo'ladi.

Jinoyat huquqi nazariy qarashlarida jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xavflilik xususiyatlari bir-biridan ajratiladi. Xususan, uning xavflilik xususiyati jinoyatning sifatini, ijtimoiy xavflilik darajasi miqdor ko'rsatkichlarini anglatadi. Qilmishda ijtimoiy xavflilik formal belgilarining mavjudligi uning jinoyat sifatida e'tirof etish uchun yetarli emas. JKning 36-moddasida jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lgan, ammo kam ahamiyatli, ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmasligi haqidagi qoida mavjud. Qilmishning kam ahamiyatliligini aniqlash uchun yetkazilgan zarar va zarar yetkazishning real xavfi inobatga olinadi. Agar tergov yoki sud jarayonida qilmish kam ahamiyatli deb topilsa, jarayon tugatilishi, jinoiy ish yopilishi yoki boshqa yo'sindagi protsessual jarayonda davom ettirilishi kerak. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi belgisi jinoyatni boshqa huquqbuzarlikdan farqlovchi unsur hisoblanadi.

Huquqqa xiloflilik – jinoyatlarning ikkinchi belgisi. Ba'zan yuridik adabiyotlarda "huquqqa xiloflilik" atamasi o'rniga "qonunga xiloflilik" atamasi ham uchraydi. Qonunga xiloflilik huquqbuzarlikni faqat qonunga bog'lab qo'yishga olib keladi. Bunda farmon, qaror, ustav, nizom va boshqa qonunosti hujjatlarida ifodalangan normalarning ahamiyati inobatga olinmay qoladi. Shuning uchun "huquqqa xiloflilik" atamasining ishlatilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Huquqqa xiloflilik qilmishning jinoyat qonunchiligi bilan ta'qiqlanganligini ifodalaydi. Ushbu belgi jinoyatning ijtimoiy xavflilik, aybning mavjudligi va jazoga sazovorlik belgilarini o'zaro uyg'unlashtiradi. Huquqqa xiloflilik jinoyat huquqida analogiyaning qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi.

Fuqarolarning xatti-harakati har doim ham jinoyat deb topilmasligi mumkin. Bunda jinoyat ob'ektlariga yetkazilgan zarardan kelib chiqib, davlat Jinoyat

kodeksini tuzadi hamda unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi. Ijtimoiy xavfli qilmish kodeksga kiritilgandan boshlab "jinoyat" maqomiga ega bo'ladi va huquqqa xiloflilik holati kelib chiqadi.

Jinoiy qilmish vaqt o'tgan sari o'z ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi mumkin. Shuningdek, kodeksga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, jinoyat dekriminallashtirilishi mumkin. Bunday hollarda huquqqa xiloflilik ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni qilmish jinoyat deb topilmaydi.

Ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflilik qilmishning jinoiyligi va jinoiy javobgarlik asoslarini belgilaydi. Bunda aybning mavjudligi belgisi ham ishtirok etadi. Mazkur belgi jinoyat tushunchasiga berilgan ta'rifda ham tilga olinadi.

Ayb – jinoyat sodir etuvchi shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatiga bo'lgan ruhiy munosabati hisoblanadi. Jinoyat qonunchiligida "Aybsiz holda zarar yetkazish" (24-modda) normasi mavjud. U shaxsning o'z qilmishini ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan yoki ijtimoiy xavfli oqibatlarga ko'zi yetmagan va ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan holatda zarar yetkazsa, aybsiz holatda zarar yetkazgan deb topish asoslarini belgilaydi.

Topshiriq

Tojikiston fuqarosi 300 gramm narkotik moddani Dushanbe-Moskva yo'nalishidagi poezdda O'zbekiston va Qozog'iston orqali Rossiya davlatiga olib o'tdi. Rossiyada jinoyati fosh bo'lgach, u bir amallab huquqni himoya qiluvchi organlardan qochib qoldi. Tojikistonga poezd orqali qaytayotganda, Qozog'istonda Rossiyadan tarqatilgan qidiruv bo'yicha qo'lga tushirildi. Jinoyatni sodir etgan shaxsni berishni Rossiya va Tojikiston Qozog'istondan talab qilyapti.

- Jinoyatchining qilmishini kvalifikatsiya qiling va qaysi davlatda jazolanishini tushuntiring.

Aybning bor-yo'qligini aniqlash uchun sodir etilgan jinoyatda huquqbuzarning qasd yoki ehtiyotsizlikda ifodalanuvchi munosabatini aniqlash talab etiladi. Ushbu ruhiy munosabat to'g'ri qasd, egri qasd, o'z-o'ziga ishonish va

beparvolik shakllarida bo'ladi. Sodir etilgan jinoyatda mazkur shakllaridan birontasining mavjud emasligi shaxsni javobgarlikka tortishdan ozod qiladi.

“Jazoga sazovorlik” jinoyatning to'rtinchi belgisi hisoblanadi. Jazoga sazovorlik sodir etilgan qilmish uchun aybdorga nisbatan sud hukmi orqali davlat majburlov chorasini qo'llashni anglatadi. Unutmaslik kerakki, jazoga sazovorlik uni qo'llashning majburiyligini belgilamaydi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi qator moddalar qilmishda jinoyat belgilari bo'lsa ham jazo qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi. Buni JKning 69-76-moddalari misolida ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tarkibida yuqoridagi belgilardan birontasi mavjud bo'lmasa, u jinoyat sifatida e'tirof etilmaydi.

Jinoyatlar tasnifi va jinoyatchilik

Jinoyatlarni tasniflash xilma-xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. Ko'pincha huquqshunoslar jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tasniflashni tavsiya etishadi. Ushbu mezonlar asosida jinoyatlar:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar;
- b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar;
- s) og'ir jinoyatlar;
- d) o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Ushbu jinoyatlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda **uch yildan ko'p bo'lmagan muddat**ga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga tortilish nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik tufayli sodir etilib, qonunda **besh yildan ko'p bo'lmagan muddat**ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda **uch yildan ortiq**, lekin **besh yildan ko'p bo'lmagan muddat**ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir

etilib, **besht yildan ortiq muddat**ga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda **besht yildan ortiq**, lekin **o'n yildan ko'p bo'lmagan muddat**ga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda **o'n yildan ortiq** muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tasniflash javobgarlik va jazodan ozod qilish, shartli hukm qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, amnistiya aktini qo'llash kabi masalalarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoyatlarni tasniflashga uning ob'ekti ham asos bo'ladi. Jinoyat kodeksining Maxsus qismi jinoyatlarni ob'ektiga ko'ra guruhlariga ajratadi. O'xshashligi jihatidan bir-biriga yaqin guruhlar bo'limlarga taqsimlangan. Shu asosda ularni quyidagilarga ajratamiz:

- shaxsga qarshi jinoyatlar;
- tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar;
- iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar;
- ekologiya sohasidagi jinoyatlar;
- hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlari faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar;
- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar;
- harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

Jinoyatlarni ob'ektiga ko'ra tasniflash ularni Maxsus qismdan topishni osonlashtiradi hamda bir-biriga o'xshash jinoyatlarni farqlash uchun vaqtdan yutishga yordam beradi. Masalan, JKning 253-moddasidagi "Radioaktiv materiallardan foydalanish qoidalarini buzish" va 254-moddadagi "Radioaktiv materiallardan qonunga xilof ravishda foydalanish" jinoyatlarining biri

ikkinchisiga o'xshab ketadi. Ularni kodeksga yonma-yon joylashtirish ulardagi o'zaro farqlarni ajratish jarayonini tezlashtiradi.

Jinoyatlarni tasniflanishi jazo tayinlashning asosiy mezonini bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, jinoyatlarni retsdiv jinoyat, xavfli retsdiv jinoyat va shaxsni o'ta xavfli retsdivist deb topish uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Jinoyat va jinoyatchilik tushunchalari adabiyotlarda ba'zan aralashtirib yuboriladi. Xolbuki, bu ikki tushuncha o'zaro farqlanishi bilan birga, bir-biridan boshqa fanlar doirasida o'rganiladi. Jinoyat masalasi jinoyat huquqi fanining predmetiga kiradi. Jinoyatchilik kriminologiya fanining o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Kriminologiya umumiy va maxsus qismlarga bo'lingan fandır. Uning umumiy qismida jinoyatchilik, jinoyatchi shaxs, jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitlar, jinoyatchilikka qarshi kurash va kriminologiyaning tarixi o'rganiladi. Maxsus qismida jinoyatlarning turlari, jinoyatchilik va jinoyatchilarga tavsif beriladi.

Jinoyat huquqi nazariyasi kriminologiyani yuridik tushunchalar bilan boyitadi. Kriminologiya jinoyatchilik darajasi, uning o'sish dinamikasi va boshqa yo'nalishlar bo'yicha prognozlar beradi. Bu asosda Jinoyat kodeksida jazolarning og'ir yoki yengillashuvi, jinoyatlarni dekriminallashtirish yoxud yangi jinoyat turlarining kiritilishi yuz beradi. Jinoyatlarning dekriminallashtirish ularni jinoyatlar toifasidan chiqarilib, huquqbuzarlikning boshqa toifasiga o'tkazilishi jarayoni bo'ladi.

Jinoyat – jazoga sazovor ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni aybli sodir etishdir. Jinoyatchilik – muayyan bir davlat yoki hududda ma'lum bir vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlar yig'indisidir.

Kriminologiyada jinoyatchining shaxsi, oilaviy ahvoli, moddiy ta'minlanganlik darajasi, turar joyi, uning ma'naviy va ruhiy sifatlari, o'rab turgan ijtimoiy muhit va boshqa komponentlar o'rganiladi. Shuningdek, jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, jinoyatchining shaxsiy sifatlari, jinoyat sodir etilishiga olib kelgan vaziyat hamda jinoyatchilikka qarshi olib boriladigan profilaktik chora-

tadbirlar fanning o'rganish ob'ektiga kiradi. Viktimologiya ham shular jumlasidan bo'lib, u kriminologiyaning mustaqil yo'nalishi hisoblanadi. Viktim xulq ehtiyotsizlik natijasi hisoblanadi va jabrlanuvchining o'ziga zarar yetkazilishiga olib keladi.

Jinoyat huquqi jinoyatlarning moddiy holatni o'rganadi va jinoyatchilikning kelib chiqish asoslari hamda rivojlanish qonuniyatlari bilan shug'ullanmaydi.

Jinoyatlarning boshqa huquqbuzarliklardan farqi

Huquqbuzarlik holatlari turli-tuman bo'lib, ular tartibga solinuvchi huquq sohasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Huquq sohalari xilma-xil bo'lib, ularning har biri ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir yo'nalishini huquqiy tartibga soladi. Jumladan, jinoyat, fuqarolik, mehnat, oila, moliya, soliq, tadbirkorlik, yer, byudjet va boshqa sohalarining har biri milliy huquq tizimimizda mustahkam o'ringa ega. Sohalar yordamida o'rnatilgan normalar barchaning unga rioya qilishini talab qiladi. Huquqiy normalarning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi buzilishi huquqbuzarlik faktini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy hujjatlardagi normalar vakolat beruvchi, majburiyat yuklovchi va ta'qiqlovchi xususiyatlarga ega bo'ladi. Vakolat beruvchi va majburiyat yuklovchi normalardan iborat hujjatlarning barchasi ham ta'qiqlovchi normalarni jamlamasligi mumkin. Buning ikki sababi bor, birinchidan amalda bo'lgan qonun hujjatlarining o'zi 500 dan ortiq bo'lib, Prezident Farmonlari, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlarining ham miqdori salmoqli raqamlarni tashkil qiladi. Uning har biri uchun sanksiyalangan normalarni joylashtirish hujjat hajmini ortiqcha kengayishini keltirib chiqaradi. Bu hujjatlardagi jazolarning ziddiyatlarini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, javobgarlikka tortish va jazo qo'llash tizimida ishlovchi organ xodimlarining ishlash tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois huquqbuzarliklar, javobgarliklar va jazo bilan bog'liq normalarni o'zaro muvofiqlashtirgan holda tartiblashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqbuzarliklarni intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy turlariga ajratadi. Intizomiy huquqbuzarlik mehnat sohasida, shuningdek davlat va xizmat vazifasini bajarish jarayonida o'rnatilgan tartib-qoidalarni buzilishi natijasida kelib chiqadi. Mehnat kodeksida intizomiy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazolar bilan bog'liq huquqiy me'yorlar o'rnatilgan. Kodeksning 181-moddasida xodim mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazolarni qo'llashi mumkinligi belgilangan:

- 1) hayfsan;
- 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizi (ayrim hollarda ellik foizi)dan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima;
- 3) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy huquqbuzarliklar uchun jazolar xodim ishlayotgan korxona, tashkilot va muassasa rahbari tomonidan qo'llanishi mumkin. Harbiy qismda yoki jazoni ijro etish muassasasida intizom buzilgan deb hisoblanganda, shu qism yoki muassasa rahbari jazoni qo'llash masalasini hal qiladi.

Fuqaroviy huquqbuzarliklar mulkiy, shaxsiy va nomulkiy shaxsiy munosabatlar buzilishidan kelib chiqadi. Fuqaroviy huquqbuzarliklar uchun huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquq buzilishi harakatlarini oldini olish, bitim yoki hujjatni haqiqiy emas deb topish, burchni aslicha bajarishga majbur qilish, zararni undirish, neustoyka (jarima yoki penya) undirish, ma'naviy ziyonni qoplash, huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish hamda qonunda ko'rsatilgan boshqa choralarni qo'llash amaliyoti ko'zda tutiladi. Jarima va zararni qoplash jazo sifatida qo'llaniladi. Fuqaroviy huquqbuzarliklar uchun sanksiyalarni sud va boshqa organlar qo'llashlari mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik boshqa huquqbuzarliklarga qaraganda jinoyat bilan bog'liq holatlarga yaqin turadi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidgi kodeksning 10-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat

tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Ma'muriy huquq boshqaruv munosabatlarini tartibga soluvchi huquq sohasi bo'lib, ma'muriy sohaga qarshi qaratilgan tajovuz ma'muriy javobgarlik bilan birga, ayrim hollarda jinoiy javobgarlikni ham keltirib chiqaradi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazo aybdorni tuzalish yo'liga kirishi uchun jinoiy jazo qo'llanilishi uchun bosqich vazifasini ham o'tashi mumkin. Jumladan, Jinoyat kodeksida belgilangan qasddan badanga yengil shikast yetkazish (109-modda), voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (122-modda), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (123-modda), tilanchilik qilish (127¹-modda), tuhmat (139-modda), haqorat qilish (140-modda) kabi jinoyatlar uchun avval ma'muriy jazo berilganligi ahamiyatga ega bo'ladi.

Topshiriq

O'zbekiston fuqarosi ishlash uchun Rossiya Federatsiyasiga borib, Tojikiston fuqarolari bilan bir joyda bo'lib turgan vaqtida Turkiya davlatida turib, odamlarni jihodga da'vat qilayotgan millati o'zbek, Qirg'iziston fuqaroligiga ega bo'lgan, shartli ismi Abdulloh nomli kishi bilan tojikistonliklar orqali internet vositasida tanishdi. Uning telefon orqali jo'natgan ekstremistik g'oyalar aks etgan elektron fayllarini Qozog'istondagi tanishlariga ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natib turdi.

- Uning qilmishi qaysi davlat qonunchiligi bilan kvalifikatsiyalanadi?

Huquq nazariyasi jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan o'z ob'ekti, ijtimoiy xavflilik darajasi, huquqqa xiloflilik shakli va yetkazilgan zarar miqdorini asosiy farq sifatida tavsiya etadi.

Huquqbuzarlikning har qanday shakli davlat, jamiyat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazadi. Yetkazilgan zarar miqdori, ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyatda yuqori bo'ladi.


Huquqbuzarliklarning boshqa turlari "sudlanganlik" huquqiy oqibatini keltirib chiqarmaydi. Jinoyatning sodir etilib, jazodan so'ng qaytadan jinoyat sodir

etilishi retsidiv holatlarni keltirib chiqaradi. Jazodan keyin uni qaytadan sodir etish jazoning og'irlashuviga sababchi bo'lishi mumkin.

Jinoyatning yana bir xususiyati shundaki, jinoyat uchun jazolar faqat jinoiy ishlar bo'yicha sudlar tomonidan qo'llaniladi. Jinoyat huquqi normalari buzilishi bilan birga intizomiy, fuqaroviy va ma'muriy huquqbuzarliklar ham sodir etilsa, ish jinoiy sudlarda ko'riladi.

Jinoiy javobgarlik tushunchasi va asoslari

Huquqbuzarlikning jinoyat shakli jinoiy javobgarlik kelib chiqishiga olib keladi. Huquq nazariyasi huquqbuzarlik, javobgarlik va jazoni quyidagi ketma-ketlikda qo'yadi.



2-rasm. Huquqbuzarlik, javobgarlik va jazo shakllari

Javobgarlik tajovuz tufayli kelib chiqqan zararni bartaraf etish maqsadlarida qo'llaniladigan oqibatdir. Unga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan: "Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir".

Javobgarlikning dastlabki talabi huquqbuzarlikning sodir etilishida namoyon bo'ladi. Sodir etilgan huquqbuzarlikda jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgandagina jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Javobgarlikning yakuni sud tomonidan hukm, jazo, boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishidir.

Davlat tomonidan jinoiy javobgarlikni o'rnatilish maqsadlari ijtimoiy adolatni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda namoyon bo'ladi. Javobgarlik yuridik fakt asosida vujudga keladi. U jinoyat qonunchiligi bilan

qo'riqlanadigan normalarga zarar yetkazilishi orqali yuzaga keladi. Bu o'z navbatida jinoiy huquqiy munosabatni shakllantiradi.

Jinoyat kodeksida jazolardan tashqari majburlov choralari ham belgilangan bo'lib, u 88-moddada voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari va 93-moddadagi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari shakllarida aks etgan.

Jinoiy javobgarlik jinoyatni sodir etgan shaxsning xulq-atvori uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasini hisoblanadi.

Jinoiy huquqiy munosabatlarning bir tomonida davlat organi, ikkinchi tomonida jinoyatni sodir etgan shaxs turadi. Mazkur munosabat davlatning jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan huquqiy ta'sir chorasini qo'llash imkoniyatini beradi.

Jinoiy javobgarlikning paydo bo'lishi masalasida huquqshunoslar tomonidan turlicha qarashlar bildirilgan. Qarashlarda javobgarlikning jinoyat sodir etilishidan keyin, ayrim hollarda shaxs ayblanuvchi sifatida topilishi, ba'zan gumon qilinuvchi aniqlangandan keyin paydo bo'lishi haqidagi g'oyalar yotadi. Agar javobgar shaxs topilmasa, javobgarlik masalasi ham ochiq qoladi.

Javobgarlik masalasida bitta umumiy fikr bo'lib, qilmish jazo deb topilmasa yoki jazo qo'llanilmasa javobgarlik tugatiladi. Shu bois javobgarlikning nisbiylik xususiyatini ham inobatga olish lozim.

Javobgarlikning shaxsga ta'siri shundan iboratki, sud tomonidan mulkiy, ma'naviy va erkinlik bo'yicha cheklashlariga chidashga majbur bo'linadi. Bu shaxsni tergovga jalb qilib, protsessual majburlov va ehtiyot choralari qo'llashdan boshlanadi. Ish sudda ko'rish bilan davom ettirilib, ayblov hukmini chiqarish, shartli hukm qilish yoki sudlanganlik shakllari bilan tugallanadi.

Sud sudlanuvchini aybsiz deb topishi, ya'ni oqlov hukmining chiqarilishi bilan javobgarlikning ahamiyati butunlay yo'qoladi.

Jinoyatning sodir etilishi javobgarlik vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoiy javobgarlik uchun asos bo'ladigan harakat yoki harakatsizlik Jinoyat kodeksining Maxsus qismida bayon etilgan normalar buzilishidan kelib chiqadi.

Jinoiy javobgarlikka tortish uchun jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lishi kerak. Bu alomatlar jinoyatning ob'ekti va ob'ektiv tomoni, jinoyatning sub'ekti va sub'ektiv tomonidan iborat bo'ladi.

Jinoiy javobgarlikning vujudga kelishi uning biror bir shaxsga tadbiq etilishiga to'la asos bo'lmaydi. Buning uchun sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi bo'lishi talab etiladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. O'ta og'ir jinoyatlar uchun belgilanadigan ozodlikdan mahrum qilishning yeng kam muddati qancha?
 - a) 7 yil
 - b) 10 yil
 - c) 15 yil
 - d) 5 yil
2. Ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etib, 6 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini olgan mahkumning qilmishi qaysi jinoyatga taalluqli?
 - a) Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat
 - b) O'ta og'ir jinoyat
 - c) Og'ir jinoyat
 - d) Uncha og'ir bo'lmagan jinoyat
3. Og'ir jinoyatlar uchun qancha ozodlikdan mahrum qilish jazosi beriladi?
 - a) 3 yildan 5 yilgacha
 - b) 5 yildan 10 yilgacha
 - c) 10 yildan 15 yilgacha
 - d) 10 yildan 20 yilgacha
4. Qasddan sodir etilib, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga qaysi jinoyatni sodir etganlar tortiladi?
 - a) Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat
 - b) Uncha og'ir bo'lmagan jinoyat
 - c) Og'ir jinoyat

- d) O'ta og'ir jinoyat
5. Javobgarlikning necha xil shakli mavjud?
- a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - c) 4 ta
 - d) 5 ta
6. Dekriminilizatsiya nimani anglatadi?
- a) Qilmishni jinoyat deb topish
 - b) Qilmishni jinoyatlar tarkibidan chiqarish
 - c) Jinoiy jazolarni og'irlashtirish
 - d) Jazolarni liberallashtirish
7. Jinoiy javobgarlik umumiy asoslarda necha yoshdan belgilanadi?
- a) 13 yoshdan
 - b) 14 yoshdan
 - c) 16 yoshdan
 - d) 18 yoshdan
8. Jinoyat tarkibiga kiruvchi belgini toping.
- a) Sub'ektiv tomon
 - b) Aybning mavjudligi
 - c) Jazoga sazovorlik
 - d) Ijtimoiy xavflilik
9. Intizomiy jazo hisoblanmaydigan qatorni toping.
- a) Ishdan bo'shatish
 - b) Maxsus huquqdan mahrum qilish
 - c) Jarima
 - d) Xayfsan
10. Jinoyatchilikning rivojlanish dinamikasini o'rganuvchi fanni toping
- a) Viktimologiya
 - b) Ballistika
 - c) Kriminologiya

d) Daktiloskopiya

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jinoyatning belgilarini tushuntirib bering.
2. Jinoyatlarni tasniflashning sabablarini tushuntiring.
3. Jinoyat va jinoyatchilikning farqlari nimada?
4. Javobgarlik asoslarini tavsiflang.
5. Jinoyatlarni tasniflab bering.
6. Jinoyatlarni tasniflashdagi qasd va ehtiyotsizlikning o'rnini ajrating.
7. Fuqaroviy javobgarlik nima uchun qo'llaniladi?
8. Ma'muriy javobgarlikni jinoiy javobgarlikdan farqlarini ko'rsating.
9. Jinoiy jazoning boshqa jazolardan farqlari nimada?
10. Javobgarlik nimalarda ifodalanadi?

3 BOB. JINOYAT TARKIBI, UNING OB'EKTI VA OB'EKTIV TOMONI


Jinoyat tarkibi tushunchasi va belgilari

Jinoyat kodeksi bilan ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topish, javobgarlik va jazoni belgilash uchun jinoyat elementlarining o'zi kamlik qiladi. Xususan, qilmishning ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xiloflik, aybning mavjudligi, jazoga sazovorlik unsurlari nafaqat jinoyat, balki boshqa huquqbuzarliklar uchun ham xos hisoblanadi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismida belgilangan huquqiy normalar jinoyat tarkibi tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir. Har bir normada bayon etilgan qilmishni jinoyat deb topish uchun jinoyat tarkibi tushunchasiga murojaat qilinadi. Agar qilmishda jinoyat tarkibi alomatlari bo'lmasa, shaxsni javobgarlikka tortish, jazo yoki huquqiy ta'sir chorasini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat kodeksining 16-moddasi ikkinchi qismida kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmish sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi belgilangan. Shu bois jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos vazifasini o'taydi.

Jinoyat tarkibi ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb hisoblash uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv elementlar yig'indisi hisoblanadi. Jinoyat tarkibining alomatlari surishtiruvchi, tergovchi va sud'yaga javobgarlik asoslarini aniqlash uchun huquqiy asosni taqdim etadi. Sodir etilgan qilmish Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi normalarda nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibining belgilari bilan taqqoslanadi va qanday jinoyat ekanligi aniqlanadi. Jinoyatning to'g'ri aniqlanishi sud ishining to'g'ri yo'lga qo'yilib, adolatli hukm chiqarilishiga yordam beradi. Bu inson huquq va erkinliklari himoyalashining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Jinoyat huquqida jinoyat tarkibining belgilari va elementlari tushunchalari mavjud bo'lib, uni quyidagi shakl orqali ajratib olishimiz mumkin:



3-rasm. Jinoyat tarkibi belgilari va elementlari

Jinoyat tarkibining belgilari – jinoyatning yeng muhim xususiyatlarini qonunda aniq ko'rsatilgan tavsifi bo'lib, u jinoyat tarkibining ob'ektiv belgilari va sub'ektiv belgilaridan iborat bo'ladi.

Jinoyat tarkibining elementlari – jinoyat deb topilgan qilmishning muayyan doirasiga kiruvchi belgilar guruhini o'z ichiga olgan tomonidir. U to'rt elementdan iborat bo'lib, jinoyatning ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ekti va sub'ektiv tomonini

o'z ichiga oladi. Ushbu elementlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismidan o'rin olgan normalarni jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatlidir.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi normalarni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat tarkibining ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ekti va sub'ektiv tomoni tahlil qilinadi.

Jinoyatning ob'ekti jinoiy tajovuz qaratilgan, zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazilishining real xavfi mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy munosabat ham jinoyatning ob'ekti bo'lmasligi mumkin, faqatgina jinoyat qonuni bilan qo'riqlansagina, u shunday ob'ekt bo'la oladi.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni uning tashqi tomonini ifodalovchi elementdir. U jinoyat ob'ektiga qilingan tajovuzning harakat yoki harakatsizlikda aks etishidir. Har qanday jinoyat holati harakat yoki harakatsiz orqali sodir etilib, o'zida usul, joy, vaqt kabi asoslarni ham jamlaydi. Jinoyatning ob'ektiv tomonini aniqlash uchun ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat hamda ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish belgilari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Topshiriq

Kechasi park oralab o'tib borayotgan odamni ikki kishi yo'lidan chiqdi. Bor pullari va narsalarini berishni so'radi. Biqiniga nimadir tiralganligini his qilgan jabrlanuvchi unga qarab "Pichog'ingni biqinimdan ol, sumkamdan pul olib beraman", deb sumkasiga qo'l solayotib egildi va sumkadan otvertkani mahkam qisib oldi. CHapdastlik bilan yo'lto'sarning qo'lini surib, bor kuchi bilan otvertkani uning bo'yniga sanchdi. Ikkinchi yo'lto'sarning kalovlanib qolganidan foydalanib, uni itarib yubordi va qochishga tushdi. Yarim soatlardan so'ng uchastka profilaktika inspektori va Milliy gvardiya askarlari bilan qaytib kelganda, orqa miyasi bilan o'tkir qirrali jismga urilib o'lgan va yuz qadamcha qon oqizib borib o'lgan ikki jasadga duch kelindi. Voqea joyida mayda-chuyda narsalar bilan birga oddiy qoshiq yotar edi.

- Holatni huquqiy tahlil qiling

Sub'ektiv tomon shaxsning jinoiy harakati yoki harakatsizligi orqali kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatga bo'lgan ruhiy munosabatidir. Ob'ektiv tomon jinoyatning inson o'z sezgilari orqali his qila oladigan tashqi tomoni bo'lsa, sub'ektiv tomon jinoyatni ichki tomonidir. Jinoyat sodir etilishida insonni ichki tuyg'ular harakat yoki harakatsizlikka undaydi. Uning irodasi jinoiy oqibat kelib

chiqishiga olib kelib, bunga ongli ravishda munosabatda bo'lsa, sub'ektiv tomon kelib chiqadi. Sub'ektiv tomon sodir etilgan jinoyatda shaxsning aybi bor yoki yo'qligini aniqlash vositasidir.

Ayb – shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishni qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishidir. Qasd va ehtiyotsizlik jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonini ifodalovchi belgilarni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Jinoyat tarkibining yana bir elementi jinoyatning sub'ektidir. Jinoyat sodir etish paytida qonunda ko'rsatilgan yoshga to'lgan aqli raso shaxslar jinoyatning sub'ekti hisoblanadi. Ushbu me'yor O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga birday taalluqlidir.

Jinoyatning tarkibini aniqlash masalasida JKning 150-moddasidagi “Urushni targ'ib qilish” jinoyatini ko'rib chiqaylik. Ushbu norma urushni targ'ib qilish, ya'ni bir mamlakatni ikkinchi mamlakatga nisbatan qo'zg'atish uchun turli shakldagi qarashlar, g'oyalar yoki chaqiriqlar tarqatish besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishini o'rnatgan.

Urushni targ'ib qilish jinoyatining xavfliligi uning tinchlik va xavfsizlikka qarshi qaratilganligidadir. Jinoyatning ob'ekti har qanday davlat taraqqiyoti, tinchligi va xalqining xavfsizligidir.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni bir tomonning boshqa davlatga nisbatan agressiya harakatlarini turli shakllardagi qarashlar, g'oyalar va chaqiriqlar tarqatishda namoyon bo'ladi. Targ'ibot OAV, ijtimoiy tarmoqlar, radio va televidenie orqali olib borilishi mumkin. Urushni targ'ib qilish oqibat kelib chiqishi yoki chiqmasligidan qat'iy nazar tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi.

Sub'ektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, ya'ni aybdor o'z xatti-harakatining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi va uni kelib chiqishini istaydi.

Jinoyatning sub'ekti 16 yoshga to'lgan aqli raso har qanday shaxs bo'ladi.

Jinoyat tarkibining ushbu elementlaridan tashqari qo'shimcha, ya'ni fakul'tativ belgilari ham mavjud. Ularga jinoyatlarning ikki ob'ektiligi, jinoyat joyi, usuli, vaqti, sharoiti, quroli, jinoyatning motivi va maqsadi, mansabdor shaxs


yoki o'ta xavfli retsidivist ekanligi va boshqalar kiradi. Ushbu belgilar jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilinishida ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoyat tarkibining turlari 38

Jinoyat tarkibi o'z elementlari bilan birga turlarga ham ajratiladi. Uning bunday turlarga ajratilishi jinoyat tarkibining mohiyatini yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Nisbatan keng tarqalgan amaliyotga ko'ra jinoyat tarkibi uchta mezon asosida turlarga ajratiladi:

- Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra;
- Jinoyat tarkibining tuzilishiga ko'ra;
- Jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonining tuzilishiga ko'ra.



4-rasm. Jinoyat tarkibining turlari

Jinoyat sodir etilishi xavfli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Oqibat asosida qilmishning ijtimoiy xavfliligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, jinoyatlarni sodir etuvchilar ham bitta ijtimoiy guruhga kirmaydi. Shu bois ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jinoyat tarkibi ajratiladi. Yuridik adabiyotlarda ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat tarkibining uchta turga ajratish amaliyoti ko'proq uchraydi. Ular quyidagilardir:

- asosiy (oddiy) tarkibli;
- og'irlashtiruvchi tarkibli;
- yengillashtiruvchi tarkibli.

Oddiy tarkibli jinoyatlarda jinoyatning nomi aytiladi va uning og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi belgilari bo'lmaydi. Bunga ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (102-modda), ko'p xotinli bo'lish (126-modda), urushni targ'ib qilish (150-modda), O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (158-modda) kabi jinoyatlarni misol qilib olishimiz mumkin. Ushbu jinoyatlarda jinoyat tarkibining barcha elementlari bitta bo'ladi. Shuning uchun oddiy tarkibli jinoyatlar hisoblanadi.

Og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlarda qo'shimcha belgilar bo'lib, ular jinoyatni og'ir yoki yengillik darajasini belgilab beradi. Og'irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlarda Jinoyat kodeksi bilan ta'qiqlangan jinoyatlarni qasd shaklida, g'arazli maqsadlarda, past niyatlarda, zo'rlik, qo'rqitish, ruhiy bosim o'tkazish yo'li bilan, voyaga yetmaganlardan foydalangan holda amalga oshirish va boshqa holatlar jinoyatning ob'ektiv yoki sub'ektiv tomonida paydo bo'ladi. Odatiy holatlarda normalarning birinchi qismida jinoyatning oddiy tarkibi ko'rsatilib, keyingi qismlarda og'irlashtiruvchi holatlar aks ettiriladi.

Yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlarda jinoyatning xavfliligini kamaytiruvchi holatlar mavjud. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (106-modda), zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (107-modda) kabi jinoyatlar yengillashtiruvchi tarkibli jinoyatlar tarkibiga kiritiladi.

Jinoyat tarkibining tuzilishiga ko'ra, oddiy tarkibli, murakkab tarkibli va al'ternetiv (muqobil) tarkibli jinoyatlarga ajratiladi.

Oddiy tarkibli jinoyatlar yuqorida ta'kidlanganidek, elementlari ko'p bo'lmaydi.

Murakkab tarkibli jinoyatlarda bir necha ob'ektlar yoki harakat belgilari ko'zga tashlanadi. Jumladan, bosqinchilik (164-modda) jinoyatini oladigan

bo'lsak, bunda o'zganing mulki va uning hayoti yoki sog'lig'i tajovuz ostida qoladi. Bunda ob'ektlar ikkita bo'lib, jinoyatning murakkabligini hosil qiladi.

Topshiriq

Bir yigit bozorga velosipedda kelib, bozor eshigi yaqinida turgan odamga velosipedni ushlab turishni iltimos qildi. So'ng yugurib bozor ichiga kirib ketdi. Velosipedni ushlab nima qilishini bilmay turgan kishini 5 daqiqadan so'ng, velosiped o'g'irlashda gumon qilib tutib olishdi. Yaxshilik qilmoqchi bo'lgan kishiga ayblov e'lon qilinib, u uch yilga qamaldi. Bir yildan so'ng jazoni ijro etish koloniyasida haqiqiy velosiped o'g'risini uchratdi.

Mahkum nima ish qilishi kerak?

Al'ternativ tarkibli jinoyatlar dispozitsiyasida bir necha harakatlar ko'rsatiladi. Qilmishni jinoyat deb topish uchun ulardan xohlagan bittasining sodir etilishi jinoyat sodir etilgan deb topilishi uchun asos bo'ladi. Bunda JKning 136-moddasidagi ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish jinoyatini misol qilishimiz mumkin. Moddaning oddiy dispozitsiyasining o'zidayoq ikkita harakat asoslari ko'rsatilgan. Tasvirlov dispozitsiyasida ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolni erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish harakatlari aks ettirilgan bo'lib, ulardan birortasining sodir etilishi javobgarlik kelib chiqishiga sababchi bo'ladi.

Jinoyat tarkibining oqibati, ya'ni ob'ektiv tomonining tuzilishiga ko'ra quyidagilarga ajratiladi:

- moddiy tarkibli jinoyatlar;
- formal tarkibli jinoyatlar;
- kesik tarkibli jinoyatlar.

Moddiy tarkibli jinoyatlar ijtimoiy xavfli qilmish bilan birga ijtimoiy xavfli oqibatni kelib chiqishini ham ko'rsatadi, ya'ni jinoyatning sodir etilishi oqibatni kelib chiqishi orqali namoyon bo'ladi. Qasddan odam o'ldirish, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish kabi jinoyatlar bunga misol bo'ladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda ijtimoiy xavfli qilmish tufayli kelib chiqadigan oqibat zaruriy belgi hisoblanmaydi. Bunda biror oqibatning kelib chiqishi jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Odam o'g'irlash (137-modda), fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (142-modda), vijdon erkinligini buzish (145-modda) va boshqalar formal tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi.

Kesik tarkibli jinoyatlar jinoyat boshlangan yoki suiqasd qilingan davrdayoq tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadigan qilmishlarga nisbatan ishlatiladi. Bunda jinoyatning sodir etilgan deb hisoblanishi uning oqibati kelib chiqishidan oldinga ko'chiriladi. Bunday jinoyatlarga bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik va boshqalar kiradi.

Jinoyat tarkibining ahamiyati sud'ya tomonidan jinoiy ishning xavflilik darajasini aniqlash, uni boshqa normalar bilan taqqoslash, aybdorga asosli jazo berish yoki javobgarlik va jazodan ozod qilishda yaqqol ko'rinadi.

Jinoyatning ob'ekti va uning tasnifi 41

Jinoyatning ob'ekti jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanuvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar inson o'z hayotiy faoliyati davomida boshqa kishilar bilan o'rnatadigan aloqalari asosida vujudga keladi. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xil bo'lib, ular iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa sohalarida vujudga keladi.

Ijtimoiy munosabatlar kishilar o'rtasida huquqiy normalar asosida shakllanadigan bo'lsa, bunday munosabatlar huquqiy munosabatlar darajasiga ko'tariladi. Huquqiy munosabatlar davlat, jamiyat va shaxs bilan bog'liq holda mehnat, oila, davlat boshqaruvi, mulkchilik, moliya, xo'jalik, fuqarolik, ma'muriy, jinoyat va boshqa huquq sohalarida qaror topadi. O'zida huquqiy normalarni jamlagan huquq sohalarida huquqiy munosabat shaklidagi ijtimoiy munosabatlarni qat'iy tartibga soladi. Davlat ularni umummajburiylik xususiyatini ta'minlaydi hamda huquqiy ta'sir choralari vositasida qo'riqlaydi. O'zbekiston Respublikasidagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlardagi barcha ijtimoiy munosabatlar ham jinoyat tarkibining ob'ekti bo'la olmaydi. Jinoyat kodeksidagi

umummajburiy va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar jinoyat tarkibining ob'ektidir. Kodeksga kiritilmagan munosabatlar ushbu huquq sohasi ob'ekti emas.

Jinoyat kodeksining 2-moddasida shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash vazifalar sifatida e'tirof etiladi. Ular jinoyatning ob'ekti hisoblanuvchi ijtimoiy munosabatlar tizimini tashkil qiladi.

Ijtimoiy munosabatlarda predmet ham muhim ahamiyatga ega. Predmet ashyo, pul, buyum yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin. Predmet va ob'ektni aralashtirish mumkin emas. Predmet moddiy xususiyatga ega bo'ladi. U ob'ekt ham bo'lishi mumkin. Jumladan, talonchilik (166-modda) jinoyatini olib ko'radigan bo'lsak, o'zganing mulki predmet bo'lishi bilan birga, jinoyatning ob'ekti ham hisoblanadi. Lekin jinoyat predmeti jinoyat ob'ekti bo'lmasligi ham mumkin. Vijdon erkinligini buzish (145-modda), mehnat qilish huquqini buzish (148-modda) va davlatga xoinlik qilish (157-modda) kabi jinoyatlarda jinoyat predmeti hisoblanuvchi ashyo, pul yoki boshqa buyumlar ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu bois jinoyat predmetini jinoyatning zaruriy belgisi deb bo'lmaydi.

Jinoyatning tarkibiy elementlaridan biri bo'lgan jinoyatning ob'ekti uchta shaklga ajratiladi:

- umumiy ob'ekt;
- maxsus ob'ekt;
- bevosita ob'ekt.

Umumiy ob'ektlar JKning 2-moddasida bayon etilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat bo'ladi. Umumiy ob'ekt barcha jinoyatlar uchun bitta bo'lib, u ko'proq ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Zero, sodir etilgan har qanday jinoyat ijtimoiy munosabatlarda o'z izini qoldiradi.

Maxsus ob'ekt jinoyatlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan shakllari yig'indisidan tashkil topadi. Jumladan, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (104-modda), qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (105-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (106-modda), zaruriy mudofaa chegarasidan chetga

chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (107-modda), ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (108-modda), qasddan badanga yengil shikast yetkazish (109-modda), qiynash (110-modda) jinoyatlari mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lganliklari sababli ular sog'liqqa qarshi jinoyatlar maxsus ob'ektni tashkil etadi. Jinoyat kodeksining Maxsus qismi maxsus ob'ektni inobatga olgan holda tuziladi.

Agar umumiy ob'ektda Jinoyat kodeksi Maxsus qismidan o'rin olgan barcha jinoyatlar nazarda tutilsa, maxsus ob'ektda Maxsus qismning boblarida jamlangan normalardagi ijtimoiy munosabatlar nazarda tutiladi.

Bevosita ob'ekt jinoiy tajovuz yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatdir. Ushbu munosabat Maxsus qismning alohida normalarida aks etadi. Bevosita ob'ektni aniqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlash uchun amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Ba'zan jinoyat sodir etgan shaxs birdaniga bir necha jinoyatni sodir etishi ham mumkin. Bunda bir necha bevosita ob'ektga zarar yetkaziladi. Ayrim hollarda bitta jinoyatni sodir etish orqali ikki va undan ortiq bevosita ob'ektga zarar yetkazilishi ham mumkin. Ko'pincha bosqinchilik (164-modda) jinoyati misol qilib keltiriladi. Bu jinoyat ikki ob'ektli jinoyat hisoblanadi. Jinoyatning birinchi bevosita ob'ekti o'zgalarning mol-mulki bo'lsa, ikkinchisi jabrlanuvchining salomatligi bo'ladi. Harbiy sohadagi jinoyatlar doirasida badanga shikast yetkazish (283-modda) jinoyati mavjud bo'lib, uning dispozitsiyasida harbiy xizmat yuzasidan o'z vazifalarini bajarganligi munosabati bilan yoki bajarayotgan vaqtda boshliqni do'pposlash, uning badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish ko'rsatilgan. Bunda asosiy ob'ekt harbiy ustav asosidagi bo'ysinuv tartibi bo'lsa, qo'shimcha bevosita ob'ekt boshliqning salomatligidir. Bu kabi ikki ob'ektli jinoyatlarga tovlamachilik, qasddan bankrotlikka olib kelish, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish va boshqalarni ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

Agar jinoyatning bevosita ob'ektlari bir nechta bo'lsa, ularning bittasi asosiy ob'ektga aylanadi. Aynan shu ob'ekt Jinoyat kodeksining Maxsus qismi boblaridan

biriga kiritish uchun asos bo'ladi. Keyingi ob'ektlar qo'shimcha bevosita ob'ekt hisoblanadi.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni

Jinoyatning ob'ektiv tomoni qilmishning tashqi xususiyatlarini aks ettiradi. Jinoyat muayyan ob'ektga qarshi qaratiladigan harakat yoki harakatsizlik tufayli sodir etilishida joy, vaqt, usul, kurol va vositalar o'zida ob'ektiv tomon belgilarini ifodalaydi. Ushbu belgilar Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalarining dispozitsiyasida ko'rsatiladi va jinoyat-protsessual jarayonida aniqlanadi.

Umuman jinoyat ob'ektiv tomonining belgilariga ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat, ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek, jinoyat sodir etish joyi, vaqti, sharoiti, usuli, jinoyat sodir etish kurollari va vositalari kiradi. Mazkur belgilardan birinchisi, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilishi uni jinoyat deb topish uchun birlamchi ahamiyatga ega. Boisi, ayrim jinoyatlar uchun ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishi, sababiy bog'lanishning mavjudligi va boshqa belgilar jinoyatni kvalifikatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Masalan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (112-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda) jinoyatlarida ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishi javobgarlik belgilanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi normalarda jinoyatning ob'ektiv tomoni nisbatan ko'proq ko'rsatiladi. Ob'ektiv tomon dispozitsiyada ko'rsatilmagan sub'ektiv tomonni aniqlashda ham qo'l keladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etiladi. Har qanday harakat yoki harakatsizlik unda jinoyat alomatlari bo'lsa, javobgarlikka tortilish uchun asos bo'lmaydi. Bunga kam ahamiyatli qilmishlar, qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar misol bo'ladi. Shuningdek, javobgarlikka tortilish uchun qilmish inson ongi tomonidan boshqarilgan bo'lishi talab etiladi.

Jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatilishi, yengib bo'lmas kuch ta'sirida sodir etilgan jinoiy holatlar shaxsni javobgarlikka tortilishidan ozod qiladi. Bu kabi holatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tizimida uchraydi.

Qo'rqitish, jismoniy va ruhiy zo'rlik ishlatish, gipnoz natijasida sodir etiladigan harakat yoki harakatsizliklar javobgarlik va jazo masalalarida inobatga olinadi.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligini o'rganishda har bir harakat yoki harakatsizlikni nima maqsadda yoki nima asosida amalga oshirilganligini aniqlash zarur bo'ladi.

Ijtimoiy xavfli oqibat jinoyat ob'ektiv tomonining zaruriy belgilaridan biri bo'lib, ko'plab jinoyatlar dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etadi. Jumladan, hayotga va sog'liqqa qarshi jinoyatlarda jinoyat nomining o'zida buni ko'rishimiz mumkin. Qasddan odam o'ldirish (97-modda), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (104-modda) jinoyatlari buning misolidir.

Insonning har qanday harakat yoki harakatsizligi zararli oqibat keltirib chiqaradi yoki uning real xavfini vujudga keltiradi. Yetkazilgan zarar javobgarlik masalasiga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy xavfli qilmishning oqibatlari moddiy va moddiy bo'lmagan guruhga ajratiladi. Moddiy oqibatli jinoyatlar mulkiy yoki moddiy xususiyatlarga ega bo'lgan zararni aks ettiradi. Moddiy bo'lmagan oqibatlar ma'naviy-axloqiy sohaga yetkazilgan zararda ifodalanadi.

Jinoyat tarkibining ob'ektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni ham o'z ichiga oladi. Sababiy bog'lanish jinoyat ob'ektiv tomonining uchinchi zaruriy belgisi hisoblanadi. Jinoiy harakat yoki harakatsizlik oqibati vujudga kelganda sababiy bog'lanish masalasi ba'zan ekspertizani talab etadi. Lekin sababiy bog'lanishni doim ekspertiza orqali aniqlash amaliyoti yo'lga qo'yilmagan. Chunki jinoyatlar turli uslublarda amalga oshirilganligi bois hamma jinoyatlarni ham sababiy bog'lanishini aniqlash talab etilmaydi.

Sababiy bog'lanish sodir etilgan jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda o'rganiladi. Bunda shaxsning qilmishi kelib chiqqan oqibatga aloqadorlik masalasi

ko'riladi. Amaliyotda buni aniqlash uchun voqealar ketma-ketligidan foydalanish kuzatiladi. Bunda qilmish bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida vaqt bo'yicha muvofiqlik asosiy mezondir.

Ijtimoiy xavfli qilmish aniq bir oqibat kelib chiqishi darajasida sodir etilishi yana bir muhim shart bo'lib, sabab natijaga olib kelishi imkoniyati mavjud bo'lishi lozim. O'z navbatida oqibat sabab kelib chiqishining mantiqiy yakunini tashkil etishi kerak. Agar amalga oshirilgan harakat yoki harakatsizlik ijtimoiy xavfli oqibatning muqarrar kelib chiqishiga asos bo'lmasa, sababiy bog'lanish chuqur tahlil etilishi kerak bo'ladi.

Jinoyatning sodir etish joyi, vaqti, usuli, sharoiti, vositalari va qurollari jinoyat ob'ektiv tomonining fakul'tativ belgilaridir. Mazkur belgilar juda ko'p hollarda jinoyat kvalifikatsiya qilinishida zarur hisoblanadi. Buning uchun ushbu belgilar jinoyatning dispozitsiyasida aks etishi talab etiladi.

Fakul'tativ belgilar ichida jinoyat sodir etish vositasi va quroli masalasi muammoga jiddiy yondashishni talab etadi. Ularni jinoyat predmetidan farqlash lozim. Jinoyat sodir etish vositasi jinoyatni amalga oshirish paytida foydalanilgan predmet, elektr toki va boshqa vositalardan iborat bo'ladi. Jinoyat sodir etish quroli jinoyat sodir etilishiga bevosita aloqador bo'ladi. Jinoyat sodir etish vosita va qurollari jinoyatga suiqasd qilish va uning tamom bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyat sodir etishda foydalanilgan vosita va qurolni bir-biridan farqlash jazo me'yorini aniq belgilashda qo'l keladi.

Jinoyatning predmeti turli buyum, ashyo, pul yoki boshqa narsalar bo'lishi mumkin. Jinoyat sodir etish vositasi va qurollari ham jinoyat predmeti bo'lib, ular o'z ishlatilish o'rniga ko'ra vosita va qurolga aylanadi. Jinoyat predmeti tushunchasi jinoyatda foydalanilgan ashyolar tufayli ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Jinoyat predmeti jinoyat tarkibining zaruriy belgisi qatoriga kiritilmaydi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jinoyat tarkibiga kirmaydigan qatorni toping
 - a) Huquqqa xiloflik

- b) Jinoyatning ob'ektiv tomoni
 - c) Sub'ektiv tomon
 - d) Jinoyatning sub'ekti
2. Jinoyat tarkibining turlarga ajratilishida qaysi mezon ahamiyatga ega emas
- a) Jinoyat tarkibining kelib chiqishiga ko'ra
 - b) Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra
 - c) Jinoyat tarkibining tuzilishiga ko'ra
 - d) Jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonining tuzilishiga ko'ra
3. Jinoyat tarkibining elementlariga kirmaydigan qatorni ko'rsating.
- a) jinoyatning ob'ekti
 - b) jinoyatning ob'ektiv tomoni
 - c) jinoyatning sub'ekti
 - d) jinoyatning quroli
4. Jinoiy tajovuz qaratilgan, zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazilishining real xavfi mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatni ko'rsating
- a) jinoyatning ob'ekti
 - b) jinoyatning viktimologiyasi
 - c) jinoyatning predmeti
 - d) jinoyatning quroli
5. Ayb tushunchasi jinoyat tarkibining qaysi elementi orqali namoyon bo'ladi?
- a) Jinoyatning sababi
 - b) Jinoyatning ob'ektiv tomoni
 - c) Sub'ektiv tomon
 - d) Jinoyatning sub'ekti
6. Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat tarkibiga qaysi biri kirmaydi?
- a) asosiy (oddiy) tarkibli
 - b) maxsus tarkibli
 - c) og'irlashtiruvchi tarkibli

- d) yengillashtiruvchi tarkibli
- 7. Tuzilishiga ko'ra jinoyat tarkibiga kirmaydigan qatorni ko'rsating
 - a) oddiy tarkibli
 - b) formal tarkibli
 - c) murakkab tarkibli
 - d) al'ternetiv (muqobil) tarkibli
- 8. Quyidagilardan qaysi biri ob'ektiv tomonining tuzilishiga ko'ra jinoyat tarkibiga mansub emas?
 - a) moddiy tarkibli jinoyatlar
 - b) formal tarkibli jinoyatlar
 - c) kesik tarkibli jinoyatlar
 - d) al'ternetiv (muqobil) tarkibli jinoyatlar
- 9. Jinoyatning ob'ektiga qanday shakl kirmaydi?
 - a) umumiy ob'ekt
 - b) maxsus ob'ekt
 - c) bevosita ob'ekt
 - d) kesik ob'ekt
- 10. Jinoyatlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan shakllarini birlashtiruvchi qatorni toping
 - a) umumiy ob'ekt
 - b) maxsus ob'ekt
 - c) bevosita ob'ekt
 - d) kesik ob'ekt

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jinoyat tarkibining ahamiyati nimada?
2. Jinoyat tarkibining jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi o'rnini tushuntiring
3. Ob'ektiv alomatlar nimalardan tashkil topadi?
4. Ayb o'zida nimalarni ifodalaydi?


5. Jinoyatning ob'ektiv tomonini tushuntirib bering
6. Jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga ko'ra turlarini sanang
7. Moddiy va formal tarkibli jinoyatlarning farqlarini tushuntiring
8. Kesik tarkibli jinoyatlarni tushuntiring va misollar keltiring
9. Jinoyatning bevosita ob'ekti va maxsus ob'ektining farqli jihatlari nimada?
10. Jinoyatning ob'ektiv tomoni qanday qismlardan iborat bo'ladi?

4 BOB. JINOYAT TARKIBINING SUB'EKTI VA SUB'EKTIV TOMONI

Jinoyatning sub'ekti uning yuridik alomatlari

Jinoyatning sub'ektiv alomatlari jinoyatning sub'ekti va sub'ektiv tomonidan iborat bo'ladi.

Jinoyat tarkibining sub'ekti – jinoyat sodir etgunga qadar jinoyat qonunida nazarda tutilgan yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxslardir. Ushbu ta'rif JKning 17-moddasida belgilangan bo'lib, unda quyidagi xususiyatlar mavjudligini ko'ramiz:



5-rasm. Jinoyat sub'ektining xususiyatlari

Jinoyat sub'ekti bo'lish uchun jinoyat qonuni bilan ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etilganligi zaruriy asos bo'ladi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etilishi javobgarlik va shu asosda jinoyat sub'ektini vujudga keltiradi.

Jinoyat sub'ekti faqat jismoniy shaxslardan iborat bo'ladi. Ushbu jihati bilan jinoyat huquqi boshqa huquq sohalaridan farq qiladi. Boshqa huquq sohalarida

davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida sub'ekt maqomini oladi. Sudda ular o'z nomidan fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish vakolatiga ega bo'ladi. Iqtisodiy-protsessual huquqiy munosabatlarida faqat yuridik shaxslar sudda taraflar maqomida ishtirok etadi.

Jismoniy shaxs hisoblanmaydigan yuridik shaxslar, tirik jonzorlar, jismlar jinoyat sub'ekti hisoblanmaydi. Masalan, it, qo'y, xo'kiz, ilon, chayon kabi boshqa jonivorlar jinoiy javobgarlikka tortish sub'ekti emas.

Begona it biror kishini tishlasa, uning egasi fuqaroviy tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar uni qasd olish maqsadida qo'yib yuborib itning qopib olishi natijasida badaniga og'ir, o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sababchi bo'lsa, it egasi jinoiy javobgarlikka tortiladi. Egasiz itning shunday harakati uchun jinoyat sub'ekti belgilanmaydi.

Topshiriq

Bir odam sobiq Ittifoq davrida qo'lga kiritgan Makarov rusumli pistoletni saqlab yurardi. Ishonchli joy izlab hech kim yashamaydigan qo'shni hovlining omborxonasi cherdagiga uni yashirdi. Hovlini boshqa odam sotib oldi va omborni tekshirgani kirib, pistoletni topib oldi. Hovlini sotib olishida pul bilan yordam bergan tanishiga pistoletni minnatdorchilik ramzi sifatida sovg'a qildi. Pistoletdan ayrilgan odam yangi qo'shnidan uni qaytarib olib kelib berishni talab qildi. Yangi qo'shni buni rad etdi va bo'lgan voqeani tanishlariga aytib berdi. Tanishlaridan biri uning bu xabarini militsiyaga yetkazdi.

– Mazkur holatda kim javobgarlikka tortilishi kerak?

Tarixda turli yirtqichlar, kemiruvchilar, hasharotlar javobgarlikka tortilib sud qilingan voqealar ham yuz bergan. Hozirda ham ayrim davlatlarda korxona, tashkilot va muassasalarni jinoiy javobgarlikka tortish amaliyoti uchraydi. Bu o'sha davlatdagi huquqiy tizim printsiplari bilan bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda faqat jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish amaliyoti o'rnatilgan. Yuridik shaxsning javobgarligini ko'proq fuqaroviy tartibda amalga oshirish shakli keng yoyilgan.

Jinoyat sub'ektining aqli rasoligi yana bir muhim belgi bo'lib, faqat jismoniy shaxsgina o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi va harakatlarini boshqara olishi mumkin. O'z xatti-harakatining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglay olmaydigan va uni boshqara olmaydigan shaxslar aqli noraso shaxs hisoblanadi. Ularga jinoiy javobgarlik qo'llanilmaydi. Ayrim hollarda jinoyatni sodir etgan shaxslar javobgarlikdan qutulish uchun o'zlarini aqli noraso qilib ko'rsatish amaliyoti ham uchrab turadi. Bunday hollarda sud-psixologik ekspertizasi o'tkaziladi va masalaga oydinlik kiritiladi.

Mavsumiy ruhiy xastalikka uchrash, bolalikdan ruhiy nosog'lomlik, ishlab chiqarish jarayonida yoki halokat tufayli ruhiy nosog'lom bo'lib qolish kabi aqli norasolik ko'rinishlarini faqat ekspertiza aniqlay oladi. JKning 18-moddasiga ko'ra, aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin.

Tibbiy mezonlar ruhiy xastaliklarni quyidagi belgilariga asoslanadi:

- a) surunkali ruhiy xastalik;
- b) ruhiy holatning vaqtincha buzilganligi;
- v) aqli zaiflik;
- g) boshqa tarzdagi ruhiy xastalik.

Jinoyat kodeksining 18¹-moddasida aqli norasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning javobgarligi o'rin olgan. Unda jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlarining ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi belgilangan. Moddaning ikkinchi qismida buning uchun sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkinligi belgilangan.

Aqli norasolikning yuridik mezonlari shaxsning o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmasligi va uni boshqara olmasligida namoyon bo'ladi. Shaxsni aqli noraso deb topish uchun tibbiy va yuridik mezonlarning bir vaqtda mavjud bo'lishligi talab etiladi.

Jinoyat-protsessual jarayonlarida shaxsning jinoyat sodir etish paytida mastlik holatida bo'lganligi ko'p uchraydigan hodisa hisoblanadi. JKning 19-moddasiga ko'ra, mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki odamning aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'sirida jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinmaydi.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, ba'zan shaxslarning aqliy rivojlanish holatida tengdoshlariga nisbatan orqada qolish holatlari ham ro'y beradi. Bunda aqliy rivojlanishda orqada qolgan shaxslar aqli rasolarga tenglashtiriladi, ammo sud tomonidan jazo tayinlanishida bu holat inobatga olinib, shartli jazo tayinlash yoki jazodan ozod qilish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'z qilmishi va uning oqibatini anglash, xatti-harakatini baholay olish insonning ma'lum bir yoshga yetganida to'liq shakllanadi. Hayotiy tajriba nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanligini shaxs ongida shakllantirib boradi.

Topshiriq

Bir kishi o'z tanishiga 5000 AQSH dollari miqdorida qarz berdi. Ikki oyda qaytaraman deb olgan tanishi pulni ikki yilda ham qaytara olmadi. Bir kuni yo'lda qarzdorning mashinasida kalit unutilib qoldirilganini ko'rib pul bergan kishi uni so'ramasdan, qiyinchiliksiz haydab ketdi. To'g'ri mashina bozoriga olib borib, 6500 AQSH dollariga pulladi. Pulni ajratib olib, 1500 dollarni tanishiga olib keldi. Tanishi bu paytda IIBga mashinasi o'g'irlanganligi xabarini bergan edi.

– Vaziyatga huquqiy baho bering?

Umumiy tartibga ko'ra, jinoiy javobgarlik 16 yoshdan belgilanadi. Aynan shu yoshda shaxs o'z fe'l-atvori jamiyat uchun zararli yoki foydali ekanligini yaxshi anglaydi. Lekin ayrim jinoyatlarni bu yoshga to'lguncha ham tushunib yetadi. Jumladan, qasddan odam o'ldirish jinoyatining ikkinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatni sodir etganlik uchun 13 yoshdan javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoiy javobgarlikka tortish yoshi bo'yicha me'yorlar mavjud. 13 yosh uchun bitta, 14 yoshlilar uchun qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga shikast yetkazish, nomusga tegish, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'g'rilik kabi jinoyatlarni sodir etganlik uchun

javobgarlik belgilangan. Shuningdek, 18 yoshga to'lganlar uchun voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ekologiya sohasidagi, odil sudlovga qarshi, harbiy sohadagi jinoyatlar va boshqalar uchun javobgarlik kelib chiqadi. Qolgan barcha jinoyatlar uchun 16 yosh javobgarlik yoshi hisoblanadi.

13 yosh	14 yosh	16 yosh	18 yosh
• 97-modda II qismi	• 97-modda I qismi • 98, 104-106, 118, 119, 137, 164-166, 169, • 173-modda II va III qismlari • 220, 222, 247, 252, 263, 271, 277-modda II va III qismlari	• qolgan barcha jinoyatlar uchun	• 122, 123, 125¹, 127, 127¹, 144, 146, 193-195, 205-210, 225, 226, 230-232, 234, 235, 279-302-moddalar


6-rasm. Jinoiy javobgarlikka tortish yoshi

Jinoyat huquqida jinoyatning maxsus sub'ekti tushunchasi ham mavjud. Maxsus sub'ekt mansabdorlik jinoyati sodir etilishi, o'ta xavfli retsdivist tomonidan jinoyat sodir etilishi hamda harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Maxsus sub'ekt tushunchasi jazo tayinlashda ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoyatning sub'ektiv tomoni tushunchasi va belgilari

Jinoyatning sub'ektiv tomoni jinoyatning ruhiy tomonini ochib beradi. Unda ayb, motiv, maqsad kabi tushunchalari ochib beriladi. Jinoyatning sub'ektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat yoki jinoyat emasligini hamda u jinoyat sifatida e'tirof etilsa, harakat yoki harakatsizlikda aybning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlab beradi. Jinoyatning sub'ektiv tomoniga "shaxsning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va oqibatiga nisbatan ruhiy munosabati", degan ta'rif beriladi.

Jinoyat tarkibining sub'ektiv tomoni uchun asosiy belgi ayb hisoblanadi. Ayb tushunchasining o'zi shaxsning sodir etilgan jinoyatga nisbatan ruhiy munosabati qay tariqa vujudga kelganligini har doim ham to'la ochib bera olmaydi. Buning uchun fakul'tativ belgilar – jinoyatning motivi va maqsadini tadqiq etish lozimdir.



7-rasm. Jinoyatning sub'ektiv tomoni

Jinoyat huquqida ayb ikki shaklga ajratiladi: qasd va ehtiyotsizlik. Ushbu ikki shakl ham yana qismlarga ajratiladi.

Jinoyatning motivi – shaxsda jinoyat sodir etishga nisbatan qaror va xohish uyg'otuvchi ichki hissiyot. Bunday hissiyotning vujudga kelishi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi. Chunki hamma ham kimnidir yoqtiradi, kimnidir esa yo'q. Miyaga kelgan hayol yoki ichki hissiyot uchun shaxsni javobgarlikka tortish mantiqsizlikdir.

Jinoyatning maqsadi – jinoyat sub'ektining natijaga erishishga qaratilgan niyati. Inson hayoti davomida turli vaqtlar davomida turli maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Bu maqsadlar qonuniy yo'llar bilan yoki noqonuniy yo'llar bilan erishishga yo'naltiriladi. Noqonuniy yo'llar bilan maqsadga erishish ta'qiqlanadi, lekin maqsadning o'zi bilan, agar harakat boshlanmagan bo'lsa, javobgarlikning belgilanishi noto'g'ridir. Aytaylik, kimdir boshqa shaxsni o'limini xohlaydi (motiv), uni zaharlab o'ldirishni ko'ngliga tuyadi (maqsad), javobgarlik va jazodan qo'rqib bu ishni amalga oshirmaydi. Bunday holatda uni javobgarlikka tortish mumkin emas. Jinoyatning maqsadi va motivi huquqiy normada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatadi. Masalan,


kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish (98-modda), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), shuningdek, dispozitsiyada tamagirlik niyati, diniy taassublar zahirida qilingan jinoyatlar sub'ektiv tomonning fakul'tativ belgilarini jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyatini oshiradi. Boshqa hollarda katta ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyatning sub'ektiv tomoni biri ikkinchisiga o'xshab ketadigan jinoyatlarni farqlash imkonini beradi. Shuningdek, jinoyat sub'ektiv tomonining mazmuni qilmishning xavflilik darajasini aniqlashda ahamiyatlidir. Sub'ektiv tomon javobgarlikning xususiyati, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari, jazo darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyatdagi ayb, motiv va maqsad faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlarga xosdir. Jinoyat ehtiyotsizlikdan sodir etilgan bo'lsa, motiv va maqsadning ahamiyati bo'lmaydi. Uni to'g'ri anglab yetmaslik aybsiz odamni jazoga tortishga yoki teskari holat yuz berishiga sababchi bo'lish mumkin. Shuning uchun jinoyatning sub'ektiv tomonini to'g'ri tahlil qilish ahamiyatlidir.

Ayb tushunchasi va uning shakllari

Ayb – shaxsning sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabatidir. Aybning shakllari haqida JKning 5-bobida huquqiy me'yorlar o'rnatilgan. Uni quyidagi sxema orqali ifodalashimiz mumkin:



8-rasm. Aybning shakllari

Sxemadan ko'rinib turibdiki, aybning qasd va ehtiyotsizlik shakli ham farqlanuvchi qismlarga ega.

Jinoyatni qasddan sodir etishga JKning 21-moddasida qat'iy me'yor o'rnatilgan. Uni qisqartirib shunday ta'riflash mumkin: bajarilgan jinoyatni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, jinoyat qasddan sodir etilgan hisoblanadi.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarning to'g'ri qasd va egri qasd shakllari mavjud. Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan hisoblanadi.

Egri qasd bundan biroz farqlanib, shaxs o'z qilmishini ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarning xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, to'g'ri va egri qasdda tafakkuriy holatning, ya'ni shaxs o'z qilmishini ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetganligi bir xilda ekanligini ko'ramiz. Irodaviy holatda qasdning ikki turi farqlanadi: to'g'ri qasd holatida shaxs jinoiy oqibatning yuz berishini istaydi; egri qasdda jinoiy oqibatning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

To'g'ri qasdda oqibat yuz berishiga nisbatan istak yuqori bo'ladi, egri qasdda jinoiy oqibat kelib chiqishiga befarqlik bilan qaralib, unga ongli ravishda yo'l qo'yiladi. Egri qasdni aniqlash uchun jinoiy qilmish sodir etilgandan keyingi vaqt oralig'ini kuzatish lozim.

Jinoyatning ehtiyotsizlik shakllari beparvolik va o'z-o'ziga ishonishdan iborat bo'ladi. JKning 22-moddasi dispozitsiyasida har ikki shaklga baho berilgan. Jumladan, agar jinoyat sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetib, ehtiyotkorlik choralariga ongli ravishda rioya etmagan holda, bunday oqibat kelib chiqmasligiga asossiz umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan jinoyat deb topiladi. Bunga avtomobil boshqarib ketayotgan shaxs o'z

qobiliyatiga ishongan holda tezlikni oshirishi tufayli jinoiy oqibatni keltirib chiqarishi mumkinligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ehtiyotsizlikning beparvolik shakli o'z-o'ziga ishonishdan farq qiladi. Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa, bunday jinoyat beparvolik oqibatida sodir etilgan hisoblanadi. Bunga davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish (163-modda), o'qotar qurol yoki o'q-dorilarni beparvolik bilan saqlash (249-modda) jinoyatlarini misol qila olamiz.

Jinoyat qonunchiligida murakkab aybli jinoyatlar tushunchasi ham mavjud. Bunda qasd va ehtiyotsizlikning bir-biriga birikib ketish holatiga guvoh bo'lamiz. Amaliyotda shunday holatlar ham uchraydiki, jinoiy qilmishda qasd va ehtiyotsizlik elementlari ham uchraydi. Bunday holatlar bo'yicha JKning 23-moddasida aniqlik kiritilgan. Unga ko'ra, shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi. Bunga jinoyat qonunidagi odam savdosi (135-modda III qism b) bandi), terrorizm (155-modda III qism a) bandi), sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o'tkazish, shuningdek, dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish (186³-modda III qism v) bandi) kabi jinoyatlarni misol qila olamiz.

Aybning ahamiyati jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqli jihatlarini ajratishda yordam beradi. Shuningdek, bir-biriga o'xshash jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda o'ziga xos jihatlarini aniqlab beradi.

Qasd va ehtiyotsizlik shakllari jazo tayinlanishida hamda jinoyatlarni ijtimoiy xavfliligiga ko'ra turlarga ajratish mezonlaridan biri vazifasini o'taydi. Qasddan sodir etilgan jinoyatlar ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan ijtimoiy xavfliligi bilan ahamiyatlidir.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarning shakllari va turlari

Jinoyat kodeksida qasddan jinoyat sodir etishning oqibatlari belgilangan. Xususan, qasddan jinoyat sodir etishning takrorlanishi retsidivlik holatini keltirib chiqaradi.

JKning 34-moddasiga ko'ra, qasddan jinoyat sodir etib, sudlangach shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deyiladi.

Qasddan sodir etilgan jinoyatlarda shaxsning sodir etilgan qilmishi jinoyat qonuni bilan ta'qiqlanganligini ko'pincha bilmasligi mumkin. Lekin bu jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishni anglatmaydi.

Topshiriq

Bir odam sobiq Ittifoq davrida qo'lga kiritgan Makarov rusumli pistoletni saqlab yurardi. Ishonchli joy izlab hech kim yashamaydigan qo'shni hovlining omborxonasi cherdagiga uni yashirdi. Hovlini boshqa odam sotib oldi va omborni tekshirgani kirib, pistoletni topib oldi. Hovlini sotib olishida pul bilan yordam bergan tanishiga pistoletni minnatdorchilik ramzi sifatida sovg'a qildi. Pistoletdan ayrilgan odam yangi qo'shnidan uni qaytarib olib kelib berishni talab qildi. Yangi qo'shni buni rad etdi va bo'lgan voqeani tanishlariga aytib berdi. Tanishlaridan biri uning bu xabarini militsiyaga yetkazdi.

– Mazkur holatda kim javobgarlikka tortilishi kerak?

Inson ongi yuz beradigan voqelikni oldindan his qilish imkonini beradi. Vaziyatni hayolida jonlantira oladi, oqibatni oldindan ko'ra oladi. Aynan shu jihati jinoyatning qasd shaklini ehtiyotsizlikdan farqini keltirib chiqaradi. Bir shaxs ikkinchi bir shaxsga miltiqdan o'q uzar ekan, bu uning o'limiga olib kelishini oldindan biladi. Shuni bilgan holda o'q otilishi natijasida oqibat kelib chiqishini istashi to'g'ri qasdni keltirib chiqaradi. Istash muayyan maqsadga iroda bilan erishishda ifodalanadigan intilishdir.

To'g'ri qasdning xususiyatlarini tahlili natijasida ularni quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

- a) qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash;

- b) ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilish;
- c) ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishini istash.

Egri qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarda ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Egri va to'g'ri qasdning sodir etilishida tafakkuriy holatning o'xshashligi mavjuddir. Jumladan, shaxsning sodir etilayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilishi egri qasdni to'g'ri qasd bilan yaqinlashtiradi. Egri qasdning irodaviy holati bilan farq vujudga keladi. Egri qasdda shaxs oqibatning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Egri qasd holatida shaxs oqibatga nisbatan befarq munosabatda bo'ladi. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish hamda sog'liqqa qarshi jinoyatlarning aksariyati egri qasd oqibatida sodir etiladi. Kishilar o'rtasidagi janjallar ko'pincha qasddan badanga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'ladi. Janjal davomida bir shaxs ikkinchisiga musht yoki biror jism bilan tajovuz qiladi, bu badanga shikast yetkazishini ham biladi. Uning harakati badanga qanday darajada shikast yetkazishini bilmaydi, ammo bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Egri qasd natijasida sodir etilgan qilmish oqibatga qarab kvalifikatsiya qilinadi.

Huquq nazariyasida qasdning boshqa turlari ham tahlil qilinadi. Ular qasdning shakllanish holatiga ko'ra hamda qasdning yo'nalishi va mazmuniga ko'ra tasniflanadi.

Qasdning shakllanish holatiga ko'ra avvaldan o'ylagan qasd va to'satdan paydo bo'lgan qasd turlari mavjuddir. Avvaldan o'ylangan qasd jinoyat sodir etilishidan oldinroq paydo bo'ladi va u jinoiy oqibatga erishish yo'llari hamda usullarini rejalashtirib olish, jinoyatga puxta tayyorgarlik ko'rish xususiyatlariga egadir.

To'satdan paydo bo'lgan qasd jinoyatning bajarilishi oldidan paydo bo'ladi. Bunda oldindan reja tuzish, jinoyat sodir etish vositalari, qurollarini tayyorlab olish kabi holatlar uchun vaqt bo'lmaydi. To'satdan paydo bo'ladigan qasdning affektlangan qasd shakli ham mavjud bo'lib, jinoyat sodir etilishidan oldin

bajaruvchi kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo'ladi. Bunga aksariyat hollarda jabrlanuvchi tomonidan ruhiy yoki jismoniy zo'rlik qo'llanilishi sabab bo'ladi.

Qasdning yo'nalishi va mazmuniga ko'ra mutloq-muayyan qasd, muqobil qasd va noaniq qasd turlariga bo'linadi.

Mutloq-muayyan qasd turida shaxs ijtimoiy munosabatning qaysi turiga qanchalik zarar yetkazishini aniq biladi. Jinoyat oqibati to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (158-modda) jinoyatini misol qilishimiz mumkin.

Muqobil qasd shaxsning bir necha maqsadlardan biriga erishishga qaratilgan xatti-harakati bilan bog'liq bo'ladi. Aytaylik, bir shaxs boshqaning mulkini egallashni niyat qilsa, uni bosqinchilik (164-modda), tovlamachilik (165-modda), talonchilik (166-modda), firibgarlik (168-modda) yoki o'g'rilik (169-modda) yo'li bilan qo'lga kiritish yo'llarining biridan foydalanadi. Jinoyatni kvalifikatsiya qilish oqibatga qarab belgilanadi.

Noaniq qasdda shaxs o'zining xatti-harakati qanday oqibat keltirib chiqarishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lsada, zararning aniq darajasini bilmaydi. Bu sog'liqqa qarshi jinoyatlar sodir etilishida ko'zga tashlanadi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jinoyatning sub'ekti belgisiga taalluqli bo'lmagan jihatni aniqlang
 - a) Qonun bilan belgilangan yoshga to'lganlik
 - b) Aqli rasolik
 - c) Jismoniy shaxs
 - d) Aybning mavjudligi
2. Jinoyatning sub'ektiv tomoni quyidagilarning qaysi biriga kirmaydi?
 - a) Jinoyatning tarkibi
 - b) Jinoyatning predmeti
 - c) Jinoyatning alomati
 - d) Jinoyatning belgisi
3. Jinoyatning sub'ektini toping

- a) Yuridik shaxs
 - b) Jismoniy shaxs
 - c) Xalqaro tashkilot
 - d) Davlat
4. Ruhiy xastaliklar belgisi bo'lmagan qatorni aniqlang
- a) Kar-soqovlik
 - b) Surunkali ruhiy xastalik
 - c) Ruhiy holatning vaqtincha buzilganligi
 - d) Aqli zaiflik
5. Quyidagilardan qaysi biri uchun 16 yoshdan javobgarlik kelib chiqadi?
- a) Firibgarlik
 - b) Bosqinchilik
 - c) Nomusga tegish
 - d) O'g'rilik
6. Harbiy sohadagi jinoyatlar uchun necha yoshdan javobgarlik kelib chiqadi?
- a) 13 yoshdan
 - b) 14 yoshdan
 - c) 16 yoshdan
 - d) 18 yoshdan
7. O'ta xavfli retsdivist qanday sub'ekt hisoblanadi?
- a) Bevosita sub'ekt
 - b) Maxsus sub'ekt
 - c) Xavfli sub'ekt
 - d) Zararli sub'ekt
8. Jinoyat tarkibining uning tashqi tomonini ochib beradigan elementini toping
- a) Jinoyatning ob'ekti
 - b) Jinoyatning ob'ektiv tomoni
 - c) Jinoyatning sub'ekti

- d) Jinoyatning sub'ektiv tomoni
9. Jinoyatning sub'ektiv tomonini tashkil qiluvchi tushunchani toping
- a) Ayb
 - b) Motiv
 - c) Maqsad
 - d) Javoblarning barchasi to'g'ri
10. Jinoyat sub'ektivining natijaga erishishga qaratilgan niyati nima?
- a) Ayb
 - b) Motiv
 - c) Maqsad
 - d) Oqibat

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jinoyat sub'ekti tushunchasining o'ziga xosligi nimada?
2. Aybning tarkibidagi tushunchalarni tasniflang
3. To'g'ri va egri qasdning farqli jihatlarini tushuntirib bering
4. Ehtiyotsizlikning shakllari va ularning farqlarini ayting
5. Jinoyatning sub'ektiv tomoni nimani ifodalaydi?
6. Jinoyat o'z-o'ziga ishonish oqibatida qanday kelib chiqadi?
7. Noaniq qasd tushunchasini tavsiflang
8. Aybsiz holatda zarar yetkazish tushunchasini tushuntirib bering
9. 14 yoshlilar qanday jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladi?
10. Jinoyatning maxsus sub'ektiga kimlar kiradi?

5 BOB. JINOIY JAZOLAR

Jinoiy jazo tushunchasi

Har bir sodir etilgan jinoyat davlat va jamiyat manfaatlariga zarar keltiradi. Bu zarar shaxs, uning huquq va erkinliklari, iqtisodiyot, atrof muhit, tinchlik va

insoniyat xavfsizligi, jamoat tartibi va xavfsizligi, harbiy sohalarda ko'zga tashlanadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun davlat tomonidan o'rnatilgan huquq normalari sanksiyalar bilan ta'minlanadi. Xususan, barcha uchun umummajburiy normalar hammaning bir xilda bo'ysunishini talab etadi. Me'yor buzilsa, adolatga putur yetadi. Ijtimoiy adolatni ta'minlash buzilgan norma uchun jazo tayinlashni talab etadi.

Jazo davlat nomidan sud hukmi bilan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan, sudlanuvchini ozodlikdan mahrum qiluvchi va huquq va erkinliklarini cheklashda ifodalanadigan majburlov chorasidir. Uning qo'llanilishi mahkumni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatiga to'sqinlik qilish hamda jamiyatda jinoyatchilik avj olishini oldini olish maqsadlariga qaratiladi.

Jinoyat kodeksining 42-moddasida bayon etilgan huquqiy normani tahlil qiladigan bo'lsak, jazoning mezonlari kelib chiqadi. Jinoyat sodir etilishi jazo qo'llanilishi uchun asosdir. Jazo ijtimoiy adolat maqsadlarini ko'zlaydi va jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

Jinoiy jazolarning sud hukmi bilan qo'llanilishi davlat manfaatlarini ifoda etadi. Sud davlatning faqat qonunga bo'ysunuvchi organi hisoblanib, uning faoliyati ochiqlik, shaffoflik printsiplariga asoslanadi. Sud tizimining mustaqilligi jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan odilona jazo berilishiga xizmat qiladi. Sud hukmining aybdorga davlat nomidan qo'llanilishi ushbu tizimning mas'uliyatini oshiradi.

Jinoyat qonunchiligi jazolari boshqa huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazolarga qaraganda og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilish 20 yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha davom etishi mumkin. Boshqa jazo choralari ham salbiy oqibatlari bilan ajralib turadi.

Aybdordan tashqari gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarga nisbatan jinoyat protsessi davomida qo'llaniluvchi majburlov choralari ham jiddiy bo'lib, bu shaxs erkinligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Majburlov choralari fuqarolardan unga chidashni talab qiladi.

Jinoiy jazo sudlanganlik faktini keltirib chiqaradi. Sudlanganlik shaxsning keyingi qasddan jinoyat sodir etishi tufayli retsidiv holatga hamda jazo choralari og'irlashuviga olib keladi.

Jazo vositasida jinoyatchi jazolanadi. Jazo jinoyat sodir etgan shaxsni jismoniy, mulkiy, ma'naviy va boshqa jihatdan huquqlardan mahrum qiladi yoki cheklaydi. Jazoning vazifasi jinoyatchini jazolash orqali uni tarbiyalashga yo'naltiriladi. Shuningdek, huquqlar cheklanishi vositasida jinoiy faoliyatining oldi olinadi.

Jinoiy jazolar o'z mazmuni va xususiyatiga ko'ra, jinoyatchi va jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, hatti-xarakati hamda irodasiga ta'sir ko'rsatuvchi majburlov choralari yig'indisidir. Jazo choralarini qo'llash vositasida jinoyatchi va jamiyat a'zolarining ruhiyati va xulqini o'zgartirish, ularning qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirishga erishish mumkin.

Topshiriq

Fermer o'ziga tegishli yerlarni aylanib yurib, qo'shni fermer bilan chegaradosh hududdagi ariq bo'yida o'sayotgan nasha o'simligini ko'rdi. Ularni yulib olib, hech kim iste'mol qilmasligi uchun tashlandiq yerdagi baland butalar orasiga tashladi. Biror kuni qo'risa yoqib yuborishni ko'ngliga tugib o'z ishlari bilan ovora bo'lib ketdi. Tabiiyki, buni esidan ham chiqarib qo'ydi. Fermerning ishchisi qurigan nasha o'simligini topib oldi va o'zi iste'mol qila boshladi. Pulga ehtiyojmand bo'lib sotmoqchi bo'lganida qo'lga tushdi.

– Fermer va uning ishchisining harakatlarini kvalifikatsiyalang.

Sud tomonidan jazo tayinlashda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shakli, zararning miqdori, ayblanuvchining shaxsiga oid boshqa jihatlarni inobatga olinadi. Belgilanadigan jinoiy jazolar ham shaxsni individual tarbiyalashga qaratiladi.

Jinoyat kodeksida jazo yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan. Jazolarning turlari bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Ularning xilma-xilligi sud tomonidan maqbul jazoning tanlanishiga imkon beradi. Ayrim hollarda bitta jazoning qo'llanilishi yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda jazo tizimi qo'shimcha

jazolar tayinlanishi uchun imkon beradi. Mamlakatimizdagi ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti jinoiy jazolarni bosqichma-bosqich yengillashtirishni rag'batlantirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan bo'lib, o'tgan davr mobaynida jazolar tizimida o'zgarishlar yuz berdi. Mol-mulkini musodara qilish, o'lim va qamoq jazolari chiqarib tashlandi. Jinoyat kodeksida hozirgi kunda quyidagi jazo choralari mavjud:

- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- xizmat bo'yicha cheklash;
- ozodlikni cheklash;
- intizomiy qismga jo'natish;
- ozodlikdan mahrum qilish;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish;
- harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish.

Mahkumlarga harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish shaklidagi jazo qo'shimcha chora sifatida ko'riladi. U og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilganligi uchun belgilanadi. Qo'shimcha jazo asosiy jazoning maqsadi amalga oshirilishi uchun zarur hollarda qo'llaniladi.

Xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish jazolarining faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilishi jinoyat qonunchiligi bilan belgilangan. Oddiy fuqarolarga nisbatan ushbu jazolarni qo'llash mumkin emas.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi asosiy va qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi. Ushbu jazo ma'lum bir mansabni egallash, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishni vaqtincha ta'qiqlash orqali mahkumni tarbiyalashga qaratiladi.

Jinoiy jazoning turlari

Jinoiy jazolar xususiyatlariga ko'ra xilma-xil asoslarda tasniflanadi. Ularning tasniflanishi jazolarning o'zaro munosabatini yaxshiroq anglash imkonini beradi. Har bir jazo muayyan shaklga ega. Jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya huquqi doirasida ularni bir-biri bilan almashtirish imkoniyatlari Jinoyat kodeksida belgilab berilgan. Jazolar muayyan maqsadlarni o'zida aks ettiradi.

Jarima jazosi huquqbuzarlikning intizomiy, fuqaroviy va ma'muriy shakllarida ham mavjud. Ushbu jazo aybdordan davlat foydasiga pul undirishda ifodalanadi.

Jinoyat qonunchiligida jarima bazaviy hisoblash miqdorining **besh baravaridan olti yuz baravarigacha** miqdorda belgilanadi. U aybdorga iqtisodiy ta'sir ko'rsatish chorasi sifatida nisbatan yengilroq jazodir. Shunday bo'lsada, uni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari amaliyotda ko'p uchraydi. Jinoyat qonunchiligida jarimani jazoning boshqa turi bilan almashtirilishiga yo'l qo'yilishi belgilangan.

Aybdorga tayinlangan jarima o'z vaqtida, kechiktirilgan yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddatlarida to'lanmagan taqdirda, sud to'lanmagan miqdorni majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolaridan biri bilan almashtirishi mumkin. Bu **uch yildan ko'p bo'lmagan** muddatga quyidagicha differentsiyalanadi:

majburiy jamoat ishlarining 2,5 soati	=	jarimaning 1 baravari
axloq tuzatish ishlarining 1 oyi	=	jarimaning 16 baravari
xizmat bo'yicha cheklashning 1 oyi	=	jarimaning 16 baravari
ozodlikni cheklashning 1 oyi	=	jarimaning 16 baravari
ozodlikdan mahrum qilishning 1 oyi	=	jarimaning 16 baravari

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ma'lum bir mansabni egallash, u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishni ta'qiqlashdan iborat bo'ladi. Bunda ikkita jazo aks etgan bo'lib, birinchisi, muayyan mansabni egallashdan mahrum qilish, ikkinchisi, muayyan faoliyat bilan shug'ullanishdan mahrum qilish. Sud ushbu jazodan faqat bittasini qo'llashiga yo'l qo'yiladi.

Muayyan huquqdan mahrum etishda korxona, tashkilot yoki muassasada muayyan funktsiyani bajarishga vakolatli mansabni egallashni ta'qiqlash ko'zda tutiladi. Ushbu me'yor mansabdorlik lavozimida jinoyat sodir etganlik holati bilan bog'liq bo'lsa, muayyan faoliyat bilan shug'ullanishdan mahrum qilish bilim, malaka talab etadigan faoliyatning ta'qiqlanishini nazarda tutadi. Uning qanday mansab yoki faoliyat ekanligi sud hukmida ko'rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi asosiy jazo bo'lishdan tashqari qo'shimcha jazo sifatida ham qo'llaniladi. Asosiy jazo sifatida – **bir yildan besh yilgacha** muddatga, qo'shimcha jazo sifatida – **bir yildan uch yilgacha** muddatga qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksi bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish jazolariga qo'shimcha jazo tariqasida qo'llanilgan muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazoning butun muddatiga, shuningdek, sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy qilinadi. Masalan, jinoyatchi ikki yilga intizomiy qismga jo'natish yoki ozodlikdan mahrum qilinsa va qo'shimcha jazo tarzida uch yil muayyan huquqdan mahrum qilishga hukm etilsa, ikkinchi yili mahkum ozodlikka chiqqan taqdirda ham bir yil qo'shimcha jazo davom etadi. Buning sababi shundaki, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 29 dekabridagi №418-sonli Qonuni bilan kiritilgan qo'shimcha bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan shaxslarga faoliyati odamlar o'limi va boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan hollardan tashqari holatlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish jazosi qo'llanilmaydi.

Majburiy jamoat ishlari O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 martidagi №421-sonli Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga jinoiy jazo sifatida 45¹–modda bo'lib kiritilgan.

Majburiy jamoat ishlari mahkumni haq to'lanmaydigan jamoat ishlarini bajarishga majburiy jalb qiluvchi jazo turi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, bu jazo majburiy mehnat deb e'tirof etilmaydi. Agar

mahkum ishlayotgan yoki o'qiyotgan bo'lsa, uning bo'sh vaqtlarida ushbu jazo o'taladi.

Jazoning muddati **olti oygacha** kuniga 4 soatdan ko'p bo'lmagan holda 120 soatdan 480 soatgacha, mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelganda **bir yilgacha** bo'lgan muddatda o'taladi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlash uning to'rt soatini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir kuni bilan almashtirilishiga olib keladi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetganlar, o'n olti yoshga to'lmaganlar, homilador ayollar, uch yoshgacha bo'lgan bolasi bor ayollar, I va II guruh nogironlari, harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari va O'zbekistonda doimiy yashamaydigan shaxslarga qo'llanilmaydi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi majburiy jamoat ishlaridan farqli ravishda majburiy mehnatga mahkumning ish haqidan ushlab qolgan holda jalb qilishda ifodalanadi. Insonparvarlik printsiplariga asoslangan ushbu jinoiy jazo mahkumni erkinligidan to'liq mahrum qilmagan holda, o'z oilasi va yaqinlari bilan birga bo'lish va mehnat qilishga undaydi. Oila va mehnat jamoasi aybdorning axloqiga ta'sir ko'rsatadi. Mahkumning oylik maoshidan ushlab qolish uni sergaklikka chorlaydi.

Jazoning mahkumni o'z ish joyida o'tashi uning mansabida faoliyat ko'rsatishini anglatmaydi. Masalan, maktab direktori mansabdorligi bilan bog'liq jinoyat sodir etganligi uchun axloq tuzatish ishlariga hukm qilinsa, unga qo'shimcha muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo'llanilish amaliyoti ham keng tarqalgan.

Jazoning muddati **olti oydan uch yilgacha** bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. Ushlab qolinadigan ish haqi **o'n foizdan o'ttiz foizgacha** bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosi pensiya yoshiga yetganlar, mehnatga qobiliyatsizlar, homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar va harbiy xizmatchilarga qo'llanilmaydi.

Boshqa jazolar singari axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan mahkum jazoni 1/10 qismidan ko'prog'ini (jami muddatning 90%gacha bo'lgan muddat) o'tashdan bo'yin tovlasa, sud jazoning o'talmay qolgan qismini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtiradi.

Xizmat bo'yicha cheklash harbiy soha vakillariga nisbatan qo'llaniladigan jazo turidir. Bu jazo axloq tuzatish ishlari jazosidan shu xususiyati bilan ajralib turadi. Xizmat bo'yicha cheklash kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan xodimni sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining **o'n foizidan o'ttiz foizigacha** bo'lgan miqdorda davlat hisobiga ushlab qolishda namoyon bo'ladi.

Ushbu jazoning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) xizmat bo'yicha cheklash harbiy xizmatni kontrakt asosida o'tayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi;
- 2) sud harbiy xizmatchini ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qiladi;
- 3) mahkum pul ta'minotidan sud belgilagan muddat davomida 10% dan 30%gacha bo'lgan miqdori davlat hisobiga o'tkazib boriladi;
- 4) jazo muddati davomida mahkumning mansabi va unvoni oshirilmaydi;
- 5) jazoni o'taganlik muddati ko'p yil ishlaganlik, navbatdagi unvon hamda pensiya olish uchun asos bo'luvchi muddatga qo'shilmaydi.

Jazo **ikki oydan uch yilgacha** qo'llaniladi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat va og'ir oqibatga olib kelmagan ehtiyotsizlikda sodir etilgan jinoyat uchun **uch yildan ko'p bo'lmagan** muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari o'rniga ushbu jazo tayinlanishi mumkin.

Erkinlikni cheklovchi va qo'shimcha jazolar

Ozodlikni cheklash jazosi O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 10 avgustidagi №389-sonli Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga 48¹—modda sifatida kiritilgan. Ozodlikni cheklash jazosi jinoyat qonunidagi insonparvarlik printsiplari ustuvorligining yana bir namunasidir. Jazo mahkumga mulkiy yoki erkinlik nuqtai

nazaridan katta zarar keltirmaydi. Asosan qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Ozodlikni cheklash o'zida ikkita holatni ifodalaydi, birinchi, mahkumni yashash joyini biror sabab bilan tark etishni butunlay ta'qiqlash, ikkinchisi, sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklash.

Mazkur jazo sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida **bir oydan besh yilgacha** bo'lgan muddatda tayinlanadi. Ta'qiqning xususiyatlarini hisobga olib, Jinoyat kodeksi 48¹–moddasiga ko'ra, sud quyidagi qo'shimcha ta'qiqlarni ham yuklashi mumkin:

- muayyan joylarga bormaslik;
- ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik;
- muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;
- muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik;
- transport vositasini boshqarmaslik;
- nazorat qiluvchi organ roziligisiz yashash joyini, ish yoki o'qish joyini o'zgartirmaslik, tegishli ma'muriy hududdan tashqariga chiqmaslik;
- muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik;
- aloqa vositalaridan, shu jumladan internetdan foydalanmaslik;
- alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik.

Sud tomonidan mahkumga yetkazgan zararini qoplash ish yoki o'qishga joylashish kabi boshqa majburiyatlarni yuklashiga ham yo'l qo'yiladi.

Mahkumning tuzalish yo'liga o'tishi, zararni ixtiyoriy qoplashi ta'qiqni muddatidan oldin olib tashlanishiga olib kelishi mumkin. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlash sharoitida esa ozodlikni cheklash jazosi boshqasi bilan almashtirilishi ham mumkin.

Intizomiy qismga jo'natish xizmat bo'yicha cheklash jazosiga o'xshab faqat harbiy xizmatchilarga qo'llaniladi. Ularning farqli jihati xizmat bo'yicha cheklash kontrakt asosida ishlayotgan ofitserlar tarkibi vakillariga nisbatan qo'llaniladi. Intizomiy qismga jo'natish jazosi muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan

barcha harbiy xizmatchilarga sud tomonidan qo'llaniladi. Bunda ofitserlar tarkibi bilan oddiy askarlar ham qamrab olinadi.

Intizomiy qismga jo'natish jazosi sud tomonidan harbiy xizmatchini muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilgan holda ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan harbiy qismga muayyan muddatga joylashtirishda namoyon bo'ladi.

Topshiriq

Ikki o'smir o'zganing bog'iga yong'oq o'g'irlagani kirishdi. Yong'oq daraxti uzumlar ekilgan qatorga tutash joyda bo'lib, uzumga qushlar hujumidan bezor bo'lgan bog' egasi bog'iga miltiq bilan kirib keldi. Uni sharpasini sezgan o'smirlar yong'oqning ustiga chiqib yashirinishdi va ovoz chiqarmay kuta boshlashdi. Bog'bon qushlarni uzumdan haydadi va ularni yong'oq daraxtiga qo'ngan deb o'ylab, daraxtga qarab o'q uzdi. O'smirlardan biri uning o'qidan yarador bo'ldi.

– Mazkur vaziyatda kim aybdor?

Jazo **uch oydan bir yilgacha** bo'lgan muddatga tayinlanadi. Ushbu jazo harbiy sud tomonidan qo'llaniladi. Harbiy ishlar bo'yicha sud'ya ishning holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olib, uch yildan ko'p bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga intizomiy qismga jo'natish jazosini qo'llashi mumkin.

Intizomiy qismda jazoni o'tash vaqti harbiy xizmat davriga qo'shilmaydi. Jazo o'tab bo'lingandan so'ng harbiy xizmat davom ettiriladi. Mahkumning jazoni o'tashi davrida harbiy xizmatga layoqatsiz bo'lib qolishi ijroning to'xtalishiga sababchi bo'ladi. Bunda jazo yengilrog'i bilan almashtirilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratgan holda jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iborat. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun qo'llaniladi.

Ushbu jazoga hukm qilinganlar jazo koloniyasi turini yoki mehnatning turini mustaqil tanlay olmaydilar. Ular manzil-koloniyalar, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarda va turmada saqlanadi.

Jazoning muddati **bir oydan yigirma yilgacha** tayinlanishi mumkin.

Og'irlashtiruvchi hollarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi), terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) jinoyatlari uchun bir necha jinoyatlarni qo'shish tartibida **yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan** muddatga tayinlanadigan jazo uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi. Bu jazo turi ayol kishiga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 10 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi №389-sonli Qonuniga kiritilgan o'zgartish asosida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga hamda oltmish yoshdan oshgan erkaklarga tayinlanadigan jazo ozodlikdan mahrum qilish yeng ko'p muddatining 2/3 qismidan oshmasligi kerakligi belgilangan. Bu agar Maxsus qism normasi sanksiyasida yeng uzoq muddat 15 yil bo'lsa, jazo 10 yildan oshmasligi kerakligini, yigirma yil bo'lsa o'n uch yilu uch yarim oygacha maksimal jazo berilishini anglatadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining og'ir-yengilligiga ko'ra erkaklar va ayollarning jazoni o'tash joyi bir-biridan farqlanadi. Erkaklar uchun manzil-koloniyalar, umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalar hamda turma jazoni ijro etilish joyidir. Ayollar esa manzil-koloniyalar, umumiy va qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'taydilar.

Ozodlikdan mahrum qilishning turmada o'tash tartibi jazoning besh yildan ko'p bo'lmagan muddatiga o'ta xavfli retsdivistlarga, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik uchun ushbu jazo homilador ayollarga, uch yoshga

to'lmagan bolasi bor ayollarga, pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga qo'llanilmaydi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumni erkinligini cheklaydi. Jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi tufayli jazoni ijro etish joylaridagi tartiblar ham yengilidan og'iriga qarab o'sib boradi. Yeng yengil hisoblanuvchi manzil-koloniya ham tartib buzuvchilar topiladi. Bunday hollarda sud ashaddiy tartib buzuvchilar jazosining o'talmagan qismini umumiy tartibli koloniya o'tashi bo'yicha hukm chiqarishi mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi mamlakatimizda o'lim jazosi bekor qilinishi asosida joriy etilgan bo'lib, faqat javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-modda II qismi) va terrorizm (155-modda III qismi) jinoyatlari uchun qo'llaniladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish – mahkumni maxsus tartibli koloniyaga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yuvchi jazodir. Ushbu jazoning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi favqulodda chora sifatida muayyan holatlarda qo'llaniladi;
- mahkum maxsus tartibli koloniyaga joylashtiriladi;
- mahkum sud hukmi bilan jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yiladi;
- jazo ayol, voyaga yetmaganlar va 60 yoshdan oshgan erkaklarga qo'llanilmaydi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar uchun ba'zi hollarda jazoning yengillashuviga ham yo'l qo'yilishi mumkin. Bunga amnistiya akti, avf etish, salomatligining jazoning o'tashiga yo'l qo'ymaydigan darajada yomonlashuvi va boshqa sabablar imkon beradi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish qo'shimcha jazo chorasi sifatida qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksi 52-moddasida harbiy yoki maxsus unvonga ega bo'lgan shaxs sud tomonidan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganida qo'shimcha ravishda ushbu unvonlardan mahrum qilinishi belgilangan. Ushbu

jazoning qo'llanilishi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Jazoning qo'llanilishiga sudning hukmi bilan kiritiladigan taqdimnoma asos bo'ladi. Buning natijasida shaxs oliy harbiy yoki maxsus unvon yoxud davlat mukofotidan mahrum etilishi mumkin.

Harbiy unvonlar qurolli kuchlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarga beriladi. Bu oddiy askardan yuqori turuvchi xizmatchilarga berilib, oliy harbiy unvonlargacha davom etadi.

Maxsus unvon huquqni muhofaza qiluvchi hamda davlat boshqaruvi tizimdagi boshqa organlar tomonidan berilishi mumkin. Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bojxona qo'mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati hamda vakolati alohida unvon berish imkoni bor tuzilmalar shunday huquqqa ega.

Davlat mukofotlari oliy hokimiyat organlari tomonidan fan, san'at, texnika, ishlab chiqarish sohasida ulkan yutuqlarga erishgan fuqarolarga beriladi. Mukofotlar xalq artisti, xalq shoiri, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, xalq rassomi kabi nominatsiyalar asosida beriladi.

Jazo tayinlanishida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish holati masalasi ham ko'rib chiqilishi mumkin. Agarda shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, suiqasd bosqichlarida hamda jinoiy oqibat kelib chiqishini anglagan holda harakatni to'xtatib, zararining oldini olsa, ixtiyoriy qaytish yuz beradi. Buning uchun javobgarlik va jazo istisno qilinadi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jinoiy jazolardan qaysi biri chiqarib tashlangan?
 - a) Axloq tuzatish ishlari
 - b) Qamoq
 - c) Ozodlikni cheklash
 - d) Majburiy jamoat ishlari
2. Jarima qaysi jazolar tizimida mavjud emas?
 - a) Intizomiy

- b) Fuqaroviy
 - c) Ma'muriy
 - d) Barchasida mavjud
3. Jinoiy jarimaning miqdori bazaviy hisoblashning qancha miqdorni tashkil etadi?
- a) 5 baravardan 600 baravarigacha
 - b) 3 baravardan 300 baravarigacha
 - c) 3 baravardan 500 baravarigacha
 - d) 1 baravardan 300 baravarigacha
4. Asosiy va qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniluvchi jazo turini toping
- a) Jarima
 - b) Muayyan huquqdan mahrum qilish
 - c) Intizomiy qismga jo'natish
 - d) Ozodlikni cheklash
5. Qo'shimcha jazo qachon kuchga kiradi?
- a) Asosiy jazo qo'llanib bo'lingandan so'ng
 - b) Sud hukmi o'qilgandan so'ng
 - c) Sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng
 - d) Shartli ozod qilingandan so'ng
6. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 martidagi №421-sonli Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan jinoiy jazoni toping
- a) Jarima
 - b) Axloq tuzatish ishlari
 - c) Majburiy jamoat ishlari
 - d) Xizmat bo'yicha cheklash
7. Majburiy jamoat ishlari kimlarga nisbatan qo'llaniladi?
- a) Harbiy xizmatchilar
 - b) Chet el fuqarolari
 - c) Pensiya yoshiga yetganlar
 - d) Avval sudlanganlar

8. Axloq tuzatish ishlarining jazo muddatini ko'rsating
- a) 1 oydan 1 yilgacha
 - b) 6 oydan 3 yilgacha
 - c) 1 oydan 3 yilgacha
 - d) 6 oydan 1 yilgacha
9. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 10 avgustidagi №389-sonli Qonuni bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan jazo turini ko'rsating
- a) Jarima
 - b) Xizmat bo'yicha cheklash
 - c) Ozodlikni cheklash
 - d) Majburiy jamoat ishlari
10. Intizomiy qismga jo'natish kimlarga nisbatan qo'llaniladi?
- a) Mansabdor shaxslarga
 - b) Harbiylarga
 - c) Retsidiv jinoyat sodir etganlarga
 - d) Pensionerlarga
11. Intizomiy qismga jo'natishning muddatlari qancha vaqtni tashkil etadi?
- a) 1 oydan 1 yilgacha
 - b) 6 oydan 3 yilgacha
 - c) 3 oydan 3 yilgacha
 - d) 3 oydan 1 yilgacha
12. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatini ko'rsating
- a) 6 oydan 15 yilgacha
 - b) 1 oydan 25 yilgacha
 - c) 1 oydan 20 yilgacha
 - d) 1 oydan boshlab umrbod
13. Faqat qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladigan jazo turini toping
- a) Muayyan huquqdan mahrum qilish
 - b) Maxsus yoki harbiy unvondan mahrum qilish
 - c) Majburiy jamoat ishlari

d) Ozodlikni cheklash

14. Faqat ikkita jinoyat uchun qo'llaniluvchi jazoni toping

- a) Majburiy jamoat ishlari
- b) Ozodlikni cheklash
- c) Umrbod ozodlikdan mahrum qilish
- d) Maxsus yoki harbiy unvondan mahrum qilish

15. Ayollar jazoni ijro etishning qaysi muassasasida jazoni o'tamaydilar?

- a) manzil koloniyada
- b) umumiy tartibli koloniyada
- c) qattiq tartibli koloniyada
- d) maxsus tartibli koloniyada

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jinoiy jazolarning maqsadi nimaga qaratiladi?
2. Jarima boshqa jazolar bilan almashtirilganda qanday differentsiyani tashkil etadi?
3. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining asosiy va qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilish muddatlarini ko'rsating.
4. Majburiy jamoat ishlarining qo'llanilish soatlari va muddatlarini ayting.
5. Axloq tuzatish ishlarining ko'rsatkichlarini tavsiflang .
6. Xizmat bo'yicha cheklashning o'ziga xos xususiyatini ko'rsating.
7. Sud hukmi nima uchun davlat nomidan qo'llaniladi?
8. Jinoyat kodeksida nima uchun jazo yengilidan og'iriga qarab joylashtiriladi?
9. Jinoiy jazo turlarini sanab bering.
10. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tavsiflang.
11. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining ayollar va erkaklar uchun belgilangan chegarasini ayting.
12. Qo'shimcha jazolarni qo'llanilish maqsadlarini tavsiflang.

13. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish qanday holatlarda qo'llaniladi?
14. Ozodlikni cheklashning boshqa jazolardan farqini tushuntiring.
15. Majburiy jamoat ishlarining xususiyatlarini tavsiflang.

6 BOB. JAZO TAYINLASH ASOSLARI

Jazoni umumiy asoslarda tayinlash asoslari

Jazo tayinlash Jinoyat kodeksining XI bobida o'z aksini topgan bo'lib, unda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan jazo qo'llash asoslari belgilangan. Jazo qo'llanilishida jinoyat qonunchiligining Umumiy va Maxsus qismi normalari ishtirok etadi.

Qilmishni jinoyat deb topish va unga jazo tayinlash Umumiy qism normalarida nazarda tutilgan asoslarda amalga oshiriladi. Umumiy qism normalari jazoni jinoyat sodir etgan shaxs uchun moslashtirish imkonini beradi. Jinoyat kodeksining Maxsus qismi qilmishning dispozitsiyasi va sanksiyasini ifodalaydi. Jinoyat printsiplari, og'irlashtiruvchi, yengillashtiruvchi holatlar, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi, javobgarlik va jazodan ozod qiluvchi holatlar, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari kabi mezonlar jazo tayinlanishida uning adolatlilikini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jazo tayinlash – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga sud orqali davlat tomonidan ta'sir o'tkazilishidir. Qo'llaniladigan ta'sir chorasi jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi normani aniqlash va uning sanksiyasida nazarda tutilgan jazo turlaridan birini tanlab olishni ko'zda tutadi.

Jinoyatning sodir etilishi javobgarlikni keltirib chiqaradi. Jinoyat-protsessual harakatlar sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb topish uchun asos bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Surishtiruv va tergov paytida qilmishning jinoyat emasligi, ya'ni unda ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflilik, ayb va jazoga sazovorlikning mavjud bo'lmasligi jinoiy ish yuritish to'xtatilishiga olib keladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida jazo tayinlash uchun ayblash va hukm qilish asoslari belgilangan. Unda ko'zda tutilishicha, jinoiy ishni sudga yuborish va jazo qo'llash uchun quyidagilar isbotlangan bo'lishi kerak:

- 1) jinoyatning ob'ekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;
- 2) sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- 3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi;
- 4) jinoyat to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari;
- 5) ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.¹

Ushbu elementlar tergovchi tomonidan tekshiriladi. Tergov bo'linmalari ichki ishlar bo'limlari, davlat xavfsizlik xizmati va prokuratura organlari tizimida mavjud bo'lib, barcha me'yorlar mos kelganda tergovchilar ish hujjatlari ko'rib chiqish uchun dastlab prokurorga yuboradi. Prokuror tomonidan ish o'rganib chiqilib, ayblov to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, sudga jo'natiladi va sudda prokuror yoki prokuratura xodimi davlat ayblovchisi sifatida ishtirok etadi.

Sudda sudlanuvchiga ayblovning e'lon qilinishi jazo tayinlashni kafolatlamaydi. Zero ishning sudga ko'rilishi sudlanuvchiga oqlov hukmi chiqarilishiga ham olib kelishi mumkin. Oqlov hukmining chiqarilishi uchun sudga ko'rilayotgan ish bo'yicha jinoiy hodisa ro'y bermaganligi, qilmishda jinoyat tarkibining mavjud emasligi va shaxsning jinoyatga daxli yo'qligi holatlaridan biri asos bo'ladi.

Jazo tayinlanishida Maxsus qism normalarida nazarda tutilgan muqobil jazolardan bittasi qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bir nechta asosiy jazolarning qo'llanilishi jinoyat qonunchiligining buzilishi hisoblanib, bu keyinchalik hukmning bekor qilinishiga olib keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. –T.: Adolat, 2019. – 49-bet.

Sud tomonidan ish ko'rib chiqilib, sudlanuvchi aybdor deb topilsa, unga jazo tayinlanishida sodir etilgan jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavfliligiga ko'ra darajasi, qilmishning sodir etilish sabablari, yetkazilgan zarar miqdori va xususiyatlari, aybdorning shaxsiga xos sifatlar hamda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar e'tiborga olinadi.

Barcha holatlarni hisobga olish tayinlanadigan jazoning adolatliligiga xizmat qilishi lozim. Sud tomonidan jazoning belgilanishida aybdorning shaxsi jiddiy tahlil etilishi zarur. Bunda sudlanuvchining yoshi, jinsi, salomatligi, ayollarda homiladorlik, ma'lumoti, oilaviy sharoiti, ma'naviy axloqi, muqaddam sudlanganligi, konstitutsiyaviy tuzumga munosabati kabi omillarga oid ma'lumotlar inobatga olinadi.

Jazo tayinlanishida shaxsning tergov yoki sud muhokamasi davrida ko'rsatmalarni o'zgartirishi, bir-biriga ziddiyatli javoblar berishini sudga qarshi harakat deb hisoblamaslik lozim. Jazo tayinlashda sud tomonidan bunday harakatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topish noto'g'ridir, lekin aybiga iqrorlik va jinoyat ochilishiga sidqidildan yordam berish jazoning yengillashtirilishiga, ayrim hollarda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari tayinlanishiga olib keladi.

Topshiriq

Yuqori qavatdan yiqilib tushgan bemorni "Tez tibbiy yordam" markaziga olib kelishdi. Uni o'limdan saqlab qolish uchun kuchli ukol-dorilar berishdi. Biroq bemordagi autizm xastaligi ularni davolovchi xususiyatiga bardosh bera olmay, koma holatini vujudga keltirdi. Bemor komadan chiqqa olmay, uch kundan keyin vafot etdi. O'lgan bemorning qarindoshlari vrachlarni sovuqqonlikda ayblab, ularning ustidan prokuraturaga shikoyat qilishdi.

– Prokuratura nima chora qo'llashi kerak?

Sud tomonidan tayinlanadigan jazo Maxsus qismda belgilangan jinoyat uchun belgilangan jazo muddatidan oshib ketmasligi kerak. Masalan, biror jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilishning yeng uzoq muddati besh yilgacha qilib belgilangan bo'lsa, unday holda aybdorga besh yilu bir kunlik muddat ham

qonunning buzilishidir. Jinoyat kodeksida jinoyat uchun besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan hollarda, sud tomonidan ishning xususiyatlari ko'rib chiqilib, ikki yarim yildan ham kamroq ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanishiga yo'l qo'yiladi. Bunda jazo kamaytirilib tayinlanishi sabablari sudning hukmida asoslantirilishi talab qilinadi.

Jazoning yengillashtiruvchi holatlari

Jinoyat kodeksida jazoni yengillashtiruvchi holatlar sud tomonidan jazo tayinlanishida e'tiborga olinadigan asosiy jihatlardan biridir. Yengillashtiruvchi holatlar jazoni yumshatish, aybdorning holati og'irlashuvini oldini olish, kelajakda jamiyat uchun xavfli shaxsga aylanishiga yo'l qo'ymaslik kabi maqsadlarni ko'zda tutadi.

Jinoyatning yengillashtirilishida jinoyat sodir etgan shaxsning aybini bo'yniga olish to'g'risidagi murojaati, sodir etgan qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, shuningdek jinoyatni ochish uchun faol yordam berishi yeng muhim asos vazifasini o'taydi. Boisi, shaxsning xatti-harakati huquqni himoya qiluvchi organlar ishini yengillashtiribgina qolmay, jinoyat oqibatlarini bartaraf etilishida ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsning o'z aybini bo'yniga olib tegishli organlarga murojaat qilishi tayinlanadigan jazoning qisqartirilishini ta'minlaydi. Murojaat qilish tegishli organlarga o'zining kelishi, og'zaki, yozma yoki elektron tarmoqlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Uning chin ko'ngildan pushaymonligini aniqlash sodir etgan qilmishini to'liq va ochiq e'tirof etish, o'z xatti-harakatni qoralash, jazoni itoatkorona qabul qilish kabi asoslarda aniqlanadi. Aybiga pushaymonlik jinoyat protsessining istalgan bosqichida ro'y berishi mumkin. Jinoyatning ochilishiga faol ko'maklashish qilmishga aniqlik kiritish, uning noma'lum jihatlari tergov va sudga yetkazishda namoyon bo'ladi.

Etkazilgan zararni ixtiyoriy bartaraf etish jazoni yengillashtirishdagi ikkinchi jihat bo'lib, u jismoniy, mulkiy va ma'naviy zarar shaklida bo'lishi mumkin. Zararni qoplash jabrlanuvchiga kelib oqibat uchun ruhiy zarbani yumshatishga yordam beradi.

Jismoniy zarar badanga shikast yetkazilishida namoyon bo'ladi. Davolanishga ko'maklashish, dori-darmon, tibbiy vositalar uchun to'lovni amalga oshirish, tana a'zolaridan taqdim etish jismoniy zararni qoplashni anglatadi.

Mulkiy zarar zararlangan mulkni asl holiga qaytarish yoki unga tenglashgan boshqa mulk bilan almashtirish, pul berish shaklida bo'ladi va yo'qotilgan mulkning o'rnini qoplanishiga xizmat qiladi.

Ma'naviy zararni o'lchash mezonlari bo'yicha umummajburiy standartlar hozirgacha mavjud emas. Uni ikki xil shaklda, ya'ni pul berish yoki uzr so'rash shaklida amalga oshirish mumkin. Ma'naviy zararni qoplashda pul berish shakli nisbatan keng yoyilgan, ba'zi hollarda jabrlanuvchi pul bilan uzr so'rashni ham talab etish holatlari uchraydi.

Og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish yengillashtiruvchi holatlar ichida miqyosi kengroq holat bo'lib, yengillashtiruvchi holatlarga boshqa vaziyatlarni ham kiritish imkonini beradi. Bunday vaziyatlarni tartibga solishning imkoni mavjud emas. Jinoyat sodir etishda asosiy mezon shaxsning og'ir ahvoli hisoblanib, bunga juda ko'p omillar sababchi bo'lishi mumkin. Oilaviy, moddiy, salomatlik, ruhiy va boshqa jihatlardan qiyin vaziyatga tushish, ko'pincha kishilarni jinoyatga boshlashi isbot talab etmaydigan haqiqat. Og'ir sharoit sababli jinoyat sodir etish jazodan ozod qilmaydi. Faqat jazo tayinlanishida qilmishni yengillashtiruvchi holat deb topiladi. Shaxsning ichkilikbozlik, giyovandlikka chalinganligi, qimorda boy berishi sababli jinoyat sodir etishi holatlari yengillashtiruvchi holat deb topilmaydi.

Majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish shaxsning majburan shunday ishga qo'l urishida namoyon bo'ladi. Majburlash jismoniy yoki ruhiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Majburlashning har ikki turi shaxsni irodaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va qonun belgilagan chegaradan chiqishiga sababchi bo'ladi. Aynan shuning uchun mazkur holatni yengillashtiruvchi holat deb topish mumkin.

Shaxsning moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramligi oqibatida jinoyat sodir etishida ijtimoiy xavfli qilmish bilan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish

bo'lishi hamda unga aynan qaramlik asos bo'lishi kerak. Jinoyat sodir etilishiga xizmat qaramligi sabab bo'lmagan holatlarda yengillashtiruvchi holat mavjud bo'lmaydi. Sud tomonidan jazo tayinlanishida majburlash va qaramlik haqiqatdan jinoyat yuz berishiga sababchi bo'lganligi hisobga olinadi.

Kuchli ruhiy hayajon holatida jinoyat sodir etish yengillashtiruvchi holat sifatida qabul qilinadi. Bunda jabrlanuvchi tomonidan zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi lozim. Bu kabi harakatlarga aloqador bo'lmagan odamlarga nisbatan qilingan tajovuz yengillashtiruvchi holat hisoblanmaydi. Kuchli ruhiy hayajonlanish affekt holat sifatida e'tirof etilishi uchun sud tomonidan ekspertiza tashkil etiladi va uning xulosasi jazo tayinlashga asos bo'ladi.

Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab, kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq asosli tavakkalchilik sharoitida zarar yetkazish qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar hisoblanib, agar uning chegarasidan chiqilsa, javobgarlik paydo bo'ladi. Zarar yetkazgan shaxs foydali maqsadlarni ko'zlaganligi bois sud tomonidan uning xatti-harakati yengillashtiruvchi holat deb topiladi. Jazo tayinlanishida ushbu foydali maqsadlarning amalda mavjud bo'lganligi fakti ahamiyatga ega bo'ladi.

Yengillashtiruvchi holatlarning yana biri uning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi bo'lib, 18 yoshga to'lmaganlik fakti buning asosidir. Voyaga yetmaganlar yoshi katta shaxslarga qaraganda qilayotgan harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavflilik darajasini yetarlicha tushunmasligi mumkin. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar yoshi kattalarga qaraganda huquqiy ongi nisbatan pastligi, qiziqqonligi, oqibatni to'la tasavvur qila olmasligi sababli muammoli holatlarga ko'p uchraydi. Shuning uchun jazolar qo'llanilishida yoshning ahamiyati yuqori bo'ladi. Chunonchi, voyaga yetmaganlar uchun jazo nisbatan kamroq muddatlarga qo'llaniladi. Xatto 16 yoshga to'lganlar va bu yoshga to'lmaganlar uchun bir xil jinoyatga ikki xil jazo tayinlanishiga yo'l qo'yiladi.

Homilador ayollar uchun tayinlanadigan jazolar homilador bo'lmagan ayollarga qaraganda yengilroq shaklga ega. Jinoyat sodir etilishi paytida ayolning homiladorligi ahamiyatlidir. Ayollar homiladorlik paytida ruhiy muvozanati tez buzilishi va kayfiyatining tez o'zgarishi ayrim hollarda jinoyat sodir etishga yetaklashi mumkin. Sud buni inobatga oladi va ayolga yengilroq jazo yoki majburlov chorasini qo'llaydi. Bunga homiladorlik faktining o'zi yetarlidir.

Jinoyat kodeksining 55-moddasi i) bandi jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'sirida jinoyat sodir etishni yengillashtiruvchi holat deb topadi. Bunda huquq va axloq me'yorlariga mos kelmaydigan xulq-atvor tushuniladi. Bunday xulq nafaqat jinoiy, balki intizomiy, fuqaroviy yoki ma'muriy huquqbuzarlik doirasi kirishi, shuningdek ma'naviy qadriyatlarga zid bo'lishi ahamiyatga ega. Bunda jinoyat sodir etilishiga jabrlanuvchining atayin uyushtirgan g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori jinoiy oqibatga olib kelishi asosiy mezondir.

Jinoyat kodeksida yengillashtiruvchi holatlar sifatida to'qqizta band ko'rsatilgan bo'lib, ular jazo tayinlanishida inobatga olinuvchi qat'iy qoidalardir. Jazo tayinlashda faqat shu bandda ko'rsatilgan holatlarni yengillashtiruvchi deb topish to'g'ri emas. Shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etganligi, oilaning yagona boquvchisi ekanligi, qaramog'ida keksa ota-onalari yoki nogiron farzandlari borligi kabi Jinoyat kodeksining 55-moddasida ko'zda tutilmagan holatlar ham jinoyatni yengillashtiruvchi holat deb topilishiga olib keladi.

Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar

Jinoyat kodeksi qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish va unga jazo chorasi qo'llanilishi asoslarini belgilaydi. Jinoyatlar turli xil vaziyatlarda sodir etiladi. Ularning ayrimlarida qilmishni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi jazoning yengillashuviga olib keladi. Hamma jinoyatlar haqida ham bunday deb bo'lmaydi. Sodir etilgan jinoyatlarning ba'zilar jamiyatga katta xavf tug'dirishi mumkinligi inobatga olinib, og'irroq jazo tayinlanishi mumkin. Bunda qilmishni og'irlashtiruvchi holatda sodir etilgan deb topilishi alohida ahamiyatga ega.

JK 56-moddasida sud tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi topiladigan holatlar belgilangan. Ushbu moddadan quyidagilar o'rin olgan:

- homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan;
- xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;
- aybdorga moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan;
- o'ta shafqatsizlik bilan;
- ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda;
- yosh bola yoki ruhiy holati buzilganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda;
- jinoyat natijasida og'ir oqibatlarning kelib chiqqanligi;
- umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida;
- g'arazli yoki boshqacha past niyatlarda;
- irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zahirida;
- bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan;
- ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi;
- mastlik holatida yoki giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish¹.

Jazo tayinlanishida bundan boshqa holatlar og'irlashtiruvchi holat deb topilmaydi. Sud tomonidan jinoyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda bunday holatlarni og'irlashtiruvchi holat deb topmasligi ham mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. –T.: Adolat, 2019. – 29 – bet.

Homilador ayol, voyaga yetmagan, keksa yoshli, yordamga muhtoj kabi ijtimoiy guruhlarga nisbatan jinoyat sodir etilishi har doim jamiyat uchun xavfli natijalar keltirib chiqaradi. Ularga nisbatan jinoyat sodir etish jinoyatchining ma'naviy tubanligini isbotlaydi. Keks kishilarga 55 yoshga to'lgan ayol yoki 60 yoshga to'lgan erkaklar kiradi. Yordamga muhtoj kishi jinoyatchiga qarshilik ko'rsata olmaydigan, o'z huquqini himoya qila olmaydigan, harakatlarini boshqara olmaydigan, xavfga chap bera olmaydigan kishidir.

Xizmat burchini bajarayotgan shaxs mehnat shartnomasi, ustav va jamoa shartnomalarida belgilangan vakolatlarni bajarishi shart bo'lgan xizmatchilardir. Ularga harbiy xizmatchilar, huquq-tartibot organlari xodimlari, davlat muassasalari, xususiy tashkilotlar xizmatchilari, menedjerlari va boshqalar kiradi.

O'ta shafqatsizlik va ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etilishi jamiyat a'zolari o'rtasida qo'rquv va tashvishni keltirib chiqaradi. Chunki bunday usullar asosan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda tiriklayin ko'mib yuborish, yoqib yuborish, tanasini bolta bilan bo'laklab tashlash, murdasini tahqirlash kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Topshiriq

Kechki smenadan uyiga qaytayotgan ishchini yo'lini to'sib, yo'lto'sarlar unga tegishli bo'lgan pullarini tortib oldi. Ishchi ularning birini tanisada, o'zini tanimaganga oldi. Oradan uch kun o'tib o'zi tanigan yo'lto'sarni uchratdi va manziligi aniqladi. Keyin sheriklari bilan kelib, yo'lto'sarni do'pposlashdi. Uning oyoq-qo'lini sindirishdi.

– Holatga baho bering.

G'arazli, past niyatlarda jinoyat sodir etish ma'naviy qashshoqlikdan dalolat beradi. Irqiy, milliy dushmanlik yoki adovat zamirida jinoyatning sodir etilishi millatlararo nizolar, ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois bunday jinoyatlar jazoning og'irlashuviga olib keladi.

Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar JKning Maxsus qismi dispozitsiyasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi deb topilgan bo'lsa, sud tomonidan jazo tayinlanishida inobatga olinmaydi.

Jinoyat kodeksidagi jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni taqqoslab ko'riladigan bo'lsa, yengillashtiruvchi holatlar ko'pligi ayon bo'ladi. Boisi Jinoyat kodeksida tilga olinmagan holatlarni ham sud yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin. Og'irlashtiruvchi holatlar kodeksda belgilanmagan bo'lsa, jazo tayinlashda inobatga olinmaydi.

Yengilroq jazo tayinlash asoslari

Jinoyatning sodir etilishi jazo qo'llanilishini keltirib chiqaradi. Qilmishning ijtimoiy xavfliligi, zararning darajasi va miqdori, aybdorning shaxsi kabi omillar jazoning og'irlashuvi yoki yengillashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat huquqi aybdorga Jinoyat kodeksida belgilanganidan ortiqroq jazo qo'llanilishiga yo'l qo'ymaydi. Yengilroq jazoni tayinlash esa bundan mustasno. JKning 57-moddasida yengilroq jazo tayinlash asoslari bayon etilgan.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarni e'tiborga olgan holda, yengilroq jazo tayinlashi mumkin. Bunda Maxsus qismda belgilangan jazoning yeng kam qismidan ham kam yoki bu jinoyat uchun nazarda tutilmagan boshqa yengil jazoni tayinlanishi mumkinligi ko'zda tutiladi.

Sud yengilroq jazo tayinlar ekan, unda ikki yo'ldan birini tanlaydi: 1) qonunda belgilanganidan jazoning yeng kam miqdoridan ham kamrog'ini tanlash; 2) sanktsiyada ko'zda tutilmagan boshqa jazo turini qo'llash.

Jazoning yengilrog'i bilan almashtirilishi uchun 55-moddada belgilangan yengillashtiruvchi holatlarning mavjud bo'lishi talab etilmaydi, ya'ni boshqa holatlar ham jazoni yengillata oladi. Buning asosiy sabab shundaki, ba'zan kodeksda belgilangan jazoning yeng kamini qo'llash ham aybdorning sodir etgan jinoyati uchun og'irlik qiladi. Kodeksda belgilangan va belgilanmagan yengillashtiruvchi holatlar inobatga olinib, jazo qo'llashda umumiy me'yorlardan chekinish mumkin.

Jazo qo'llanilishida sud qonun normalari va o'zining ichki ishonchiga tayanishi zarur. Qonun normalariga tayanishida jazoning yo'l qo'yiladigan

me'yorlaridan oshib ketishiga hamda umumiy printsiplarga rioya etishi talab etiladi. Sud aybdor shaxsga jazoni belgilar ekan, uning qancha miqdori axloqiy tuzalish yo'liga o'tishiga yordam berishini ichki ishonchi bilan his qiladi. Bunda Maxsus qismda belgilanmagan jazoni qo'llashiga ham yo'l qo'yiladi. Shu asosda qo'llash talab etiladigan qo'shimcha jazo turi ham qo'llanilmasligi mumkin.

Jazoning yengilrog'i tanlanishida 55–moddada nazarda tutilgan holatlar bilan birga, jinoyatning xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi aybdor shaxsi, aybning shakli va darajasi, jinoyat qilishga olib kelgan shart-sharoitlar, sabablar, aybdorning xulqi kabi xususiyatlar e'tiborga olinadi. Bu kabi xususiyatlarga ma'naviy zararning yo'qligi, shaxsning davlat va jamiyat oldidagi xizmatlari, og'ir oilaviy sharoit, sudlanuvchining keksa yoki nogironligi, jinoyat sodir etilishidagi boshqa holatlar misol bo'ladi.

Jinoyat qonunchiligining insonparvarlik xususiyati shundaki, jinoyat sodir etilishida aybdor bo'lgan shaxs o'z qilmishidan amalda pushaymon bo'lganida jazoning yengillashtirilishi asoslarini ham belgilagan. Bu holat JKning 57¹–moddasidan o'rin olgan. Sharhlanayotgan modda aybdorga jazoning maksimal darajasining 2/3 qismidan kamrog'ini qo'llashga imkon beradi.

Aybdorning o'z qilmishidan amalda pushaymon bo'lganligi JK 55-moddasi birinchi qismi “a” bandidagi aybini bo'yniga olish to'g'risida murojaat qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jinoyatni ochishda faol yordam berish holatlari va “b” bandidagi yetkazilgan jismoniy, ma'naviy, moddiy zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf etishi orqali namoyon bo'ladi. Ushbu holatlarning mavjudligidan tashqari, 56-moddada nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi holatlar qilmishda bo'lmasligi talab etiladi. Aynan shunday vaziyatda tegishli moddada nazarda tutilgan jazoning uchdan ikki qismidan ortiq bo'lmagan jazo qo'llaniladi.


Aybdorning qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligi ayrim jinoyatlar uchun jazo yengillatilishiga olib kelmaydi. Qasddan odam o'ldirishning og'irlashtiruvchi holati (97-modda II qismi) va terrorizm (155-modda III qismi) jinoyatlari uchun jazoning 57¹–modda bo'yicha qo'llanilishida cheklov o'rnatilgan.

Mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy xavfliligi bois jazoning yengillatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yengilroq jazo tayinlash aybdorning ahvolini yengillashtirish, keyinchalik jamiyat uchun xavfli shaxsga aylanishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatda inson omiliga e'tiborni yanada yuksaltirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash

Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasida jinoyatning bosqichlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz muhimdir. Jinoyatlarni qasddan sodir etilishida jinoyatchi oqibat kelib chiqishi rejalarini tuzadi, jinoyat sodir etish vositalari va qurollarini tayyorlaydi, muayyan vaqtni kutadi va boshqa maqsadlarni o'ylab oladi. So'ng amaliy harakatga o'tadi va yakunda o'z maqsadiga yetishishga intiladi. Jinoyat huquqi bu jarayonni uch qismga bo'ladi:



9-rasm. Jinoyatning bosqichlari

Jinoyat sodir etishga yo'naltirilgan harakat shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb hisoblanadi. Jinoiy uyushma tashkil etish (242-modda) kabi jinoyatlar tayyorgarlik bosqichida tamom bo'lgan jinoyat deb topiladi.

Jinoyatga suiqasd qilish oxiriga yetkazilmagan jinoyat hisoblanadi. Masalan, biror kimsa boshqa shaxsni o'ldirish uchun o'q otdi, o'qning tegmasligi yoki uni jarohatlashi yoxud uchinchi shaxsning o'limiga olib kelishi suiqasd bosqichidir. O'g'rilikka kirib qo'lga tushib qolish ham shunga o'xshash holatdir.

Jinoyat sodir etilishidan ko'zlangan maqsad oxiriga yetkazilsa, tamom bo'lgan jinoyat holati shakllanadi. Shuni qo'shimcha qilamizki, ayrim jinoyatlarda jinoiy oqibat kelib chiqishidan qat'iy nazar, suiqasdning o'zi tamom bo'lgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Ommaviy tartibsizliklar (244-modda), bezorilik (277-modda) va boshqa jinoyatlar buning misoli bo'ladi.

Sud tomonidan tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlanishida jinoyatning kvalifikatsiyalanishi, uning og'ir-yengilligi, tayyorgarlik va suiqasdning oxiriga yetmaganlik sabablarini o'rganadi.

Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolar tegishli moddada nazarda tutilgan jazo yeng kam muddatining 3/4 qismidan ortib ketmasligi kerak. Shuningdek, tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilmaydi.

Topshiriq

Harbiy qismda ishlovchi praporshik ishdan keyin uyiga kelib, qo'shnisi bilan ulfatchilik qilar, spirtli ichimliklar ichib, tun yarimgacha gaplashib o'tirishar edi. Kunlardan birida harbiy prokuratura uni chaqirib, davlatga xoinlik qilgan shaxsga harbiy sirlarni oshkor qilganligi munosabati bilan ayblov e'lon qildi. Praporshik o'ta mast hollarda ham qo'shnisiga harbiy sirlarni aytmaganligini ta'kidladi. U bu haqda haqiqatdan ham og'iz ochmagan edi.


– Praporshikni javobgarlikka tortilishiga nima sabab bo'lgan?

Jazoning bunday darajada yengillashtirilishi ayrim toifadagi jinoyatchilar va jinoiy holatlar uchun tadbiq etilmaydi. Xususan, o'ta xavfli retsidivist deb topilganlar, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolari hamda tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun ushbu yengilliklar qo'llanilmaydi. Mazkur holat qasddan odam o'ldirishning og'irlashtiruvchi holatlari (97-modda II qismi), 14 yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish (118-modda IV qismi) yoki zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda), yadroviy, ximiyaviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni, radioaktiv materiallarni kontrabandasi bilan bog'liq jinoyatlar uchun ham taalluqlidir.

Jinoyat sodir etilishida ishtirokchilar uchun jazo tayinlanishida har bir ishtirokchining aybini darajasiga yarasha jazo tayinlanadi. Bunda ularning xatti-harakatlaridagi yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar har bir ishtirokchi uchun alohida o'rganib chiqiladi.

Bir qancha jinoyat va hukm uchun jazo tayinlash hamda hisoblash

Amaliyotda ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etish holatlari ko'p uchraydi. Bunday jinoyatlar uchun jazo tayinlanishidan oldin ularning klassifikatsiyasi bilan tanish bo'lish lozim. Chunki takroran jinoyat sodir etish, davomli jinoyat, uzoqqa cho'zilgan jinoyat, jinoyatlar majmui va retsidiv jinoyatlar bir-biridan farqlanadi.



10-rasm. Bir qancha jinoyat sodir etish

Bir qancha jinoyatlar sodir etish sud oldiga bir qator muammolarni qo'yadi. Zero har bir sodir etilgan jinoyat uchun aybdorga qonunda belgilangan tartibda jazo tayinlanishi kerak. Bunday holatlarda har bir jinoyatni alohida kvalifikatsiya qilib, ularning har biri uchun jazolarni belgilab bir-biriga qo'shsak, ularning hajmi Jinoyat kodeksida belgilangan muddatlardan ham oshib ketishi muqarrardir. Bu qonun bilan ta'qiqlanadi.

Qonunni buzmaslik, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsning ahvoli og'irlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qancha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashning ikki yo'lidan foydalaniladi:

- a) har bir qilmish uchun jazo tayinlab, uning yengilrog'ini og'irrogi bilan qoplash;
- b) jazolarni to'la yoki qisman qo'shib jinoyatlar majmui uchun jazo tayinlash.

Bir qancha jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jinoyatlarning og'iri uchun belgilangan yeng ko'p jazodan ortib ketishi mumkin emas. Masalan, bir jinoyat uchun 3 yil, ikkinchisi uchun 5 yil, uchinchi jinoyat uchun 7 yil yeng ko'p muddatlar bo'lsa, uchala jinoyatni sodir etgan shaxs uchun 7 yildan ortiq bo'lmagan jazo tayinlanishi lozim.

Jinoyatlarning loaqal bittasi og'ir yoki o'ta og'ir bo'lsa, jazolar to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan tayinlanadi. Agar ularning bittasi umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lsa, bunda yengilroq jazo og'iri bilan qoplanadi.

Jinoyatchilik bilan bog'liq turli xil holatlar ham bo'lishi mumkin. Ba'zan birinchi hukm qonuniy kuchga kirmay turib, ba'zan jazo muddati oxiriga yetmay turib jinoyat sodir etilish holatlari yuz beradi yoki oldingi jinoyatlar ma'lum bo'lib qoladi. Har qanday holatlarda ham jazo tayinlashning yuqoridagi ikki yo'lidan foydalaniladi, ya'ni avvalgi hukmning o'talmagan qismi keyingi hukmga qo'shib hisoblanadi.

Jazo muddatlari almashtirilganda ularni hisoblash quyidagi shaklda amalga oshiriladi:

Ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuni	• ozodlikni cheklashning 1 kuniga teng • intizomiy qismga jo'natishning 1 kuniga teng
Ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuni	• axloq tuzatish ishlarining 3 kuniga teng • xizmat bo'yicha cheklashning 3 kuniga teng
Ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuni	• majburiy jamoat ishlarining 4 soatiga teng

11-rasm. Jazo muddatlarini hisoblash.

Jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish ushbu jazolar bilan qo'shilganda alohida ijro etiladi.

Hukm o'qilishidan oldingi muddatlar hisoblanishi ham Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan. Bunda ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'i vaqtini hisoblashda ularning 1 kuni yuqoridagi jadvaldagi ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuniga teng jazolarning differentsiyasiga to'g'ri keladi. Bu quyidagi tenglikka ega bo'ladi:

Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'ining 1 kuni	• ozodlikni cheklashning 1 kuniga teng • intizomiy qismga jo'natishning 1 kuniga teng • ozodlikdan mahrum qilishning 1 kuniga teng
Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'ining 1 kuni	• axloq tuzatish ishlarining 3 kuniga teng • xizmat bo'yicha cheklashning 3 kuniga teng
Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'ining 1 kuni	• majburiy jamoat ishlarining 4 soatiga teng • jarimaning bazaviy hisoblash miqdorini 1/2 qismiga teng

12-rasm. Ehtiyot choralarini jazolar bilan almashtirilishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har qanday sodir etilgan jinoyat javobgarlikni va unga loyiq jazo ko'llash faktini keltirib chiqaradi. Jinoyat uchun jazo tayinlanish suddan har bir elementni jiddiy tahlil qilish, qonunga va ichki ishonchiga tayanib, yetarli deb hisoblagan chorani qo'llashni talab etadi. Har qanday chorada insonparvarlik printsiplari ustuvorlikka ega bo'ladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Sanksiya Jinoyat kodeksining qaysi qismda mavjud bo'ladi?
 - a) Kirish qismida
 - b) Umumiy qismida
 - c) Maxsus qismida
 - d) Yakuniy qismida
2. Jinoyatning sub'ektiv tomoniga mansub qatorni toping
 - a) Harakat bilan sodir etilishi

- b) Aqli rasolik
 - c) Beparvolik orqasidan sodir etilishi
 - d) Harakatsizlik bilan sodir etilishi
3. Sudda davlat ayblovcisi sifatida kim ishtirok etadi?
- a) Himoyachi
 - b) Advokat
 - c) Prokuror
 - d) Tergovchi
4. Etkazilgan jinoiy zarar shakliga qirmaydigan qatorni toping
- a) Jismoniy
 - b) Siyosiy
 - c) Moddiy
 - d) Ma'naviy
5. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi holatga kiruvchi qatorni aniqlang
- a) Buyruqni bajarish
 - b) Homilador ayolning jinoyat qilishi
 - c) 1 guruh nogironining jinoyat qilishi
 - d) Javoblarning barchasi to'g'ri
6. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi holatga kirmaydigan qatorni toping
- a) Zaruriy mudofaa
 - b) Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish
 - c) Oxirgi zarurat
 - d) 1 guruh nogironining jinoyat qilishi
7. Jinoyatni og'irlashtiruvchi hisoblanmaydigan qatorni toping
- a) G'arazli va past niyatlarda jinoyat sodir etish
 - b) Uyushgan guruhning jinoyat sodir etishi
 - c) Xizmat jihatdan qaram shaxsning jinoyat sodir etishi
 - d) O'ta xavfli retsidivistning jinoyat sodir etishi
8. Sud'ya nimaga asoslanib hukm chiqaradi?

- a) Qonunga asoslanib
 - b) Qonun va ichki ishonchiga asoslanib
 - c) Qonun va qonunosti hujjatlarga asoslanib
 - d) Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib
9. Yengillashtiruvchi holat qaysi jinoyat uchun qo'llanilmaydi?
- a) Genotsid
 - b) Agressiya
 - c) Terrorizm
 - d) Kontrabanda
10. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish qaysi holatda qo'llanilmaydi?
- a) Qasddan odam o'ldirishning og'ir shakli uchun
 - b) Terrorizm uchun
 - c) Tamom bo'lmagan jinoyat uchun
 - d) Barcha holatlarda qo'llaniladi

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jazo tayinlashning ijtimoiy ahamiyatini tushuntiring.
2. Qilmishni jinoyat deb topish qanday asoslarda amalga oshiriladi?
3. Oqlov hukmining chiqarilishi asoslarini tushuntiring.
4. Bir necha jinoyat yuzasidan hukm chiqarishning xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Bir necha asosiy jazoning qo'llanilishining noqonuniylik sabablarini tushuntiring.
6. Sudlanuvchining ziddiyatli javoblari sudda inobatga olinmasligi sabablarini ko'rsating.
7. Yengillashtiruvchi holatlarni qo'llashning sabablari nimada?
8. Aybini bo'yniga olib arz qilish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Jazolarni almashtirish tartibini ayting.
10. Ehtiyot choralarini jazolar bilan almashtirish holatini tushuntirib bering.
11. Jinoyatlar majmui va retsidiv jinoyatlarni bir-biridan farqlang.

7 BOB. JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARI

Jazoning ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish 96

Jinoyat sodir etilishi ijtimoiy adolatning ta'minlanishi asoslarida jazo qo'llanilishini keltirib chiqaradi. Jazo turlari va uning tayinlanishi qonuniy tartibda belgilanadi. Mazkur holat jazodan ozod qilishga ham taalluqlidir. Jazodan ozod qilish jinoyat huquqidagi muhim elementlardan biri bo'lib, u shaxsning ahvolini yengillashtirish, jazo tufayli kelib chiqqan oqibat va aybdorga nisbatan qo'llanilgan chorani yumshatishda namoyon bo'ladi.

Jazodan ozod qilish javobgarlik qo'llanilganidan keyin yuzaga keluvchi holatdir. U sud hukmining qo'llanilishiga olib kelmaydi. Jinoyat qonunida jazodan ozod qilishning quyidagi turlari belgilangan:

- jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish;
- aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shartli hukm qilish;
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirish;
- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish;
- amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish.

Jazodan ozod qilishning ushbu turlari ishning holatlariga qarab muayyan o'rinlarda qo'llaniladi. Jazodan ozod qilishning har bir shakli jinoyat qonunchiligida o'z me'yoriga ega.

Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish uchun umumiy asos hukmning qonuniy kuchga kirishidir. Jinoyat ishlari sudi tomonidan hukm o'qilgach, 10 kundan so'ng u qonuniy kuchga kirishi zarur.

Agar qonuniy kuchga kirmasa qonun buziladi, bu jinoyatchilikning oldini olishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, hukmning ijrosi kechikib ketishi mumkin. Ijroni kechikishiga mahkumning ruhiy xastalikka chalinishi, salomatligining jiddiy tarzda buzilishi, fors-major, pandemiyalar kabi boshqa holatlar sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda quyidagi muddatlarning o'tishi jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishga asos bo'ladi:

3 yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilinganda	• 3 yil
5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda	• 5 yil
10 yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda	10 yil
10 yildan ortiq bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda	• 15 yil

13-rasm. Ijro muddati o'tib ketganligi uchun jazodan ozod qilish

Yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda hukm ijro etilmagan bo'lsa, asosiy va qo'shimcha jazolar mahkumga nisbatan qo'llanilmaydi. Bunda ikki omil, birinchidan, aybdorning jazoni o'tashdan bo'yin tovlamasligi va ikkinchidan, belgilangan muddat ichida yangi jinoyat sodir etilmasligi zarur.

Ushbu muddatlar tugamasdan turib, shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi muddatlar o'tishini avtomatik ravishda uzib qo'yadi. Yangi jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab, muddatlarni o'tishini hisoblash yangidan boshlanadi.

Bo'yin tovlash tushunchasi sud tayinlagan jazoni ijro etishdan qochishga qasddan harakat qilishni anglatadi. Bo'yin tovlash jinoyat tarkibi hisoblanmaydigan xatti-harakatda namoyon bo'ladi. Xususan, qamoqdan yoki qo'riqlav ostidagi saqlash joyidan qochish (222-modda) jinoyati jazoni ijro etishdan shaxsning bo'yin tovlashi harakati deb topilmaydi.

Jazoni ijro etishdan shaxsning bo'yin tovlashi harakati ongli ravishda amalga oshirilishi asosida yuzaga keladi. Bunda yashash, ish joyini o'zgartirish, boshqa tuman yoki viloyatlarga ketish, hujjatlarini o'zgartirish kabi harakatlar amalga oshiriladi. Bunda hukmda belgilangan jazodan qutulishga intilish asosiy maqsad hisoblanadi. Sud jazoni o'tashdan bo'yin tovlash harakatini aniqlashda mahkumning har bir harakatni sinchiklab o'rganishi zarur bo'ladi. Mahkumning xatti-harakatlarida ob'ektiv sabablar mavjud bo'lsa, uning xatti-harakatini jazoni ijro etishdan shaxsning bo'yin tovlashi deb topib bo'lmaydi.

Mahkumning jazoni o'tashdan bo'yin tovlashi jazoni ijro etish muddatini ko'paytiradi va muddatning o'tishini boshlanishi bo'yin tovlangan kundan boshlanadi, ammo bu muddat **25 yildan** ortib ketishi kerak emas.

25 yillik muddat juda uzoq muddat hisoblanib, buncha vaqtning o'tishi va oraliqda mahkumning yangi jinoyat sodir etmaganligi mahkumni tuzalish yo'liga o'tganligini anglatadi. Shuningdek, uning jinoyati tufayli kelib chiqqan oqibatlar o'zining xavflilik xususiyatlarini yo'qotadi. Vaqt odamlarning qalbiga yetkazilgan jarohatlarni davolaydi. Insonga xos bo'lgan g'azab va adovat kabi tuyg'ular davr o'tishi bilan pasayib boradi. Shuni inobatga olib, agar jazo tayinlangan kundan 25 yil o'tgan bo'lsa, jazoning ijro etilishiga yo'l qo'yilmasligi Jinoyat kodeksida belgilangan.

Jazoni ijro muddati o'tib ketganligi uchun mahkumni jazodan ozod qilish umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan bog'liq bo'lsa, bu masalani sud hal qiladi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish qasddan odam o'ldirishning og'irlashtiruvchi holatlari (97-modda ikkinchi qismi) va terrorizm (155-modda) uchun qo'llaniladi. Bunda jazoni ijro muddati o'tib ketganligi uchun jazodan ozod qilish qoidasi qo'llanilmaydi. Kodeksda sudga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash vakolatini beradi. Bunda shaxsning jinoyatdan so'ng xulq-atvorining o'zgarishi, jamiyatga xavf solish-solmasligi, yangi jinoyat sodir etmaganligi kabi omillarga e'tibor qaratiladi.

Jazoni ijro muddati o'tib ketganligi uchun mahkumni jazodan ozod qilish qoidalari JKning 150-157-moddalari, 158-modda birinchi qismi, 159-modda

uchinchi va to'rtinchi qismlari, 160, 161 va 244² –moddasidan o'rin olgan jinoyatni sodir etgan shaxslar uchun qo'llanilmaydi.

Shaxs xavflilik xususiyatini yo'qotishi va qilmishidan pushaymonligi sababli jazodan ozod qilish

Jinoyat kodeksining 70-moddasida shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish asoslari berilgan. Moddada jinoyatda ayblanayotgan shaxs ishi sudda ko'rilguncha sharoit o'zgardi deb hisoblanilsa yoki namunali xulqi, mehnatga, o'qishga munosabati orqali ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkinligi me'yori o'rnatilgan.

Moddani tarkibida sharoitning o'zgarishi tushunchasi mavjud bo'lib, shaxsning xavflilik xususiyati yo'qolishi, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasining tugashi kabi omillar bilan bog'liq. Shaxsning ijtimoiy xavfliligining yo'qolishi va jinoyatning ijtimoiy xavfliligining yo'qolishi o'rtasida farqlar mavjud.

Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qolishi jamiyat a'zolari uchun ortiqcha zararli bo'lmay qolganligini, odamlar undan cho'chimay qo'yganligini anglatadi. Bunga shaxsning o'z qilmishidan pushaymonligi, kelib chiqqan zararni ixtiyoriy bartaraf etganligi, jabrlanuvchidan uzr so'raganligi, yaxshi xulqi bilan jamoa o'rtasida obro' qozonishi kabi omillar kiradi.

Jinoyatning ijtimoiy xavfliligining yo'qolishi jinoyat sodir etilishi tufayli kelib chiqqan zarar jamiyat a'zolari uchun katta ahamiyatga ega bo'lmay qolishini anglatadi. Xususan, 1994 yilgacha amalda bo'lgan Jinoyat kodeksida "chayqovchilik" jinoyati mavjud bo'lib, sharoit o'zgarganligi sababli Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlangan.

Shaxsning namunali xulqi va mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan jamiyat a'zolarini xotirjamlikka olib kelishi mumkin. Namunali xulq shaxsning o'zini tutishi va xatti-harakatiga jamiyat a'zolarining bergan bahosi orqali kelib chiqadi. Shaxs faoliyatining huquqiy tomonlaridan ko'ra uning axloqiy jihatlarini

oldingi planga chiqadi. Jamiyatdagi axloqiy me'yorlarga amal qilishi, qonunga itoatkorligini amalda namoyon etishi xulosa chiqarish uchun zamin yaratadi.

Mehnatga bo'lgan halol munosabat jinoyat sodir etgan shaxsni mehnatga oid munosabatlarda o'z vazifalariga vijdonan yondashishi, mehnat shartnomasi doirasidagi majburiyatlarini halol bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi va boshqa asoslar bilan belgilanadi. Lekin mehnatga bo'lgan munosabat mehnat jamoasi doirasidagi jinoyat sodir etilishiga aloqador bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Aybdorning ishi sudda ko'rilayotgan paytda mehnat jamoasi uning namunali xulqi, mehnatga munosabati haqida xulosa berishi, uning ijtimoiy xavfliligining yo'qolganligi haqida kafillik berishi jazo tayinlanishida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Topshiriq

Fohishaxona saqlayotgan xonadonga tezkor xizmat xodimlari kirib borishdi va u yerda bo'lgan uy egasidan tashqari bir ayol va bir erkakni ko'rishdi. Ularni tergov qilishganda, erkak bu yerga ahyon-ahyonda kelib turishini, ayol uch kundan beri shu yerdaligini aytdi. Uy egasi bularning ikkalasi er-xotin bo'lsa kerak deb o'ylabman degan javobni berdi.

- Uch shaxsning har biriga qanday chora ko'riladi?

O'qishga bo'lgan munosabat ta'limning ichki tartib-qoidalarini, o'quv jarayoni, amaliyot jarayonlariga munosabatni anglatadi. Bunda kiyinish, darslarga qatnashish, vazifalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni bajarish, o'z ustida ishlash kabi holatlar bunday munosabatni oydinlashtirib beradi.

Sharoit o'zgarganligi, namunali xulq, mehnatga yoki o'qishga munosabat orqali shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo'qoldi, deb e'tirof etish uchun ushbu jarayon sudning ishni muhokama qilib, hukm chiqargunigacha bo'lgan vaqtda amalda namoyon bo'lishi kerak bo'ladi. Aynan shu holat sud tomonidan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilishi uchun sharoit yaratadi. Unutmaslik kerakki, ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qotganligi sababli jazodan ozod qilish sudning zimmasiga yuklatilgan majburiyat hisoblanmaydi. Sudning ayblanuvchining ahvolini yengillashtirish, jazoni yumshatish orqali uni tarbiyalashga erishish uchun vosita vazifasini

bajaradi. Bunga sudning huquqi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Pushaymonlik tufayli jazodan ozod qilishda ham sud shunday huquqqa ega bo'ladi. Aybdorning o'z qilmishidan pushaymon bo'lishi javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida qaraladi, lekin jinoyatchini jazodan ozod qilmaydi. JKning 71-moddasi mazkur holatni jazodan ozod qilish asoslarini bayon etadi.

Moddada belgilangan me'yorga ko'ra, aybdor shaxs ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lishi hamda JKning 55-moddasi "a" va "b" bandlarida nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirishi kerak. Bu aybiga iqror bo'lib murojaat qilishi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jinoyatni ochishga faol yordam berishi hamda yetkazilgan zararni o'z ixtiyori bilan bartaraf etishi lozimdir. Sud tomonidan aybdorni jazodan ozod qilish uchun ushbu asoslarning barchasi amalga oshirilgan bo'lishi kerak.

Aybdorning birinchi marta jinoyat sodir etganligi, ushbu jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kirishi zaruriy belgi bo'lib, busiz jinoyatchini jazodan ozod qilish mumkin emas. Gap shundaki, aybdor shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi, unga jazo berilganligi, sudlanganligi faktlari 71-moddada nazarda tutilgan jazodan ozod qilishning qo'llanilishi uchun yo'l qo'yib bermaydi.

Aybini bo'yniga olish o'z xohishi bilan sodir etilgan jinoyat haqida huquq-tartibot organlariga og'zaki, yozma yoki elektron tarzda murojaat qilishda, tafsilotlarni bayon qilib berishda tashabbusning uning o'zidan chiqqanligi belgilovchi ahamiyatga ega omillar bo'ladi.

Chin ko'ngildan pushaymonlik o'z tashabbusi bilan jinoyat ishi ochilishiga yordam berganligi, yetkazilgan jismoniy, mulkiy, ma'naviy zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi va boshqa harakatlarda namoyon bo'ladi.

Jinoyatlar har doim yakka bajaruvchi tomonidan amalga oshirilmasdan, ishtirokchilikda yuz berishi ham muqarrardir. Bunday hollarda ishtirokchilikda harakat qilgan shaxs yuqoridagi holatlar asosida o'z qilmishidan amalda pushaymon ekanligini ko'rsatishi lozim.

Agar shaxs jinoyatning oldini olish, jinoyatlarni ochish, tashkilotchi va

qolgan ishtirokchilarni aniqlashda yordam berib, o'zi og'ir va o'ta og'ir jinoyatda qatnashmagan bo'lsa, sud uni jazodan ozod qilish masalasini ko'rib chiqadi. Jinoyatning oldini olish jinoiy oqibat kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan harakatdan iborat bo'ladi. Jinoyatni ochish sud va tergov organlariga dalillarni yig'ish va baholashda yordamlashishda namoyon bo'ladi.

Shartli hukm qilish, shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

Shartli hukm qilish asoslari Jinoyat kodeksi 72-moddasidan o'rin olgan. Unda sud tomonidan jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va jinoiy ishdagi boshqa holatlarni inobatga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, qo'llashi belgilangan. **Ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari jazolari o'rniga** shartli hukm qilish tayinlanishi mumkin. Bunda sud tomonidan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqariladi.

shartli hukm qilish	• ozodlikdan mahrum qilish • intizomiy qismga jo'natish • xizmat bo'yicha cheklash • axloq tuzatish ishlari
jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish	• ozodlikdan mahrum qilish • intizomiy qismga jo'natish • xizmat bo'yicha cheklash • ozodlikni cheklash • axloq tuzatish ishlari
jazoni yengilrog'i bilan almashtirish	• ozodlikdan mahrum etish • ozodlikni cheklash • axloq tuzatish ishlari

14-rasm. Jazoni yengillashtirish asoslari.

Shartli hukm qilish jazoni qo'llamasdan jazo maqsadiga erishishni ko'zlaydi. Bu bir tomondan, davlatning insonparvarlik siyosati asoslariga mos kelsa, ikkinchi tomondan, shaxsni salbiy sifatlarga ega kishilar ta'siri ostiga tushib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Sud tomonidan shartli hukm qilinganda, u jazoning barcha muddatiga amal qiladi. Basharti, qilmish bir necha jinoyatdan iborat bo'lib, ular uchun umumiy jazo belgilanganda, shartli hukm qilish jinoyatlar jami uchun qo'llaniladi, jinoyatlar jamining alohida bir turi uchun qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Shartli hukm qilinganda aybdorga jazo turi va muddati belgilanadi, lekin bu jazoni qo'llanilmasdan, u shartli ravishda ozod qilinadi. Ozod qilinish mahkumga bajarilishi shart bo'lgan majburiyatlar yuklatilishiga olib keladi. Shartli hukm qilish muddati davomida mahkumga yetkazilgan zararni qoplash, ish yoki o'qishga kirib foydali ish bilan shug'ullanish, yashash, ish, o'qish joyi o'zgarsa, nazorat qiluvchi organni xabardor qilish, o'zining qonunga itoatkorligini ko'rsatishi lozim bo'ladi. Shuningdek, belgilangan joyda bo'lish, majburlov choralariga bo'ysunish, majburiy davolanish kurslarini o'tash kabi cheklovlar o'rnatilishi mumkin.

Ichki ishlar organlari va harbiy qism yoki muassasa qo'mondonligi mahkumning xulqi ustidan nazoratni olib borishga vakolatli organlardir. Ular mahkumning xulqini nazorat qilish davomida sudga muddatni qisqartirish, yangi majburiyatlarni yuklash, agar mahkum majburiyatlarini uzrli sabablarsiz bajarmasa, shartli hukmni bekor qilib, jazoni o'tashi to'g'risida ajrim chiqarish haqida sudga taqdimnoma berishi mumkin.

Topshiriq

Bir yigit to'rtta tengdoshi bilan yarim kechasigacha suhbatlashib o'tirdi. Soat 3.00da uyiga qaytmoqchi bo'lganida, tengdoshlari bir yerga borib kelishga undadilar. Beshovlari ko'p qavatli binolar oldida to'xtab, ularning to'rttasi yigitga mashinada o'tirib turishni aytib, binolar oralab kirib ketishdi. Yarim soatlardan so'ng qaytib kelishdi va uning qo'lga oltita tilla buyum va 700 AQSH dollarini tutqizishdi. Ertasiga naqd pul qilib olib kelsa, unga ulush berishlarini aytishdi. Yigit pul va buyumlar bilan qiziqqanda, hozirgina qimorda yutib olganliklarini aytishdi. Yigit ertasi kuni ularni so'mga aylantirayotganida, uni o'g'rilikda ayblab qo'lga olishdi. Bor gapni aytganida to'rt sherigi bundan tonib yubordi.

– Tergovchi nima chora qo'llashi kerak?

Shartli hukm qilish o'ta og'ir jinoyat sodir etgan mahkumlarga hamda ilgari qasddan jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum qilinganlarga qo'llanilmaydi.


Bunda 18 yoshga to'lmaganlar, 1 va 2 guruh nogironlari, ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar mustasno qilinadi.

Sinov muddati davomida shaxs yangidan jinoyat sodir etsa, yangi sodir etilgan jinoyat uchun belgilanadigan muddatga shartli hukm qilishning muddati qo'shiladi. Yangi jazo Jinoyat kodeksining 60-moddasi bilan belgilanadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish sud tomonidan tayinlangan jazoni o'tayotgan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda **ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash va axloq tuzatish ishlari** jazolarini o'tayotgan mahkumlar nazarda tutiladi. Muddatidan ilgari shartli ozod qilish hali ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishiga olib kelishi mumkin.


Muddatidan ilgari jazoni o'tashdan shartli ozod qilish uchun mahkumning xulqi, o'rnatilgan tartib-qoidalarga bo'ysunishi, mehnatga bo'lgan halol munosabati kabi mezonlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Buning uchun jazo muddati davomida intizomiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilmasligi, o'zining namunali xulq-atvori, yurish-turishi bilan nazorat qiluvchi organning barcha talablariga bo'ysunishi zarur.

Muddatidan ilgari jazoni o'tashdan shartli ozod qilish shartlari quyidagi tartibda o'rnatilgan:



15-rasm. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilmaydigan holatlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:



16-rasm. Shartli ozod qilish qo'llanilmaydigan holatlar

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish sud tomonidan jazo maqsadiga erishildi va mahkum uni to'liq o'tashi shart emas, degan xulosaga kelinishiga bog'liq. Jazoni ijro etuvchi organlar tomonidan berilgan ma'lumotlarning jami ushbu masalani sud tartibida ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi.

Sud tomonidan mahkumga tayinlangan jazoning ma'lum bir qismining haqiqatdan o'talishi muddatidan ilgari shartli ozod qilishning qo'llanilishida zaruriy shart bo'ladi. Bunda mahkumning jazoni ma'lum bir qismini o'tashi uning xulqi tuzalayotganligini isbotlashi lozim.


Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amnistiya akti va avf etish bilan ham bog'liq. Jazo muddatining qisqarishi va qaysi jinoyatlar uchun qo'llanilishiga oid tartib-qoidalar amnistiya va avf etish aktlarida belgilanadi. Bunda sud hukmi emas, balki amnistiya aktida yoki Prezidentning avf etish Farmonida belgilangan muddatlar asos vazifasini bajaradi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs jazoning o'talmay qolgan muddati davomida qasddan jinoyat sodir etilishi avvalgi jazo muddati tugamay yangi jinoyat sodir etilishi sifatida ko'riladi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish sud tomonidan mahkumni ahvolini yengillashtirish maqsadlarida qo'llaniluvchi chora sifatida ko'riladi. Ushbu chora **ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari** tayinlangan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladi. Hukm qilingan shaxslarga muddatning o'talmagan qismi uchun sud tomonidan yengilroq jazo tayinlanadi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishiga mahkumning namunali xulqi, jazo uchun o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etishi va mehnatga halol munosabatda bo'lishi kabi omillar asos bo'ladi. Yengilroq jazo belgilash uchun ham mahkum jazo muddatining ma'lum bir qismini amalda o'tashi majburiy shart bo'lib xizmat qiladi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi uchun quyidagi muddatlar o'talgan bo'lishi zarur:



17-rasm. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning bir kuni axloq tuzatish ishlarining bir kuniga tenglashtirilib, o'talmay qolgan muddatga tayinlanadi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish shartlariga o'xshash jihatlari ham bor bo'lib, har ikkisida ham

ta'qiq bir xil shaklga egadir. Shuningdek, muddat tugamasdan yangi jinoyat sodir etilsa, ikkisi ham JKning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish hamda amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish

Mahkumni jazodan ozod qilishda shaxsga bevosita bog'liq bo'lmagan holatlar ham asos bo'lishi mumkin. **Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish** oqibatida mahkumga jazodan ozod qilish qo'llanilishi uchun ikki holatdan biri bo'lishi zarur:

- o'z harakatining ahamiyatini anglayolmaydigan yoki uni boshqara olmaydigan darajada ruhiy holati buzilganligi;
- jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi boshqa og'ir kasallikka chalinganligi.

Jinoyat qonunchiligi har ikki holat uchun javobgarlikdan ozod qilishni qo'llaydi. Lekin sud tomonidan hukm chiqarilib, jazo tayinlanganidan keyin ham bu ikki holat yoki ulardan biri kelib chiqishi mumkin.

O'z harakatining ahamiyatini anglay olmaslik yoki uni boshqara olmaslik mahkumni tuzalishi yo'liga to'g'anoq bo'ladi. Ruhiy holatning buzilishi boshqa mahkumlar uchun ham ayrim hollarda xavf tug'dirishi mumkin. Boshqacha holatda mahkum boshqalar uchun ermakka aylanib qolishi yuz beradi. Ruhiy holatning buzilishi vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lsa, bunda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. Bemor tuzalgach, jazo muddati davom etadi. Agar davolash kursi jarayonida o'tkazilgan tibbiy tekshiruvlar mahkumni jazoni o'tashga loyiq emas, degan xulosani bersa, sud tayinlangan jazoni bekor qiladi.

Jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi boshqa og'ir kasallik mahkumning ruhiy xastaligi bilan bog'liq bo'lmaydi. Bunday kasalliklar bemorga alohida parvarishni talab etadi. Sil, astma, qandli diabet, ishemik insul't, onkologik, ko'rlik, oyoq yoki qo'lning kesib tashlanishi, og'ir formadagi gipertonik xastaliklar va boshqa kasalliklar shular jumlasiga kiradi. Bu kabi kasalliklar mahkumning jazoni o'tashiga real to'sqinlik qilishi aniq bo'lganda, sud tomonidan jazodan ozod qilish masalasi ko'rib chiqiladi.

Sud ruhiy holati buzilgan yoki jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi kasallikka chalingan mahkumni jazodan ozod qilish masalasini ko'rar ekan, shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi, bundan buyon jazoni o'tay olmasligi, jamiyat uchun ortiqcha xavf solmasligi kabi omillar tekshiriladi. Ushbu omillarning mavjudligi sudning kasallik mahkumning jazoni ijro etishiga to'sqinlik qiladi yoki qilmaydi deb hisoblashiga ta'sir ko'rsatadi.

Kasallik mahkumning jazoni ijro etishiga to'sqinlik qilmasa, jazodan ozod qilishi o'rniga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilishi mumkin. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddati tugaguncha jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketgan bo'lsa, jazo ijro etilmaydi.

Harbiy xizmatchilar uchun qo'llanilgan intizomiy qismga jo'natish va xizmat bo'yicha cheklash jazosi ijrosi davomida xizmatchining ruhiy yoki jismoniy holati xizmatni o'tashga yaroqsiz bo'lib qolsa, harbiy sud tomonidan jazodan to'liq ozod qilinadi.

Jinoyat qonunining insonparvarlik printsiplari asosida harbiy xizmatchi ayollarga jazodan ozod qilishda imtiyozlar belgilangan bo'lib, ularning homiladorligi va tug'ish ta'tili berilishi xizmat bo'yicha cheklash jazosini o'tashdan ozod qilinishlariga olib keladi. Ayollarning homiladorligi va tug'ish ta'tiliga chiqishi ularni majburiy jamoat ishlari hamda axloq tuzatish ishlari jazolaridan ham ozod qiladi.

Majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm etilgan mahkumlar jazoni o'tash davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolsa, shuningdek, pensiya yoshiga yetsa, jazodan ozod qilinadilar.

Amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'lib, u oliy vakillik organi hamda davlat boshlig'ining huquqni ijro etishga yo'naltirilgan hujjatlari bilan tartibga solinadi. Amnistiya akti va avf etish tushunchalari bir-biridan farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-modda 10-bandiga ko'ra, amnistiya akti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga asosan, Oliy Majlis Senati tomonidan

qabul qilinadi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 23-bandiga asosan, Prezident O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi.

Amnistiya va avf etish o'rtasida boshqa farqlar ham mavjud. Jumladan, amnistiya akti bayramlar, tantanalar yoki boshqa e'tiborli voqealar munosabati bilan oliy vakillik organi tomonidan qabul qilinib, jinoyat qonunidagi moddalar va jinoyatlar guruhlarini qamrab oladi. Shuningdek, jazo muddatlari qisqartirilishi va tugatilishi me'yorlarini belgilaydi. Amnistiya akti tergov, sud jarayonida ko'rilayotgan jinoyatlar hamda jazo ijro etilayotgan holatlarga nisbatan qo'llaniladi. Amnistiya akti uchun murojaat talab etilmaydi.

Avf etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan alohida olingan shaxs, shaxslar yoki jinoyatning alohida toifasiga nisbatan qo'llaniladi. Bunda sudlar tomonidan jazo tayinlangan shaxslarga nisbatan avf etish amalga oshiriladi. Sud tomonidan hukm etilgan mahkumlar avf etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga iltimosnoma yuborishlari mumkin.

Amnistiya akti yoki avf etish orqali quyidagi uch xil yengillik berilishiga yo'l qo'yiladi:

- asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi;
- jazoni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi;
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga avf etish to'g'risida iltimosnoma har qaysi mahkum tomonidan yuborilishi mumkin. Bu ishni tegishli organlar ko'rib chiqadi. Ayrim jinoyatlar uchun JKning 76-moddasida iltimosnoma berishning me'yorlari o'rnatilgan. Unga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan mahkum jazoning **25 yili**, agar qat'iy tuzalish yo'liga o'tib, buni amalda namoyon etsa, jazoning **20 yilini** haqiqatdan o'tagan bo'lsa, iltimosnoma berishi mumkin.

Uzoq muddatli (20 yildan 25 yilgacha) ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan mahkum jazoning **20 yilini**, agar qat'iy tuzalish yo'liga o'tib, buni amalda ko'rsatsa, jazoning **15 yilini** haqiqatda o'tagan bo'lsa, iltimosnoma berishi mumkin bo'ladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jazodan ozod qilish qaysi jarayondan so'ng vujudga keladi?
 - a) javobgarlik qo'llanilganidan keyin
 - b) sud hukmi qo'llanilganidan keyin
 - c) ayblov hukmidan so'ng
 - d) amnistiya aktidan oldin
2. Ayblov hukmi necha kundan keyin kuchga kiradi
 - a) 5 kundan keyin
 - b) 10 kundan keyin
 - c) 15 kundan keyin
 - d) 20 kundan keyin
3. Jinoiy jazo ijrosini kechikishiga nima sabab bo'ladi?
 - a) mahkumning ruhiy xastalikka chalinishi
 - b) salomatligining jiddiy tarzda buzilishi
 - c) fors-major holatlar
 - d) barcha javoblar to'g'ri
4. Sud tayinlagan jazoni ijro etishdan qochishga qasddan harakat qilish nimani anglatadi?
 - a) jazodan bo'yin tovlash
 - b) odil sudlovdan qochish
 - c) egri qasdni sodir etish
 - d) adolat uchun kurashish
5. Javobgarlikka tortish muddati 5 yildan ortiq bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan bog'liq bo'lsa, u qancha muddatdan so'ng o'tib ketgan hisoblanadi?
 - a) 3 yildan keyin
 - b) 5 yildan keyin
 - c) 7 yildan keyin
 - d) 10 yildan keyin

6. Jinoyat sodir etilgandan boshlab necha yil o'tgach jazoni ijro etish mumkin emas?
 - a) 10 yil
 - b) 15 yil
 - c) 20 yil
 - d) 25 yil
7. Sinov muddati necha yildan iborat bo'ladi?
 - a) 1 yildan 5 yilgacha
 - b) 1 yildan 3 yilgacha
 - c) 2 yildan 3 yilgacha
 - d) 2 yildan 5 yilgacha
8. Amnistiya akti qaysi organ tomonidan chiqariladi?
 - a) Oliy Majlis
 - b) Oliy Majlis Senati
 - c) Oliy sud
 - d) Konstitutsiyaviy sud
9. Avf etish kim yoki qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?
 - a) Oliy Majlis
 - b) Oliy sud
 - c) Konstitutsiyaviy sud
 - d) Prezident
10. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qaysi jazo tayinlangan mahkumlarga qo'llanilmaydi?
 - a) ozodlikdan mahrum qilish
 - b) muayyan huquqdan mahrum qilish
 - c) ozodlikni cheklash
 - d) axloq tuzatish ishlari

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jazodan ozod qilishning sabablari nimalardan iborat bo'ladi?

2. Jinoyat qonunida jazodan ozod qilishning turlarini tasniflang.
3. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish tartibini tushuntiring.
4. SHaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish asoslarini ayting.
5. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish qanday amalga oshiriladi?
6. SHartli hukm qilish tartibi qanday bo'ladi?
7. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari nimalardan iborat?
8. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tartibini tushuntiring.
9. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish asoslarini aytib bering.
10. Amnistiya akti asosida jazodan ozod qilish qanday amalga oshiriladi?
11. Avf etish asosida jazodan ozod qilish asoslarini ayting.

8 BOB. JINOYATDA ISHTIROKCHILIK

Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi

Har qanday ijtimoiy xavfi qilmish jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi uchun unda zaruriy elementlar va jinoyat tarkibining alomatlari mavjud bo'lishi kerak. Agar jinoyat bitta shaxs tomonidan sodir etilib, jinoiy oqibat kelib chiqishida uning o'zi aybdor bo'lsa, javobgarlik va jazoni belgilash birmuncha yengilroq kechadi. Har doim ham jinoyatlar yagona bajaruvchi tomonidan sodir etilavermaydi.

Ikki va undan ortiq shaxs ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar javobgarlik va jazo masalalarini belgilashda jiddiy yondashuvni talab etadi. Bunday jinoyatlar ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar sanaladi hamda jinoyatda ishtirokchilik tushunchasini tashkil etadi.

Jinoyatning rejalashtirilishi, tayyorgarlik ko'rilishi, suiqasd qilinishi, tamom bo'lishini yagona shaxs tomonidan amalga oshirilishi javobgarlikni bitta aybdorning zimmasiga yuklanishiga olib keladi. Ikki va undan ortiq shaxslarning jinoyatda qatnashishi vazifalarning taqsimlanishi, puxta rejalashtirilishi, aniq harakat qilinishi, jinoyat izlarini yashirishda tezkorlik ko'rsatilishi kabi jihatlarni ta'minlashi mumkin. Bir-biriga uzviy bog'liq jinoyatchilar birlashgan paytlarida ularning qo'rquv hissi ham chekinadi. Birgalikda harakat qilish asnosida bir ishtirokchi ikkinchisining vazifasini osonlashtirishi, kamchiligini bartaraf etishi, jinoyat izlarini yopishidan tashqari, yetkaziladigan moddiy zarar miqdorini ham bir necha barobar oshirib yuborishiga olib keladi. Shuningdek, yagona bajaruvchi tomonidan uddalash qiyin bo'lgan ishlarning oson bajarilishi ishtirokchilikdagi jinoyatlarni ijtimoiy xavfliligi yuqoriligini belgilaydi.

Jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv alomatlar ishtirokchilikda sodir etilgan qilmishda mavjud bo'ladi. Jinoyatning ob'ektiga qaratilgan tajovuz qilmishning barcha ishtirokchilarining birgalikdagi harakati asosida amalga oshiriladi. Bunda barcha ishtirokchilarning xatti-harakatlari Jinoyat kodeksi bilan ta'qiqlangan ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratiladi, ya'ni shu munosabatlarga zarar yetkaziladi.

Jinoyatda ishtirok etgan barcha qatnashchilarning ijtimoiy xavfli qilmishi tufayli kelib chiqqan oqibat uchun ularning barchasi javobgarlikka va jazoga tortiladi. Jinoyat tarkibi ob'ektiv tomonining tashkil qiluvchi fakul'tativ belgilar ishtirokchilarning qatnashganlik darajasini belgilab beradi.

Jinoyatning sub'ektlari sifatida ishtirokchilar aqli raso, o'z qilmishining xavflilik xususiyatini anglagan, kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatga ko'zi yetadigan shaxs bo'lishi talab etiladi. Agar ularning biri yoki bir nechtasi qonun bilan belgilangan yoshga yetmagan bo'lsa, jinoyatdagi qolgan ishtirokchilarning yelkasiga boshqa jinoyatni sodir etganligi aybini yuklanishiga sababchi bo'ladi.

Ishtirokchilikda jinoyat sodir etishning zaruriy sharti ikki va undan ortiq shaxsning birgalashib harakat qilishi bo'lib, ularning har ikkisi ham qonun bilan belgilangan yoshga yetgan, aqli raso shaxs bo'lishi lozim. Agarda ikki kishi

ishtirok etgan jinoyatda biri qonun bilan belgilangan yoshga yetgan, ikkinchisi voyaga yetmagan yoki ruhiy jihatdan o'z harakatini anglay olmaydigan hamda o'zini o'zi boshqara olmaydigan ruhiy kasallikka chalingan bo'lsa, bunday holat ishtirokchilikda sodir etilgan deb topilmaydi.

Voyaga yetmagan shaxsdan foydalangan holda yoki ruhiy nosog'lom shaxsdan foydalanib jinoyat sodir etish, jinoyat sodir etishga undash jinoyat qonunida og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etiladi va qo'llaniladigan jazoning og'irlashuviga olib keladi.

Jinoyat tarkibining sub'ektiv tomoni ishtirokchilarni qasddan jinoyat sodir etganligini to'la asoslaydi. Xususan, ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etilishida ishtirokchilik mavjud bo'lmaydi. Jinoyatning motivi va maqsadi ishtirokchilarning umumiy jinoiy niyati birlashuvini ta'minlaydi. Qasddan sodir etilgan jinoyatlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bir nechta moddasida ta'qiqlangan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazib, ularning barchasi ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan bo'lsa, unda har bir ishtirokchi jinoyatlar sodir etilishidagi ishtirokchilik darajasiga qarab javobgarlikka tortiladi va jazolanadi. Masalan, A. B. va V.lar o'g'rilikka kirib, o'zgaga tegishli bo'lgan mol-mulkni qo'lga kiritishdi va qaytayotgan paytlarida A. yo'lda tushib qolib uyiga ketdi. B. va V. o'g'rilik tufayli qo'lga kiritilgan pullarni bo'lishishlari jarayonida ikkisi o'rtasida nizo chiqib, B. V.ni pichoqlab o'ldirdi. Bunday holda A. o'g'rilik jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi. Chunki ikki sherigining bir-biri bilan pichoqlashishiga uning aloqasi yo'q. B. esa o'g'rilik va qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini sodir etganligi uchun javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining ba'zi moddalarda "bir guruh shaxslar tomonidan", ba'zi moddalarida "bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa" jummlari ishlatiladi. Bu jummlar ishtirokchilikning oddiy yoki murakkablik xususiyatlarini ochib beradi. oldindan til biriktirmay, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi ishtirokchilikning oddiy shakliga nisbatan ishlatiladi. Jinoyatning bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi murakkab ishtirokchilik shaklini ifodalaydi. Jinoyat qonunida

ishtirokchilikning uyushgan guruh va jinoiy uyushma shakllari ham mavjud bo'lib, ishtirokchilik shakllarining yuqori formalari hisoblanadi.

Jinoyatda ishtirokchilikning turlari

Jinoyat sodir etilishida ishtirok etayotganlar bajaradigan vazifasiga qarab bir necha turlarga ajratiladi. Jinoyat huquqi ishtirokchilikning quyidagi turlarini tasniflaydi: bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi. Har bir turga kiruvchi ishtirokchi jinoyat sodir etilishida o'z vazifasiga ega bo'ladi. Jinoyatni kvalifikatsiyalashda bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchining aniq o'rini belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Quyida ishtirokchilik turlariga Jinoyat kodeksida berilgan ta'riflar berilgan. Ushbu ta'riflar jinoyatchilikda ishtirokchilikning turlarini farqlash imkonini beradi:

BAJARUVCHI
• Jinoyatni bevosita yoki qisman sodir etgan yoxud Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib jinoyat sodir etgan shaxs
TASHKILOTCHI
• Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs
DALOLATCHI
• Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs
YORDAMCHI
• Jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek, bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs

18-rasm. Jinoyatda ishtirokchilik

Ishtirokchilarning turlarini ajratishda ularning bajaradigan vazifasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoyatning bajaruvchisi asosiy ishtirokchi hisoblanib, ijtimoiy xavfli qilmish yakka holda sodir etilganda ham bajaruvchining bir o'zi ishtirok etadi. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etishning ajralmas qismi unda bajaruvchining mavjudligidir.

JKning 28-moddasida bajaruvchiga berilgan ta'rifda uning faoliyatidagi ikkita holat ko'zda tutiladi. Uning birinchisi, jinoyatni bajaruvchi tomonidan bevosita yoki qisman sodir etishi hisoblanib, u bajaruvchining jinoyatni sodir etishdagi faol harakatini o'zida ifodalaydi. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etilganda bajaruvchi ba'zan bitta, ba'zan bir nechta bo'ladi. Ularning qancha hajmdagi ishni bajarishi avvaldan rejalashtirilgan bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Ikkinchi holat, jinoyat qonuniga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib jinoyat sodir etishini anglatadi. Javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga, asosan, qonun bilan belgilangan yoshga yetmaganlar hamda aqli norasolar kiradi. Jinoyatning bajaruvchisi ushbu toifadagi shaxslardan foydalangan holda, jinoyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etishi yoki etmasligidan qat'iy nazar, javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, boshqa vositalardan foydalangan holda jinoyat sodir etilishi ham bajaruvchining xususiyatlaridan biridir. Boshqa vositalar jismoniy shaxs bo'lmagan jonzorlar, ashyolar, mexanizm kabi texnika vositalaridan iborat bo'lib, ularning jinoyat sodir etilishida bajaruvchi tomonidan boshqarilishi bajaruvchini javobgarligiga sababchi bo'ladi.

Jinoyatlar tayyorgarlik, suiqasd yoki tamom bo'lish bosqichlaridan iborat bo'lib, bajaruvchilarning barchasi ushbu bosqichlarda ishtirok etishi shart emas. Jinoiy harakatning muayyan bir qismida ishtirok etish ham ishtirokchilik uchun javobgarlikni keltirib chiqaradi. Agar tayyorgarlik bosqichida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishlik bajaruvchilardan biri yoki bir nechta yuz bersa, ixtiyoriy qaytganlarga javobgarlikdan ozod qilish imkonini berilishini unutmaslik lozim.

Jinoyatda ishtirokchilarning ichida yeng xavflisi sifatida tashkilotchi tilga olinadi. Kodeks bo'yicha jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki uning sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi hisoblanadi. Ishtirokchilikning bu turi qolganlarni reja tuzish, uni amalga oshirish, qulay usullardan foydalanish, izlarni yo'qotish, bir-birlarini pana qilish kabi yo'l-yo'riqlari bilan birlashtiradi. Jinoyat amalga oshirilishida o'zi bevosita qatnashishi yoki qatnashmasligi ham mumkin,

lekin uning qilmish sodir etilishida qatnashmaganligi javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Topshiriq

Qurilish firmasi ish yurituvchisi bino yaqinidagi chiqindilarni mashinaga yuklab chekkaroq joyga olib borib tashlashni o'z xodimiga aytdi. Xodim buni ekskavatorchi va haydovchiga topshirdi. Chiqindilarni yuklab qaerga olib borib tashlashni so'raganida xodim buni bilmadi. Ish yurituvchiga telefon qilib tusha olmadi va oxiri xohlagan joyga tashlashi mumkinligini aytdi. Haydovchi chiqindilarni eski soyning o'zaniga tashladi. Oradan ikki kun o'tib sel keldi va chiqindini baliq boqiladigan hududga oqizib ketdi. Chiqindining ichidagi zaharli moddalar 120 tonna baliqni qirilib ketishiga olib keldi. Zararni to'lash talab etilganda, qurilish firmasi egasi bunda aybi yo'qligini aytib bosh tortdi. Ish yurituvchi, xodim va haydovchi buncha puli yo'qligini aytishdi.

– Baliqlarning zarari qanday qoplanadi?


Tashkilotchi guruhga rahbarlikni amalga oshirar ekan, bajaruvchilarning jinoyat paytidagi faoliyatini ham kuzatgan holda boshqarib turishi mumkin. U jinoyatning tashabbuskori, guruhning rahbari va ishtirokchilikning yeng xavflisidir.

Jinoyat kodeksi 28-moddasining 4-qismida ishtirokchilikdagi shaxsni dalolatchi deb topishning huquqiy asoslari belgilangan. Unga ko'ra, jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi. Dalolatchiga berilgan ushbu ta'rifda qiziqtirishning tartibi, shakli, darajasi haqida ma'lumot berilmagan. Dalolatchilikning tavsiya qilinadigan ro'yxatini shakllantirishning imkoni mavjud emas. Uning turli xil holatda, usulda, shakl va darajada bo'lishi ko'proq dalolatchining o'ziga xos sifatlaridan kelib chiqadi. Dalolatchi bajaruvchining imkoniyatlari, talab va ehtiyojlarini inobatga olib, aldov, qo'rqitish, va'da berish, iltimos qilish, jismoniy va ruhiy ta'sir ko'rsatish kabi usullardan foydalanishi mumkin. Bunda xizmat yoki moddiy qaramlik holatlaridan ham foydalanish imkoniyatlari mavjuddir.

Dalolatchi bajaruvchini jinoyat sodir etishga qiziqtirar ekan, o'z harakatining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi va xavfli oqibat keltirib chiqarishiga ko'zi yetadi. Shu nuqtai nazardan uning xatti-harakati jinoyatning ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarida belgilangan alomatlarga to'la mos keladi. Bu o'z navbatida

dalolatchini jinoyatda ishtirokchi sifatida javobgarlikka tortish uchun to'la asos bo'ladi. Jinoyatning kvalifikatsiya qilinishi hamda jazo belgilanishida unga bajaruvchi darajasidagi holat beriladi.

Ishtirokchilikning turlari ichida yordamchi jinoiy harakatda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmasada, jinoyat sodir etilishida ko'plab funktsiyalarni bajaradi. Ularni quyidagi shaklda tasavvur qilish mumkin:



19-rasm. Ishtirokchilikdagi yordamchining funktsiyalari.

Yordamchi jinoyat sodir etilishida bevosita qatnashmaydi, balki jismoniy va ruhiy jihatdan ko'maklashish, yashirish va oldindan va'da berish orqali jinoyat oxiriga yetishini tezlashtirishga sharoit yaratib beradi. Jinoyatlar sodir etilishi uchun vositalar berish, to'siqlarni yo'qotishga ko'maklashish, jinoyatchini, jinoyat quroli, izlari va vositalarini, jinoyat tufayli qo'lga kiritilgan narsalarni yashirish yordamchining jismoniy yordami sanaladi.


Jinoyat sodir etilishiga ruhiy yordam berish bajaruvchiga maslahatlar, ko'rsatmalar berish, jinoyat tufayli qo'lga kiritilgan narsalarni olish va o'tkazishga oldindan va'da berishda ifodalanadi. Ruhiy yordam bajaruvchiga jismoniy yordamdan kam ta'sir qilmaydi. Har ikki ko'rinishdagi yordam bajaruvchining shashtini kuchaytiradi. Zero, yordamchining vositalari, jinoyat qurollari, transport yoki pullari bajaruvchida jinoyatni oson yakunlashdek xotirjamlikni keltirib chiqaradi. Uning yakuniy natija samarali bo'lishi mumkinligiga ishonchini oshiradi. Yordamchining harakatlari qasddan sodir etilib, jinoyatni kvalifikatsiya

qilinishida ishtirokchi holatini belgilaydi. Xususan, yordamchi o'z harakatlarini amalga oshirar ekan, uning xavfliligi va oqibatlarini oldindan ko'ra oladi, bu holat javobgarlik va jazo kelib chiqishini ta'minlaydi.

Jinoyatda ishtirokchilikning shakllari

Ishtirokchilik turlaridan tashqari, jinoyat huquqida ishtirokchilik shakllari ham muhim o'ringa ega. Ishtirokchilik shakllari jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlanishida jazoni og'irlashuviga olib keladi.

Jinoyat kodeksida ishtirokchilikning oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh va jinoiy uyushma shakllari mavjud.



20-rasm. Ishtirokchilikning shakllari.

Ishtirokchilik shakllarining xavflilik darajasi nisbatan kamroq bo'lgani oddiy ishtirokchilik hisoblanadi. Unda ishtirokchilarning tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi kabi turlari bo'lmaydi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi, oldindan til biriktirilmaganligi oddiy ishtirokchilikning belgilariga kiradi. Oddiy ishtirokchilikdagi jinoyatlar ko'pincha qasddan odam o'ldirish yoki badanga shikast yetkazish jinoyatlarida ko'zga tashlanadi. Buni shunday tasavvur qilish mumkin. Masalan, ikki kishi janjallashib, mushtlashayotgan paytda, ularning tanishlari kelib qolib jarayonga aralashib ketishadi. Natijada kimdir shikastlansa

yoki halok bo'lsa, bunda ishtirokchilik oddiy shaklda amalga oshirilgan hisoblanadi.

Agar bajaruvchilar o'rtasida oldindan o'zaro kelishuv bo'ladigan bo'lsa, u holda murakkab ishtirokchilik shakli paydo bo'ladi. Ishtirokchilikning bu shaklida quyidagi belgilar mavjud: ikki yoki undan ortiq qatnashchining mavjudligi; oldindan til biriktirish; bajaruvchilar bilan birga tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilarning bo'lishi mumkinligi. Murakkab ishtirokchilikda faqat bajaruvchilar bo'lishi ham mumkin. Bunda ishtirokchilar barcha vazifalarni o'zaro taqsimlab olishadi. Alohida rahbar va uning tashabbuskorligi shart bo'lmaydi, aksincha ishtirokchilarda tenglik qoidalari amal qiladi.

Murakkab ishtirokchilikning oddiy ishtirokchilikdan farqi oldindan til biriktirishida bo'lib, ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'ladi. Oldindan kelishuv bajariladigan jinoiy harakatni aniq va tezkor asosda yakunlanishiga olib keladi. Bajaruvchilar sherigi nima ish qilishi mumkinligini, uni qanday himoya qila olish imkoniyatlari borligini sezib turadi. Reja ish bermasa, chekinish qanday bo'lishini ishtirokchilarning barchasi avvaldan biladi. Oddiy ishtirokchilik haqida bunday xulosa chiqarish qiyin.

Murakkab ishtirokchilikning uyushgan guruhdan farqi jinoiy faoliyatning olib borilishida ko'zga tashlanadi. Buning ma'nosi shuki, murakkab ishtirokchilikda bitta yoki bitta jarayonga bog'liq bir nechta jinoyat bo'lishi mumkin. Uyushgan guruh esa jinoiy faoliyatni muntazam yoki bo'lib-bo'lib olib boradi. Masalan, ikki ishtirokchi o'g'rilikka kirishdi va uy egasi uyg'onib qolgach, uning badaniga o'tkir jism bilan og'ir shikast yetkazib qochib ketishdi. Ular birdaniga ikkita jinoyatni sodir etishdilar. Ikkovining faoliyati shu bilan to'xtasa, bu murakkab ishtirokchilik sifatida tavsiflanadi. Agar ikkovi shunday yoki bundan boshqa jinoyatlarni ham sodir etishda davom etsa, ularni uyushgan guruh deb topish mumkin bo'ladi.

Uyushgan guruh murakkab ishtirokchilikdan ham xavfliroq sanaladi. Bunda ishtirokchilar bitta yoki bir jarayondagi bir necha jinotni sodir etish bilan cheklanmay, jinoiy faoliyatlarini muntazam davom ettiradi. Guruh a'zolari jinoiy

faoliyat olib borish maqsadlarida birlashadi. Guruh o'zining tashkiliy tuzilishi, uyushganligi, barqarorlik darajasi, vazifalar taqsimlanishi kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Uyushgan guruhning o'z rahbari bo'lib, jinoiy faoliyat uning ko'rsatmalari bilan tartibga solib turiladi. Rahbarning irodasiga guruh a'zolarining bo'ysunishi va uning a'zolarga vazifalarni taqsimlashi tabiiy holat hisoblanadi. Guruhning faoliyati to'xtashi yoki tanaffuslar qilinishi yoki bitta jinoyat bilan yakunlanishida rahbarning ta'siri yuqori bo'ladi. Rahbar jinoiy faoliyatni muvofiqlashtirib turar ekan, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni taqsimlash, o'tkazish, jinoyat izlarini yashirish kabi harakatlarga ham rahbarlik qiladi. Guruh a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlarni bartaraf etish bilan ham shug'ullanadi.

Guruh a'zolari jinoyatni sodir etish jarayonida jinoiy rejani batafsil bilishi shart hisoblanmasligi mumkin. Buni guruh rahbari yoki biror a'zosining o'zi bilishi, qolganlar o'ziga taalluqli vazifani olishi ham qilmishni uyushgan guruh sodir etgan deb topish uchun asos bo'laveradi. Shunisi ham borki, uyushgan guruh biror jinoyatni sodir etishda o'zlariga a'zo bo'lmagan boshqa shaxsdan foydalansa va u shu jinoyatning o'zi uchun jalb etilsa, jalb etilgan ishtirokchining holati murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Uyushgan guruh oddiy kissavur, firibgar, o'g'ri, talonchi kabi jinoyatchilardan tarkib topsa, huquq-tartibot organlari uchun muayyan muammolarni vujudga keltiradi. Agar guruhga fan, texnika, tibbiyot, axborot tarmoqlari mutaxassisi, huquq-tartibot organlarining sobiq xodimlari jalb etilsa, uyushgan guruhning ijtimoiy xavflilik darajasi keskin ortib ketadi. Bunday jinoyatchi guruh davlat va jamiyat uchun katta muammolarni keltirib chiqaradi. Bundanda xavfliroq ishtirokchilik shakli faqat jinoiy uyushma bo'ladi.

Jinoiy uyushma ishtirokchilikning yeng xavfli shakli bo'lib, u jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi uyushgan guruhlar birlashishidan hosil bo'ladi. Uyushgan jinoiy guruhlar birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan til biriktiradi. Jinoiy uyushma tuzish holatining o'zi jinoyat deb topilib, u kesik tarkibli jinoyatlar toifasiga kiritiladi. Boisi uyushmaning tuzilishining o'zi tamom bo'lgan jinoyat

hisoblanib, jinoiy oqibatning kelib chiqishi shart emas. Bu JKning 242-moddasida o'z aksini topgan.

Jinoiy uyushma o'zida kamida ikkita uyushgan guruhni birlashtiradi. Uyushma piramidasimon tuzilishga ega bo'ladi. Har bir uyushgan guruhning rahbari uyushma rahbariga bo'ysunadi. Uning topshiriq va ko'rsatmalari bilan ish ko'radi.

Jinoiy uyushma barqarorlikka ega bo'lib, uyushgan guruhlar yoki alohida a'zolar o'z xohishicha undan chiqib keta olmaydi. Boshqaruv qattiq tartib va intizomga quriladi. Vazifalar aniq taqsimlanib, qat'iy tartibda nazorat qilib boriladi. Oddiy fuqarolar bunday uyushma borligini umuman sezmasliklari mumkin. Boisi, jinoiy uyushma faoliyati uning a'zolari tomonidan qattiq sir saqlanadi.

Biz jinoiy uyushma haqida ko'pincha kinofil'mlar orqali tasavvurga ega bo'lamiz. Real voqelikda uyushmaning faoliyat doirasini aniqlash ancha qiyin. Jinoiy uyushmalar hozirgi davrda keng tarqalgan narkobiznes, qurol-yarog', inson tana a'zolari savdosi kabi jinoiy ishlar bilan shug'ullanish orqali juda katta mablag'larga ega bo'ladi. Jinoiy uyushmalar bunday mablag'lar yordamida "yashirin iqtisodiyot" rivojlanishiga, moliya tizimining izdan chiqishiga, inflyatsiyaning avj olishiga, iqtisodiy islohotlarni boshi berk ko'chaga kirib qolishiga sababchi bo'lishi mumkin. Jinoiy uyushmalar noqonuniy mablag'larni sanoat, bank, xizmat ko'rsatish, transport, ko'chmas mulk kabi tuzilmalarga yo'naltirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga chuqur kirib borishi ijtimoiy va siyosiy boshqaruv tizimini ham xavf ostida qoldiradi.

Jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik va jinoyatga daxldorlik

Ishtirokchilarning barchasi sodir etilgan jinoyat uchun tegishli moddalar bo'yicha javobgarlikka tortiladi hamda o'z ayblari darajasida jazolanadi. Murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma a'zolari oldindan til biriktirgan holda, sodir etilgan jinoyatning tayyorgarlik ko'rilishi va sodir etilishida qatnashgan paytida, jinoyat ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa,

javobgarlikka tortiladi. Sheriklarining jinoiy niyati bilan qamrab olingan qilmishlarida ishtirok etmasa va ularning niyatni bilishi mumkin ham bo'lmasa, javobgarlik kelib chiqmaydi.

Topshiriq

Jinoyatchini quvlayotgan tezkor-qidiruv organi xodimi ta'qibni davom ettirib, yo'lda harakatlanayotgan avtomobilni to'xtatdi. Avtomobil haydovchisini oldinda ketayotgan jinoyatchi o'tirgan mashinani ta'qib qilishni buyurdi. Haydovchi yo'l qoidalariga amal qilib yura boshladi. Xodim esa jinoyatchi qochib ketishi mumkinligini aytib, haydovchidan tezlashishni talab qildi. Mazkur talab bilan tezlashgan mashina haydovchisi jinoyatchi o'tirgan mashinaga yetay deb qoldi. Jinoyatchi ta'qibdan qutulish uchun chorrahadan qizil chiroqda o'tib ketdi. Haydovchi esa yo'l harakati qoidasi asosida qizil chiroqda o'tmadi. Jinoyatchi buning natijasida qochib qutuldi. Tezkor-qidiruv organi xodimining bundan jahli chiqdi va haydovchining pravasini olib qo'ydi.

– Vaziyatga huquqiy baho bering

Murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmada tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi jinoyat sodir etilishida bevosita ishtirok etmasligi mumkin. Bunda oldindan tuzilgan reja bo'yicha harakat qilgan bajaruvchi yoki bajaruvchilar kutilmagan holatga tushishi oqibatida boshqa jinoyatni sodir etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, javobgarlik umumiy tusga ega bo'ladi. Masalan, magazinga o'g'rilikka kirgan jinoyatchilar qorovulning uyg'onib qolishi oqibatida unga hujum qilib, o'ldirib qo'yishi mumkinligini tashkilotchi biladi, yordamchi esa bilmasligi mumkin. Agar bajaruvchilar o'g'rilik paytida qorovulni o'ldirib qo'yib, yo'lda kelayotganda boshqa bir fuqaroni mashina bilan urib yuborishini jinoyatda qatnashmagan sheriklari umuman bilmasligi mumkin. Bunday holda ishtirokchilarning barchasini bir xilda javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikdan ozod qiladi. Bunda tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq harakatlarni amalga oshirishi talab etiladi. Agar jinoyat sodir etilib, ishtirokchilardan biri jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan ulushdan voz kechsa, bu

jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish hisoblanmaydi va javobgarlikdan ozod qilmaydi. Chunki jinoyatdan ixtiyoriy qaytish jinoiy tajovuz tufayli zarar yetkazilishidan avval ro'y berishi lozim.

Ishtirokchilik uchun javobgarlik belgilanishida har bir ishtirokchining qilmishi alohida tahlil qilinadi va uning ayblilik darajasi aniqlanadi. Jazo tayinlanishida qilmishi uning ayblanishiga olib kelgan tegishli modda dispozitsiyasiga qay darajada mos kelishi inobatga olinadi. Aksariyat hollarda bajaruvchi va tashkilotchiga nisbatan og'irroq, dalolatchi va yordamchiga yengilroq jazo beriladi. Shuningdek, bajaruvchilarning voyaga yetmaganligi, dalolatchi yoki yordamchining o'ta xavfli retsidivist ekanligi jazoning tayinlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda ularning ijtimoiy xavflilik darajasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoyat huquqida jinoyatga daxldorlik tushunchasi mavjud bo'lib, u jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishi, suiqasd qilinishi va sodir etilishi jarayoni bilan bog'liqdir. Daxldorlik – oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligi haqida aniq bilgan holda xabar bermaslik hamda jinoyatchi, jinoyat sodir etish quroli va vositalari, jinoyat izlari yoki jinoyat orqali qo'lga kiritilgan narsalarni yashirganlik hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, daxldorlik ikki xil holatni o'zida aks ettiradi. Birinchidan oldindan va'da bermagan holda hokimiyat organlariga **xabar bermaslik**, ikkinchidan oldindan va'da bermagan holda jinoyatchi va jinoyatga bog'liq predmet hamda izlarni **yashirganlik**.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki sodir etilganligi haqida aniq bila turib, hokimiyat organlariga xabar bermaslik uchun Jinoyat kodeksining 155¹-moddasi va 241-moddalarida nazarda tutilgan hollarda javobgarlik kelib chiqadi. Ushbu moddalarni tahlil qiladigan bo'lsak, har ikki moddada og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar nazarda tutilganligini ko'ramiz. Xususan, terrorizm va uni moliyalashtirish, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish, qo'poruvchilik, jinoiy

uyushma tashkil etish, shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish, radioaktiv, bakteriologik, kimyoviy va boshqa qurollar bilan bog'liq jinoyatlar, poezd, havo, dengiz yoki daryo transportini olib qochish yoki egallab olish, tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar haqida xabar bermaslik davlat va jamiyat uchun katta xavf tug'diradi.

Oldindan va'da bermagan holda jinoyatchi va jinoyatga bog'liq qurol va vositalar, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalar va izlarni yashirganlik og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bilan bog'liq bo'lsa, bu ham daxldorlik sifatida javobgarlikka olib keladi.

Tayyorgarlik ko'rilayotgan, suiqasd qilingan yoki tamom bo'lgan har qanday jinoyatdan kimdir xabardor bo'lishi mumkin. Bu haqda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lumot yetkazish o'sha xabardor fuqaro uchun burch hamda majburiyat hisoblanmog'i lozim. Zero jinoyatchilikka qarshi kurashga har birimiz mas'ulmiz. Jinoyat qonunchiligi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan hamda uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar haqida xabar berilmaganligi uchun javobgarlikni belgilamaydi. Bu fuqarolarimizning burchi sanaladi, burchni bajarmaslik jinoyatchilar tomonidan jinoiy faoliyatni davom ettirishiga yo'l ochib beradi. Jinoiy faoliyatdan jamiyat a'zolari, xatto xabardor bo'lib uni tegishli organlarga yetkazmagan insonlarning o'zi ham jabr ko'rishi mumkin.

Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilishining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lganligi uchun qonunchilik ular to'g'risida xabar berishni majburiyat darajasiga olib chiqqan. Kodeksning 241-moddasiga ko'ra, bu majburiyatni bajarmaslik javobgarlikka sabab bo'ladi. Jinoyatdan xabardor bo'lish va jinoyat haqida xabar bermaslikka va'da berish bir-biridan farqlanadi. Zotan, jinoyatning tayyorgarlik ko'rilish va suiqasd bosqichida jinoyat bo'yicha tegishli organlarga xabar bermaslik haqida oldindan va'da berish jinoyatga daxldorlik bo'lmay, balki ishtirokchilikka kirib qoladi. Chunki bunday va'da jinoyatchini xotirjam harakat qilishiga olib keladi.

Jinoyat haqida oldindan va'da bermagan holda yashirishning ham oqibati yaxshi bo'lmaydi. Jinoyatning yashirilishi yangi jinoyatlarga olib keladi. Jinoyat

kodeksi jinoyatchilik bilan bog'liq jarayonni huquqiy tartibga solishda kishilar o'rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini ham inobatga oladi. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni jinoiy javobgarlik yoki jazo tufayli butunlay darz ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu bois jinoyat sodir etilishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilarning qilmishi haqida xabar bermasligi va yashirganligi uchun ularning qarindoshlariga javobgarlik belgilanmaydi. Bu yo'l bilan qarindoshlik rishtalarini saqlab qolish va jazoning maqsadlariga tezroq yetishish mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar

1. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etishning asosiy jihati nimadan iborat?
 - a) ishtirokchilikda tashkilotchining bo'lishi
 - b) ikki yoki undan ortiq ishtirokchining mavjud bo'lishi
 - c) ikki yoki undan ortiq bajaruvchining mavjud bo'lishi
 - d) barcha javoblar to'g'ri
2. Ishtirokchilarning qatnashganlik darajasini nima belgilab beradi?
 - a) jinoyatning fakul'tativ belgilari
 - b) aybning shakllari
 - c) jinoyat predmeti
 - d) jinoyatning ob'ekti
3. Qanday holat jinoyatni og'irlashtiruvchi holat sanaladi?
 - a) shaxsning aqli rasoligi
 - b) ruhiy nosog'lom shaxsdan foydalanib jinoyat sodir etish
 - c) voyaga yetmaganlik
 - d) homilador ayolning qasddan jinoyat sodir etishi
4. Ishtirokchilarning umumiy jinoiy niyati birlashuvini nimalar ta'minlaydi?
 - a) jinoyatning maxsus ob'ekti
 - b) jinoyatning motivi va maqsadi
 - c) jinoyatning jinoyatning ob'ektiv tomoni
 - d) jinoyatning predmeti

5. Jinoyatning ishtirokchilikdagi turlariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?
 - a) oddiy ishtirokchi
 - b) murakkab ishtirokchi
 - c) yordamchi
 - d) bevosita ishtirokchi
6. Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs kim bo'ladi?
 - a) bajaruvchi
 - b) tashkilotchi
 - c) dalolatchi
 - d) yordamchi
7. Ishtirokchilikda jinoyat sodir etishning ajralmas qismini ko'rsating
 - a) bajaruvchining mavjudligi
 - b) avvaldan reja tuzilishi
 - c) rahbarning doimiy mavjudligi
 - d) uyushgan guruhga aylanishning majburiyligi
8. Ishtirokchilikning qaysi turi yeng xavfli sanaladi?
 - a) bajaruvchi
 - b) tashkilotchi
 - c) dalolatchi
 - d) yordamchi
9. Ishtirokchilikning shakllariga kirmaydigan qatorni toping
 - a) uyushgan guruh
 - b) jinoiy uyushma
 - c) tashkilotchi
 - d) oddiy ishtirokchilik
10. Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib, jinoyat sodir etilishida ishtirok etishi nima deb topiladi
 - a) murakkab ishtirokchilik
 - b) uyushgan guruh
 - c) jinoiy uyushma

d) oddiy ishtirokchilik

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Ishtirokchilik turlari haqida ma'lumot bering
2. Bajaruvchining ishtirokchilikdagi o'rni haqida gapiring
3. Yordamchining funktsiyalari nimalardan iborat?
4. Tashkilotchining ishtirokchilikdagi o'rni xususida tushuntiring
5. Oddiy ishtirokchilikning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Murakkab ishtirokchilikning oddiy ishtirokchilikdan farqi nimada?
7. Uyushgan guruhning xususiyatlarini tushuntiring
8. Jinoyatga daxldorlik tushunchasini ta'riflang
9. Jinoiy uyushmaning davlat va jamiyatga salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?
10. Jinoiy uyushmadagi rahbarning o'rni nimada ko'rinadi?

9 BOB. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar. Kam ahamiyatli qilmishlar

Jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Bu jinoyat tarkibining alomatlari mavjud bo'lgan har qanday qilmish jinoyat deb topilishi asoslaridan kelib chiqadi. Bunday qilmishlar nazariy jihatdan jinoyatga o'xshasada, ular o'zining xususiyatlari, xavflilik darajasi, shaxsning sifatlari, jinoyat ob'ektiv tomonining motivi va maqsadi kabi omillari bilan ajralib turadi. Jinoyat sifatida ko'rinadigan ba'zi harakatlar jamiyat manfaatlari uchun katta xavf tug'dirmasligi yoki uning rivoji uchun xizmat qilish maqsadlarini ko'zlashi ham mumkin. Mazkur jihatlardan kelib chiqib jinoyat huquqiga qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi kiritilgan.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar o'zida jinoyat alomatlarini to'liq aks ettirsada, jamiyat uchun foydaliligi sababli jinoyat deb topilmaydi, buning uchun javobgarlik va jazo ham belgilanmaydi. Qilmishning jinoiyligini istisno qilinishining sababi shundaki, o'zida jinoyat belgilarini aks ettirgan harakatlarni jazolash jamiyatga ko'proq zarar keltiradi. Shu bilan birga, fuqarolar faolligining kamayishi va ularda loqaydlikning kuchayishiga olib keladi. Jinoyatlar miqdori ortib, salbiy oqibatlar soni ko'payib ketadi.

Fuqarolarning faolligini orttirish, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun jinoyat alomatlariga ega qilmishlarning ayrimlari istisno qiluvchi holatlar deb topiladi.

Jinoyat kodeksida quyidagilar qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar deb belgilangan: kam ahamiyatli qilmishlar, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish. Ushbu holatlarni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish, ularga nisbatan davlat majburlov choralarini qo'llash hamda tegishli jazo tayinlash jinoyatchilikka qarshi kurashning ahamiyatini pasaytirib yuboradi. Xususan, kam ahamiyatli qilmishlar uchun jazo tayinlanishi jinoyatlar sonini orttiribgina qolmay, kishilarning sudlanganlik bilan bog'liq holatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat shaxs, davlat va jamiyat manfaatlari hamda uchinchi shaxslarning huquq va erkinliklarini himoyalaniishi uchun juda zarur hodisalardir. Bu ikki holat bilan davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldi olinadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish jamiyat manfaatlari yo'lida olib boriladigan foydali ish tufayli kelib chiquvchi holat hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs o'z ortidan tushgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ta'qibidan qochib qutulish uchun har qanday huquqbuzarlikka tayyor bo'ladi. Bunday hollarda ta'qib qiluvchilar ularning qarshiligini bartaraf etish uchun qonun belgilagan chegaradan

chiqishlariga to'g'ri keladi. Bunday holatda zarar yetkazish oldi olingan holatga qaraganda foydaliroq bo'ladi.

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish bo'ysunishi talab etiladigan xodimlar tomonidan sodir etiladi. Bunday holatda bo'ysunuvchi xodimning sodir etiladigan harakat yoki harakatsizligidan kelib chiquvchi oqibat to'g'risida bilishi mumkin ham bo'lmagan vaziyat asosiy rol o'ynaydi.

Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik globallashuv va fan-texnika taraqqiyoti yuksalib borayotgan hozirgi davrda dolzarb ahamiyatga ega. Tavakkalchilik asosida ish yuritish ko'plab yangi ixtirolar, innovatsiyalar va shunga mutanosib ravishda xalq turmush tarzining yuksalishiga xizmat qiladi.

Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish Jinoyat kodeksiga kiritilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi so'nggi holat sanaladi. Ushbu holat jismoniy yoki ruhiy ko'rinishdagi majburlash yoxud qo'rqitish oqibatida o'z harakatini boshqara olmay qolgan shaxslar huquqlarini himoya qilish maqsadlarida kiritilgan bo'lib, jinoyat qonunchiligidagi insonparvarlik va adolatlilik printsiplariga tayanadi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar xususida fikrlarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, uning quyidagi jihatlari kelib chiqadi: qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda jinoyatning belgilari mavjud bo'ladi; ushbu qilmishlarni jinoyat deb topish va javobgarlikni belgilash fuqarolarning huquqiy faolligini pasaytiradi; ularni jinoyat deb topishni rad etish orqali davlat va jamiyat manfaatlariga yetkaziladigan jiddiy zararlarning oldi olinadi; fuqarolarning sudlanganlik kabi oqibatlarga uchrashi kamayadi.

O'zida jinoyat belgilarini aks ettirgan ko'plab harakat va harakatsizliklar jinoyat qonuni bo'yicha javobgarlikka tortish yoki jazo berish uchun arzimaydi. Ularning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lmaganligi sababli kam ahamiyatli qilmishlar sifatida e'tirof etish va jinoiyligini istisno qilish ko'zda tutilgan.

Kam ahamiyatli qilmishlar haqida JKning 36-moddasida huquqiy me'yorlar o'rnatilgan. Unga ko'ra, Jinoyat kodeksida jinoyat sifatida nazarda tutilgan

qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi.

Kam ahamiyatli qilmishlar jinoiyligi istisno qilinadigan boshqa holatlardan farqli ravishda jamiyat uchun foydali harakat hisoblanmaydi. Uning jinoyat sifatida e'tirof etilishi uchun sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tufayli kelib chiqqan oqibat jamiyat uchun katta xavf tug'dirmasligi kerak. Masalan, begona odamga tegishli polizdan yeyish istagida bitta tarvuzning o'g'irlab olib ketilishi holatida JK 169-moddasida nazarda tutilgan barcha belgilar mavjud bo'lsada, aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish uchun kamlik qiladi.

Kam ahamiyatli qilmish sodir etilganda kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy xavflilik darajasi bo'lmasligi mumkin yoki juda oz miqdorda zarar yetadi. Bunda jabrlanuvchining qilmishni ahamiyatli emas deb hisoblashi, huquqbuzarning jiddiy zarar yetkazish niyatining yo'qligi kabi omillar ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Qilmishning kam ahamiyatli deb topish uchun surishtiruv, tergov yoki sud jarayonida jinoyat tarkibining barcha elementlari – ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ekti va sub'ektiv tomoni tahlil qilinishi lozim. Bu yo'l bilan kishilarni kam ahamiyatli deb topish mumkin bo'lgan qilmishlarini noto'g'ri kvalifikatsiya qilib jazo tayinlashning oldini olish mumkin bo'ladi.

Kam ahamiyatli qilmishlarni xususiyatlari shundaki, bu qilmishlar jinoyat hisoblanishi uchun jinoyat tarkibining barcha elementlariga ega bo'ladi. Ularni jinoyat deb topish kishilar uchun og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Qilmish tufayli jinoiy oqibat kelib chiqmaydi yoki juda oz miqdorda zarar yetkaziladi. Jamiyat uchun kam ahamiyatli qilmishlar juda katta xavf tug'dirmaydi. Aybdorni jinoiy jazodan boshqa ta'sir vositalari yordamida tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Zaruriy mudofaa

Zaruriy mudofaa mudofaalanuvchi, boshqa shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlarini tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoyalash maqsadlarida amalga

oshiriluvchi harakat sanaladi. Harakat vositasida tajovuzchiga zarar yetkazilishi orqali kutilayotgan kattaroq zararining oldi olinadi.

Zaruriy mudofaaning qilmishni istisno qiluvchi holatlar tarkibiga kiritilishida uning foydalilik xususiyatlari inobatga olinadi. JKning 37-moddasida zaruriy mudofaaning huquqiy asoslari belgilab berilgan. Agar mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishilarning shaxsi va huquqlarini, davlat yoki jamiyat manfaatlarini tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida harakat qilsa, bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan bo'lsa, uning harakati jinoyat deb topilmaydi. Bundan xulosa chiqadiki, mudofaalanuvchi himoyalash maqsadlarida harakat qiladi. Uning harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmasligi hamda mudofaalanuvchining o'zi, o'zgalar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoyalashga qaratilishi zarur.

Topshiriq

Direktor maktabda yanvar-mart oylarida ishlab keyin Rossiyaga ketgan xodimlar ishda bo'lmasa ham aprel-may oylari uchun ularga oylik maosh yozdi. Pulni esa maktabga kelib ketayotgan turli tekshiruvchilarni yo'lkirasi va tushligi uchun ishlatib yubordi va bunga sarf etilgan mablag'ni o'qituvchilar maoshidan olib qolmadi. O'qituvchilar bunga qarshilik bildirishmadi, lekin bir xodim direktorni davlat mulkini o'zlashtirishda ayblab, xalq qabulxonasiga murojaat qildi.

– Vaziyat qanday yakun topishini huquqiy tahlil qiling.

Zaruriy mudofaa chegarasi masalasida aniq yondashuv talab qilinadi. Chunki, bu chegaradan chiqilmaslik javobgarlikka tortilishni rad etadi. Zaruriy mudofaa doirasidan chiqish qilmishni jinoyat deb topilishiga olib keladi. 37-modda ikkinchi qismida tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb topilishi qayd etilgan. Shu o'rinda tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasi haqida fikr yuritamiz.

Tajovuzchi shaxs, jamiyat va davlatga qarshi tajovuz qilar ekan, uning tajovuzi bir yoki bir nechta ob'ektga qarshi qaratiladi. Tajovuz tajovuzchining ichki maqsadi, jinoyatga undovchi motivlar, jinoyat joyi, aqli rasolik, qonun bilan

belgilangan yoshga yetganlik, jinoiy niyat kabi unsurlar orqali o'z xususiyatini ko'rsatadi.

Tajovuzning xavflilik darajasi uning usuli, ijtimoiy munosabatlarga yetkazadigan zarar miqdori, jamiyatda ishonchsizlik va tartibsizliklarni keltirib chiqarish imkoniyatlari va boshqa asoslar bilan aniqlanadi.

Zaruriy mudofaaning xavflilik darajasi va uning xususiyatlarini aniqlashda tajovuz nimaga qarshi qaratilganligini bilish muhim. Tajovuz natijasida yetkaziladigan zararining miqdori va darajasi zaruriy mudofaa chegarasini belgilaydi. Masalan, tajovuzchi qo'lida pichoq bilan hamla qilayotganda himoyalannuvchiga kanchalik zarar yetkaza oladi. Uni o'ldirishi yoki tan jarohati yetkazishi mumkinligi bunda muhim ahamiyatga ega. Tajovuzchi voyaga yetmagan, jussasi kichik va jismoniy baquvvat bo'lmasa, u o'ziga ikkita keladigan himoyalannuvchini o'ldira olishi anchagina qiyin bo'lib, faqat jarohat yetkazishi mumkin. Himoyalannuvchi uning hujumini bartaraf etib, pichoqni qo'lga kiritgan holda jabrlannuvchini o'ldirib qo'ysa, u zaruriy mudofaa chegarasidan chiqadi. Harakati zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyati deb kvalifikatsiya qilinadi.

Himoyalannuvchining harakatini zaruriy mudofaa deb topish uchun tajovuz uyushtirilgan va u muqarrar holatga kelishi lozim, ya'ni uni to'xtatib qolish qiyin bo'lgan vaziyat yuzaga kelishi kerak. Zaruriy mudofaa tajovuz yakunlanishi bilan tugaydi. Agar zaruriy mudofaa natijasida tajovuzchiga yetkazilgan zarar oldi olingan zarar bilan teng yoki ko'p bo'lib tajovuzni bartaraf etish uchun yetarli deb hisoblansa, mudofaa harakati jinoyat deb topilmaydi.

Zaruriy mudofaa har bir shaxsga tegishli huquq sanaladi. U har qanday tajovuz holatida himoyalannishi mumkin. Bu shu narsa bilan izohlanadiki, himoyalannuvchi o'ziga yoki boshqalarga nisbatan tajovuz uyushtirilayotganda voqea joyidan qochib qutulib ketishi yoki yordam so'rab hokimiyat va huquqni himoya qilish organlari hamda boshqa shaxslarga murojaat qilish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'iy nazar, zaruriy mudofaani amalga oshirishi mumkin. Zaruriy mudofaa hamma uchun majburiy xarakterga ega emas. Chunki tajovuzchiga zarar

yetkazgan holda qolganlarni himoyalash hammaning qo'lidan kelmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning zaruriy mudofaa bo'yicha maxsus tayyorgarlik ko'rgan qismlari xodimlari bu yo'nalishda mutaxassis sanaladi. Lekin zaruriy mudofaa orqali davlat va jamiyat manfaatlari uchun yordam berish imkoni bo'lsa bundan jamiyatimiz yutadi.

Agar zaruriy mudofaa niqobi ostida pinhona maqsadiga erishishni ko'zlab, tajovuzchining qasddan hujum qilishi istagini qo'zg'atishi va buning oqibatida unga zarar yetkazishi zaruriy mudofaa deb topilmaydi.

Oxirgi zarurat

Qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarning keyingisi oxirgi zaruratdir. Oxirgi zarurat xususiyatlari jihatidan zaruriy mudofaaga o'xshab ketsada, bu ikki tushuncha bir-biridan farqlanadi.

Oxirgi zarurat shaxsning xulqi, uning fiziologik holati, hayvonlar tajovuzi, tabiiy, mexanik va boshqa favqulodda holatlar sharoitida vujudga keladi. Shaxsning yoki boshqa shaxslar, davlat va jamiyat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarish uchun sodir etiladigan oxirgi zarurat qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazadi. Bunday harakat shu xavfni boshqa choralar bilan oldini olish imkonini bermagan holatda sodir etilib, yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmasligi qonun yo'li bilan belgilangan.

Oxirgi zarurat amalga oshirilishi uchun bir qator asoslar zarur bo'ladi. Xususan, inson omili asosda vujudga kelgan holatlar, tabiiy ofatlar, turli mexanik nosozliklar oxirgi zarurat qo'llanilishi uchun real shart-sharoitni yaratadi. Bunday holatlar shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi real xavfni keltirib chiqaradi degan asos bo'lishi inson harakati zaruriyatini oshiradi.

Huquq va manfaatlarga zarar keltiruvchi xavfli holatlarning yuzaga kelishi insondan qonun bilan qo'riqlanadigan tizimga zarar yetkazishni talab qilishi lozim. Masalan, bir-biriga tutash binolarga o't ketib, butun majmua yonib kul bo'lish xavfi ostida qolsa, o'rtadagi binolardan birini buzib tashlash orqali qolgan

binolarni saqlab qolish zarur bo'ladi. Agar olov kuchli bo'lmay va boshqa binolarga zarar yetkazmaydigan holda bo'lsa, boshqa binoni buzish oxirgi zarurat sifatida baholanmasligiga olib keladi.

Oxirgi zarurat o'zining ijtimoiy foydaliligi, ilojsizlikdan amalga oshirilishi, zarar keltirib bo'lsada, boshqa zarar kelib chiqishining oldi olinishi kabi belgilarni namoyon etishi lozim. Bunda zarar yetkazish orqali kelib chiqadigan mulkiy, moddiy, jismoniy zararining oldi olinib, jamiyat uchun foydali ishlar amalga oshiriladi.

Oxirgi zaruratning muhim xususiyatlaridan biri yetkazilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lishi lozim. Aytaylik, kemada yong'in chiqib olovni o'chirish uchun u cho'ktiriladigan bo'lsa, holatni oxirgi zarurat deb bo'lmaydi. Mabodo olov boshlanganda yuklarning bir qismini suvga tashlab, uni o'chirishga erishilsa, bu oxirgi zarurat bo'lishi mumkin. Chunki kema va yukning ma'lum bir qismi saqlab qolinadi. Yetkazilgan va bartaraf etilgan zararining o'zaro mutanosiblikka ega bo'lishi harakatning oqlanishiga asos bo'ladi.

Topshiriq

Maktab direktori o'g'lining o'qishga kirishidagi 10 baravarlik kontrakt to'loviga qiynalib, o'qituvchi xodimlarning oylik maoshini institutga to'lab yubordi. O'qituvchilar maosh ololmagach, uning ustidan xalq qabulxonasiga shikoyat yozishdi. Prokuror direktorni chaqirdi va tushuntirish berishni so'radi. Direktor og'ilxonasida ikkita boqilayotgan novvoslarini va kesib qo'yilgan 200 tup teragini sotib pullarni qaytarishga va'da berdi. Ammo shu kuni kechasi elektr simidan o't chiqib, og'ilxona yonib ketdi. Teraklarga olov tegib yaroqsiz holatga keldi. Novvoslar tutundan bo'g'ilib o'ldi. Direktor ko'rgan zararini aytib o'qituvchilarning maoshlarini bir yilgacha to'lay olmasligini aytdi.

– O'qituvchilar o'z maoshlarini qanday qaytarib olishlari mumkin?

Oxirgi zaruratda zaruriy mudofaadan farqli ravishda zarar uchinchi shaxs manfaatlariga yetkaziladi. Shunday bo'lsada, oxirgi zarurat holatida manfaatlar himoyalanaadi, zarar miqdori kamayishiga erishiladi. Aynan shunga yo'naltirilgan harakatlar qilmishni jinoiyligini istisno qilishga asos yaratadi. Yetkazilgan zarar

miqdorining oldi olingan zarardan oshib ketishi harakatni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topilishiga olib keladi.

Qilmishni oxirgi zaruratda sodir etilgan deb topish va uning qonunga muvofiqligini baholash surishtiruv, tergov va sud organi xodimlaridan juda ko'p holatlarni tahlil qilishni talab qiladi. Buning uchun xavfning xususiyati va darajasi, yuz berish vaqti, shaxslarning imkoniyatlari, ruhiy holatlar va boshqa vaziyatlar inobatga olinishi zarur.

Oxirgi zarurat o'zining ko'pgina jihatlari bilan zaruriy mudofaadan ajralib turadi. Jumladan, zaruriy mudofaada tajovuzchining harakati xavf manbai bo'lib, oxirgi zaruratda insonning xavfli qilmishidan tashqari fors-major holatlari ham xavf manbai bo'lishi mumkin. Xususan suv toshqini oqibatlarini bartaraf etish uchun zaruriy mudofaa emas, balki oxirgi zaruratdan foydalanish lozim bo'ladi.

Shuningdek, zaruriy mudofaada tajovuzdan qochib yoki yordam so'rab murojaat qilish imkoni bo'lsa, oxirgi zaruratda bunday murojaat uchun vaqt bo'lmaydi. Faqat zarar yetkazish orqali xavfni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Zaruriy mudofaada zarar tajovuzchiga faol harakat orqali yetkaziladi. Oxirgi zarurat uchinchi shaxslar manfaatlariga zarar keltiradi va u nafaqat harakat, balki harakatsizlik vositasida ham yuz berishi mumkin.

Zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat o'rtasidagi asosiy farqlardan yana biri yetkazilgan zarar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Zaruriy mudofaada zarar bartaraf etilgan zarar miqdoriga teng yoki ko'p bo'lishi mumkin. Oxirgi zaruratda esa yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroq bo'lishi talab etiladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash paytida zarar yetkazish

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda oddiy fuqarolar tomonidan odil sudlovga ko'maklashish maqsadlarida amalga oshiriladi. Ijtimoiy foydali asoslarga ega bo'lgan bunday harakat doim silliq kechmasligi mumkin. Jamiyat uchun xavf tug'diruvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar

yetkazish foydalilik xususiyatlari uchun qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat deb topiladi.

Jinoyat kodeksining 39-moddasidan mazkur holatning huquqiy asoslari o'rin olgan: "Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi". Jinoiylilikni istisno qiluvchi mazkur holatning quyidagi alomatlari mavjud bo'ladi:

- ushlanayotgan shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan bo'lishi;
- ushlanayotgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish harakatning maqsadi bo'lishi kerakligi;
- ushlash vaqtida ma'lum darajada zarar yetkazilish fakti mavjud bo'lishi;
- qilmish sodir etgan shaxsni ushlash uchun zarur bo'lgan choralardan chetga chiqmaslik zarur.

Xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash tegishli huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlari uchun majburiyat hisoblanib, oddiy fuqarolar uchun burch sanaladi. Huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlari uchun xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning tartib-qoidalari ularning xizmati davomida o'rgatib boriladi. Huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlari ta'qib sharoitida maksimal darajada oddiy fuqarolar va ularning mulklariga zarar yetkazmaslikka harakat qilishadi. Shuningdek, ushlanayotgan shaxsga zarurat taqozo etmaydigan holda qasddan zarar yetkazmaslik choralarini xizmatlari davomidagi o'quv-mashg'ulot jarayonlarida o'zlashtirishadi. Oddiy fuqarolar bunday qoidalarini bilmasliklari, natijada ushlash usullariga mos kelmaydigan sharoitda me'yoridan ortiq zarar yetkazib qo'yishlari mumkin. Shu bois ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarni ushlash fuqarolar uchun majburiyat emas, balki burchlar qatoriga kiritilgan.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash huquqiga har bir fuqaro egadir. Ushlash jarayonida ushlash vositalari va usullari, qilmish va uni sodir etuvchi shaxs xavfliligi darajasi, ushlash sharoiti nuqtai nazaridan ta'qib qilinayotgan shaxsning qarshiligi to'xtatilguncha yetkazilgan zarar javobgarlikdan ozod qiladi. Bu darajani buzish ushlanayotgan shaxsga ushlash chegaralaridan chetga chiqib zarar yetkazishga olib keladi.

Ta'qib qilinayotgan shaxsni ushlashda yetkazilgan zarar qonuniyligini baholashda xavfli qilmish sodir etgan shaxsning harakatlari, ta'qibchining imkoniyatlari, ruhiy holati va boshqa holatlar inobatga olinishi lozimligi jinoyat qonunchiligida belgilangan. Yetkazilgan zararni qonuniylik darajasini belgilovchi bir qator talablar mavjud. Shaxsning ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi, uning qilmish tufayli kelib chiqadigan javobgarlikdan qutulish uchun qochishga harakat qilishi, uni ta'qib qilish jarayonida zarar yetkazmasdan tutishning iloji qolmaganligi, zarar yetkazishda qasd yoki g'arazli va past niyatlar ko'zlanmaganligi, maqsad hokimiyat organlariga topshirishdan iborat bo'lishi mana shunday talablar qatoriga kiradi.

Etkazilgan zarar ushlanayotgan shaxsning sog'lig'i va mulkiga qarshi qaratilib, uni hayotdan mahrum qilish darajasiga olib chiqmaslik lozim. Agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida uning qarshiligini yengib o'tib badanga og'ir yoki o'ta og'ir tan jarohatini yetkazish yoki o'ldirib qo'yish tegishli moddalar bilan javobgarlikka sababchi bo'ladi. Jazo belgilanishida foydali maqsadlar ko'zlangani uchun yengillashtiruvchi holat sifatida qaraladi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash paytida yetkazilgan zarar qilmishni sodir etgan shaxsning yetkazgan zarari bilan teng yoki ko'p bo'lishi mumkin emas. Masalan, bezorilik (277-modda) jinoyatini sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida unga yetkaziladigan zarar jinoiy qilmishi xususiyatlaridan kelib chiqib baholanishi lozim. Bezorilik sodir etib qochayotgan shaxs terrorizm (155-modda) jinoyatini sodir etgan shaxs darajasida qattiq qarshilik ko'rsatmasligi amaliyotdan ma'lum. Shu bois ushlash jarayonida jinoyat va jinoyatchining xususiyatlari inobatga olinishi lozim bo'ladi.

Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish holati bo'ysinuv tartibidagi shaxslar yoki mansab vazifasini bajarayotgan shaxslarga bog'liq doirada yuz beradi. Jinoyat kodeksi 40-moddasida shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek mansab vazifalarini qonunan bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmasligi belgilangan.

Buyruq davlat organi, korxona, tashkilot va muassasaning muayyan huquq va vakolatlarga ega bo'lgan boshlig'ining muayyan bir harakatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi og'zaki yoki yozma topshirig'idir. Buyruq bo'ysinuv tartibida berilganda, jamoa va mehnat shartnomasida, ustav va nizomlarda hamda boshqa hujjatlarda bo'ysunishi belgilangan xodimning bajarishi talab etiladi. Buyruq xodimning o'z vazifasini bajarishi doirasida berilsa, u qonuniy tusga ega bo'ladi. Agar berilgan buyruq xodimning xizmat vazifalariga mos kelmasa, u buyruq kuchiga ega bo'lmaydi va bajarish majburiy emas. Masalan, bank boshqaruvchisi bankning iqtisodchisiga uyiga borib yollanma ustalarga qarashib yuborish haqida buyruq bersa, bu buyruq maqomiga ega bo'lmaydi. Bunday majburlovni bajarmaslik huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi.

Buyruqning vakolatli shaxs tomonidan berilganligi, uni ijro etish majburiyati yuklatilgan shaxsning ma'lum bir harakatni bajarishi zarurligi qonun va qonunosti aktlarida belgilangan talabdir. Ushbu talab buyruq ko'rinishidan tashqari, Prezident Farmoni yoki farmoyish ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Qonuniy asoslarda berilgan buyruq iltimos, murojaat yoki shikoyatdan farq qiladi.

Rahbar tomonidan berilgan buyruq to'g'ridan-to'g'ri, telefon yoki internet, xat, faks orqali, og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, ijro mas'uliyati yuklatilgan shaxsdan bajarishni talab qiladi. Buning uchun berilgan buyruq rahbarning vakolati doirasida berilishi hamda xodimning funktsional majburiyatlariga mos bo'lishi zarur.

Ayrim buyruqlar yozma shaklda rasmiylashtirilishi zarur bo'lib, unga rioya etilmaganlik buyruqni haqiqiy emas deb topilishiga olib kelishi mumkin. Agar

uning rasmiylashtirilishi bilan bog'liq muammolar vujudga kelib, rahbar va xodim o'rtasida bir-biriga teng muammoli vaziyatlar paydo bo'lsa, ish xodimning foydasiga hal etilishi zarur.

Rahbar buyruq berar ekan, buning uchun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi. Qonuniy berilgan buyruqni bajarmaslik xodimga nisbatan intizomiy chora qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Intizomiy jazo xayfsan, oylik ish haqidan 30, ayrim hollarda 50 foizigacha jarima hamda mehnat shartnomasini bekor qilinishidan iborat bo'lib, rahbar buyruqni bajarmagan, uni bajarishdan oshkora bosh tortgan xodimni ulardan biri bilan jazolashi mumkin.

Rahbar tomonidan beriladigan buyruqlar xodimning sha'ni, qadr-qimmatini pasaytirmasligi, uni kamsituvchi shakllarda bo'lmasligi zarur. Shu bilan birga g'ayriqonuniy, jinoyatga yetaklovchi asoslarda berilishi kerak emas.

Jinoyat qonunchiligi g'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni bajarmagan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qiladi. Buning uchun uning harakat yoki harakatsizligida boshqa jinoyat tarkibining ob'ektiv va sub'ektiv alomatlari mavjud bo'lmasligi kerak.

Rahbar tomonidan berilgan buyruq g'ayriqonuniy ekanligini bila turib uni bajarish ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish deb baholanadi. Jinoyatdagi ishtirokchilik vujudga kelib, rahbar tashkilotchi, ijro etuvchi bajaruvchiga aylanib qoladi.

Buyruqni ijro etuvchi o'z mansab vazifasi doirasida berilgan buyruqqa itoat etishi kerak. U buyruqsiz ham shartnoma va normativ hujjatlarda belgilangan o'z majburiyatlarini bajarishi mehnat vazifalariga kiradi. Uning o'z vazifasini vijdonan bajarishi boshqacha oqibat kelib chiqishiga sababchi bo'lsa, aybsizligi bilan bog'liq holati aniqlanishi zarur. Buning huquqiy asoslari jinoyat qonunchiligida o'z o'rnini topgan. JKning 24-moddasidagi me'yorlarga asoslanadigan bo'lsak, shaxs o'z qilmishining xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan, xavfli oqibatlarga ko'zi yetmagan, bunga ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan bo'lsa, uning qilmishi aybsiz holda sodir etilgan

deb hisoblanadi. Bunday holda buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish jinoyatni istisno qiluvchi holat deb topilishi uchun asos bo'ladi.

Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib, kundalik hayotimizga yangiliklar tobora ko'proq kirib kelayotganligi hamda aholi ehtiyojlarining rang-baranglashayotganligi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liqdir. Jahon mamlakatlari globallashuv davrida boshqalardan ortda qolib ketmaslik uchun fan va texnika taraqqiyotiga ulkan mablag'larni sarf etmoqda. Ilmiy-tekshirish institutlari, laboratoriyalar, tajriba maydonlarining miqdori va sifati oshib bormoqda. Davlatning o'zi tadqiqot ishlarini rag'batlantirmoqda.

Ilmiy-tadqiqot ishlari sohalarda yangiliklar, ixtirolarni kashf etishga yo'naltiriladi. Bundan maqsad xalq farovonligini ta'minlash, aholining ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, qashshoqlikni kamaytirish, mamlakatni dunyoning ilg'or davlatlari qatoriga olib kirishga qaratiladi. Ilmiy-tadqiqotlar tizimiga yangi texnologiyalar, nisbatan xavfsiz asbob-uskunalar kirib kelayotganiga qaramay, izlanishlar davomida xatolarga yo'l qo'yilishi tabiiy holdir. Xalq farovonligi yo'lida olib borilayotgan izlanishlarda tavakkalchilik bo'lmas ekan, yangiliklar yaratilishiga erishib bo'lmaydi. Ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlagan bunday tavakkalchilik uchun qonunchilikda kafolatlar zarur bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 41-moddasida ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik bilan huquq va qonun bilan qo'riqlanuvchi manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmasligi qayd etilgan. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida e'tirof etilishi uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik ijobiy yakunga yo'naltirilgan izlanishlar asosida yuzaga kelishi lozim. Ushbu izlanishlar shaxsiy boyib ketish kabi egoistik maqsadlarni ko'zlamasligi kerak.

Jinoyat qonunchiligi kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilikni himoyalash orqali ushbu sohadagi tadqiqotlarni rag'batlantiradi.

Buning uchun tavakkalchilik foydali maqsad yo'lida ijobiy yakunga boshqacha harakatlar bilan erishishning imkoni bo'lmaganda qo'llanilishi zarur. Shuningdek, izlanuvchi o'z tadqiqotlari tufayli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy zararining oldini olish, agar kelib chiqsa uni tezda bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko'rishi kerak bo'ladi. Tavakkalchilikning asosliligini aniqlash uchun tavakkal qiluvchining harakati zamonaviy ilmiy-texnika bilimlari va tajribalariga muvofiq kelishi, tavakkal qilmaslikning iloji yo'qligi, tavakkal qilish oqibatida kelib chiqadigan zararni bartaraf etish choralari ko'rilganligi omillari tahlil qilinishi talab qilinadi. Agar ushbu qoidalarga amal qilinmasa, tavakkalchilik asosli deb topilmaydi. Bu tavakkal qilayotgan izlanuvchini xatti-harakatini javobgarlikdan ozod qilishga olib kelmaydi.

Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik har doim ijobiy va samarali natija beradi deb hisoblash unchalik to'g'ri emas. Texnika tarixidan ma'lumki, ko'plab ixtirolarni amalga oshirish uchun tadqiqotchilar bir umr izlanishgan. Ularning ko'pi bitta umr davomida ham izlagan narsalariga yechim topa olishmagan. Xususan, odamzod uchishni, uchar gilamni, oynai jahonni asrlar mobaynida orzu qilib o'tgani tarixdan ma'lum. Shu bois tadqiqotlar, tavakkalchiliklar tufayli foydali natijaga erishilmasa va tavakkalchilik orqasidan yetkazilgan zarar miqdori foydali natijadan ko'proq bo'lganda ham qilmishning jinoiyligi istisno qilinadi.

Tavakkalchilikda kechirib bo'lmaydigan holatlar ham bo'lishi mumkin. Tavakkal qilish tufayli odamlar halok bo'lishi, ekologiya halokati, favqulodda holatlarning yuzaga kelishi, odamlarning qashshoqlashib ketishi, epidemiyalarning paydo bo'lib yoyilib ketishi tufayli og'ir oqibatlar kelib chiqishi yuz bersa, tavakkalchilik asosli o'tkazilgan deb topilmaydi. Tavakkalchi esa javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining jinoyat qonunchiligiga kiritgan so'nggi o'zgartishlaridan biri tadbirkorlik va tijorat tavakkalchiligi bilan bog'liq. Mamlakatimizda tijorat, ishlab chiqarish va tadbirkorlikning boshqa sohalari rag'batlantirilib borilayotganligi sababli tadbirkorlik va tijorat tavakkalchiligi ham

rag'batlantirilmoqda. Tadbirkorlik va tijorat tavakkalchiligi kasb yoki xo'jalik tavakkalchiligi kabi zaruriy holatga aylandi. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik va tijorat tavakkalchiligini himoyalash maqsadlarida tadbirkorlik sub'ektlarining bank va moliya tashkilotlaridan ko'rsatilgan xizmat va kreditlarni tavakkalchilik sababli qaytara olmaganligi bank va moliya tashkilot xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmasligini belgilagan.

Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish

2018 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga O'RQ-459-sonli Qonun bilan 41¹-modda kiritildi. U "Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish" deb nomlandi. Ushbu modda shaxsga nisbatan jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish natijasida shaxs o'z harakatlarini boshqara olmaganligi sababli jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazsa, jinoyat deb topilmasligini o'zida ifodalaydi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi mazkur holat tashqi ta'sir natijasida kuchli hayajon, jazava (affekt) holatiga tushib qolishi natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishida namoyon bo'ladi. Bu yerda maqsad majburlanayotgan shaxsni biror harakat yoki harakatsizlikni sodir etishiga olib kelishdan iborat bo'ladi. Mazkur holat dastlab oxirgi zarurat (38-modda) formalaridan biri sifatida ko'rilar edi va sud-tergov amaliyotida ko'plab munozaralarga sabab bo'lar edi. Holatning alohida moddaga olinishi muammoning yechimiga olib keldi.

Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish o'zida bir necha holatlarni aks ettiradi. Majburlash jismoniy yoki ruhiy ko'rinishda bo'lib, biror bir qilmishni bajarishga majbur etishda ifodalanadi. Jismoniy ko'rinishda majburlash zo'rlik ishlatish vositasida, ya'ni tan jarohati yetkazish, do'pposlash, qiynash shaklida amalga oshiriladi. Jismoniy ko'rinishdagi majburlash qiynoq ostiga olingan turli shaxslarga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holda majburlovchi ruhiy majburlash vositasidan ham foydalanishi mumkin. Bunda haqoratlash, unga

tegishli sirlarni oshkor qilish bilan tahdid qilish, shaxsni kamsituvchi tuhmatli soʻzlar bilan majbur etish tushuniladi.

Jismoniy yoki ruhiy koʻrinishdagi majburlov voyaga yetmagan va yoshi 30 ga toʻlmaganlarga tez taʼsir qiladi. Yoshi katta kishilarga esa tez taʼsir oʻtkaza olmasligi mumkin. Jismoniy yoki ruhiy majburlov taʼsir koʻrsatmasa, taʼsir oʻtkazuvchilar qoʻrqitish yoʻlidan foydalanadi.

Topshiriq

Yengil hayot kechiruvchi ayol fohishaxona ochib tirikchilik qiluvchi boshqa bir ayolning oldiga kelib puldan qiynalayotgani va uning chet elda tanishlari boʻlsa, u yerlarga borib pul topib kelishi mumkinligini aytdi. Qoʻshmachisi ayol Dubaydagi ishratxonalarga ayollarni olib ketadigan tanishlari borligini aytdi. Fohishaxonaga borishi mumkinligini yashirmadi. Yengiltak ayol uning gaplariga rozi boʻlib, qoʻshmachining tanishlari orqali Dubayga ketdi. Biroq uni xoʻjayinlari yetarlicha pul bermagach, xor-zorliklardan keyin Oʻzbekistonga keldi. Qoʻshmachisi ayolni odam savdosida ayblab sudga berdi.

– Sud qanday yoʻl tutadi?

Qoʻrqitish oʻldirib yuborish, azoblab qiynash, yaqinlari hayotiga tajovuz qilish, nomusiga tegish, sharmanda qiluvchi holatlarni videoga olib internet orqali tarqatib yuborish kabi tahdidlar bilan taʼsir oʻtkazishda namoyon boʻladi. Bu kabi qoʻrqitishlar va jismoniy hamda ruhiy koʻrinishdagi majburlashlar mustahkam irodali kishilarni ham ruhiyatini izdan chiqarishga olib kelishi tabiiydir. Ruhiyati izdan chiqib, oʻz harakatlarini oʻzi boshqara olmaydigan vaziyatga tushib qolgan shaxsning majburlovchi yoki qoʻrqituvchiga zarar yetkazishi qilmishni istisno qilinishiga olib keladi. Bunda affekt holatda, yaʼni ruhiyatning keskin his-tuygʻuli, yanada aniqrogʻi portlash holatiga kelishi holatida sodir etilishi koʻzda tutiladi. Agar bunday holat yuz bermay, shaxs oʻz harakatlarini oʻzi boshqarish imkoniyatlarini saqlab qolgan boʻlsa, uning qilmishi oxirgi zarurat qoidalari asosida tahlil qilinadi.

Mavzu boʻyicha test savollari

1. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning xususiyatlarini qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - a) qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda jinoyatning belgilari mavjud bo'ladi
 - b) ularni jinoyat deb topishni rad etish orqali davlat va jamiyat manfaatlariga yetkaziladigan jiddiy zararlarning oldi olinadi
 - c) fuqarolarning sudlanganlik kabi oqibatlarga uchrashi kamayadi
 - d) javoblarning barchasi to'g'ri
2. Tajovuzchiga zarar yetkazgan holda davlat va jamiyat manfaatlarini himoyalash nima?
 - a) zaruriy mudofaa
 - b) oxirgi zarurat
 - c) kam ahamiyatli qilmish
 - d) asosli tavakkalchilik
3. Tajovuzchiga zarar yetkazish oqibatida nimaga erishish mumkin?
 - a) katta boylikka erishish
 - b) kutilayotgan kattaroq zararni oldini olish
 - c) fors-major holatni oldini olish
 - d) fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash
4. Qilmishni istisno qiluvchi holatlar ichida qaysi biri ijtimoiy foydali emas?
 - a) zaruriy mudofaa
 - b) oxirgi zarurat
 - c) kam ahamiyatli qilmish
 - d) asosli tavakkalchilik
5. Zaruriy mudofaa qachon tugaydi?
 - a) jabrlanuvchi qochib ketishi bilan
 - b) tajovuz yakunlanishi bilan
 - c) tajovuzchi o'limi bilan
 - d) tajovuzchining jarohat olishi bilan

6. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi qaysi holatda yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kam bo'lishi talab etiladi?
- a) kam ahamiyatli qilmish
 - b) zaruriy mudofaa
 - c) oxirgi zarurat
 - d) asosli tavakkalchilik
7. Shaxsning fiziologik holati, hayvonlar tajovuzi, tabiiy, mexanik va boshqa favqulodda holatlar natijasida vujudga keluvchi holatni aniqlang
- a) kam ahamiyatli qilmish
 - b) oxirgi zarurat
 - c) asosli tavakkalchilik
 - d) buyruq yoki vazifani bajarish
8. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarni ushlash fuqarolar uchun ... sanaladi. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying
- a) majburiyat
 - b) burch
 - c) erkinlik
 - d) vakolat
9. Bo'ysunish tartibidagi kishilar o'rtasida vujudga keluvchi qilmishni istisno qiluvchi holat nima?
- a) zaruriy mudofaa
 - b) oxirgi zarurat
 - c) buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish
 - d) kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik
10. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi qaysi holatda yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan ko'p bo'lishi ahamiyatli bo'lmaydi?
- a) zaruriy mudofaa
 - b) oxirgi zarurat
 - c) buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish
 - d) kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarni tasniflang.
2. Kam ahamiyatli qilmishlarning xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Zaruriy mudofaaning o'ziga xos jihatlarini ko'rsating.
4. Oxirgi zarurat qanday vaziyatlarda vujudga keladi?
5. Zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratning farqli jihatlarini ko'rsating.
6. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish qanday xususiyatlarga ega?
7. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish nimalarga olib kelishi mumkin?
8. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilikni tavsiflang.
9. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi qaysi holatlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntiring.

10 BOB. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI

Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish


Jinoyat qonunchiligi ijtimoiy xavfli qilmishda jinoyat tarkibining elementlari bo'lmasa javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Jinoyat qonuni bilan ta'qiqlangan, jazoga sazovor hamda aqli raso shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat deb topilgani holda javobgarlik paydo bo'ladi. Javobgarlik o'z navbatida jazo kelib chiqishini ta'minlaydi.

Jinoyatchilik amaliyoti davomida shunday holatlar ham bo'ladiki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs javobgarlikka tortiladi va jazolanishi kerak

bo'lgan vaqtda jazo qo'llashdan ozod qilinadi. Bunga muddatlarning o'tib ketganligi, aybdorning qilmishidan pushaymonligi, yarashilganlik, kasallik va boshqa omillar sababchi bo'ladi. Bunday omillar tufayli jinoiy qilmish o'zining xavflilik xususiyatini yo'qotadi, uni sodir etgan shaxs jamiyat uchun xavf solmaydi. Natijada javobgarlikdan ozod qilinadi. Bu quyidagi turlardan iborat bo'ladi:

- javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- yarashilganlik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish;
- amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Javobgarlikdan ozod qilishning birinchi turi javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi bilan bog'liqdir. Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanuvchi muddatdir. Jinoyat sodir etgan shaxslar o'zlarining ijtimoiy xavfli qilmishlari va uning oqibatlari haqida ma'lumot berishmaydilar. Ba'zan jinoyat sodir etilganligi noma'lumligicha qoladi. Ayrim hollarda jinoyatning aybdorlari yoki isbotlovchi dalillar topilmay, ish uzoq vaqtgacha cho'zilib ketadi. Muddatlarning o'tishi qilmishning ijtimoiy xavfliligini kamaytirib boradi. Sodir etgan shaxsning o'zi boshqa jinoyatga qo'l urmasa tuzalish yo'liga kirgan bo'ladi. Bunday hollarda javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi bois ishni yopish, qilmishni sodir etgan shaxsni xavotirdan ozod qilish zarur bo'ladi. Muddatlarning o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning to'rt xil shakli belgilangan bo'lib, 2018 yilgi Oliy Majlis tomonidan kiritilgan o'zgartishlardan so'ng, ular quyidagi ko'rinishdadir:



21-rasm. Muddati o'tib ketganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish

Ushbu muddatlar o'tib bo'lganidan so'ng, javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish holati qo'llaniladi. Masalan, ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng tilanchilik qilish (127¹-modda) jinoyatining birinchi va ikkinchi qismi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilib, uning sodir etilishi faktidan boshlab ikki yilgacha, jinoyatning uchinchi qismi bo'yicha to'rt yil mobaynida jazo qo'llanilmasa javobgarlikdan ozod qilinadi.

Muddatlar o'tishining qo'llanilishida jinoyat sodir etgan shaxsning tergov yoki suddan yashirinishi bilan bog'liq muhim jihat shundaki, shaxsning qochib ketishi bu muddatlar o'tishini to'xtatib qo'yadi. Misol uchun, biror shaxs JKning 277-moddasi birinchi qismidagi bezorilik jinoyatini 2020 yil 15 may kuni sodir etib, 20 may kuni tergov boshlangandan so'ng qochib ketsa, shu kundan muddatning o'tishi to'xtatiladi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun belgilangan ikki yildan so'ng, 2022 yil 21 may kuni ushlansa ham javobgarlikdan qutulib qolmaydi. Chunki u ushlangan kundan javobgarlikka tortish muddati tiklanadi, muddat besh kun o'tgandan boshlab hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 64-moddasi to'rtinchi qismi bo'yicha og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o'tishi uziladi. Yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab javobgarlikka tortish muddati yangidan hisoblanishi boshlanadi. Masalan, 2015 yil 20 fevralda og'ir jinoyat sodir etilgan va buning muddati 2023 yil 20 fevral kuni

tugashi kerak, lekin u 2020 yil 19 mart kuni qasddan yangi jinoyat sodir esa, sakkiz yillik javobgarlikka tortish muddati 2020 yil 19 mart kunidan qaytadan boshlanadi. Mazkur qoida barcha jinoyatlar uchun taalluqli emas. Zero, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilganlik uchun har bir jinoyat alohida-alohida tartibda hisoblanadi.

Sud va tergovdan qochib ketish holatlari amaliyotda muntazam uchrab turadigan holatlar bo'lib, jinoyat sodir etgan shaxslar jazodan shu yo'l bilan qutulib qolishga harakat qilishadi. Jinoyat qonunchiligida bunga ham aniqlik kiritilib, endi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilganlik uchun 10 yil, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etilganlik uchun 25 yil o'tgan bo'lsa, shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas.

Jinoyatda ishtirokchilik holatlari bo'yicha muddatlarning o'tishi har bir ishtirokchiga nisbatan alohida qo'llaniladi. Agar jinoyat jinoyatlar jamidan iborat bo'lib, ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olingan va ularning o'zlari qatnashgan jinoyatlari aniqlanib, ularning aybi darajasidagi alohida muddatlar qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi (97 va 155-moddalar bo'yicha) ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun muddatlarni qo'llash sud tomonidan hal etiladi. Sud ushbu jazoni qo'llashni zarur deb topmasa, o'rniga ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llaydi.

Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Ijtimoiy hayot davom etar ekan, davlat va jamiyat hayotida yangilanishlar muttasil davom etaveradi. Insonlarning turmush tarzida, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan va texnologiyalar sohalari, xatto ma'naviy-axloqiy hayotda ham o'zgarishlar yuz beraveradi. Bunday o'zgarishlar huquqiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ijtimoiy munosabatlardagi voqeliklar huquq sohasidagi me'yorlarga sharoitlar o'zgarishini taqdim etadi. Sharoitlarning o'zgarishi jinoyat

qonuni bilan ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni hamda uni sodir etgan shaxsni xavflilik darajasini yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Jinoiy qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qolishi ko'pincha sharoit o'zgarganligi tufayli ham yuz beradi. Mazkur holat jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish uchun yetarli bo'ladi.

Jinoyat kodeksining 65-moddasida jinoiy ish tergov yoki sud jarayonida ko'rilyotganda sharoit o'zgarishi sababli sodir etilgan qilmish yoki shaxs o'z xavfliligini yo'qotsa javobgarlikdan ozod qilinishi belgilab qo'yilgan. Ushbu modda javobgarlikdan ozod qilinishida qilmishning va shaxsning xavflilik xususiyatlarini yo'qotishi asos bo'lib xizmat qilishini o'zida ifodalaydi.

Qilmish va shaxsning sharoit o'zgarishi tufayli xavflilik xususiyatini yo'qotishini tahlil qiladigan bo'lsak, bularning har ikkisi muayyan voqeliklarga bog'liq bo'lishini ko'ramiz.

Qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qotishiga mintaq, mamlakat, muayyan hududda yuz beradigan ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar sababchi bo'ladi. Agar bunday o'zgarishlar qilmish sodir etilgandan boshlab sud hukmi chiqqunga qadar yuz bersa va ular qilmishning xavflilik xususiyatini yo'qotsa shaxsni jazolashga hojat qolmaydi. Masalan, bir fuqaro Qozog'iston Respublikasidan O'zbekiston Respublikasiga vizasiz asosda kirs, JKning 223-moddasini buzgan hisoblanadi. Tergov yoki sud jarayoni o'tayotgan paytda har ikki davlat fuqarolarning harakati uchun vizasiz rejimni joriy qilish haqidagi shartnomani imzolasa, qilmish o'z xavfliligini yo'qotadi. Binobarin Qozog'iston fuqarosini jazolashga o'rin qolmaydi. Bu kabi holatni 197¹-modda misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan zaruriy chora ko'rilmaganligi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Agar bunday yerlarni ularga mulk qilib berish haqidagi Prezident Farmoni chiqarilsa va yerlar kishilarga tomorqa mulki qilib berilsa, qilmish o'z xavfliligini yo'qotadi. Bu kabi misollarni 198, 202, 203-moddalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Qilmishning o'z xavfliligini yo'qotishi aynan shu qilmishni o'zida ifoda etuvchi moddaning Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlanishiga olib kelmaydi. Faqat ma'lum bir ijtimoiy munosabatlardagina o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi, xolos.

SHaxsning o'z ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi mamlakat yoki muayyan hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy munosabatlardagi katta o'zgarishlarga bog'liq emas. Chunki bunda alohida olingan shaxsning o'ziga bog'liq jarayonlar yuz beradi hamda shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga olib keladi.

SHaroit o'zgarganligi sababli shaxsning o'z ijtimoiy xavfliligining yo'qotganligi jinoyat sodir etish paytidagi va undan keyingi hayoti va faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Jinoyat sodir etgan shaxsning o'z lavozimidan bo'shab ketishi, o'qishga kirishi, oilaviy hayotining izga tushishi, og'ir kasallikka chalinishi kabi holatlar sharoit o'zgarishini anglatadi.

Shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligiga namunali xulqi, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni o'z ixtiyori bilan bartaraf etishi, yashash tarzining o'zgarishi kabi omillar vositasida ham ishonch hosil qilish mumkin. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-modda), hokimiyat harakatsizligi (208-modda) kabi jinoyatlar misolida buning isbotini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Javobgarlikdan ozod qilishning 66-moddada belgilangan shakli aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishdan iborat. Ushbu moddaga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs o'z aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo'ladi. Javobgarlikdan ozod qilishning ushbu shakli uchun o'ziga xos talablar mavjuddir. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- qilmishning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ekanligi;
- shaxsning jinoyatni birinchi marta sodir etganligi;
- aybini o'z bo'yniga olish to'g'risida arz qilganligi;
- qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi;
- jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi;
- keltirilgan zararni bartaraf qilganligi.

Javobgarlikdan ozod qilish uchun mazkur talablarning mavjudligi tergov yoki sud tomonidan javobgarlikni bekor qilinishiga olib keladi.

Dastlabki talab ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ekanligi bilan bog'liqdir. Bunga sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosining besh yildan ko'p bo'lmagan muddati belgilangan jinoyatlar hamda ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar kiradi. Bunday jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxslarni ma'naviy-axloqiy jihatlari og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarnikiga qaraganda tuzalish yo'liga o'tishga ancha moyil bo'ladi.

Topshiriq

To'rt kishi fermerning qo'rasidan qo'y o'g'irlash maqsadida kechasi kelishdi. Ularning harakatidan qo'ylar bezovtalanib qolishdi, itlar vovullay boshladi. To'rtovi qochmoqchi bo'lganda, fermer ularning yo'lini to'sib chiqdi. Bittasi orqa tomonga yugurib qochib ketdi. Qolgan uchasi fermerni hujum qildi va uning qarshiligini yengib, og'ziga latta tiqishdi, oyoq-qo'lini bog'lashdi. Militsiyaga aytsa o'ldirib yuborish bilan qo'rqtishdi. Fermer iskanjadan qutuldi va militsiyaga voqeani aytdi. O'g'rilar qo'lga tushirilib, tergov boshlandi. To'rtovidan qochib ketgani o'z harakatlarini jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb baholashni so'radi.

– Uning harakatlarini baholang.

Jinoyatning birinchi marta sodir etilganligi bunda aybdor bo'lgan shaxsning tuzalish yo'liga kirishini nisbatan osonlashtiradi. Ilgari ham jinoyat qilgan, jinoyat-protsessual jarayonidan o'tgan sudlangan shaxslarga qaraganda yengilroq choralarni qo'llash ijobiy natijalarni berishi mumkin. Zero, sudlanish natijasida

ozodlikni mahrum qilish jazosi ijro etiladigan joylarida muddatni o'tagan shaxslarning ko'pchiligi erkinlikda yurgan fuqarolar ega bo'lmagan ko'pgina salbiy ko'nikmalarni o'zlashtirib oladi. Koloniya va turmalardagi boshqa jinoyatchilardan o'zlashtirilgan salbiy sifatlar ularni jamiyat uchun yanada xavfliroq bo'lib qolishiga olib keladi. Shu bois birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxslarni iloji boricha ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijro etiladigan koloniyalar va turmaga yuborishdan chekinish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jinoyatni ilk marta sodir etgan deb topilishida ba'zi bir xususiyatlar ham inobatga olinadi. Xususan, avvallari sodir etgan qilmishi kam ahamiyatli qilmish, javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi, qilmish yoki shaxsning o'z xavfliligini yo'qotishi, tomonlarning yarashuvi, pushaymonlikning amalda isbotlangani tufayli javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa, shaxs jinoyat sodir etmagan hisoblanadi. Undan keyingi qilmishi esa ilk marotaba qilingan jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Ayb masalasi jinoyat sub'ektiv tomonini tashkil etuvchi element hisoblanib, unda shaxsning sodir etilgan qilmishga nisbatan ruhiy munosabati aks etadi. U qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, qilmishni sodir etuvchi shaxs o'z ixtiyori bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga aybini bo'yniga olib murojaat etishi lozim. Aybini bo'yniga olib arz qilishi jinoyat ishi ochilishidan oldin yoki ochilgach, qisqa muddatlarda amalga oshirilishi surishtiruvchi yoxud tergov organlari ishini nisbatan osonlashtirish va vaqtni qisqartirish imkonini beradi. Aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish yozma yoki og'zaki, shuningdek elektron usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxsning o'z qilmishidan pushaymonligi javobgarlikdan to'liq ozod qilish uchun yetarli bo'lmaydi. Bu faqat yengillashtiruvchi holat sifatida ko'riladi. Shaxsning o'z qilmishidan amalda pushaymonligi uchun boshqa jihatlar ham kerak bo'ladi. Pushaymonlik amalga o'z isbotini topishi uchun jinoyatning ochilishiga faol yordam berishi, jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh qilishda yordam berishi, yetkazilgan zararni o'z ixtiyori bilan

qoplashi, ijtimoiy foydali mehnat bilan bandligi, namunali xulqqa egaligi kabi holatlar ham mavjud bo'lishi talab etiladi.

Jinoyat ochilishiga faol yordam berish dalillarni to'plash, tergov va sudga jinoyat ishi uchun ahamiyatli barcha holatlarni ro'yi-rost aytib berish, tergov ishini yengillashtirishda namoyon bo'ladi. Tergovga yordam berish protsessual jarayonni qisqartiradi. Bu holat rag'batlantiruvchi ahamiyatga egadir.

Etkazilgan zararni qoplash jinoyat sodir etgan shaxsni o'z qilmishiga nisbatan o'zining ma'naviy munosabatining namoyon bo'lishidir. Zararni qoplash yetkazilgan jismoniy, moddiy va ma'naviy zarar uchun tovon to'lashdan iborat bo'ladi. To'lanadigan tovon majburiyatni bajarish, pul berish, uzr so'rash, harajatlar o'rnini to'ldirish, buzilgan predmet o'rniga boshqasini berish yoki unga tenglashtirilgan ashyoni berish kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Zararni qoplash jabrlanuvchi tomonidan qoniqish hosil qilishni keltirib chiqarishi lozim. Zararning qoplanishi jabrlanuvchining ruhiy iztiroblari uchun amalga oshirilib, u uzr so'rash, ma'naviy zarar uchun kompensatsiya shaklidagi pul berish, harajatlarni to'ldirish shakllarida amalga oshiriladi. Agar jabrlanuvchi me'yoridan ortiq talablarni qo'yib, ayblanuvchi hisobidan asossiz boyib qolish istagida bo'lsa, sud mazkur holatni ham inobatga oladi. Yetkazilgan zarar ommaviy mulk bilan bog'liq bo'lsa, uning o'rni qoplanishdan tashqari, olinmay qolgan foyda hisobi ham chiqarilishi zarur bo'ladi.

66-moddaning ikkinchi qismida Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda jinoyat sodir etgan shaxs sodir etgan o'z qilmishidan amalda pushaymon bo'lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozimligi belgilangan. Ushbu qoida jinoyatni sodir etilishidan qat'iy nazar, amalda pushaymonlik uchun javobgarlikdan ozod qilinishini anglatadi.

Yarashilganlik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Tajovuz qiluvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida javobgarlikdan ozod qilish keng tarqalgan turlardan biri bo'lib, ayblanayotgan shaxsning ahvolini yengillashtirishga xizmat qiladi. Yarashilganlikning ahamiyatli

tomoni shundaki, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs zararni qoplashi hamda jabrlanuvchining kechirishi tufayli qilmishidan pushaymon ekanligini amalda isbotlaydi.

Yarashilganlik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish shaklidan farqlanishi bois ikkisi bir-biridan ajratiladi. Qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonlik jinoyatning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ekanligi, shaxsning jinoyatni birinchi marta sodir etganligi, aybini o'z bo'yniga olish to'g'risida arz qilganligi, jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi kabi belgilarga ega bo'ladi.

Yarashilganlik tufayli javobgarlikdan ozod qilish uchun zararni qoplash va jabrlanuvchining kechirishi asos bo'ladi. Tergov va sud organlari qoplanayotgan zarar miqdorini aniqlash, ko'p yoki kamligini hisoblash ishlarini amalga oshirmaydi. Bu qilmishni sodir etuvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi o'zaro kelishuv yo'li bilan hal etiladi. Tergov va sud organlari kelishuv amalga oshirilib qancha summa berilganligini emas, balki jabrlanuvchining kechirganligi va boshqa da'volari bor yoki yo'q ekanligini aniqlaydi. Agar jabrlanuvchi tomonidan aybdorga nisbatan e'tiroz bildirilib, uning jazolanishini talab qilsa, sud umumiy asoslarda sudlov faoliyatini davom ettiradi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida ayrim jinoyatlar uchun jabrlanuvchining arizasi jinoiy ish ochishga asos bo'lishi belgilangan. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 325-moddasi jinoyat ishini jabrlanuvchining shikoyatiga ko'ra qo'zg'atilishi asoslarini belgilaydi. Moddaga ko'ra, Jinoyat kodeksining 105-moddasi I qismi, 109-moddasi, 110-moddasi I qismi, 111-moddasi, 118-moddasi I qismi, 119-moddasi I qismi, 121-moddasi I qismi, 136-moddasi, 139-moddasi I va II qismlari, 140-moddasi I va II qismlari va 149-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jabrlanuvchi bergan ariza jinoyat ishi ochilishiga asos bo'ladi.

Jinoyat jabrlanuvchisining ariza bermaganligi yarashuv sudgacha hal bo'lishiga imkon berishi mumkin. Milliy xususiyatlarimiz bilan bog'liq andishalilik, kechirimlilik, jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan jinoyatlarda qiz

bolaning sha'ni kabi jihatlar ariza berilishiga to'sqinlik qilishiga olib keladi. Shuningdek, jabrlanuvchining nochor ahvolda ekanligi, ayblanuvchiga qaram yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olmaganligi sababli ariza bera olmasligi mumkin. Bunday hollarda uning holatini inobatga olib, jabrlanuvchining shikoyatisiz ham prokuror jinoyat ishi qo'zg'atishi shartligi JPKning 325-moddasida belgilangan.

Yarashilganlik bilan bog'liq holatlar uchun yozma shakldagi arizalar asos bo'ladi. Ariza jabrlanuvchi, shuningdek fuqaroviy da'vogar yoki ularning vakillari tomonidan sud maslahatxonaga kurguncha istalgan bosqichda berilishi mumkin. Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davrida berilgan yarashuv to'g'risidagi ariza ish yuritayotgan xodim tomonidan ko'rib chiqilishi shart.

Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga ko'ra, yarashuv to'g'risidagi arizada yetkazilgan ziyonning bartaraf etilganligi hamda yarashilganlik munosabati bilan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni tugatish haqida iltimos aks etishi lozim. Arizaning berilishi javobgarlikka tortilishning to'la bekor qilinishini anglatmaydi. Chunki tergov qilinayotgan yoki ko'rilyotgan jinoyat ishi bir necha jabrlanuvchini qamrab olgan bo'lsa, jabrlanuvchilarning barchasi bilan yarashuvga erishilishi zarur. Aks holda yuritilayotgan jinoyat ishi davom ettiriladi.

Yarashuvning qonuniyligi va asosliligini aniqlash uchun surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan quyidagi holatlarga e'tibor beriladi:

- jinoyatning JKning 66¹-moddasida belgilangan qilmishlardan biri ekanligi;
- shaxsning og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar bilan muqaddam sudlanmaganligi (sudlangan bo'lsa uning olib tashlanganligi yoki bekor qilinganligi);
- aybiga chin ko'ngildan iqrorigi;
- etkazilgan zararni o'z ixtiyori bilan qoplaganligi.

Yarashilganlik bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda jinoyat JKning 66¹-moddasida belgilanganligi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Agar jinoyat bu moddada aks etmagan bo'lsa, unga nisbatan yarashuv institutini qo'llab bo'lmaydi.

Masalan, hayotga qarshi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi, harbiy sohadagi va boshqa jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan aybdorlarga yarashuv institutini qo'llash mumkin bo'lmaydi. Boisi bu kabi jinoyatlar og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga kirishi bilan birga, bundan nafaqat odamlar, balki davlat manfaatlari ham katta zarar ko'radi.

Jabrlanuvchilar fuqarolar va unga tenglashtirilgan shaxslar bo'lsagina yarashuvga yo'l qo'yiladi. Yetkazilgan zarar davlat tuzilmalari, umummilliy boylik hisoblanuvchi ob'ektlar, insoniyat hayoti va xavfsizligi bilan bog'liq bo'lsa, jinoyatning xususiyatlari og'irlashib ketadi.

Topshiriq

Ikki yo'lovchi taksiga qo'l ko'tardi. Mashinaga o'tirib manzilni aytishdi. Yo'lda ketayotgan paytida ulardan birining telefoni jiringladi. Telefonda past ovozda tushunarsiz jumlar bilan gaplashgandan so'ng, haydovchiga "Opamni mashina urib ketibdi" deb bozorga tezroq haydashni talab qildi. Bozorga kelishgach, ikkala yo'lovchi odamlar orasiga yugurib kirib ketib, g'oyib bo'lishdi. Yo'lkira haqini ololmagan haydovchi asabiylashib, ular o'tirgan o'rindiqqa qaradi va qora rangli xo'jalik paketini ko'rdi. Uni qo'lga olib ichidagi narsa marixuana ekanligini bilgunicha qo'lga tezkor xizmat xodimlarining kishani taqildi.

– Vazivatga huquqiy baho bering.

Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar salbiy oqibatlari bilan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi. Shu bois yarashuvda bunga e'tibor qaratiladi. Agar bunday jinoyatlar avval sodir etilib, sudlanganlik olib tashlangan yoki bekor qilingan bo'lsa, yarashuv holatini qo'llanilishi uchun to'sqinlik qilmaydi. Shunisi ham borki, muqaddam sodir etilgan jinoyat uchun sudning hukmi chiqarilib qonuniy kuchga kirmagan bo'lsa ham shaxs sudlanmagan hisoblanadi. Bunday holatda yarashilganlik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish qo'llaniladi. Masalan, bir shaxs bosqinchilik jinoyatini sodir etib, sud tomonidan ushbu jinoyati uchun chiqarilgan hukm kuchga kiringunga qadar, JKning 277-moddasi I qismida ko'rsatilgan bezorilik jinoyatini sodir etsa hamda buning uchun yarashuvni amalga oshirsa, bezoriligi avvalgi jinoyat bilan qo'shib jinoyatlar jamini tashkil etmaydi.

Yarashuv bo'yicha berilgan ariza qilmishni sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilib, uni sudlanmagan deyish uchun asosni vujudga keltiradi. Jabrlanuvchidan ariza berilgan vaqtda uni qabul qilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud yarashuv sud tomonidan tasdiqlansa, mazkur ishni qayta tiklash haqida iltimosnoma berish huquqi tugatilishini tushuntirishi zarur. Zotan, yarashuv bo'yicha tugatilgan ishdan so'ng jabrlanuvchi va uning qonuniy vakillari qayta ariza kiritishdan mahrum bo'ladi.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish

Jinoyat sodir etilganligi tufayli shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun u o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglay olishi, xavfli oqibatlariga ko'zi yetishi, qonun bilan belgilangan yoshga yetganligi, aqli raso bo'lishi shart. Aqli rasolik o'z harakatlarini ahamiyatini anglay olishi hamda ularni boshqara olishi imkonini beradi. Agar shaxsning bunday qobiliyati buzilgan bo'lsa, ya'ni o'z harakatlarini anglay olmasa va ularni boshqara olmasa, uning javobgarligi masalasi sud tomonidan ko'rib chiqilishi zarur.

Jinoyat kodeksining 67-moddasi bilan belgilangan tartibga ko'ra, agar jinoiy qilmish sodir etgan shaxsning sud hukmigacha o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda buzilishi yuz bersa javobgarlikdan ozod qilinadi. Mazkur qoida jinoyat sodir etgunga qadar ruhiy kasal va jinoyat qilgandan keyin ruhiy kasallikka chalinganlarga ham bir xil ta'sirga ega bo'ladi.

Ruhiy xastalikka chalinganlik yoki aqli zaiflik jinoyat qonunchiligining insonparvarlik, adolatlilik tamoyillariga asosan javobgarlik va jazodan ozod qilishni talab qiladi. Xastalik tufayli shaxs o'z harakatining ahamiyatini anglayolmaydi va buning natijasida o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'diradi. Bunday holatda shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ko'rilishiga yo'l qo'yiladi.

Kasallikka chalingan shaxslarni tibbiy ekspertizadan o'tkazish shart hisoblanib, u Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasida belgilangan

asoslarga ko'ra tayinlanadi. Bunda gumonlanuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining ruhiy va jismoniy ahvolini hamda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etayotgan paytda o'zini idrok va iroda qilish layoqati, javobgarlikning ahamiyatini tushunishi, ko'rsatuv berish va huquqlarini mustaqil himoyalay olish layoqatini aniqlash uchun ekspertiza belgilanadi. Ekspertiza belgilanganda JPKning 190-moddasi asosida tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ekspert tekshiruv uchun namunalari olinishi mumkin.

Shaxsni ruhiy kasalliklarning to'rt guruhining biri bilan xastalanganligi bo'yicha gumon qilinsa, sud ekspertizasi o'tkazilishi uchun uni tibbiy muassasaga joylashtirish zarur bo'ladi. Bu holat Jinoyat-protsessual kodeksining 31-bobi bilan tartibga solinadi. Sud-tibbiy yoki sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkazilishi maqsadida tibbiy muassasaga ko'pi bilan bir oyga joylashtirilishi mumkin. Bu muddat ayblanuvchi va sudlanuvchiga nisbatan JPKning 423 va 438-moddalarida belgilangan tartibda hal etilib yana bir oyga uzaytirilishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxs joylashtirilayotgan tibbiy muassasa qamoqqa olinganlar yoki uy qamog'ida saqlanishi kerak bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan bo'lsa, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlanishi mumkin. Bunday holda tibbiy muassasada bo'lgan vaqt qamoq yoki uy qamog'ida saqlash muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Shaxsni tibbiy muassasaga joylash uchun tergovchi va surishtiruvchi protsessual majburlov choralari qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi. Qaror zarur materiallar bilan prokurorga yuboriladi, shuningdek qaror prokuror tomonidan ham chiqarilishi mumkin. Agar qarorni asosli deb topsa, prokuror materiallarni sudga yuboradi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish masalasi sud tomonidan yakka tartibda, materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran qirq sakkiz soat ichida ko'rib chiqiladi.

Tibbiy muassasada o'tkaziladigan sud-psixiatriya ekspertizasi shaxsni ruhiy kasalliklarning to'rt guruhidan biriga chalinganligini tasdiqlasa, sud javobgarlik

masalasini olib tashlaydi. Zarur hollarda ruhiy kasallikka chalingan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llaniladi.

Majburlov chorasining qo'llanilishi shaxsning salomatligini tiklanishiga olib kelsa, shaxs tuzalganidan keyin javobgarlikka jalb etiladi. Bunda shaxsning to'liq sog'ayib ketganligi hamda javobgarlikka tortish muddatlarining o'tib ketmaganligi javobgarlik tiklanishi uchun asos bo'ladi. Shaxsning sog'ayib ketganligi ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlanishi shart. Agar sog'ayish to'liq bo'lmay, statsionar davolanish hamda ambulator kuzatuv shart bo'lgan, ruhiy xastalik holati takrorlanishi mumkin bo'lgan kasallar javobgarlikka jalb etilishi mumkin emas.

Javobgarlikka jalb etishda javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi umumiy asoslardan farq qiladi. Xususan, muddatlarni hisoblash jinoyat sodir etilgan kundan boshlanmay, balki tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan kundan muddatning o'tishi boshlanadi. Umumiy asoslarda tayinlanadigan jinoyat sodir etilgan davrdan boshlab 25 yillik muddatning o'tib tamom bo'lishi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatining ham o'tishini to'xtatadi. Javobgarlik butunlay bekor qilinadi.

Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish

Javobgarlikdan ozod qilishning so'nggi shakli jinoyat sodir etgan shaxsni amnistiya akti asosida ozod qilishdir. Konstitutsiyamizning 93-moddasi 23-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti amnistiya to'g'risida hujjat qabul qilish uchun Oliy Majlis Senatiga taqdimnoma kiritadi. Amnistiya to'g'risidagi hujjatni qabul qilish Konstitutsiyaning 80-moddasi 10-bandiga asosan, Senat tomonidan amalga oshiriladi.

Amnistiya aktining Senat tomonidan qabul qilinishi jinoyat sodir etgan va jazoni o'tayotgan mahkumlarga nisbatan senatorlar orqali jamoatchilik insonparvarona munosabatining namoyon bo'lishidir. Oliy Majlisning yuqori palatasi asosan hududlardan chaqirilgan xalq vakillari bo'lib, ularning timsolida xalq jinoyatchilarni va mahkumlarni sodir etgan qilmishlari uchun kechiradi.

Mazkur kechirish shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish, uni yengillashtirish, jazoning oqibatlaridan ozod qilish uchun qonun doirasida ta'sir qiladi.

Amnistiya akti jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlari doirasidagi shaxslarning javobgarlikdan ozod qilinishini, jazo muddatlari qisqarishini ta'minlash bilan birga, ayrim guruhlar, masalan, ayollar, voyaga yetmaganlar, 60 yoshdan kattalar hamda ayrim jinoyatlar uchun alohida ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Amnistiya aktini qo'llash hujjati e'lon qilingach, uni qo'llash bo'yicha huquqiy asoslarga tayangan surishtiruvchi yoki tergovchi jinoyat ishiga aloqador zaruriy materiallar bilan birga, sudga iltimosnoma kiritish haqida taqdimnomani prokurorga yuboradi. Prokuror amnistiya aktini qo'llash qonuniyligini tekshirib ko'rib, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritadi.

Amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish, shuningdek asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish yoxud yengilrog'i bilan almashtirish hududiylik printsiptini talab etadi. Jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv va tergov ishlari qaysi tuman yoki shaharda olib borilayotgan bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish bo'yicha sud muhokamasi shu tuman yoki shahardagi jinoyat ishlari bo'yicha sudga ko'rib chiqiladi.

Hukm qonuniy kuchga kirgan mahkumni amnistiya akti bilan jazodan ozod qilish yoki yengilrog'i bilan almashtirish mahkum jazo o'tayotgan joydagi tuman (shahar) sudi yoki hududiy harbiy sudning sud'yasi tomonidan amalga oshiriladi.

Javobgarlikdan ozod qilishning amnistiya akti bo'yicha amalga oshirilishi ishtirokchilikda jinoyat sodir etganlarga nisbatan qo'llanilganda, bir nechta shaxsdan loaqal bittasi amnistiya akti ta'sir doirasiga tushsa, jinoyat ishni alohida ish yuritilishiga ajratilishiga yo'l qo'yiladi.

Amnistiya aktini qo'llab javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi ariza jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan jinoyat protsessining istalgan bosqichida berilishi mumkin. Ariza berilgach, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan

taqdimnoma prokurorga beriladi. Prokuror besh kundan kechiktirmasdan, barcha materiallarni sudga yuboradi. Sud mazkur ishni o'n sutkadan kechiktirmay ko'rib chiqadi va javobgarlikdan ozod qilish masalasini hal etadi. Unga ko'ra, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish yoki jinoyat ishini tugatish haqida ajrim chiqariladi. Sudning chiqargan ajrimi javobgarlikni bekor qilsa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emas, agar qo'zg'atilgan bo'lsa, kechiktirmay to'xtatilishi shart.

Amnistiya aktlari gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning sodir etgan jinoyati hamda ularning shaxsiga oid shartlarni ham aks ettiradi. Xususan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar uchun amnistiya aktlarida yengilliklar ko'proq bo'ladi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlar, uyushgan guruh, jinoiy uyushma a'zolari hamda o'ta xavfli retsividistlarga nisbatan amnistiya aktlarida yengilliklar ko'zda tutilmaydi.

Amnistiya aktining ta'sir qiluvchi yuridik kuchi u nashr etilgan kunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Akt nashr qilingandan boshlab to'rt oy mobaynida qo'llanilishi lozim bo'ladi. Amnistiya akti qo'llanilayotgan shu to'rt oy ichida ham jinoyatlar sodir etiladi. Amnistiya akti ushbu muddatlarda sodir etgan jinoyati uchun protsessual jarayonga tortilgan shaxslarga nisbatan ham amal qilishi ko'zda tutiladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Javobgarlikdan ozod qilish turiga kirmaydigan qatorini toping
 - a) javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi
 - b) aybdorning pensiya yoshiga yetganligi
 - c) qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi
 - d) aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi
2. Og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab qancha muddatdan so'ng muddat o'tganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish mumkin?
 - a) 2 yil

- b) 5 yil
 - c) 8 yil
 - d) 10 yil
3. O'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab qancha muddatdan so'ng muddat o'tganligi uchun javobgarlikdan ozod qilishga yo'l qo'yiladi?
- a) 10 yil
 - b) 14 yil
 - c) 15 yil
 - d) 20 yil
4. Qanday holat muddat o'tishini to'xtatadi?
- a) gumon qilinuvchining noaniqligi
 - b) shaxsning yashirinishi
 - c) jinoyatning aniqlanmaganligi
 - d) jabrlanuvchining kasalligi
5. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga qaysi jazo qo'llanilishi mumkin?
- a) ozodlikni cheklash
 - b) ozodlikdan mahrum qilish
 - c) majburiy jamoat ishlari
 - d) mazkur jazo almashtirilmaydi
6. Jinoiy qilmishning xavfliligining yo'qolishi nimaning natijasida ro'y beradi?
- a) qonunlar o'zgarishi sababli
 - b) sharoit o'zgarishi sababli
 - c) fors-major holatlar sababli
 - d) aybdorning o'limi sababli
7. Qaysi holat aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishga kirmaydi?
- a) shaxsning jinoyatni birinchi marta sodir etganligi
 - b) aybini o'z bo'yniga olish to'g'risida arz qilganligi

- c) yarashuv sababli taraflarning kelishuvi bo'lganligi
 - d) qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi
8. Yarashilganlik tufayli javobgarlikdan ozod qilish uchun nimalar asos bo'ladi?
- a) qilmishning o'ta og'ir jinoyat ekanligi
 - b) jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi
 - c) qilmish ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi
 - d) zararni qoplash va jabrlanuvchining kechirishi
9. Qaysi jinoyat jabrlanuvchining arizasi bilan qo'zg'atilmaydi?
- a) Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish
 - b) Urushni targ'ib qilish
 - c) Nomusga tegish
 - d) Haqorat qilish
10. Sud-tibbiy ekspertizasi o'tkazilishi uchun tibbiy muassasaga qancha muddatga joylashtirish mumkin?
- a) 15 kun
 - b) 30 kun
 - c) 1 oy
 - d) 3 oy

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jazodan ozod qilishning zaruriyati nimada?
2. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish asoslarini tushuntiring
3. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish tartibi qanday?
4. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish xususiyatlarini ayting.
5. Yarashilganlik munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish shartlarini aniqlang.

6. Yarashuv qo'llanilmaydigan holatlarni ayting.
7. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish qanday bo'ladi?
8. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish huquqiy asoslarini ayting.
9. Jazodan ozod qilishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bering.
10. Jazodan ozod qilishning huquqiy tomonlarini

11 BOB. SUDLANGANLIK HOLATI VA UNING HUQUQIY OQIBATLARI

Sudlanganlikning huquqiy ahamiyati

Jinoyat qonunchiligida sudlanganlik o'z huquqiy ahamiyatiga ega. U sodir etilgan jinoyat uchun sudlanuvchiga sud tomonidan jinoiy jazoning tayinlanishidan namoyon bo'ladi. Sudlanganlik – sud tomonidan hukm tayinlanganidan keyin kelib chiquvchi huquqiy holatdir. Hukm tayinlanishida qo'llanilgan jazo turi, muddati, miqdori sudlanganlikning tugallanishi yoki olib tashlanishiga ta'sir qiladi.

Jinoyat huquqiy munosabatlari u sodir etilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik olib tashlanguncha davom etadi. Qonunda belgilangan tartibga ko'ra, sud tomonidan tayinlangan jazo qonuniy kuchga kirgach, sudlanganlik vujudga keladi.

Sud tayinlagan hukm apellyatsiya shikoyati berish yoki protest bildirish muddati, ya'ni o'n sutka o'tishi bilan kuchga kiradi. Apellyatsiya shikoyati yoki protestning berilishi hukmning qonuniy kuchga kirishini to'xtatib turadi. Jinoiy ish yuqori sud tomonidan ko'rib chiqib bekor qilinmasa, yuqori turuvchi sud ishni ko'rgan kuni hukm qonuniy kuchga kiradi.

Hukm ikki yoki undan ortiq mahkumga nisbatan chiqarilgan bo'lsa hamda ularning loaqal bittasi tomonidan apellyatsiya shikoyati berilsa yoki prokuror tomonidan protest keltirilsa, yuqori turuvchi sud tomonidan jinoiy ish ko'rib chiqilguncha, ularning hammasiga nisbatan hukm kuchga kirmay turadi.

Yuqori turuvchi sud tomonidan hukmning bekor qilinishi yoki sudlanuvchiga nisbatan oqlov hukmining chiqarilishi sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi. Agar hukm bir necha mahkumga nisbatan chiqarilib, ularning bittasi yoki bir nechtasiga yuqori sud tomonidan oqlov hukmi chiqarilsa, sudlanganlik faqat ularning o'ziga nisbatan qo'llanilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tufayli jazodan ozod qilinsa yoki javobgarlik va jazodan ozod qilishning boshqa asoslari, ya'ni jazoni ijro etish muddatlarining o'tib ketganligi, shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qotishi, aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi kabi asoslar qo'llanilsa ham shaxs sudlanmagan deb topiladi.

Sudlanganlik holatining ahamiyati shundan iboratki, jinoyat sodir etgan shaxs sud tomonidan tayinlangan jazoni o'tab chiqqach, unda ayrim o'zgarishlar bo'lishi inkor qilinmaydi. Aksariyat hollarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarida jazoni o'tab chiqqan mahkumlar jamiyat uchun ayrim salbiy jihatlarni o'zlashtirib qaytishadi. Koloniyalarda turli toifadagi jinoyatchilar bilan birga bo'lish o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bundan tashqari jazoni o'tab bo'lgandan keyin ham ba'zi mahkumlarda alamzadalik juda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bunday holatga tushishiga boshqalarni aybdor deb biladi va qasos hissi ularni tez tark etmasligi mumkin. Natijada jazoni o'tab qaytgan mahkumning yana jinoyat qilish vaziyatlari vujudga keladi. Sudlanganlik bu kabi holatlarni kamaytirish, mahkumning erkin hayotga to'la moslashib olishi uchun qulay omil vazifasini bajaradi.

Jinoyatni sodir etgan shaxs sud tomonidan jazo olgandan so'ng, qasddan yangi jinoyat sodir etishi uning tuzalish yo'liga kirishni xohlamayotganligini anglatadi. Mazkur holatlarda unga nisbatan qattiqroq jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash talab etiladi.

Sudlanganlik jazoni o'tab bo'lgan mahkumni qaytadan jinoyat yo'liga o'tib qolishini oldini olish uchun nazorat qilishdan tashqari, jazo maqsadiga

erishilmagan bo'lsa, uning ustidan ma'muriy nazoratni davom ettirish uchun zarurdir.

Sudlanganlikni Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan hollarida hamda shaxs yangidan jinoyat sodir etganligida huquqiy ahamiyatini ko'rsatadi. Sudlanganlikning jazo tayinlashdagi ahamiyati sudning og'irroq jazo tayinlashida, qilmishni retsidiv jinoyat, xavfli retsidiv jinoyat va o'ta xavfli retsidivist deb topishda, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda, javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashda va jazodan ozod etishda yaqqol ko'rinadi. Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarga jazoni ijro etish muassasasini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek yarashuv, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, amnistiyaning qo'llanilmasligi, jazolarning muddatlari va turlarini belgilanishi, Jinoyat kodeksi moddalarining boshqa qismlari bilan qilmishning kvalifikatsiyalanishi kabi oqibatlarga olib keladi.

Topshiriq

Bir kishi barda aroq ichib, mast bo'lib qoldi. Ko'chaga chiqib yo'ldan o'tayotganlarni so'ka boshladi. Yosh qizlarga gap ota boshladi. Yo'ldan o'tayotgan Milliy gvardiya askarlari tartibbuzarni IIB ga olib borishdi. IIB xodimlari u bezorilik jinoyatini sodir etgan deya prokurorga olib borishdi. Prokuror mast kishining harakatini bezorilik emas deb baholadi. Ish sudga oshirildi.

- Sizningcha, sud qanday qarorga keladi?


Tayinlangan jazo tufayli kelib chiqqan sudlanganlikning muddati o'tib ketganligi, shuningdek sudlanganlikning olib tashlanishi munosabati bilan sudlanganlikning kelib chiqqan barcha huquqiy oqibatlari bekor qilinadi.

Jinoyat qonunchiligida qonun o'zgarishi ayrim qilmishlar jinoyatlar tarkibidan chiqarilishi mumkin. Jumladan, amaldagi JKning 170-moddasining uchinchi qismi, 189-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari, 27-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar jinoyatlar tarkibidan chiqarilgan. Mazkur moddalardagi chiqarilgan qismlarda belgilangan qilmishni sodir etilganlik uchun o'rnatilgan sudlanganlik ham ularni bekor qiluvchi qonun chiqishi bilan tugallanadi.

Jinoyat qonunchiligida jinoyat uchun tayinlangan jazo o'tab bo'linishi bilan sudlanganlikning tugallanishi belgilangan bo'lsa, shaxs sudlanmagan hisoblanadi.

Sudlanganlik holatining tugallanishi

Sudlanganlik yangi jinoyat sodir etilgungacha katta huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Agar uning muddati o'tib ketsa yoki olib tashlansa, sudlanganlikning barcha oqibatlari bekor qilinadi. Sudlanganlik holatlarining tugallanishi quyidagi tartibda belgilangan:



22-rasm. Sudlanganlikning olib tashlanish muddatlari.

Mazkur sxemadan ko'rinib turibdiki, jinoyat qonunchiligi doirasida jazolar o'talishi bilan sudlanganlikni olib tashlashning o'z tartibi mavjud. JKning 78-moddasida belgilangan tartibga ko'ra, shartli hukm qilinganlarga nisbatan sinov muddati tugagan kundan boshlab sudlanganlik olib tashlanadi.

Shartli hukm qilish ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini o'rniga sud tomonidan tayinlanadigan chora sanaladi. Sudning bunday chorani qo'llashi jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va boshqa

holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Sud bunday jazoni qo'llamasdan ham aybdorning xulqini nazorat qilish mumkinligiga ishonch hosil qilsa, shartli hukm tayinlashi mumkin.

Sinov muddati **bir yildan uch yilgacha** belgilanib, u sud hukmi chiqqan kundan boshlanadi. Agar sinov muddati tayinlangan shaxs o'z majburiyatlarini bajarmasa, ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa, tayinlangan jazoni o'tash to'g'risida ajrim chiqariladi. Shuningdek sinov davrida yangi jinoyat sodir etsa, JKning 60-moddasi bo'yicha jazo choralari qo'llaniladi.

Shartli hukm qilinishida sudlanganlikning belgilanmasligining sababi shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilishi yoki sud belgilagan majburiyatlarni bajarmaslik jazoning og'irlashtiruvchi holatini keltirib chiqaraveradi.

Sudlanganlik holati majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, intizomiy qismga jo'natish jazolari o'tab bo'lingan kundan tugallanadi. Buning asosiy sabablari jazolar ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarida amalga oshirilmasligi bilan bog'liq. Mazkur jazolar uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun tayinlanib, jazo olgan mahkumning sodir etgan jinoyati ijtimoiy xavfliligi yuqori emasligi bilan ahamiyatli bo'ladi.

Jarima jazosi aybdordan davlat foydasiga pul undirishda ifodalanuvchi jazo turi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undiriladi. Jarima sudning qonuniy hukmi kuchga kirgan kundan boshlab bir oy muddat, voyaga yetmaganlar uchun tayinlansa, olti oylik muddat ichida ixtiyoriy to'lanishi lozim. Ayrim hollarda sud jarimani bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berishi ham mumkin.

Jarimaning to'lanishi aybdor shaxs uchun moddiy oqibatni keltirib chiqaradi. Agar to'lanmasa, jazo boshqasi bilan almashtirilishi mumkin bo'ladi. Jarima uchun sudlanganlik muddati qo'llanilmasligiga uning shaxs erkinligini to'la cheklamasligi, aybdor o'z yaqinlari yonida bo'lishi, to'langan pul oila mablag'lariga ta'sir ko'rsatgani uchun oila a'zolari uning harakatlarini nazorat qilishlari sabab qilib olinadi.

Jinoiy jazolar tizimidagi boshqa jazolar uchun jazo ijro etilgandan keyin ma'lum bir sudlanganlik muddati belgilanadi. Unga axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlari kiradi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish hamda axloq tuzatish ishlari jazolari o'talgan kundan boshlab bir yil davomida sudlanganlik saqlanadi.

Ozodlikni cheklash jazosi sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini biror sabab bilan tark etishni butunlay ta'qiqlash yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklab qo'yishda ifodalanadi. Mazkur jazo shu bilan cheklanmasdan, sud tomonidan tayinlangan boshqa majburiyatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Jumladan muayyan joylarga bormaslik, ommaviy yoki boshqa tadbirlarda ishtirok etmaslik, transportni boshqarmaslik, muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik, internetdan foydalanmaslik, spirtli ichimlik ichmaslik kabilar shunday qo'shimcha majburiyatlar toifasiga kiradi.

Qo'llaniladigan choralar mahkumdan qat'iy bo'ysunishni talab etadi. Jazo muddati davomida muttasil cheklovlar ostida bo'lish ko'pgina mahkumlarni toliqtirishi, ruhiy barqarorligiga salbiy ta'sir o'tkazish ehtimolini vujudga keltiradi. Shuning uchun ozodlikni cheklash jazosining muddatini tugashi ikki yillik sudlanganlik huquqiy oqibatini talab etadi.

Sudlanganlik ko'proq ozodlikni mahrum etish jazosiga hukm qilinganlar uchun belgilanadi. Bunda ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlarining ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar turlariga bo'linishi sudlanganlik muddatlarini belgilashda asos sifatida olingan. Mazkur asosga ko'ra, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadi va bu jinoyatlar uchun to'rt yillik sudlanganlik muddati o'rnatiladi.

Og'ir jinoyatlar uchun aybdor besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadi. Bunday jazolar o'talgandan keyin yetti yillik sudlanganlik muddati belgilanadi.

O'ta og'ir jinoyat tufayli o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar jazo o'talgandan keyin o'n yilgacha sudlanganlik holatida bo'ladi.

Sudlanganlikning olib tashlanishi

Sudlanganlik JKning 79-moddasiga asosan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lgan shaxsga ma'muriy yoki intizomiy jazo qo'llanilmagan bo'lsa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoa yoki jazo tayinlangan shaxsning o'zi ushbu muddatlarning kamida yarmi o'tganidan keyin bergan iltimosnomasi asosida olib tashlanishi mumkin.

Sudlanganlikning olib tashlanishi masalasini ko'rib chiqish jazoni o'tab chiqqan shaxs yashaydigan hududdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sud tomonidan amalga oshiriladi. Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish jarayonida shaxs himoyachi olish huquqiga ega. Sudlanganlikni olib tashlash rad etilgan taqdirda, mazkur iltimosnomani sud ajrimi chiqarilgan kundan boshlab kamida bir yil o'tgandan keyin kiritish mumkin.

Sudlanganlikning olib tashlanishida jinoyatning qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligi uchun jinoiy jazo tayinlanganligi masalasi ko'rib chiqilmaydi.

Sudlanganlik holati davomida shaxsga nisbatan ma'muriy yoki intizomiy shakldagi jazoning qo'llanilishi fakti unga qo'llanilgan jazo maqsadiga to'la erishilmaganligini ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur jazolarning qo'llanilmaganligi shaxsning tuzalish yo'liga o'tganligini asoslaydi.

Jinoyat kodeksining 178-184, 185-185², 189-192-moddalarida belgilangan jinoyatlarni sodir etganlik uchun davlatga juda ko'p zarar yetkazilmaganda, sudlanganlar yuqorida ko'rsatilgan muddatlarning 1/4 qismi o'talgandan keyin sudlanganlik olib tashlanishiga yo'l qo'yiladi. Bunda juda ko'p miqdordagi zarar bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq miqdordagi zarar yetkazilishi holatini o'zida aks ettiradi.

Ushbu jinoyatlar iqtisodiyot asoslariga qarshi va xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlardan iborat. Bunda chet el valyutasi, soxta tadbirkorlik, bankrotlik;

bojxona, raqobat va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash; qimmatbaho va rangli metallarga oid tartib-qoidalarini buzish; savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish, raqobatchini obro'sizlantirish kabi jinoyatlar ko'zda tutiladi.

15 yil va undan ortiq muddatda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'taganlar va o'ta xavfli retsidivistlar jazoni o'tab bo'lgach, 15 yil davomida yangi jinoyat sodir etmasa, sudlanganliklari sud tomonidan olib tashlanishiga yo'l qo'yiladi. 15 yil va undan ortiq muddat davomida umrini ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish muassasalarida o'tkazgan mahkumlar va o'ta xavfli retsidivistlar yana kamida o'n besh yil davomida sudlanganlik holatida bo'lsa, uning umrining yarmi o'tib ketgan bo'ladi. Keyingi 15 yil mobaynida jinoyat sodir etmagan bo'lsa, hayotning o'zi ularni ma'lum bir qolipga tushirib qo'yganligiga, o'z qilmishlaridan afsuslanishiga, qilmishidan pushaymonligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu bois sud tomonidan bunday shaxslarga nisbatan sudlanganlikni olib tashlash masalasi ko'rilishiga yo'l qo'yiladi.

Topshiriq

Xususiy firma egasi o'z jiyaniga shartnoma tuzish huquqini beruvchi ishonchnomani berdi. Jiyani bankdan katta miqdorda pulni firma nomiga kredit sifatida olib, qimorda yutqazib qo'ydi. Bank kredit foizini to'lashni so'raganda firma egasi bundan xabar topdi. Pulni yutib olgan qimorbozlarni militsiyaga berdi. Qimorbozlar pulni halol yutib olganliklarini, kredit uchun javobgar emasliklarini aytishdi. Jiyani Rossiyaga qochib ketdi. Firma egasi buncha pulni to'lash uchun firmaning mablag'i yetmasligini aytdi.

– Bankning zarari qanday qoplanadi?

Sudlanganlikning olib tashlanishi JKning 13-moddasi II qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda ham qo'llanilishi 79-moddaning III qismida bayon etilgan. Mazkur asoslar qilmishning jinoiyligini bekor qiluvchi, jazoni yengillashtiruvchi yoki shaxs ahvolini boshqacha shaklda yaxshilovchi qonunning orqaga qaytish kuchiga egaligini ifodalaydi. Sudlanganlikni olib tashlash bunday

qonun kuchga kirguncha jinoyat qilgan, jazoni o'tayotgan, o'tab bo'lgan va sudlanganlik holatidagi shaxslarga ham tatbiq etiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, Oliy Majlis Senati tomonidan chiqarilgan amnistiya akti hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan avf etish to'g'risidagi hujjat jinoiy jazolarni yengillashtirishi yoki ozod qilinishi bilan birga sudlanganlikning olib tashlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlanishi muddatlarini hisoblash

Jinoyat kodeksining 80-moddasida sudlanganlikning tugallanishi yoki olib tashlanishi muddatlarini hisoblash asoslari o'rnatilgan. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015 yil 18 sentyabrdagi "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli Qarorida yanada batafsil sharhlanadi.

Sudlanganlik holatining keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlarini inobatga olgan holda, sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlanishi muddatlarini to'g'ri hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yangi sodir qilingan jinoyatni kvalifikatsiyalash hamda unga jazo tayinlashda to'g'ri yondashuvga yordam beradi.

Umumiy tartibda sudlanganlikning tugallanish yoki olib tashlash muddatlari asosiy va qo'shimcha jazolar o'tab bo'lingach yoki jazo ijro etilgan kundan boshlab hisoblanishi zarur.

Jazolarda muddatlarni hisoblashda katta muammolar bo'lmaydi. Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga hukm qilinganlar qancha muddatga hukm qilinishidan qat'iy nazar, bir yillik sudlanganlik muddati belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining boshqalardan farqli jihatlari bo'lib, bu jazo muddatiga qarab to'rt, yetti yoki o'n yillik sudlanganlik muddatlari belgilanishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'ta xavfli retsidivistlar hamda o'ta

og'ir jinoyatlar uchun o'n besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'taganlar uchun o'n besh yillik sudlanganlik muddati belgilangan.

Oddiy matematik tarzda qaraganda muammolar bo'lmasligi mumkin, lekin sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmay qolgan qismi bilan bog'lanishi o'quvchilarni holatni tez anglab ololmasligini keltirib chiqaradi. Bu narsa jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan yoki jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda sudlanganlik muddatini hisoblash chalkash xulosalarni keltirib chiqarishiga olib keladi.

Jinoyat kodeksining 80-moddasi II qismida shaxs tayinlangan jazodan muddatidan ilgari ozod qilingan yoki jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan bo'lsa, sudlanganlik avvalgi jazoning amalda o'tab bo'lgan qismidan hisoblanishi o'rnatilgan. Bunda sud tomonidan tayinlangan jazo muddati emas, balki jazo amalda o'tab bo'lingan muddat sudlanganlik holati uchun ta'sir qiladi.

Tasavvur qilaylik, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, ya'ni besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlik uchun to'rt yil sudlanganlik muddati o'rnatiladi. Og'ir jinoyatlar, ya'ni besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar uchun jazo o'tab bo'lingach, yetti yil sudlanganlik muddati o'rnatiladi. Agar mahkum sakkiz yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinsa, shuncha yildan keyin ozodlikka chiqib, yetti yillik sudlanganlik muddatini oladi. Sakkiz yilning yarmi, ya'ni jazoning to'rt yilini o'tab bo'lib, mahkum jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan bo'lsa, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun belgilangan to'rt yillik sudlanganlik muddati qo'llaniladi. Sudlanganlik muddatining boshlanishi shartli ozod qilingan kundan boshlanadi.

Sud tomonidan asosiy jazo bilan qo'shimcha jazo ham tayinlangan bo'lsa, sudlanganlik muddatini hisoblash qo'shimcha jazo ham o'tab bo'lingandan keyin boshlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilganda, sudlanganlik muddati almashtirilgan yengilroq jazoning o'tab bo'lingan kundan boshlanadi.

Sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki olib tashlanishi uning barcha huquqiy oqibatlarini tugatadi. Sudlanganlik muddati tugamasdan, shaxs tomonidan yangi jinoyatning sodir etilishi muddat o'tishini to'xtatadi. Muddat yangi jinoyat uchun tayinlangan jazoning tugashidan boshlab qayta tiklanadi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Sudlanganlik qachon vujudga keladi?
 - a) hukmda belgilangan tartibga ko'ra
 - b) sud tomonidan tayinlangan jazo qonuniy kuchga kirgach
 - c) oqlov hukmi chiqarilgach
 - d) sudlanganlik umuman vujudga kelmaydi
2. Qaysi holat hukmning qonuniy kuchga kirishini to'xtatib turadi?
 - a) Apellyatsiya shikoyati yoki protestning berilishi
 - b) Jabrlanuvchining kasal bo'lishi
 - c) Favqulodda holat e'lon qilinishi
 - d) Ishning nazorat tartibida ko'rilishi
3. Sudlanganlik nima uchun belgilanadi?
 - a) IIB organlarini qo'shimcha ish bilan band qilish uchun
 - b) mahkumning erkin hayotga to'la moslashib olishini nazorat qilish uchun
 - c) mahkumning ishga joylashib doimiy ish o'rniga ega bo'lishi uchun
 - d) mahkumni bir joyda yashashini nazorat qilish uchun
4. Shartli hukm qilinganlardan sudlanganlik qachon olib tashlanadi?
 - a) 1 yildan keyin
 - b) 3 oydan keyin
 - c) Sinov muddati tugagan kundan
 - d) Sinov muddati davomida
5. Jazo o'tab chiqilgan kundan boshlab sudlanganlik bekor qilinadigan jazo turlarini toping.
 - a) majburiy jamoat ishlari

- b) xizmat bo'yicha cheklash
 - c) intizomiy qismga jo'natish
 - d) barcha javoblar to'g'ri
6. Sudlanganlik muddati bir yil bo'lmagan jazo turini ko'rsating
- a) muayyan huquqdan mahrum qilish
 - b) axloq tuzatish ishlari
 - c) ozodlikni cheklash
 - d) barcha javoblar uchun bir yillik sudlanganlik muddati o'rnatiladi
7. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo o'tib bo'lingach, necha yillik sudlanganlik muddati o'rnatiladi?
- a) 3 yil
 - b) 4 yil
 - c) 5 yil
 - d) 7 yil
8. Og'ir jinoyatlar uchun jazo o'tib bo'lingach, necha yillik sudlanganlik muddati o'rnatiladi?
- a) 2 yil
 - b) 4 yil
 - c) 5 yil
 - d) 7 yil
9. Ozodlikni cheklash jazosi o'tib bo'lingach, necha yillik sudlanganlik muddati o'rnatiladi?
- a) 2 yil
 - b) 4 yil
 - c) 5 yil
 - d) 7 yil
10. Jarima qancha muddat ichida ixtiyoriy ravishda to'lanishi kerak?
- a) 1 oy
 - b) 2 oy
 - c) 3 oy

d) 1 yil

11. Jarimaning bo'lib-bo'lib to'laishiga yo'l qo'yiladimi?

- a) yo'l qo'yilmaydi
- b) sud ruxsat berishi mumkin
- c) qonunga binoan ta'qiqlangan
- d) mumkin emas

12. Jarima voyaga yetmaganlar uchun tayinlansa qancha muddatda to'lanishi kerak?

- a) 1 oy
- b) 2 oy
- c) 3 oy
- d) 1 yil

13. Sudlanganlikni olib tashlash haqidagi iltimosnoma qachon berilishi mumkin?

- a) sudlanganlikning 2/3 qismi o'talgach
- b) sudlanganlikning 1/2 qismi o'talgach
- c) sudlanganlikning 3/4 qismi o'talgach
- d) sudlanganlikning 1/3 qismi o'talgach

14. Sudlanganlikni olib tashlash haqidagi iltimosnoma qaysi organda ko'riladi?

- a) mahkum yashaydigan hududdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudida
- b) mahkum yashaydigan hududdagi tuman (shahar) prokuraturasida
- c) mahkum yashaydigan hududdagi tuman (shahar) ichki ishlar bo'limida
- d) mahkum yashaydigan hududdagi tuman (shahar) prokuraturasi tergov bo'limida

15. Sudlanganlikni olib tashlash rad etilgan taqdirda, mazkur iltimosnomani qachon qayta kiritish mumkin?

- a) kamida 3 oy o'tgandan keyin
- b) kamida 6 oy o'tgandan keyin

- c) kamida 1 yil o'tgandan keyin
- d) iltimosnoma rad etilmaydi

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Sudlanganlik holatining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
2. Sudlanganlik qo'llanilishining asosiy sabablarini ko'rsating
3. Qaysi jazolar uchun sudlanganlik qo'llanilmaydi?
4. Sudlanganlikning huquqiy ahamiyatini tushuntirib bering
5. Sudlanganlik holatining tugallanishi qachon yuz beradi?
6. Sudlanganlikning olib tashlanishi asoslarini tavsiflang
7. Sudlanganlik holatining tugallanish muddatlarini hisoblang
8. Sudlanganlikni olib tashlanishi muddatlarini hisoblang
9. O'ta xavfli retsidivistlar uchun sudlanganlikning olib tashlanishi qanday amalga oshiriladi?
10. Qo'shimcha jazolar uchun sudlanganlik qo'llanilishi asoslarini tushuntiring

12 BOB. VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGI VA JAZO

Voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazo tayinlash asoslari

Voyaga yetmaganlik yuridik sohada 18 yoshga to'lmaganlarga nisbatan ishlatiluvchi atama sifatidagi tan olinadi. Jinoyat qonunchiligi qilmishni jinoyat ekanligi, jazoga loyiqligi, jazoni tayinlash asoslarini tartibga solar ekan, voyaga yetmaganlik bilan bog'liq munosabatlarni ham inobatga oladi. Katta yoshdagi jinoyatchilarga nisbatan voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligi asoslari ancha jiddiy bo'lib, bu voyaga yetmaganlarning ruhiy holatining tez o'zgarishi, qiziqqonligi, tashqi ta'sirlarga og'uchanligi bilan bog'liq bo'ladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar katta yoshlilardagi kabi javobgarlik asoslarini keltirib chiqaradi.

Jinoyat sodir etuvchi har qanday shaxs uchun javobgarlik kelib chiqishi muqarrar bo'lib, faqat qonun yo'l qo'ysagina, u o'z huquqiy ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Jinoyat qonuni jazolovchi normativ hujjat bo'lmay, balki odil sudlov amalga oshirilishi uchun manba hisoblanuvchi huquqiy asosdir. U javobgarlik belgilanishi va jazo tayinlanishida davlat tomonidan o'rnatilgan normalardan iborat bo'lib, voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazolanishi bilan bog'liq me'yorlarni ham belgilaydi.

Jinoyat qonunchiligi umumiy asoslarda 16 yoshdan, ayrim jinoyatlar uchun 14, xatto og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchun 13 yoshdan ham javobgarlik kelib chiqishini o'zida aks ettiradi. Jinoiy javobgarlikka tortish yoshi belgilanishida shaxsning sodir etgan qilmishini ijtimoiy xavfliligi va uning oqibatlari jiddiy ekanligini anglay olishi va o'z harakatlarini boshqara olishi imkoniyatlari hisobga olinadi.

Jinoiy javobgarlikning belgilanishi Maxsus qismdagi jazolarni umumiy asoslarda to'liq qo'llanilishini anglatmaydi. Kattalar uchun qo'llaniladigan jazolar voyaga yetmaganlar uchun og'irlik qilishi bilan birga ularni jamiyat uchun foydalilik jihatlari kamayib ketishiga olib keladi. Hayotning past-balandini hali yaxshi his qilmagan, mustaqil hayot yo'lini boshlamagan voyaga yetmagan shaxsga kattalar uchun mo'ljallangan jazolarning qo'llanilishi ularning davlat va jamiyatga nisbatan noroziligining ortib ketishi, kelajakda retsidiv jinoyatlarning ko'payib ketishi hamda jamiyat uchun foydasiz kimsalarga aylanishiga olib keladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan umumiy asoslarda javobgarlik belgilansada, jinoyat qonuni ko'plab yengilliklarni nazarda tutadi. Jinoyat-protsessual jarayonida voyaga yetmaganlarni so'roq qilish uchun uning qonuniy vakili yoki katta yoshli qarindoshi, pedagog, psixolog, himoyachi yoxud boshqa shaxslar ham ishtirok etadi. 18 yoshga to'lmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish Jinoyat-protsessual kodeksining 548-564-moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha olib boriladi.

Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davrida voyaga yetmaganlar bilan bog'liq bo'lgan quyidagi holatlar ham tekshirilishi lozim:

- voyaga yetmagan shaxsning aniq yoshi (tug'ilgan yil, oy, kun) ;
- voyaga yetmagan shaxsning o'ziga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati;
- voyaga yetmagan shaxsning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;
- katta yoshli dalolatchilar va boshqa ishtirokchilarning bor-yo'qligi.

Voyaga yetmaganlar jinoyat ishi bo'yicha so'roq qilinganda, qonuniy vakildan tashqari himoyachining ishtirok etishi talab etiladi. 16 yoshga to'lmaganlar so'roq qilinayotganda qo'shimcha ravishda pedagog hamda psixolog ham ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi. Pedagog yoki psixolog voyaga yetmaganning o'zi guvoh bo'lgan yoki sodir etgan hodisa haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri aytib berishiga yordam beradi.

Sudda ham 16 yoshga to'lmaganlarni so'roq qilishda yolg'on gapirganlik uchun javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilmaydi. Sudga to'g'ri ko'rsatma berish uning ma'naviy burchi ekanligi tushuntiriladi.

Voyaga yetmaganlarga Jinoyat kodeksida belgilangan barcha jazolar qo'llanilmaydi. Ularning voyaga yetmaganligi jazo tayinlanishida yengillashtiruvchi holat sifatida ko'riladi. Jinoyat protsessida va jazoni ijro etish organlarida voyaga yetmaganlarga nisbatan ayrim yengilliklar ham ko'zda tutiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat; shaxsiy kafillik; jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi; garov; uy qamog'i; qamoqqa olish, kuzatuv ostiga olish uchun topshirish kabi ehtiyot choralaridan biri qo'llaniladi. Shuningdek ota-onasining, homiylar, vasiylarning qaroviga yoki bolalar muassasasida tarbiyalanayotgan bo'lsa muassasa rahbarining qaroviga berilishi ham mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki uy qamog'ini qo'llash uchun jinoyatning xavfliligi tufayli u surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan qochib ketishi mumkin degan xulosaga kelinishi zarur. Shuningdek, besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoyatni qasddan sodir etganda ham shunday yo'l tutiladi.

Qamoqqa olish ehtiyot chorasi tufayli qo'llanilganda voyaga yetmaganlar katta yoshlilardan hamda voyaga yetmagan mahkumlardan alohida saqlanishi shart. Bunda ularning voyaga yetmaganlarga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik ko'zda tutiladi.

Sud voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda jinoyat qonunchiligining umumiy asoslarga rioya qiladi. Bunda voyaga yetmaganning aqliy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasi, salomatligi, jinoyatining sabablari va katta yoshli tashkilotchi, dalolatchilarning uning shaxsiga ta'siri va boshqa holatlar inobatga olinadi.

Sud tomonidan voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi tekshirilganda, uning o'z tengdoshlariga nisbatan aqliy rivojlanishda ortda qolmaganligi aniqlanadi. Agar u o'z tengdoshlaridan ortda qolgan bo'lsa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi jinoyat qonunchiligining umumiy asoslari bo'yicha voyaga yetmagan shaxs sog'ayguncha davom etib, uning tuzalishi sud ekspertizasi tomonidan tasdiqlansa, javobgarlik tortish asoslari tiklanadi.

Topshiriq

Sudda sudlanuvchining jinoyati bo'yicha ishi ko'rilayotganda, uning 1989 yilda sodir etgan jinoyati ma'lum bo'lib qoldi. Prokuror bu jinoyatni inobatga olib sudlanuvchining qilmishini retsidiv holat deb topishni so'radi. Advokat 1989 yilgi jinoyat amaldagi Jinoyat kodeksida yo'qligi bois uni rad etishni so'radi.

- Siz sud'ya bo'lsangiz qanday xulosaga kelar edingiz?

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda yengilini og'iri bilan qoplash va jazolar muddatini qisman qo'shish yo'llaridan foydalaniladi. Har ikki holatda jazolarning qo'llash orqali voyaga yetmagan shaxsni tuzalish yo'liga tezroq kirishi inobatga olinadi. Bunda albatta, jinoyatning xavflilik darajasi, motiv va maqsadlari, zararning miqdori, ayblanuvchining shaxsi, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar hisobga olinadi.

Jinoyatning sodir etilishida katta yoshli dalolatchilarning borligi yoki jinoyat sodir etilishida voyaga yetmaganlardan foydalanganlik holatlarini aniqlash g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Katta yoshdagilar ta'siri ostida jinoyat sodir etish jazoni yengillashtirish yoki javobgarlikdan butunlay ozod qilishgacha olib keladi.

Voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda, agar shartli hukm chiqarish uchun asos va shartlar mavjud bo'lsa, sud tomonidan shartli jazo belgilanishi mumkin. Umuman voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish alohida toifadagi ishlarni yuritish tizimiga kiradi.

Voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jazolar tizimi

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar ularni axloqan tuzatish, jinoiy faoliyatiga to'sqinlik qilish, mahkum hamda boshqa shaxslarning yangi jinoyat sodir etishlarini oldini olish maqsadlarini ko'zlaydi.

Voyaga yetmaganlarni tuzalish yo'liga o'tishi uchun sud qonunda belgilangan asoslarga va o'z ichki ishonchiga tayanadi. Sud tomonidan tayinlangan jazo voyaga yetmaganni tuzalish yo'liga o'tishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Agar jazo o'ta yengil bo'lsa, voyaga yetmagan aybdor shaxsda jinoyat qonunchiligi asoslariga nisbatan bepisandlarcha munosabat shakllanishi mumkin. Jazoning o'ta og'irlashuvi voyaga yetmagan shaxsni axloqan tuzalishiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Ozodlikdan mahrum qilish jinoyatiga hukm qilingan mahkumlarning erkinligidan mahrum qilinishi, huquqlarining cheklanishi va ularning jamiyatdan uzoq vaqt ajralgan holda qolishi oxir-oqibat o'z salbiy ta'sirini yuzaga chiqaradi. Shu bois jazo tayinlanayotganda sud bitta jazoni qo'llash orqali maqsadga erishishni ko'zlashi lozim. Agar zarur bo'lsa, jinoyat qonunining sanktsiyalarida belgilangan jazodan ham ko'ra kamroq jazo belgilashi yoki boshqa yengillashtiruvchi asoslarni qo'llashi zarur.


Voyaga yetmaganlarga nisbatan Jinoyat kodeksida quyidagi jazolar belgilangan:

- jarima;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- ozodlikni cheklash;
- ozodlikdan mahrum qilish.

Voyaga yetmaganlar uchun belgilangan jazo choralarda qo'shimcha jazolar o'rin olmagan. Yuqorida ko'rsatilgan jazolardan boshqa jazo qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Jazolarning barchasi katta yoshlilar uchun belgilangan miqdor va muddatlardan ancha kam bo'lib, bunda voyaga yetmaganlarning yoshi va imkoniyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jarima voyaga yetmagan aybdordan davlat foydasiga pul undirishda ifodalanuvchi majburiy chora bo'lib, u voyaga yetmaganlarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining **ikki baravaridan yigirma baravarigacha** miqdorda qo'llaniladi. Jarima jazosi belgilanishida sud tomonidan mahkumning jarimani to'lash uchun mablag'i bor yoki yo'qligi aniqlanishi zarur. Fuqarolik huquqi bo'yicha voyaga yetmaganlar o'z ishlab topgan pullari, stipendiyalari, had'ya ko'rinishida olgan mablag'larini o'zlari tasarruf etishlariga yo'l qo'yiladi. Bunday holda voyaga yetmaganlar jarimalarni o'zlari to'lashlari nazarda tutiladi.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga jarima jazosi qo'llanilishida uning to'lov qobiliyati bo'lmasa, sud boshqa jazoni tayinlashi kerak. Jarimani voyaga yetmaganlar Jinoyat-ijroiya kodeksi 19-moddasiga ko'ra, olti oy ichida to'lashi kerak. Jarimani to'lash imkoniyati bo'lgan aybdor jazoga nisbatan mas'uliyatsizlik bilan yondashadigan bo'lsa va 6 oy mobaynida jarimani to'lashdan bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan jarimani quyidagicha almashtiradi:




23-rasm. Jarimaning almashtirilishi.

Majburiy jamoat ishlari jazosi mahkumni haq to'lanmaydigan jamoat ishlarini bajarishga majburiy jalb qilishni ko'zda tutuvchi jazoni ifodalaydi. Voyaga yetmaganlarning faqat mehnatga layoqatlilariga nisbatan qo'llaniladi. Uning hajmi **oltmish soatdan ikki yuz qirq soatgacha** bo'lgan muddatga belgilanadi. Jinoyat kodeksida o'rnatilgan talab bo'yicha ushbu jazo turi voyaga yetmaganlarning salomatligi va ma'naviy rivojlanishiga zarar yetkazmasligi hamda o'qish jarayoniga ta'sir qilmasligi lozim.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan mahkumlarning majburiy jamoat ishlarini bajarish muddati, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, olti oy davomida kuniga ikki soatdan oshmasligi kerak. Ba'zi hollarda mahkumga bog'liq bo'lmagan holatlar yuzaga kelishi, masalan kasal bo'lish, imtihonlar davri kabi vaziyatlarda kuniga ikki soatlik me'yor bir yilgacha davom etishiga ruxsat beriladi.

Majburiy jamoat ishlarini bajarish mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Majburiy jamoat ishlari bajarilishi mumkin bo'lgan joylar mahalliy ijro hokimiyati tomonidan tavsiya qilinadi. Mahkumlarning majburiy jamoat ishlarini o'tashi uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlarni tashkil etadi.

Voyaga yetmagan mahkum tomonidan jazoni o'tash tartibi va shartlarini buzganlik holatida ichki ishlar organining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan yozma ogohlantirish beriladi. Mahkum jazoni ijro etishdan bo'yin tovlasa, ushbu organ tomonidan jazoni boshqa turi bilan almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma yuboriladi. Sud majburiy jamoat ishlari jazosini quyidagi tenglikda almashtiradi:



24-rasm. Majburiy jamoat ishlarining boshqa jazolarga almashtirilishi


Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniluvchi **axloq tuzatish ishlari** jazosi mahkumning ish haqidan o'n foizdan o'ttiz foizgacha ushlab qolgan holda majburiy mehnatga jalb qilishda namoyon bo'ladi. Ushbu jazo turi voyaga

yetmaganni mehnat orqali tuzalish yo'liga kirishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Majburiy jamoat ishlari singari axloq tuzatish ishlari ham mehnatga layoqatligarga nisbatan qo'llaniladi.

Mehnat qonunchiligi bo'yicha mehnat huquqi sub'ektining umumiy asoslardagi yoshi 16 yosh qilib belgilangan bo'lib, axloq tuzatish ishlari jazosi ham jinoyat qonunchiligi bo'yicha aynan shu yoshga to'lganlarga nisbatan qo'llaniladi. Jazo mahkumning o'z ish joyida, agar ish joyi bo'lmasa, jazolarni ijro etish inspeksiyasi belgilab beradigan boshqa joyda o'taladi. Uning muddati **bir oydan bir yilgacha** davom etadi.

Voyaga yetmagan mahkum ishlaydigan korxona, tashkilot yoki muassasaga oylik maoshdan chegirib qolingani mablag'ni davlat foydasiga o'tkazish, rag'batlantirish, intizomiy jazo choralari qo'llanilishi, uning jazodan bo'yin tovlayotganligi, mehnat shartnomasining bekor qilinganligi kabi ma'lumotlar berib turish majburiyati yuklatiladi.

Mahkum jazolarni ijro etish inspeksiyasi belgilagan joylarda jazoni o'tayotgan paytda inspeksiyaning yozma roziligisiz mahkumning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi. Mahkum jazoning 1/10 qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, jazolarni ijro etish inspeksiyasi taqdimnomasi asosida sud axloq tuzatish ishlari jazosini quyidagicha almashtiradi:



25-rasm. Axloq tuzatish ishlarining jazo ekvivalenti

Ozodlikni cheklash jazosi voyaga yetmaganlarga nisbatan **olti oydan ikki yilgacha** muddatga tayinlanuvchi jazo turi sanaladi. Jazoni nazorat qilish mahkum yashash joyidagi ichki ishlar organi jazolarni ijro etish inspeksiyasi yoki sud belgilagan boshqa organda hisobga qo'yilgan kundan boshlanadi. Mahkumning uzrli sabablarsiz yashash joyida bo'lmasligi jazo muddatiga qo'shilmaydi.

Mazkur jazo voyaga yetmaganlarni yashash joyini sababsiz tark etishini ta'qiqlaydi. Shuningdek, muayyan vaqtda yashash joyidan chiqib ketishni cheklaydi. Jazo elektron kuzatuv moslamalari vositasida ham amalga oshirilishiga yo'l qo'yiladi. Muayyan hududni tark etish, boshqa joyga ko'chish, harakatlanish doirasini o'zgartirish jazolarni ijro etish inspeksiyasi yoki prokuror roziligi asosida ruxsatnoma bilan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan mahkum o'z jinoiy qilmishini anglab yetgani, chin ko'ngildan pushaymonligi, tuzalish yo'liga o'tib yetkazilgan zararni qoplaganligi kabi omillar qo'yilgan ta'qiqlarni sud tomonidan to'liq yoki qisman olib tashlanishiga olib keladi. Mahkumning jazoni o'tashdan bo'yin tovlashi jazolarni ijro etish inspeksiyasining ogohlantirilishiga sabab bo'ladi. Voyaga yetmagan mahkum bo'yin tovlashda davom etsa, inspeksiya jazoni boshqa turi bilan almashtirish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi.

Topshiriq


Bir ayolning 1000 dollar puli borligini eshitgan tillafurush ayol uning oldiga keldi. Agar pullarini berib tursa har oyda 5 foiz, ya'ni 50 dollardan berib turishini, yil oxirigacha puli 1600 bo'lib qaytishini aytib, o'zi tilla taqinchoqlar savdosi bilan shug'ullanishini aytdi. Garov sifatida o'zi imzo qo'yib so'rg'ichlagan taqinchoqlarini berdi. Uning gapiga ishongan ayol tillafurushga pullarini berdi. Tillafurush ikki oy davomida 50 dollardan pul berib, keyin savdosi yurmay qolganligini aytib, pul bermay qo'ydi. Jahli chiqqan ayol garovga berilgan taqinchoqlarni ochganida ularning qalbaki ekanligini bildi. Tillafurushga voqeani aytganida, "Meni tillalarim haqiqiy edi, sen ularni almashtirib qo'ygansan, shuning uchun pulingni qaytarib bermayman", degan javobni eshitdi.

- Voqea qanday yechim topadi?

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniluvchi yeng og'ir jazo **ozodlikdan mahrum qilish** jazosi bo'lib, **olti oydan o'n yilgacha** muddatga tayinlanadi. Mahkumni jamiyatdan ajratgan holda saqlash orqali uning axloqiy tuzalish yo'liga kirishiga erishish jazoning maqsadidir. Ushbu jazo turi yoshi kattalardagi kabi manzil, umumiy, qattiq yoki maxsus tartibli koloniyalar yoxud turmada emas,

balki voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan tarbiya koloniyalarida tashkil etiladi.


Voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qattiq salbiy ta'sirga ega bo'ladi. Shu bois jazoning muddatlari yoshi kattalardagi kabi yigirma yilgacha qilib belgilanmagan. Mamlakatimizda ozodlikdan mahrum qilishning muddatlari quyidagicha tartibdadir:



26-rasm. Voyaga yetmaganlar uchun ozodlikdan mahrum qilishning muddatlari

Mamlakatimizda jazolarni liberallashtirilib borilishi asosida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanilayotgan jazolar muddatlari kamaytirib borilmoqda. Ayniqsa voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llash bilan bog'liq moddalar soni qisqarib bormoqda. Shu asosda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida yoki qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmaydi. Bu davlatimizning yoshlarni bilib-bilmay yo'l qo'ygan xatolari uchun o'zlarini o'nglab olishlariga berilgan imkoniyatidir.

Jazolarning liberallashtirilishi ularni butunlay bekor qilinganligini anglatmaydi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosining yeng ko'p muddati o'n yilni tashkil etadi. Jinoyatlar jami va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlanganda mazkur muddatni ko'payishi yuz beradi.



27-rasm. Voyaga yetmaganlarga bir necha jinoyat uchun jazo qo'llash

Jinoyat sodir etilganlik uchun voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijro etilayotgan joylarda yoshi katta mahkumlarning saqlanishi mumkin emas. Bu voyaga yetmaganlarni katta yoshli jinoyatchilarning salbiy ta'siridan himoyalashga asoslanadi.

Voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish asoslari

Voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish umumiy asoslarda amalga oshiriladi. Javobgarlik va jazodan ozod qilish belgilangan quyidagi umumiy asoslar voyaga yetmaganlarga ham taalluqlidir.

Voyaga yetmaganlarni **javobgarlikdan ozod qilish** asoslari:

- javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish;
- kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish;
- amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish.

Voyaga yetmaganlarni **jazodan ozod qilish** asoslari:

- jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
- shartli hukm qilish;
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirish;
- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish;
- amnistiya akti yoki avf etish asosida jazodan ozod qilish.

Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarni umumiy asoslarda ozod qilishdan tashqari, javobgarlik va jazodan ozod qilishning maxsus asoslari ham mavjud. Jinoyat kodeksining 87-moddasi voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo'llagan holda, javobgarlik va jazodan ozod qilishning ushbu asoslarini o'zida aks ettirgan.

Moddaning birinchi qismi voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan ozod qilib, ishini voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga topshirish shartlarini belgilab bergan. Komissiyaga topshirish uchun quyidagi shartlar asos bo'ladi:

- ❖ ijtimoiy xavfli qilmish birinchi marta sodir etilganligi;
- ❖ shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida 18 yoshga to'lmaganligi;
- ❖ sodir etilgan qilmishning xususiyatlari;
- ❖ aybdorning shaxsi;
- ❖ ishning boshqa holatlari.

Mazkur shartlar asosida voyaga yetmagan shaxsni jazo qo'llamay turib tuzatish mumkinligi haqida xulosaga kelinsa, uni javobgarlikdan ozod qilib ishini

ko'rish uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga topshirish mumkin.

Voyaga yetmagan tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishning birinchi marta sodir etilganligi 18 yoshga to'lmagan shaxsni jinoyatchilik yo'lga to'la kirib ketmaganligini ko'rsatadi. Agar jamoatchilik yoki boshqa ta'sir choralari qo'llanilishi naf keltirishi mumkinligiga jinoyat-protsessual harakatlarini olib boruvchi mas'ul xodimlar ishonch bildirishsa yoxud mehnat jamoalari kafilligi berilsa, voyaga yetmaganni to'g'ri yo'lga solish mumkin bo'ladi.

Jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning 18 yoshga to'lmaganligi yengillashtiruvchi holat sifatida belgilanadi. Hayot yo'lga endigina kirib kelayotgan yoshlarni jazolash yo'lga kirishimiz, ko'pincha ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin. Sababi voyaga yetmaganlarni kelajakka munosabati romantik xususiyatlarga ega bo'lib, shu xususiyatlar ularni yuqori darajalarga chiqishiga motiv beradi. Ularni ba'zan bilib-bilmay qilgan jinoyatlari uchun qattiq jazolar berib sindirib qo'yishimiz yoshlarning kelajak orzularini vayron qiladi. Ularni kelajakda jamiyat uchun xavfli kimsalarga aylantirib qo'yadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan qilmishning xususiyatlari jinoyat tarkibi elementlari bilan bog'liqdir. Jinoyatning ob'ekti, ob'ektiv tomoni, sub'ekti va sub'ektiv tomonlari bilan bog'liq holatlar qilmish to'g'risida tasavvurni shakllantirishga yordam beradi. Qilmishning inson hayoti, jinsiy erkinlik, atrof muhit, tinchlik va xavfsizlik kabi ob'ektlarga qarshi qaratilganligi, to'g'ri qasd bilan, ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usullarda amalga oshirilganligi kabi xususiyatlar javobgarlik va jazodan ozod qilinishiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Aybdorning shaxsi masalasi jinoyat sodir etishga moyilligi, notinch oilada voyaga yetganligi, nosog'lom ijtimoiy muhit ta'sir qilganligi, atrofdagilarga munosabati yoki jinoyat sodir etishga majbur bo'linganlik kabi omillarni qamrab oladi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning mehnat jamoasidagi yoki o'qish joyidagi faoliyati uning shaxsiga oid ma'lumotlar jamlanishiga yordam beradi. Agar mehnat jamoasi yoki o'qish joyida namunali xulqqa ega bo'lib,

o'zining yaxshi jihatlarini ko'rsata olsa, bunday hollarda unga nisbatan kuzatuvni yo'lga qo'yish orqali xulqining o'nglanishiga ishonish mumkin.

Ishning boshqa holatlari jinoyat sodir etilishida katta yoshli dalolatchilarning ta'siri, jabrlanuvchining faol harakati qilmish sodir etilishiga sabab bo'lganligi, og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi kabi holatlarni qamrab oladi. Ishning boshqa holatlari voyaga yetmagan shaxsni jazo qo'llamay turib tuzatish mumkinligi haqida xulosaga kelish uchun muhim omil bo'ladi. Agar shunday xulosaga kelinsa, ish voyaga yetmaganlar komissiyasiga topshiriladi.

Topshiriq

21 yoshga kirgan yigit 15 yoshga to'lgan tanishini birga o'g'rilikka kirishga ko'rdirdi. O'g'rilikdan topilgan mulkdan berishni va'da qildi. Ikkovi o'g'rilikka kirganda qo'lga tushib qoldi. Tergovchi ularning har ikkisini javbgarlikka tortdi. 15 yoshlining onasi bolasidan 21 yoshli yigit foydalanishini, bolasini aybi esa yo'qligini aytdi. Advokat ham buni quvvatladi.

- 15 yoshlining harakatlariga baho bering

Jinoyat kodeksi 87-moddasining ikkinchi qismi voyaga yetmaganlar tomonidan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marotaba sodir etish yoki ijtimoiy xavfliligi katta bo'lmagan jinoyatni takror sodir etishning yuqoridagi shartlar asosida jazodan ozod qilinishi asoslarini o'zida aks ettirgan. Besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutiladigan jinoyatda yoxud ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat takror sodir etilishida birinchi qismdagi shartlar mavjud bo'lsa, sud tomonidan jazo o'rniga majburlov chorasini qo'llash masalasini ko'rib chiqishi kerak bo'ladi.

Sud tomonidan jazo o'rniga majburlov choralari qo'llash masalasini ko'rib chiqish uchun voyaga yetmaganning rivojlanishda o'z tengdoshlariga nisbatan ortda qolganligi hamda o'z qilmishining mohiyatini to'la ravishda anglab yetmasligi ham asos bo'lib xizmat qiladi. Aqliy rivojlanishda yoshiga nisbatan ortda qolganlik aqli zaiflik, surunkali ruhiy kasallik kabi shaklda bo'lsa, voyaga yetmagan shaxs javobgarlik va jazodan kasallik tufayli ozod qilinishi lozim. Bunday holda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etishi ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoning qo'llanilishiga olib keladi. Qo'llaniladigan jinoiy jazo mahkumni axloqan tuzalish yo'lga o'tishini ta'minlashi lozim. Sud tomonidan jazo qo'llamasdan ham maqsadga erishish mumkin deb hisoblansa, majburlov choralari qo'llaniladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari JKning 88-moddasidan o'rin olgan. Ushbu moddada belgilangan qoidaga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarga qo'llaniladigan majburlov choralari quyidagilardan iborat:

- jabrlanuvchidan sud belgilagan tartibda uzr so'rash;
- 16 yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoxud bartaraf qilish;
- voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.

Ushbu majburlov choralari jazo o'rnida qo'llanilib, o'zida tarbiyaviy maqsadlarni aks ettiradi. Sud belgilagan tartibda uzr so'rash sud majlisi, jabrlanuvchi yoki aybdorning yashash, ish yoki o'qish joyida amalga oshirilishi mumkin. Uzr so'rash yozma va og'zaki shakllarda jamoatchilik oldida, yakka tartibda yoki boshqacha shakllarda amalga oshiriladi.

Etkazilgan zararni qoplash majburiyati bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan oshib ketmasligi kerak. Agar miqdor oshib ketadigan bo'lsa, unda zararni qoplash fuqarolik huquqi asoslarida undiriladi. Bunda yetkazilgan zarar voyaga yetmagan mablag'laridan tashqari, ota-onasi, vasiy yoki homiy, farzandlikka oluvchi yoki boshqalarning mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish uni boshqacha tarzda to'g'ri yo'lga solish imkoniyati qolmaganda qo'llaniladi. Asosan tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniluvchi ushbu choraning shartlari va muddatlari O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tartibga solinadi. Muassasada bo'lish jinoiy jazo chorasini sanalmaydi. Maxsus o'quv-tarbiya muassasasida bo'lish muddatlari sud tomonidan oldindan belgilab qo'yilmaydi. Muassasaning rahbariyati voyaga yetmaganni saqlanishidan

ko'zlangan maqsadga erishildi deb hisoblashi shaxsni ushbu majburlov chorasidan xalos qiladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan ozod qilishning barcha turlaridan foydalaniladi. Umumiy asoslarda voyaga yetmaganlar jazodan ozod qilinganda katta yoshlilarga qaraganda birmuncha yengilliklarga ega bo'ladi. Bu ayniqsa jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda namoyon bo'ladi. Jazodan ozod qilishning ushbu turlari muddatlar bilan bog'liq bo'lib, bunda 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etganlarga ayrim imtiyozlar qo'llaniladi.

Jinoyat qonunchiligi asoslari bo'yicha jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun belgilangan shartlar mahkumning mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lishi, qonunlarga rioya qilishi, uning xulqidagi ijobiy tomonga o'zgarishlar, jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoidalarini bajarishi bilan bog'liq bo'ladi. Mahkumning 18 yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash va axloq tuzatish ishlari shaklida qo'llanilgan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish asoslari JKning 89-moddasida o'rnatilgan. Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu uchta jazo turi uchun nazarda tutiladi. Unga asosan, jazoning qonunda belgilangan qismi o'tab bo'lingandan so'ng, jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish qo'llaniladi.

• ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun	jazo muddatining kamida 1/4 qismi
• og'ir jinoyat uchun	jazo muddatining kamida 1/3 qismi
• o'ta og'ir jinoyat uchun yoki avval qasddan jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum qilish jazosini olgach, yana qasddan jinoyat qilgani uchun	jazo muddatining kamida yarmi

28-rasm. Jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish

Sud tomonidan tayinlangan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi shaxsning ijtimoiy hayotga tez ko'nikishi uchun qo'shimcha ruhiy kuch beradi. Hayotga ko'nikib ketishi va moslashib ketishi jarayoni nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan shaxsning jazoni o'talmay qolgan muddati davomida qasddan yangi jinoyat sodir etishi sud tomonidan Jinoyat kodeksi 60 va 86-moddalarida belgilangan asoslar bo'yicha jazo tayinlashiga asos bo'ladi. Bu o'z navbatida qo'llaniladigan jazoning og'irlashuviga olib keladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish bilan birga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish turi ham muddatlar bilan bog'liq. Jazoni yengilroq turi bilan almashtirish uchun quyidagi shartlar mavjud bo'ladi:

- sodir etilgan qilmish shaxsning 18 yoshga to'lmagan vaqtida amalga oshirilgan bo'lishi;
- jazo ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlaridan biri bo'lishi;
- jazo uchun belgilagan tartib-qoidalarining bajarilganligi;
- mahkumning mehnat yoki o'qishga halol munosabatining mavjudligi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi mahkumni jazodan to'la ozod qilinishini anglatmaydi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mahkumni tuzalish yo'liga kirganligi uchun rag'bat tarzida qo'llaniladi. Jazo muddatining to'liq o'talishi mahkumning davlatdan ma'lum bir darajadagi noroziligiga sabab bo'lishiga olib keladi. Agar mahkum jazoni o'talishida o'zining tuzalish yo'liga kirganligini, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini isbotlasa, jazoning o'tash tartibiga qat'iy rioya qilsa, jazoning yengilrog'i bilan almashtirilishi ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mahkumning erkin hayotga tashnaligi ortadi. Sodir etgan jinoyati tufayli ko'rgan uqubatlari tufayli olgan saboqlari uni to'g'ri yurishga, xatolarni takrorlamaslikka undaydi.

Jazoning o'talmay qolgan qismini yengilrog'i bilan almashtirishning o'z tartibi mavjud. Bunda mahkum sud tomonidan tayinlangan jazoning ma'lum bir qismini o'tashi talab etiladi:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazoning kamida 1/5 qismi;
- og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazoning kamida 1/4 qismi;
- o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek ilgari qasddan jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinib yana qasddan jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazoning kamida 1/3 qismi o'talgandan keyin jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mumkin.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish muddatlarni qisqartirishga olib kelmaydi. Jazodan ozod qilinishi uchun umumiy asoslar bilan birga yengilroq jazoning tegishli qismi o'tab bo'linishi kerak. Shunda JKning 89-moddasidagi qoidalarga ko'ra, mahkum jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilinishini qo'llash mumkin bo'ladi.

Jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazolari o'rniga axloq tuzatish ishlari qo'llaniladi. Bunda jazolarning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari sifatida davom ettiriladi.

Jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxsning jazoni o'talmay qolgan qismida qasddan yangi jinoyat sodir etishi sud tomonidan Jinoyat kodeksining 60 va 86-moddalarida belgilangan asoslar bo'yicha jazo belgilanishini keltirib chiqaradi.

Jinoyat qonunchiligida jazolarning tayinlanishi aybdorni to'g'ri yo'lga kirishi, jamiyat uchun foydali shaxsga aylanishiga qaratiladi. Jazoni o'tashni muddatidan oldin ozod qilish hamda uni yengilrog'i bilan almashtirish mamlakatimiz insonparvarlik siyosatining yaqqol ifodasi sanaladi. Zotan, jinoyat qonunchiligining maqsadi insonlarni jazolash hamda jamiyatga salbiy oqibatlar keltirishga qaratilmagan. Sudlar ham "jazolovchi mashina" sifatida faqat uqubat keltiruvchi organ hisoblanmaydi. Sudlar tomonidan javobgarlik va jazodan ozod qilish vakolatlari ushbu fikrimizning isboti bo'la oladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Kimlar sudda yolg'on gapirganlik uchun javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilmaydi?
 - a) 13 yoshga to'lmaganlar
 - b) 14 yoshga to'lmaganlar
 - c) 16 yoshga to'lmaganlar
 - d) 18 yoshga to'lmaganlar
2. Voyaga yetmaganlarga qanday ehtiyot chorasi qo'llanilmaydi?
 - a) munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat
 - b) garov, shaxsiy kafillik
 - c) qamoqqa olish, uy qamog'i
 - d) barchasi ehtiyot chorasi sifatida qo'llaniladi
3. Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish qanday toifadagi ishlarga kiradi?
 - a) maxsus toifadagi ishlarni yuritish tizimiga
 - b) alohida toifadagi ishlarni yuritish tizimiga
 - c) umumiy toifadagi ishlarni yuritish tizimiga
 - d) jiddiy toifadagi ishlarni yuritish tizimiga
4. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qanday jazo qo'llanilmaydi?
 - a) jarima
 - b) majburiy jamoat ishlari
 - c) axloq tuzatish ishlari
 - d) intizomiy qismga jo'natish
5. Voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jarimaning bazaviy hisoblash miqdorini ko'rsating
 - a) 1 baravardan 10 baravargacha
 - b) 2 baravardan 20 baravargacha
 - c) 1 baravardan 50 baravargacha
 - d) 2 varavardan 100 baravargacha

6. 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan mahkumlarning majburiy jamoat ishlarini bajarishi necha soatdan oshmasligi kerak?
- a) 1 soatdan
 - b) 2 soatdan
 - c) 3 soatdan
 - d) 4 soatdan
7. Voyaga yetmaganlar uchun axloq tuzatish ishlarining muddati qancha?
- a) 1 oydan 6 oygacha
 - b) 6 oydan 1 yilgacha
 - c) 1 oydan 1 yilgacha
 - d) 1 oydan 3 yilgacha
8. Voyaga yetmaganlar uchun ozodlikni cheklash jazosining muddati qancha?
- a) 1 oydan 6 oygacha
 - b) 1 oydan 1 yilgacha
 - c) 6 oydan 1 yilgacha
 - d) 6 oydan 2 yilgacha
9. Ozodlikdan mahrum qilishning voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan muddatini toping
- a) 1 oydan 10 yilgacha
 - b) 6 oydan 10 yilgacha
 - c) 6 oydan 15 yilgacha
 - d) 6 oydan 20 yilgacha
10. Voyaga yetmaganlar ozodlikdan mahrum qilish jazosini qaerda o'taydilar?
- a) umumiy tartibli koloniyalarda
 - b) qattiq tartibli koloniyalarda
 - c) tarbiya koloniyalarida
 - d) turmada

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazolar qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
2. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qanday jazolar belgilangan?
3. Voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazo tayinlash asoslarini ayting.
4. Voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jazolar tizimini so'zlang.
5. Voyaga yetmaganlarni javobgarlik va jazodan ozod qilish asoslari.
6. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish.
7. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni tushuntiring.
8. Jazodan ozod qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Shartli hukm qilish asoslarini ayting.
10. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari nimalardan iborat?

13 BOB. TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning maqsadi va umumiy asoslari

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoyat sodir etilgan vaqtda aqli noraso bo'lgan yoki jinoyat sodir etilgandan so'ng ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan qo'llaniluvchi usul sanaladi. Ushbu choraning qo'llanilishi uchun shaxs o'z xatti-harakatining ahamiyatini anglay olmaydigan, harakatlarini idora qila olmaydigan hamda kelib chiquvchi oqibatning xavfliligini tushuna olmaydigan holatda bo'lishi lozim.

Shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtida quyidagi holatlardan birortasi mavjud bo'lsa, qilmish aqli noraso holatda sodir etilgan deb topiladi:

- surunkali ruhiy kasallik;
- ruhiy holatning vaqtincha buzilganligi;

- aqli zaiflik;
- boshqacha tarzdagi ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaslik yoki o'zini idora qila olmaslik.

Bunday holatlardan har qaysisi uchun ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi. Javobgarlikdan ozod qilinish esa tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni rad etmaydi.

Jinoyat qonunchiligi asoslariga ko'ra, jinoiy ish ochilib, dastlabki tergov harakatlari va sud muhokamasi olib borilayotgan davrda ruhiy kasallikka chalinsa ham javobgarlikdan ozod qilinadi. Shunday holatlar ham bo'ladiki, sud tayinlagan jazoni o'tayotgan mahkumlar ham ruhiy kasallikka chalinadi. Mazkur holatlarda ham jazoni o'tash to'xtatilib, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning huquqiy asoslari Jinoyat kodeksining 17-bobida, Jinoyat-protsessual kodeksining 31-bobida, Jinoyat-ijroiya kodeksining tegishli moddalarida, “Psixiatriya yordami to'g'risida”gi, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi, “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida”gi, “Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida”gi qonunlarda, Oliy sud Plenumining “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi Qarori, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qaror va nizomlarda o'z aksini topgan.

Normativ hujjatlarda o'rnatilgan me'yorlar tibbiy yo'sindagi choralarni jinoiy jazo sifatida e'tirof etmaydi. Ushbu majburlov chorasi ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish usullaridan biri sifatida ko'riladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilishining o'z asos va maqsadlari bo'lib, JKning 91-moddasida o'z ifodasini topgan. Majburlov chorasining qo'llanilishiga shaxs ruhiy holatining buzilishi va ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganligi fakti zarur bo'ladi. Mazkur faktlar bunday shaxslarni davolash va ular tomonidan yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishlarining oldini olish

maqsadlarini keltirib chiqaradi. Majburlov chorasi sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan davolash maqsadlarida amalga oshiriladigan majburlov chorasi sog'liqni saqlash organlari tomonidan sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasiga asosan qo'llaniladi.

Ruhiy-asab kasalliklari dispanserida majburiy ambulatoriya kuzatuvda bo'lish va davolanish xastaligi ancha yengil shaklda namoyon bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Davolanish ruhiy holati buzilgan shaxsni yashash joyida olib boriladi. Bunday kuzatuvga olingan shaxslar jamiyat uchun katta xavfni keltirib chiqarmaydi. Chunki ambulator kuzatuviga olingan ruhiy kasallar o'z oilalari davrasida bo'ladilar.

Ruhiy holati buzilgan shaxslarni jamiyatdan ajratgan holda davolash xastaligi ancha yuqori bo'lgan bemorlarga nisbatan qo'llaniladi. Davolanishga majburiy jalb qilingan bemorlarni kasalligining xususiyatlariga qarab psixiatriya muassasasining turli bo'limlarida nazorat ostiga olish belgilanadi.

Ruhiy holati buzilgan shaxslar javobgarlikka tortilmagan yoki jazo qo'llanilmagan bo'lsa, ular sog'liqni saqlash organlarining psixiatriya muassasalarida majburiy davolanadilar. Davolanish shaxsni yashash joyidagi ruhiy-asab kasalliklari dispanserida mutaxassisning ambulator kuzatuvda, umumiy tartibli psixiatriya muassasasining umumiy kuzatiladigan bo'limi yoki maxsus reabilitatsiya bo'limida yoxud kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida olib boriladi.

Sudning tibbiy yo'sindagi majburlov choralari to'g'risidagi qaroriga ko'ra psixiatriya muassasalariga majburiy tartibda joylashtiriladigan shaxslar statsionardagi davolanishning butun davri davomida mehnatga layoqatsiz deb topiladi. Ular ambulator kuzatuv ostiga olingan bemorlar kabi ijtimoiy sug'urta fondidan nafaqa olish va pensiya olish huquqini yo'qotmaydilar.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoyat sodir etilgandan keyin ruhiy holati buzilgan shaxslarga ham qo'llaniladi. Ularga ham majburlov chorasi yuqoridagi tartibda belgilanadi. Agar sud hukmi bo'yicha tayinlangan jazoni

o'tayotgan shaxslar bo'lsa, jazoning turiga qarab hamda ruhiy holatining buzilganlik darajasiga qarab davolanish muassasasi belgilanadi. Jazo ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa, sog'liqni saqlash tizimidagi ambulator kuzatuvda yoki psixiatriya statsionarining tegishli bo'limida davolanish yo'lga qo'yiladi.

Jazoni ozodlikda mahrum qilish koloniyalarida yoki turmada o'tayotgan mahkumning ruhiy holatining buzilishi sezilsa, jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika bo'limlarida yoki mahkumlarga mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada umumiy tartibda davolanish amalga oshiriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlari va tayinlanishi


Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy holati buzilgan shaxslar salomatligini psixiatriya yordamida tekshirish, profilaktika qilish, diagnoz qo'yish, davolash, parvarishlash hamda tibbiy-ijtimoiy jihatdan tiklashga yo'naltiriladi. Ushbu jarayonda ruhiy holati buzilgan shaxslarga qonuniylik, rahm-shafqat, insonparvarlik kabi tamoyillar asosida psixiatriya yordami ko'rsatiladi.

Sud tomonidan tayinlangan ekspertiza tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasida quyidagi masalalarni aniqlab olishi lozim:

- shaxsning jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati surunkali yoki vaqtincha buzilganlik, aqli zaiflik, ruhiy holatning boshqacha buzilganligi;
- jinoiy jazo berishning axloqiy tuzalish yo'lga kirishiga ta'siri;
- ruhiy holat buzilishining surunkali yoki tuzalishi mumkinligi;
- shaxs ruhiy holatining buzilishi tufayli yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi mumkinligi;
- shaxsning ruhiy holati protsessual harakatlarda qatnashishi uchun loyiqqligi;
- shaxsning aqli rasolikni istisno qilmaydigan ruhiy holatining buzilgan-buzilmaganligi.

Mazkur holatlarning ekspertiza orqali aniqlanishi shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi uchun asos bo'ladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sud qarori asosida shaxsning ruhiy holatining ijtimoiy xavfliligi darajasi, kasallikni davolash orqali shaxsning tuzalishi imkoniyatlari asoslarida amalga oshiriladi. Ruhiy holatning buzilganlik darajasi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlaridan birini aniq tanlashga yordam beradi. Jinoyat kodeksining 93-moddasi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining quyidagi turlarini belgilaydi:



29-rasm. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori mazkur majburlov choralarining qo'llanish asoslarini o'zida aks ettirgan. Majburlov choralari turlarining belgilanishida shaxsning ruhiy holati hamda uning keyinchalik ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi ehtimoli asosiy mezon sanaladi.

Ruhiy kasallikka chalingan shaxsni yashash joyidagi sog'liqni saqlash organlari tizimidagi ruhiy-asab kasalliklari dispanserining ambulatoriya kuzatuvda yoki mutaxassis vrachning nazoratida bo'lish majburlov chorasining birinchi turidir. Ushbu chora shaxsni boshqa tibbiy muassasada davolash uchun ehtiyoj

sezilmasa qo'llaniladi. Ruhiy kasalliklarning jamiyat uchun katta xavf tug'dirmaydigan turlari uchun ambulatoriya kuzatuvi yoki mutaxassisning nazorati yetarli bo'lishi ushbu tur qo'llanilishiga asos bo'ladi. Buning uchun sud-psixiatriya ekspertizasi tomonidan berilgan xulosa muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Topshiriq

Bir yigit shovqin-suron bo'layotgan joyga borib qarasa, sinfdoshi notanish yigitlar bilan mushtlashmoqda. Ularni ajratish uchun o'rta tushib, yerda yiqilib yotgan sinfdoshiga tajovuz qilayotgan notanish yigitni itarib yubordi. Notanish yigit yiqilayotib beton qirrasiga boshini urib oldi va miya chayqalishi holatiga tushdi. Uning miyasi chayqalganligi uchun qarindoshlari har ikkalasini sudga berdi.

- Har uch yigitning harakatlarini baholang. Kim aybdorligini aniqlang.

Ekspertiza xulosasi bo'yicha shaxsning yashash joyi bo'yicha ruhiy-asab kasalliklari dispanseri yoki tuman (shahar) psixiatri xonasida majburiy asosdagi ambulatoriya kuzatuvida bo'lishning o'z shartlari mavjud. Bunday chora ikki xil guruhga kiruvchi: birinchisi kasallikning zo'rayish alomatlari bo'lmagan tarzdagi ruhiy holati buzilgan; ikkinchisi ruhiy holati vaqtincha buzilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ko'zda tutiladigan maqsad bunday shaxslarda kasallikning qaytarilishi hamda yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish zaruriyatining mavjudligidir.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasining ikkinchi turi shaxsning yashash joyidagi umumiy tartibli psixiatriya muassasasining ruhiy kasalliklarni umumiy kuzatiladigan bo'limida majburiy davolash shaklida olib boriladi. Bu yerda davolanish ruhiy holatning surunkaliligi, aqli zaiflik, ruhiy holatining vaqtincha buzilganligi yoki boshqacha ruhiy kasallikka chalinganlik darajasining muvofiqligi bilan bog'liq. Bunda shaxsning ijtimoiy xavfliligini psixiatriya dispanserining ushbu bo'limida davolash orqali bartaraf etish imkoniyati bo'lishi lozim. Ruhiy holat shaxsni umumiy tartibli psixiatriya muassasasining umumiy kuzatiladigan bo'limida davolash uchun loyiq bo'lsa, ya'ni ruhiyat buzilish darajasi, ijtimoiy

xavflilik davolanishning shart-sharoitlariga mos kelsa, majburlov chorasining ushbu turi qo'llaniladi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar dispanserining reabilitatsiya bo'limiga ijtimoiy xavfliligi kattaroq bo'lgan ruhiy kasallar yotqiziladi. Agar ularni ixtiyoriy asoslarda reabilitatsiya bo'limiga o'tkazib bo'lmasa, bu ish majburiy tartibda amalga oshiriladi. Reabilitatsiya bo'limida ruhiy holatining buzilganligi o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirgan bemorlar nazorat ostida bo'ladi. Reabilitatsiya bo'limiga yotqizish uchun ruhiy kasalning o'z hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondira olmasligi, bunga layoqatsizligi hamda psixiatriya yordamisiz qoldirilsa, holati yomonlashuvi tufayli sog'lig'iga jiddiy shikast yetkazilishi mumkinligi ham inobatga olinadi. Bu yerdagi bemorlar parvarishga ko'proq muhtoj bo'lishadi. Ularni davolash jarayonga jiddiy munosabatda bo'lishni talab etadi.

Kuchaytirilgan kuzatuv belgilangan ruhiy kasalliklar dispanserida ijtimoiy xavfi o'ta yuqori bo'lgan yoki boshqa dispanserda davolash imkoni bo'lmagan, muntazam ravishda qoidabuzarliklarga yo'l qo'yadigan ruhiy kasallar majburiy davolanish uchun yotqiziladi. Kuzatuvi kuchaytirilgan shifoxonalar tartibi boshqalariga qaraganda qattiqroq rejimga ega bo'ladi. Bu yerda ruhiy holati buzilgan bemorlar boshqalardan batamom ajratilgan holda saqlanadi.

Jinoyat kodeksiga 2019 yil 12 sentyabrda kiritilgan o'zgartishga ko'ra, majburlov choralari tarkibiga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining beshinchi turi kiritilgan. Mazkur majburlov chorasi jazoni ijro etish muassasalarida ruhiy holati buzilgan kasallar uchun mo'ljallangan. Ruhiy holati aqli rasolikni istisno etmaydigan darajada buzilgan, jinoyatni sodir etish vaqtida o'z harakatlarini to'liq anglay olmagan, o'zini idora qila olmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo'llashni ko'zda tutadi. Majburlov chorasi qo'llaniladigan shaxslar jazoni ijro etish muassasasining davolash-profilaktika yordami ko'rsatish bo'limlarida, shuningdek mahkumlar uchun mo'ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada ambulatoriya kuzatuvida bo'lishadi va majburiy davolanishadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashni uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlar kasallik turi, ruhiy va jismoniy imkoniyatlari e'tiborga olinib, yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish, shifoxonadan qochish holatlarini oldini olishga moslashtirilgan palatalarda saqlanadi. Bemorlar uchun oziq-ovqat va kiyim-bosh ta'minoti davlat hisobidan qoplanadi.

Psixiatriya shifoxonasida shaxs o'zi va boshqalar uchun xavf tug'dirgan vaqtda jismoniy siquvga olish, qo'lkishanlardan foydalanish, harakatlanishiga halaqit beruvchi nimchalar kiygizish, ajratib qo'yish kabi choralar qo'llanilishiga ruxsat beriladi. Majburiy tarzda psixiatriya muassasasiga yotqizishni amalga oshirishda tibbiy muassasa xodimlariga ichki ishlar organlari xodimlari yordam beradi.

Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qotganligi, ruhiy holatining o'nglanishi hamda tuzalganligi omillari asosida qo'llanilgan tibbiy majburlov chorasi uzaytirilishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Shaxsni majburiy tarzda psixiatriya muassasasida bo'lishi bu yerda yotishga sabab bo'luvchi asoslar mavjud bo'lgan vaqt davomida amal qiladi. Majburiy tarzda yotqizilgan shaxsni olti oygacha har oyda kamida bir marta davolash muassasasining shifokorlar komissiyasi tomonidan davolanishini uzaytirish yoki tugatish masalasida tekshiruv o'tkazishadi. Olti oy o'tgandan keyin majburlov chorasi qo'llanilgan shaxsning davolanish muddatini uzaytirish to'g'risidagi xulosaga kelinsa, iltimosnomani mahalliy sud organiga yuboradi. Sud iltimosnomani qanoatlantirib, davolanish muddatini uzaytirish to'g'risida ajrim chiqarsa, shifokor psixiatrlar komissiyasining tekshiruvi olti oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsni shifoxonaga ko'chirish, biridan ikkinchisiga o'tkazish davlat hisobidan amalga oshiriladi. Bu umumiy kuzatuvdagi bo'limdan reabilitatsiya bo'limiga yoki kuzatuv kuchaytirilgan shifoxonaga o'tkazilishida qo'llaniladi. Bemorni shifoxonaning biridan ikkinchisiga o'tkazish sud tomonidan

hal qilinadi. Bemorning salomatligi yaxshilanganligi yoki yomonlashganligi asos bo'ladi. O'z navbatida shunga muvofiq ravishda majburlov chorasining muddati o'zgaradi. Ruhiy kasalning ahvoli yaxshilanishi majburlov chorasini bekor qilinishiga olib keladi. Sud bunda kasalni yashash joyidagi sog'liqni saqlash muassasasiga yoki nogironlar uyi yoxud boshqa ijtimoiy ta'minot bo'limiga yuboradi. Agar shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib borsa, muddatni uzaytirish masalasini hal etishga to'g'ri keladi. Zarur hollarda tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi turini o'zgartiradi yoki tugatadi.

Ayrim hollarda jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishidan keyin ruhiy holatini buzilishi vujudga keladi. Mazkur holatda sud tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llaydi. Tibbiy muolajalar vositasida salomatligi tiklangan shaxsga nisbatan olib borilgan jinoyat ishini tiklash masalasi ko'rib chiqilishi kerak.

Majburlov choralari tayinlangan shaxslarni olti oyda kamida bir marta shifokorlar komissiyalari yoki tibbiy maslahat komissiyalari tekshiruvdan o'tkazadi. Ularning xulosalari bemorlarning davolanish muddatiga ta'sir ko'rsatadi. Majburlov chorasi muddatlari masalasidagi ishlarni ajrim chiqargan sud yoki shaxs davolanayotgan joydagi sud ko'rib chiqadi. Sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini uzaytirish, o'zgartirish yoki tugatish hamda ish yuritishni tiklash uchun quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- shifokorlar komissiyasi bergan xulosa asosidagi shaxs saqlanayotgan tibbiy muassasa ma'muriyatining iltimosnomasi;
- shifokorlar xulosasi bo'yicha prokurorning taqdimnomasi;
- davolanayotgan shaxsning qarindoshlari, qonuniy vakillari, advokati, shuningdek manfaatdor shaxslar, jamoalar va jamoat birlashmalarining iltimosnomalari.

Sud tomonidan taqdimnoma va iltimosnomalar qabul qilingach, sudda ish ko'rib, unda prokuror, himoyachi, iltimos qilgan muassasa, jamoalar yoki shaxslar ishtirok etadi. Sud ishni ko'rayotgan paytida taqdimnoma yoki iltimosnomaning asoslantirilganligini sinchkovlik bilan tekshiradi. Bunda davolash natijalarini hamda majburlov chorasi bekor qilingandan keyin kelgusidagi tibbiy

kuzatuv va davolashga ehtiyoj bor-yo'qligini o'rganishi kerak. Shuning uchun sudga tibbiyot muassasasi vakillarini, shaxsning qonuniy vakillari va Sudda shifokorlar xulosasiga shubha tug'ilsa, sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlanadi. Ish umumiy tartiblarda ko'rilgandan keyin tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini uzaytirish, o'zgartirish yoki tugatish bo'yicha yoxud uni rad etish bo'yicha ajrim chiqariladi. Ajrim shu sudda o'qib eshittiriladi

Majburlov chorasi bekor qilingan taqdirda, bemorni davolash muassasasidan chiqarish Sog'liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan shaxs tuzalganligi sababli chora sud tomonidan ajrim bilan bekor qilingach, o'n kun ichida bemorni davolagan muassasa uning yashash joyidagi dispanserga tibbiy kartasidan ko'chirma jo'natadi. Shuningdek, bemorni shifoxonadan chiqarishdan o'n kun avval bu haqda uning yaqin qarindoshlari va uning yashash joyidagi ichki ishlar organini xabardor qiladi.

Bemor ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarilganda, uning davolanganligi to'g'risida ma'lumotnoma berilib, qarindoshlari yoki tibbiy xodimlar kuzatuvida yashash joyiga yuboriladi.

Ruhiy holati buzilgan shaxsni mulkiy huquq va manfaatlarini uning yaqin qarindoshlari, qonuniy vakillar, vasiy yoki homiylar, agar ular bo'lmasa, vasiylik va homiylik organlari bajaradi. Bemorning sog'ayishi o'z mulkiy huquq va erkinliklarini mustaqil himoya qilish imkonini bersa, uning huquqlarining tiklanganligi sud tartibida majburlov chorasi bekor qilinishi to'g'risidagi ajrimda qayd etiladi.

Jazo bilan birga tayinlanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash

Sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarga, zarurat bo'lsa, jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ham qo'llaniladi. Majburlov choralari qo'llaniladigan shaxslarning ikki guruhga ajratilishi JKning 96-moddasida belgilangan. Birinchi guruhga alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka

yo'liqqan shaxslar, ikkinchisiga aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar kiradi. Ushbu ikki guruhga mansub shaxslarning ajratib turadigan jihatlari mavjud. Xususan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarning organizmi aynan shu narsalarga tobelik holatida bo'ladi. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar bunday tobelikni his qilmasliklari mumkin bo'ladi. Ularning miya faoliyatida fikrlash, xulosalash tezligi past bo'lishi, ruhiy holat muayyan vaqtda buzilishi, jazava yoki tushkunlikka tushishi kabi holatlar bo'lishi mumkin.

Sud tomonidan jinoiy ish ko'rib chiqilayotganda, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ham qo'llash masalasini ko'rib chiqa oladi. Quyida uning asoslari ko'rsatilgan:



30-rasm. Mahkumlarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxsning tibbiy muassasada davolanish vaqtining bir kuni ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir kuniga tenglashtiriladi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan va o'z navbatida alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka chalingan shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llaniladi. Choraning qo'llanilish tartibi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishuv asosida Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishida ichki ishlar organlariga surunkali alkogolizm, giyohvandlikka chalingan shaxslarni majburiy

davolanishga yuborish vakolatlari berilgan. Vakolatlar “Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo’lgan bemorlarni majburiy davolash to’g’risida”gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlar doirasida amalga oshiriladi. Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo’lgan deb topish Sog’liqni saqlash vazirligining tegishli muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Topshiriq

Avtobusda ketayotgan kishining yonida o’tirgan yigit undan telefonini berishni so’radi. Telefonni olib kimgadir nomer terib bog’landi va tushunarsiz jumlar bilan gaplashib telefonni qaytardi hamda rahmat aytib keyingi bekatda tushib qoldi. Ikki soatlar o’tgach, so’ralgan narsa tayyorligi va uni qaerda bo’lsa yetkazib berishini mumkinligini aytib bir odam telefon qildi. Uning nimaligiga qiziqqan holda telefon egasi o’zi turgan joyni ma’lum qildi. 45 daqiqalarda ko’zoynak taqqan va soqol qo’ygan bir yigit nomersiz mashinada keldi va kichik sumkani berib, “Mendan akamga salom ayting” dedi va javobni kutmay jo’nab ketdi. Osmondan tushgan boylik nima ekanligini aniqlash uchun sumkani titgan paytda qo’li qayrilib, unga kishan solinganligini sezmay ham qoldi. Sumkada qoradori bor edi.

- Vaziyat qanday yakun topishi mumkin?

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog’liq bo’lmagan jazo berilgan mahkumlar majburiy davolanishga jo’natilganda, sudning qarori kuchga kirgandan boshlab o’n kun ichida ichki ishlar organlari tomonidan qaror ijro etiladi. Agar bemor uzrli sabablarsiz davolanish muassasasiga kelmasa, ichki ishlar organlari tomonidan majburiy olib kelinadi.

Bemorni majburiy davolash muddati masalasi u joylashtirilgan tibbiy muassasa tomonidan besh kun ichida hal etiladi. Davolash muddatining tugashi muassasaning shifokorlar komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror asosida amalga oshiriladi.

Sud qarori asosida qo’llaniladigan ushbu majburlov chorasi asosidagi davolash muddati bir yarim yildan oshib ketmasligi lozim.

Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo’lgan shaxslarni majburiy davolashga ixtisoslashgan muassasalarni qo’riqlash shartnoma asosida Milliy gvardiya bo’linmalari kuchi bilan ta’minlanadi.

Davolash-profilaktik muassasada bemorlarni majburiy davolash jarayonida ularning jismoniy imkoniyatlarini inobatga olib, mehnat terapiyasi va qayta mehnat tarbiyasi ta'minlanadi. Buning uchun hududlardagi sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi sub'ektlari bilan shartnomalar tuziladi. Ularning ish vaqti shartnoma tuzilgan korxonadagi qabul qilgan ish kuniga muvofiq kelishi zarur.

Mehnat jarayonlari korxona ma'muriyati tomonidan tibbiyot xodimlari nazorati ostida tashkil etiladi. Ish haqi shartnoma tuzilgan xo'jalik sub'ektidagi mehnatga haq to'lash shartlari asosida belgilanadi. To'lash uchun hisoblangan ish haqining 30 foizi bemor davolanayotgan davolash-profilaktika muassasasining hisobiga o'tkazilib, ushbu summa bemorni ovqatlantirish, hududni obodonlashtirish, tibbiy dori-darmon va uskunalar hamda zaruriy harajatlar uchun sarflanadi. Qolgan summa soliq, aliment va boshqa to'lovlarni qoplashga yo'naltiriladi. Ortgan mablag' ishonchnoma orqali bemorning qarindoshlari yoki tuzalib chiqqandan so'ng, uning o'ziga beriladi.

Tibbiy davolash muassasasidan bemorning qochib ketishi ichki ishlar organlari tomonidan qidiruv e'lon qilinishini keltirib chiqaradi. Ichki tartiblarga bo'ysunmaganlarga qarindoshlari bilan ko'rishish, jo'natma va chetdan oziq-ovqat olish cheklanishi mumkin. Davolanish muddati davomida o'zining namunali xulqini ko'rsatgan bemorlar uchun ayrim yengilliklar ko'zda tutiladi.

Majburlov chorasi qo'llanilgan bemorlar sog'aygach, davolanish tugatiladi. Agar davolanish davom ettirilishiga talab mavjud bo'lsa, shaxsning yashash hududidagi narkologiya dispanserida ambulatoriya kuzatuviga yoki mutaxassis nazoratiga o'tkaziladi. Bemorlarni davolash muddati tamom bo'lishidan 10 kun oldin tibbiy kartasidan ko'chirma ushbu muassasaga va hokimlikka jo'natiladi.

Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlansa, mahkumning davolanishi u jazoni o'tayotgan joyda amalga oshiriladi. Agar bemor davolanishni jazo muddati tugagach ham davom ettirishiga zarurat bo'lsa, umumiy asoslarda yashash hududidagi tibbiy davolash muassasasiga o'tashi lozim.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi sudning qonuniy kuchga kirgan asosida qo'llaniladi. Mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llash ularni davolash maqsadlarini ko'zlaydi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi tayinlangan mahkumlar jazoni ijro etish muassasasida ro'yxatga olinib, 3 kun ichida tekshiruvdan o'tkaziladi. Agar bemor alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan bo'lsa, uni narkolog vrach, aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsni psixiatr vrach ro'yxatga oladi.

Mutaxassis vrachlar bemorda klinik, anamnestik, psixopatologik, somatonevrologik va laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazishadi hamda tashhis qo'yilib, bemorni individual davolash rejasi tuziladi. Bemorni davolash mazkur reja asosida dori-darmon va psixoterapevtik ta'sir o'tkazish choralari orqali olib boriladi. Bunda turli treninglarga asoslangan psixologik, tibbiy-ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya usullari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Kasallikning xususiyatlari va darajasiga qarab narkolog yoki psixiatr tomonidan statsionar yoki ambulatoriya kuzatuvi o'rnatiladi. Statsionar davolash dori vositalarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Mazkur davolashning yakunlanishi ambulatoriya kuzatuvining davom ettirilishini belgilaydi va davolash davom ettiriladi.

Tekshiruvlar davomida statsionar yoki ambulatoriya kuzatuvi uchun to'sqinlik qiluvchi kasallik aniqlansa, tibbiy komissiya tomonidan chiqarilgan xulosaga asosan davolash vaqtincha to'xtatib turiladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi tayinlangan mahkum davolanishdan bosh tortsa, unga nisbatan qonun normalarida ko'zda tutilgan choralar qo'llaniladi. Buning uchun tibbiyot bo'limi boshlig'ining jazoni ijro etish muassasasi nomiga bergan yozma ma'lumoti asos bo'ladi.

Tayinlangan majburlov chorasi yakunlanishi uchun muassasa shifokorlarining tibbiy xulosasi asos bo'lib xizmat qiladi. Tibbiy xulosa taqdim etilgach, jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i o'n kun ichida majburlov chorasini tugatishni so'rab sudga murojaat qiladi.

Qo'llanilgan majburlov chorasini tugatish bo'yicha sud muhokamasi mahkum jazoni o'tayotgan joydagi sudda ko'rib chiqiladi. Sud tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini tugatish bo'yicha ajrim chiqarganidan so'ng, jazoni ijro etish muassasasi rahbariyati surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan shaxs haqidagi ma'lumotlarni tegishli viloyat, tuman (shahar) sog'liqni saqlash organlariga yuboradi. Shaxsning tibbiy varaqasi mazkur organlarga yuboriladigan materiallarga ilova qilinadi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Sudning majburlov chorasini qo'llashiga qanday faktlar zarur bo'ladi?
 - a) Shaxs ruhiy holatining buzilishi
 - b) Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganligi
 - c) Jinoiy hodisaning yuz berishi
 - d) Barcha javoblar to'g'ri
2. Ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan majburlov chorasi qanday maqsadlarni ko'zlaydi?
 - a) davolash maqsadi
 - b) axloqiy tuzatish maqsadi
 - c) qayta tarbiyalash maqsadi
 - d) ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadi
3. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilishiga qanday xulosa asos bo'ladi?
 - a) psixonevrologiya ekspertizasi xulosasi
 - b) sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi
 - c) narkologik ekspertiza xulosasi
 - d) farmakologiya ekspertizasi xulosasi
4. Boshqa dispanserda davolash imkoni bo'lmagan ruhiy kasallar qaerda davolanadi?
 - a) shaxs yashaydigan hududdagi psixiatr ko'rigi ostida
 - b) ambulatoriya kuzatuvi ostida

- c) kuchaytirilgan kuzatuv belgilangan ruhiy kasalliklar dispanserida
 - d) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar dispanserining reabilitatsiya bo'limiga
5. Majburiy tarzda psixiatriya muassasasiga yotqizishni amalga oshirishda tibbiy muassasa xodimlariga kimlar yordam beradi?
- a) milliy gvardiya xodimlari
 - b) mahalla posbonlari
 - c) ichki ishlar organlari xodimlari
 - d) harbiy qism askarlari
6. Majburiy tarzda yotqizilgan shaxsni davolash muassasasining shifokorlar komissiyasi qancha muddatda tekshirishadi?
- a) har oyda
 - b) olti oygacha har oyda kamida bir marta
 - c) olti oyda uch marta
 - d) har kuni tekshirishadi
7. Ruhiy holati buzilgan shaxsni shifoxonaga ko'chirish, biridan ikkinchisiga o'tkazish kimning hisobidan amalga oshiriladi.
- a) kasalning qarindoshlari hisobidan
 - b) davlat hisobidan
 - c) sud hisobidan
 - d) shifoxona hisobidan
8. Bemor tuzalib shifoxonadan chiqarilishidan o'n kun avval bu haqda uning yaqin qarindoshlaridan boshqa kim xabardor qilinadi?
- a) ichki ishlar organi
 - b) milliy gvardiya organi
 - c) soliq idorasi
 - d) tuman hokimiyati
9. Bemorni majburiy davolash muddati masalasi u joylashtirilgan tibbiy muassasa tomonidan necha kun ichida hal etiladi?
- a) 3 kun

- b) 5 kun
- c) 7 kun
- d) 10 kun

10. Agar bemor uzrli sabablarsiz davolanish muassasasiga kelmasa kim tomonidan majburiy olib kelinadi?

- a) ichki ishlar organlari xodimlari
- b) milliy gvardiya askarlari
- c) tibbiy shifoxona xodimlari
- d) mahalla posbonlari

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qanday maqsadni ko'zlaydi?
2. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qaysi organ tomonidan qo'llaniladi?
3. Aqli norasolikni qanday ko'rinishlari bor?
4. Jazoni o'tayotgan mahkumlarning ruhiy kasallikka chalinishi qanday oqibat keltirib chiqaradi?
5. Jazoni turmada o'tayotgan mahkumning ruhiy holati buzilsa davolanish qaerda amalga oshiriladi?
6. Bemorni shifoxonaning biridan ikkinchisiga o'tkazish qanday hal qilinadi?
7. Majburlov choralari tayinlangan shaxslarni shifokorlar komissiyalari yoki tibbiy maslahat komissiyalari qachon tekshiruvdan o'tkazadi.
8. Kimlarning xulosalari bemorlarning davolanish muddatiga ta'sir ko'rsatadi?
9. Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan deb topish qanday amalga oshiriladi?
10. Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov chorasining qo'llanilish tartibi kim tomonidan belgilanadi?

14 BOB. LIBERALLASHTIRISH VA SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR

Jinoyat huquqida liberallashtirish tushunchasi va uning huquqiy asoslari

Liberallashtirish – murosasozlik, murosaga keltirish ma'nolarida qo'llaniluvchi so'z bo'lib, jinoyat qonunchiligida keskin chora-tadbirlarni yumshatilishi holatini ifodalaydi. Amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilingan 1994 yildan boshlab hozirgi davrgacha jinoyat qonunchiligida katta sifat o'zgarishlari yuz berdi. O'zgarishlar jinoyatlar tasnifi va jazolarning kuchiga qaratildi. 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun bilan sohada yirik o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi.

2001 yilgi qonun ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda o'tkazilayotgan liberallashtirishni jinoyat qonunchiligida qo'llash imkonini berdi. Qonunning qabul qilinishi bilan Jinoyat kodeksidagi jinoyatlar tasnifiga hamda uning 105 ta moddasiga jinoiy jazolarni liberallashtirish bo'yicha o'zgartishlar kiritildi. Jazolar muddatlarining qisqartirilishi natijasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiritildi. Jinoyat kodeksining 13 moddasiga muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga erishildi. Jinoyat qonunchiligida avvallari bo'lmagan yarashuv instituti joriy etildi. Jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun belgilangan muddatlar qisqartirilishiga erishildi.

Jinoyat huquqi doirasidagi liberallashtirishlar keyinchalik ham davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi PF-3641-sonli Farmoni asosida mazkur jazoni bekor qilishning huquqiy asoslari yaratildi. 2007 yilning 11 iyulida "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2008 yil 1 yanvardan boshlab o'lim jazosining bekor qilinishi mamlakatimiz insonparvarlik siyosatining yaqqol ifodasi bo'ldi. O'lim jazosi umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirildi.

Shaxs ozodligini cheklash bilan bog'liq jazolar jinoyat sodir etgan shaxslar uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi inobatga olinib, 2008 yil 10 aprelda "Jarima tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etish tartibini takomillashtirish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bunda jinoyatlar sodir etilganda qo'llaniladigan nisbatan og'ir jazolar o'rniga jarima jazosini qo'llab, mahkumni iloji boricha jamiyatdan ajratmaslik maqsadlari ko'zda tutildi.

Jazolarni liberallashtirish bilan bog'liq yana bir qoida, ya'ni aybdorning o'z qilmishidan amalga pushaymon bo'lganida jazo tayinlash normasi 2010 yil 18 mayda Jinoyat kodeksiga kiritildi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi 26 ta jinoyat tarkibidan olib tashlandi. 66¹-modda kiritilib, jinoyat qonunchiligida yarashuv instituti shakllantirildi. Yarashuv instituti jabrlanuvchi va ayblanuvchi o'rtasida kelishuv yoki kechirganlik holati vujudga kelganda, jinoiy javobgarlik va jazoni bekor qilish asoslarini vujudga keltirdi.

2012 yil 29 dekabrda tadbirkorlikni davlat tomonidan huquqiy himoya qilishni kuchaytirish asoslarida qabul qilingan qonun ko'plab iqtisodiy va boshqa masalalarga yengilliklar olib kirdi. Xususan, sudlanganlikni olib tashlash muddatlari qisqartirildi. Ko'p bo'lmagan miqdor, ancha miqdor, ko'p miqdor va juda ko'p miqdor tushunchalariga o'zgartishlar kiritildi va miqdorlar muqobillashtirildi. Tadbirkorlik bilan bog'liq jinoyatlarda yetkazilgan zararining o'zni qoplasa, javobgarlikni yengillashtirish yoki butunlay ozod qilish masalalari bo'yicha tuzatishlar belgilandi.

2014 yil 4 sentyabrda Jinoyat-protsessual kodeksiga 242¹-modda "Uy qamog'i" ehtiyot chorasi kiritilib, protsessual majburlovda yangi chora vujudga

keltirildi. Ushbu chora qamoqda saqlash chorasiga nisbatan yengilroqligi bilan ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida qonunchilikka o'zgartishlar kiritilib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari ko'rildi. Sudlarning mustaqilligi va professionalligini oshirishga e'tibor qaratildi.

Prezident Farmoni qamoq tarzidagi jinoiy jazo turi tugatilishi, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga qisqartirilishi, ehtiyot chorasi qo'llanilishidagi tergovning yeng ko'p muddatlari 1 yildan 7 oygacha qisqartirilishiga olib keldi.

"Habeas corpus" instituti doirasida prokurorga tegishli bo'lgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ekskumatsiya qilishga sanksiya berish vakolatlari sudlarga o'tkazildi.

Agar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi qabul qilingan 1994 yildan boshlab jinoyat qonunchiligida yuz bergan o'zgarishlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, jazolar tizimida katta yangiliklar bo'lganligini ko'ramiz. Jumladan, mol-mulkini musodara qilish, o'lim, qamoq jazolari kodeksdan chiqarib tashlandi. O'lim jazosi 13 ta turdagi jinoyatlar uchun belgilangan edi, ushbu jazo butunlay bekor qilindi. Ularning o'rniga ozodlikni cheklash va majburiy jamoat ishlari jazolari jinoiy jazolar tizimiga kiritildi.

Topshiriq

Seleksioner olim asalarilar qirilib ketayotganligining oldini olish uchun mahalliy arilarni Seylon arilari bilan chatishtirish ustida ish olib bordi. Maqsadi kasalliklarga chidamli asalarilarni yetishtirish edi. Gibrid asalarining birinchi namunasi paydo bo'layotganda, kuchli shamol laboratoriya tomini uchirib yubordi. Olov hosil bo'lib, namunalar yonib ketishi xavfi ostida jihozlar tashqariga tashib chiqildi. Shu tariqa gibrid ari laboratoriyadan oldin tabiatda paydo bo'ldi? Ikki yildan so'ng, gibrid asalarining hujumidan odamlar kasallanib, chorva hayvonlari o'la boshladi.

– Seleksionerni hamma aybladi. Shu to'g'rimi?

Sudlarning tarkibiy tuzilishi ham islohotlarni chetlab o'tmadi. Tizimda fuqarolik sudlari va ma'muriy ishlar sudlari tashkil etildi. Sud'yalarning yoshi 25 yoshdan 30 yoshga ko'tarildi. Odil sudlov akademiyasi tashkil etilib, sud'yalarni professional tarzda tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Oliy xo'jalik sudi tugatilib, Oliy sud tizimiga iqtisodiy sudlar maqomida kiritildi.

Jinoyat huquqi tizimidagi liberallashtirish mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jazolar qo'llanilishidagi insonparvarlik jinoyatchilikning kamayishiga olib kelmoqda.

Hayotga qarshi jinoyatlar


Jinoyat kodeksining Maxsus qismi alohida olingan jinoyatlarni mohiyati bo'yicha bir-biriga yaqinlarini bo'lim va boblarga birlashtirgan. Bunda jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va jamiyatga ta'siri kabi omillarga e'tibor berilgan. Bundan buyon biz jinoyatlarning xususiyatlari va alohida jihatlarini birlariga taqqoslagan holda o'rganamiz.

Maxsus qism sakkiz bo'limdan iborat bo'lib, uning yetti bo'limi jinoyatlarga bag'ishlanib, sakkizinchisi jinoyat huquqiga aloqador atamalar izohiga bag'ishlangan. Jinoyatlar o'rin olgan bo'limlarning birinchisi shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar bevosita inson, uning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, huquq va erkinliklari bilan bog'liq ob'ektlarni o'z ichiga oladi va quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) hayotga qarshi jinoyatlar;
- 2) sog'liqqa qarshi jinoyatlar;
- 3) hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar;
- 4) jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar;
- 5) oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar;
- 6) shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar;
- 7) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

Hayotga qarshi jinoyatlar ushbu guruhning birinchisi bo'lib, ularning markazida odam o'ldirishdek mudhish jinoyat turadi. Ushbu jinoyatlar JKning 97-103-moddalaridan o'rin olgan bo'lib, odam o'ldirish va o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish harakatlaridan iborat bo'ladi. Ushbu bo'limdan o'rin olgan barcha jinoyatlar uchun ob'ekt inson hayotidan iboratdir.



31-rasm. Hayotga qarshi jinoyatlar

Inson hayoti muqaddas sanaladi. Konstitutsiyamizning 14-moddasida “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish yeng og'ir jinoyatdir”, degan qoida o'rnatilgan. Qasddan odam o'ldirish 97-moddaning ikkinchi qismi bandlari doirasida sodir etilgan bo'lsa, umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazolar qo'llaniladi.

Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlarda jinoiy tajovuz qaratilgan ob'ekt inson hayotidir. Inson hayoti masalasida fikr yuritganda, homilani ona qornidaligi holatini shaxs sifatida idrok etib bo'lmaydi. Chunki homila ona tanasining bir qismi bo'lib, hali yorug' olamda nafas olib o'z hayotini boshlamagan bo'ladi. Bola ona tanasidan to'liq ajralib chiqishi va mustaqil nafas olishidan boshlab, uning hayoti boshlanadi. Biologik o'lim yuz berib, tana faoliyati to'xtaguncha bo'lgan davrdagi hayot shaxsning ajralmas huquqi bo'ladi.

Mazkur jinoyatlar ichida nisbatan ko'proq uchraydigani qasddan odam o'ldirish (97-modda) hisoblanadi. Ushbu jinoyat jamiyat, oila va farzandlar uchun

og'ir oqibatlarni keltirib chiqaradi. Og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirganlik mahalla va keng jamoatchilik uchun qo'rquvni yuzaga keltirishi, o'zaro ishonchsizlik va tahlikalarni paydo qilishi mumkin. Xususan, ikki yoki undan ortiq shaxsni, homilador ayolni, ojiz qariya yoki nogironni o'ta shafqatsizlik bilan, bir guruh shaxslar yoki o'ta xavfli retsidivist tomonidan o'ldirilishi kabi holatlar inson ko'ngliga xavotirni solishi oddiy holdir.

Huquqshunoslar ona o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (99-modda) bo'yicha jinoyatni kvalifikatsiya qilishganlarida inson hayoti masalasiga oydinlik kiritishgan. Moddaga ko'ra, bola ona tanasidan ajralib chiqayotganidan yoki tug'ilgan zahoti bir yoki bir necha daqiqaga yetib borib yoki yetib bormay o'ldirish qo'yishi ona o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyati sifatida kvalifikatsiyalanadi. Agar tug'ilgandan keyin ma'lum bir muddat o'tib, onadagi ruhiy-jismoniy holat o'tib ketganidan keyin o'ldirsa, harakat qasddan odam o'ldirish (97-modda) jinoyati bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Odam o'ldirish jinoyati qasd yoki ehtiyotsizlik ko'rinishida amalga oshiriladi. 97-moddada belgilangan hodisalar bo'yicha jinoyatni yengillashtiruvchi holatlar ko'zda tutilmaydi.

Qasddan odam o'ldirishning yengillashtiruvchi holatlari zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, ona o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish jinoyatlari uchun belgilanadi.

Hayotga qarshi jinoyatlarda inson hayotiga tajovuz qilish orqali ijtimoiy xavfli oqibat – odam o'lishiga olib keluvchi harakat yoki harakatsizlik sodir etiladi. Ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar ham shunga o'xshash ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda tajovuz qiluvchini odam o'ldirish maqsadi bor-yo'qligini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jinoyatni qasd yoki ehtiyotsizlik holatida sodir etilganligi hamda og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rilayotgan jinoyatlar uchun javobgarlik 13 yoshdan qasddan odam o'ldirganlikning og'irlashtiruvchi holati (97-modda ikkinchi qismi) uchun belgilanadi. 97-modda birinchi qismi va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyatlari uchun 14 yoshdan, keyingi jinoyatlar uchun 16 yoshdan javobgarlikka tortish belgilangan.

Hayotga qarshi jinoyatlar ichida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va o'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyatlari boshqalaridan biroz farqlanib turadi. Boisi bunda jinoyat sub'ekti odam o'ldirish harakatini bevosita amalga oshirmaydi. Uning harakati, ya'ni moddiy yoki boshqa jihatdan o'ziga qaram bo'lgan yoki bo'lmagan shaxsga rahmsiz muomala qilish, sha'ni, qadr-qimmatini muttasil kamsitish, ko'ndirish, aldash natijasida o'zini o'zi o'ldirish yoki shunga suiqasd qilish darajasiga yetkazish yoxud shunday ish qilishga undashda namoyon bo'ladi.

Har qanday holatlarda ham insonning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar davlat va jamiyat tomonidan oqlanmaydi. Ushbu jinoyatlarni sodir etganlik uchun yarashuv instituti ham qo'llanilmaydi. Odam o'ldirish yoki unga suiqasd qilish ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi tufayli xavfli hisoblanadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar hayotga qarshi jinoyatlarga qaraganda o'zining ijtimoiy xavflilik darajasining nisbatan pastligi bilan ajralib turadi. U o'lim singari og'ir oqibatni keltirib chiqarmasada, salomatlikka jiddiy shikast yetkazadi. Har bir inson davlat va jamiyat uchun bebahodir. U jamiyatning tarkibiy qismi, davlatning boyligidir. Shu asnoda uning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi konstitutsiyaviy tartibda himoya qilinadi.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlar guruhiga sakkizta jinoyat kiritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- qasddan badanga og'ir shikast yetkazish;
- qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish;
- kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish;

- zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish;
- qasddan badanga yengil shikast yetkazish;
- qiynash;
- ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish.

Ushbu guruhga kiruvchi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda badanga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazishlik darajasini aniqlab olish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Yuridik adabiyotlarda bunday darajalarni belgilab beruvchi yagona standartlar mavjud emas va buning iloji ham yo'q. Chunki badanga yetkazilgan jarohatlar har kimning jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib turlicha iz qoldirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan bunday darajalarni aniqlashda jinoyatlarning dispozitsiyasiga e'tibor beriladi.

Jinoyat kodeksining 104, 105 va 109-moddalarida badanga shikast yetkazishning umumiy asoslari belgilab berilgan. Ularni birma-bir ko'radigan bo'lsak, badanga og'ir shikast yetkazish JKning 104-moddasining dispozitsiyasidan o'rin olgan quyidagi yakunga olib kelishi holati bilan aniqlanadi:

- ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish;
- biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyatini tamoman yo'qolishi;
- ruhiy holatning buzilishi;
- sog'lig'ining boshqacha tarzda buzilishi;
- umumiy mehnat qobiliyatining 33% dan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishi;
- homilaning tushishi;
- badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishi.

Mazkur holatlar badanga og'ir shikast yetkazilganligi me'yorlarini belgilaydi. Agar ularning bittasi jabrlanuvchining badanida aks etsa, jinoyat badanga og'ir shikast yetkazgan deb topish uchun yetarli bo'ladi.

Badanga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish quyidagi oqibatlardan biri bilan bog'liq bo'ladi:

- sodir etilayotgan vaqtda hayot uchun xavfli bo'lmagan;
- og'ir shikast darajasidagi oqibat keltirib chiqarmagan;
- sog'liqni 21 kundan 4 oygacha bo'lgan davrdagi yomonlashuviga olib kelgan;
- umumiy mehnat qobiliyatining 33% dan ko'p bo'lmagan qismining yo'qotilishi.

Badanga yengil shikast yetkazishning birinchi marta sodir etilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Xususan, qasddan badanga yengil shikast yetkazganlik holati uchun shaxsga dastlab ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Agar o'sha harakat bir yil davomida qaytadan sodir etilsa, bu shaxsga nisbatan jinoiy jazo qo'llaniladi. Yengil shikast yetkazishning darajasi sog'liqning qisqa muddatli yomonlashuvi yoki mehnat qobiliyatini uzoq muddat yo'qolishiga olib kelmagan holat bilan o'lchanadi.

Sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarning ob'ekti inson sog'lig'i hisoblanadi. Sog'liqqa yetkazilgan shikast darajasini aniqlashda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Badanga yetkazilgan shikastlarning og'irlik darajasini sud-tibbiy yo'l bilan aniqlash qoidalari"ga murojaat qilinadi. Ushbu hujjatda shikastlarning og'irlik darajasini aniqlashda tibbiy va iqtisodiy mezonlar qo'llanishi asoslari belgilangan.

Sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar badanga qandaydir darajada shikast yetkazilishida namoyon bo'ladi. Ular orasida qiynash (110-modda) jinoyati biroz ajralib turadi. Ushbu jinoyat qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (104-105-moddalar) kabi oqibatlarni keltirib chiqarmagan holatdagi muttasil ravishdagi do'pposlash yoki boshqa ko'rinishdagi harakatlar bilan qiynashda ifodalanadi. Bunda nisbatan yengil jarohatlar kelib chiqishi mavjud

bo'lsada, ma'muriy jazo qo'llashga qaraganda og'irroq oqibat keltirib chiqaradi. Oqibat jabrlanuvchining qisqa muddatli jismoniy, lekin uzoq muddatli ruhiy qiynalishi, ma'naviy azoblanishini keltirib chiqarishiga olib keladi. Ruhiy azob qon bosimining ortishi, qiynash asoratlarining keyinchalik paydo bo'lishi yoki ruhiy holatining o'zgarishiga olib kelishi mumkinligi ushbu harakatni jinoyatlar toifasiga kiritilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun qiynash holati jinoyat deb topilgan.

Sog'liqqa qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda Oliy sud Plenumining 2007 yil 27 iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori sudlar faoliyati uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar qilmishni sodir etuvchi tomonidan bajarilgan harakat yoki harakatsizlikning yakuni aybdorning o'ziga bog'liq bo'lmagan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik mudhish oqibat keltirib chiqarishidan qat'iy nazar, jinoyat sanaladi va javobgarlik uchun asos bo'ladi. Bunday jinoyatlarning bevosita ob'ekti inson hayoti yoki sog'lig'i bo'lib, quyidagilardan iborat bo'ladi:



32-rasm. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar

Mazkur jinoyatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortiluvchi sub'ekt 16 yoshli jismoniy shaxslardir. Ular tomonidan sodir etilgan jinoiy tajovuz badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga olib kelishi, homilaning sun'iy tushirilishi, tanosil yoki OIV/OITS kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirilishi hamda o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali jabrlanuvchining hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadi.

Jinoyatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (112-modda) jinoyati o'zida ikkita belgini namoyon etadi. Birinchisi, jinoyatni bajaruvchisi tomonidan qo'rqitish holatining o'zi bo'lib, ikkinchisi qo'rqitishda bayon qilingan holatni sodir etish uchun xavfsirash asosining mavjudligi.

Qo'rqitish ruhiy ta'sir o'tkazish orqali jabrlanuvchini bosim ostida qoldiradi. O'ldirish bilan qo'rqitish biror shaxsni hayotdan mahrum qilish niyati borligini bayon qilishda namoyon bo'ladi. Bunda o'ldirilishi kerak bo'lgan odam aniq bitta yoki bir nechta shaxs bo'lmog'i lozim. Umumiy ma'nodagi "Hammang o'lasan" shaklidagi qo'rqitish jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil eta olmaydi.

Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jismoniy yoki ruhiy shaklda amalga oshiriladi. Bunda badanga shikast yetkazish, qiynash, do'pposlash holatlari nazarda tutiladi. Jismoniy zo'rlik ruhiy holatga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin yoki har ikkisi tajovuzchi tomonidan baravar qo'llaniladi.

Qo'rqitishdan xavfsirash uchun asoslar mavjud bo'lsa, ya'ni o'ldirilishi aytilgan shaxsni o'ldirilishi uchun real asoslar borligi jinoyatning ikkinchi belgisi hisoblanadi.

Tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish (113-modda) jinoyati bunday kasallikni yuqtirish xavfini vujudga keltirish hamda uni bevosita yuqtirishda ifodalanadi. Bunday kasalliklar aksariyat hollarda jinsiy yaqinlik qilish jarayonida tarqaladi. Jinsiy yaqinlik paytida kasallik yuqtirilishining oldini olish natijasida boshqalar o'z hayoti va sog'lig'ini asrab qolishi mumkin, ammo bu boshqalarga shu kasallikni yuqtirish xavfini vujudga keltirgan hamda yuqtirgan shaxslarni

javobgarlikdan ozod qilmaydi. Tibbiyot rivojlangan hozirgi vaqtda ayrim tanosil kasalliklarini davolash choralari topilgan. OIV/OITS kasalligini davolashning samarali yo'llari faqat umrni biroz uzaytirishga yordam beradi, ammo undan butunlay sog'ayishning iloji yo'q.

Jinoyat kodeksining 114 va 115-moddalari homilani sun'iy tushirish bilan bog'liq jinoyatlar hisoblanib, har ikkisida ham jinoyat ob'ekti ayolning hayoti va sog'lig'idir. Bunday homila tushirilishida sub'ekt, joy va boshqa omillarda bir-biridan farqlanuvchi jihatlar ko'zga tashlanadi. Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati homila tushirishi mumkin bo'lgan shifokor, akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasasidan tashqarida yoki tibbiy noqulay joyda amalga oshiriladi. Bunda ayolning salomatligiga shikast yetkazilishi, homilaning 12 haftalikdan katta ekanligi va avvalgi abortdan 6 oy o'tmasdan yana abort qilinishi ta'qiqlovchi asosni vujudga keltiradi.

O'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash ayolning erkiga qarshi olib borilgan harakat hisoblanib, u eri, yaqin qarindoshi va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi. Homilaning sun'iy tushirilishi ayolga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga olib kelsa, 115-modda bilan birga sog'liqqa qarshi jinoyatlar tizimidagi boshqa jinoyat ham sodir etiladi. Qilmish jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiluvchi jinoyat bo'lib, u badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga olib keluvchi oqibat bilan kvalifikatsiyalanadi. Aybdorning o'z vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil etadi. Bunday jinoyatlar shifokorlar, akusherlar, hamshiralar, farmatsevtlar kasbi bilan bog'liq holatlarda ko'p uchraydi.

Xavf ostida qoldirish jinoyati qasddan sodir etiluvchi jinoyat sanaladi. Aybdor o'zi yordam berishi shart yoki bunga imkoniyati bo'lgan holda, xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qila olmaydigan shaxsga yordam bermasligi yoki aybdorning o'zi jabrlanuvchini shunday ahvolga solishi jinoyatning ob'ektiv

tomoni tashkil etadi. Aksariyat hollarda bu jinoyat ona o'z bolasiga qaramasligi, qutqaruvchilarning o'z vazifalarini bajarmasliklari natijasida kelib chiqadi.

Xavf ostida qoldirish jinoyati qasddan sodir etiluvchi jinoyat sanaladi. Aybdor o'zi yordam berishi shart yoki bunga imkoniyati bo'lgan holda, xavf ostida qolgan va o'zini o'zi himoya qila olmaydigan shaxsga yordam bermasligi yoki aybdorning o'zi jabrlanuvchini shunday ahvolga solishi jinoyatning ob'ektiv tomoni tashkil etadi. Aksariyat hollarda ona o'z bolasiga qaramasligi, qutqaruvchilar o'z vazifalarini bajarmasliklari natijasida shunday jinoyatlar kelib chiqadi.

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar

Ijtimoiy hayotda ko'p uchraydigan bunday toifadagi jinoyatlar ma'naviy-axloqiy jihatlariga ham ta'sir qiladi. Har bir olingan shaxsning jismoniy erkinlikka egaligi uning jinsiy ehtiyojni qondirish erkinligini ham belgilaydi. Jabrlanuvchining jinsiy ehtiyojni qondirish erkinligiga bog'liq ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi shunday jinoyatlarni keltirib chiqaradi.

Jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan qilmishlar nomusga tegish (118-modda), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda), besoqolbozlik (120-modda) va ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur qilish (121-modda) jinoyatlarini o'z ichiga oladi.

Nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish va ayolni jinsiy aloqaga majburlash jinoyatlari nisbatan bir-biriga o'xshab ketadi. Ularning umumiylik jihatlari jinsiy erkinlikka tajovuz qilinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu jinoyatlar uchun moddalarning birinchi qismida bayon etilgan tajovuzlar uchun jinoiy ish JPKning 325-moddasi bo'yicha jabrlanuvchining arizasi asosida qo'zg'atilishi ko'zda tutilgan

Nomusga tegish jinoyati ayol kishining jinsiy erkinligiga tajovuz qilishda zo'rlik ishlatilishi, qo'rqitish va jabrlanuvchining ojizligidan foydalanish jihatlari ko'zga tashlanadi. Tajovuzning ushbu shakllari vositasida ayolning jinsiy a'zosiga erkakning jinsiy a'zosining kiritilishi nomusga tegish jinoyatining ob'ektiv

tomonini tashkil etadi. Zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanish shakllaridan bittasining mavjudligi jinoyatning nomusga tegish deb kvalifikatsiya qilinishiga asos yaratadi.

Zo'rlik ishlatish jabrlanuvchining xohish-istagiga qarshi borib o'z maqsadiga erishishdan iborat. Zo'rlik ishlatilishi faol qarshilik bilan uyg'unlashmasa, ya'ni jabrlanuvchining zo'rlik ishlatishiga soxta yoki samimiy qarshilik ko'rsatsa yoxud zo'rlik ishlatuvchini hirsini kuchaytirish maqsadlarini ko'zlab harakat qilsa, jinoyatning tarkibi vujudga kelmaydi. Ayolning jinsiy erkinligiga qilingan tajovuzdan rohat olish belgilari ham tajovuzchini javobgarlikdan ozod qiladi.

Nomusga tegish jinoyati sifatida tajovuzchining harakatini tasdiqlashda faol qarshilik belgilari uning tanasida tishlash, tirnash, shilinishlar, qontalashlar, ko'karib chiqishlar izlarining qolishi asos bo'ladi. Jinsiy tajovuzning bunday izlari nomusga tegish jinoyatini kvalifikatsiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Zo'rlik ishlatish faol harakat va kuch ishlatish belgilariga ega bo'lsa, qo'rqitish ruhiy tazyiq o'tkazish shaklida bo'ladi. Bu ko'proq sharmanda qiluvchi ma'lumotlar, pornografik tasvirlarni tarqatish bilan qo'rqitish ko'rinishida yuz beradi.

Jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanish jismoniy o'jizlik va vaziyatni idrok qila olmaslik sharoitida amalga oshirilishi bilan bog'liq. Jismoniy o'jizlik qarshilik ko'rsatish imkoniyatining yo'qligi, nogironligi, keksaligi, kasalligi holatlaridan kelib chiqadi. Vaziyatni idrok qila olmaslik mastlik, xotiraning pastligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Nomusga tegish jinoyati sodir etilishi uchun ayolning bokiraligi yoki fohishaligining ahamiyati bo'lmaydi. Masalan, yengil hayot kechiruvchi ayolning yoniga uch kishi kelib, ikkitasi bilan jinsiy yaqinlik qilganidan keyin uchinchi bilan yaqinlikka rozi bo'lmasa va uchinchi shaxs kuch ishlatib o'z maqsadiga erishsa, bu uchinchi shaxsning harakatini nomusga tegish jinoyati deb topilishiga olib keladi. Avvalgi ikkitasining harakati ayolning roziligi bilan yuz berganligi uchun ularning harakatida jinoyat tarkibi yo'q deb topiladi.

Amaliyotda xotin o'z erining harakatini nomusga tegish deb topishni so'ragan va bu qanoatlantirilgan holatlar ham juda ko'p uchraydi. Chunki xotini rozi bo'lmasa, uning qonuniy eri ham jinsiy erkinligiga tajovuz qilishi mumkin emas.

Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyati mohiyati bo'yicha nomusga tegish jinoyati bilan yaqin. Ularning farqli jihati ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish erkak jinsiy a'zosining ayolni jinsiy aloqa qiladigan a'zosidan boshqa joylariga kiritilishida aks etadi. Nomusga tegish jinoyatida bu ish ayolni jinsiy aloqa qiladigan a'zosiga kiritilishi bilan namoyon bo'ladi.

Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish bo'yicha muammolar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010 yil 29 oktyabrdagi 13-sonli "Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori asosida hal qilinadi.

Jinoyat kodeksining 121-moddasidan ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur qilish jinoyati o'rin olgan. Jinoyatning ob'ektiv tomoni aybdorga xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan qaram bo'lgan ayolni jinsiy erkinligiga qarshi borishda ifodalanadi. Aybdor bunday ayolni jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga majbur etadi. Ishdan bo'shatish, imtiyozlardan mahrum etish kabi qo'rqitish usullaridan foydalanish ayolning ojizligi hisobiga jinoiy maqsadga erishish imkonini berishi jinoyatning tugallanishini keltirib chiqaradi.

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar ichida besoqolbozlik jinoyati boshqalaridan farqlanib turadi. Ushbu jinoyatda jinsiy erkinlikka faol tajovuz sodir etilmaydi. Agar yuqoridagi jinoyatlar aybdorning faol harakati bilan tajovuz shaklida sodir etilsa, ushbu jinoyatda bir jins vakillarining ixtiyoriy asosda jinsiy ehtiyojlarini qondirishi amalga oshiriladi.

Mazkur jinoyatning ob'ekti jinsiy aloqalarning qaror topgan tartibi bo'lib, bu tartibning buzilishi ma'naviy-axloqiy munosabatlarga jiddiy salbiy ta'sir

ko'rsatadi. Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida ushbu qilmish jinoyat sifatida e'tirof etilmaydi. Ulardagi mavjud mentalitet va boshqa omillar besoqolbozlikni jinoyat deb topish uchun mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega emas. Ulardagi dunyoqarash va turmush tarzi ma'naviyatning ahamiyatini inobatga olmaydi.

Mazkur jinoyatlarning jabrlanuvchisi har doim ayollar bo'lmasligi mumkin. Xususan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majbur qilish faqat erkaklar emas, balki ayollar tomonidan, besoqolbozlik xotin-qizlar orasida ham uchraydi. Qarama-qarshi jins vakillarining ushbu harakatlarni sodir etishi javobgarlikni rad qila olmaydi.

Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar

Oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra tilga olingan har uchala ob'ektga zarar yetkazadi. Ularning ayrimlari alohida olingan ob'ektga bevosita ta'sir o'tkazsada, oqibati qolganlarida ham o'z izini qoldiradi. Mazkur xususiyatlarga ega bo'lgan qilmishlarning barchasi to'g'ridan-to'g'ri jinoyat sifatida e'tirof etilmaydi. Jumladan, JKning 122, 123, 125¹, 127, 127¹, 130, 130¹-moddalarida belgilangan qilmishlarni jinoyat deb topishda ularda bayon qilingan harakatlar uchun avval ma'muriy jazo qo'llanilishi lozim.

Ushbu jinoyatlarni ustun jihatlariga tayanib, shartli ravishda oilaga qarshi, yoshlarga qarshi va axloqqa qarshi jinoyatlar sifatida tasniflash u qadar to'g'ri emas. Jumladan ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash va bolani almashtirib qo'yish jinoyatlari ikki ob'ektli jinoyat bo'lib, ular oilaga va axloqqa qarshi qaratilgan bo'ladi. Qolgan jinoyatlarda ham shunga o'xshash holatni ko'ramiz.

Oilaga qarshi jinoyatlarda voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni hamda ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash jinoyatlari sud tomonidan hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i asosda to'lanishi lozim bo'lgan mablag'ni ikki oy mobaynida ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin to'lamaslik natijasida kelib chiqadi. Har ikki jinoyat uchun rag'batlantiruvchi omil ham ko'zda

tutilgan bo'lib, unga ko'ra shaxs aliment to'lovlari bo'yicha qarzlarni to'liq to'lasa, javobgarlik bekor qilinadi.

Bolani almashtirib qo'yish jinoyatining alohida xususiyati uning tamagirlik va boshqa past niyatlarda amalga oshirilishida namoyon bo'lib, sub'ekti tug'ruqxona, chaqaloqlar uyi yoki shu sohada ishlovchi xodim bo'lishi mumkin. Bolani almashtirib qo'yish va farzandlikka olish sirining oshkor qilinishi oila va yoshlarning kelajagiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar sanaladi. Farzandlikka olish sirining oshkor qilinishi sub'ekti har qanday odam, xatto er-xotindan biri bo'lishi ham mumkin.

Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyat qonunchiligiga ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin vujudga keluvchi jinoyat sifatida kirgan. Mazkur jinoyat uch qismdan tashkil topgan. Har uchala qismda ham jinoyatning jabrlanuvchisi sifatida qonun bilan belgilangan nikoh yoshiga yetmagan shaxs nazarda tutilgan. Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh munosabatlariga kirishish holati birinchi qismdan o'rin olgan. Bunda oila huquqi bilan belgilangan yoshga yetmagan shaxs bilan birgalikda oila qurish ta'qiqlangan.

Ikkinchi va uchinchi qismlarida nikoh yoshiga yetmagan shaxsni erga berish yoki uylantirish hamda bunday yoshni nikohlash bilan bog'liq holatlar o'rin olgan bo'lib, aybdorlarga ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin jinoiy javobgarlik belgilanadi. Jinoyatdan anglashiladigan narsa shuki, nikoh yoshiga yetmagan shaxslar ham jinsiy erkinlik huquqiga ega bo'lib, unga ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ham daxl qila olmaydilar.

Ko'p xotinli bo'lish jinoyati ko'pchilikda tushunmovchilik va buni xato anglash bilan namoyon bo'ladi. 126-moddada ikki yoki undan ortiq xotin bilan (ikki yoki undan ortiq er bilan ham) umumiy ro'zg'or asosida er-xotin bo'lib yashash jinoyat ekanligi o'rnatilgan. Bu yerda ajratib olishimiz zarur bo'lgan jihat shundaki, umumiy ro'zg'or oila mablag'lari, mol-mulk, oddiyroq aytganda qozon-tovoq birligini anglatadi. Agar erkak yonma-yon hovli yoki ko'p qavatli uy kvartirasida alohida-alohida yashovchi ayollar bilan yashab, har ikki ayolning ro'zg'ori bir-birini xoli bo'lsa, jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Ba'zan

“falonchini qishloqda birinchi xotini, shaharning falon qismida ikkinchi xotini yashaydi”, qabilidagi so’zlarni eshitganmiz. Bu holat amalda bo’lganda ham ko’p xotinli bo’lish jinoyatining tarkibi kelib chiqmaydi.

Topshiriq

Bir kishi o’z tanishidan bergan qarzini so’rab bordi. Tanishi hozir pulni berolmasligini aytgach, uyiga qaytayotib yo’lda alam bilan aroq uchdi. Mast holatida mashinasini boshqarayotib, yo’ldagi simyog’ochga urildi hamda voqea joyida o’ldi. Uning xotini bunda erining qarz olgan tanishini ayblab, jazolash uchun uni sudga berdi.

- Voqeani tahlil qiling va baho bering

Voyaga yetmagan shaxsni g’ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish va tilanchilik qilish jinoyatlari uchun avval ma’muriy javobgarlik va jazo qo’llanilishi talab etiladi. Voyaga yetmagan shaxsni g’ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish bunday shaxslar spirtli ichimlik, giyovandlik yoki psixotrop hisoblanmagan vosita va moddalarni iste’mol qilishga kattalar tomonidan o’rgatilishida ko’rinadi. Tilanchilik qilish (127¹-modda) jinoyati ham bunday ishga voyaga yetmaganlarni jalb qilishni ta’qiqlaydi.

16 yoshga to’lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish hamda 16 yoshga to’lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatlari jabrlanuvchilari ushbu yoshga to’lmaganlar bo’lib, bunday harakatlarga ularning xohishi bor yoki yo’qligi jinoyatni tugallangan deb hisoblash uchun ahamiyatga ega emas. Bunda aybdor uning 16 yoshga yetmaganligini bilishi yoki shuni anglashi asos bo’ladi. 16 yoshga to’lmagan shaxs jinsiy aloqa qilishga mayli borligi yoki uyatsiz-buzuq harakatlar qilishni so’rab murojaat qilishi aybdorni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Qo’shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash jinoyati bir-biridan ajralib turadigan ikki holatdan iborat bo’ladi. Fohishaxona mijozlarning jinsiy aloqa qilishi uchun va uzoq vaqt foydalanishga mo’ljallangan, buning uchun alohida jihozlangan joydir. Mijozlarning muntazam kelib-ketishi fohishaxonaning zaruriy belgisidir. Qo’shmachilik o’zining sub’ektiv tomoni bilan ajralib turadi. U g’arazli

va past niyatlarda ma'lum bir shaxslarni jinsiy aloqa qilishlariga xizmat ko'rsatilishida ifodalanadi.

Fohishaxona ochilib, mijozlarga xizmat ko'rsatish boshlangandan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. Agar ishqiy harakat uchun xona berilsa, bu jarayon g'arazli va past niyatlarda hamda muntazam bo'lmasa, qilmish jinoyat hisoblanmaydi.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish, inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olish hamda qabrni tahqirlash ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga qarshi qaratilgan jinoyatlar toifasiga kiradi.

Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga hamda fuqarolarning huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Ozodlik insonning jismoniy, mulkiy, mafkuraviy, ma'naviy, huquqiy va boshqa jihatlar bo'yicha mustaqilligi hamda erkinligida namoyon bo'luvchi holatdir. Shaxsning sha'ni uning o'ziga bergan bahosi va o'zining jamiyatda tutgan o'rni haqidagi xulosasida ifodalanuvchi tushunchadir. Shaxsning qadr-qimmati jamiyatning mazkur shaxsga bergan bahosi va odamlar orasidagi tutgan o'rni bilan anglashiluvchi tushuncha sanaladi.

Jinoyat qonunchiligida shaxs ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar odam savdosi, ayolni erga tegishga majbur qilish yoki erga tegishiga to'sqinlik qilish, odam o'g'irlash, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, tuhmat va haqorat qilish jinoyatlaridan iboratdir.

Ayolni erga tegishga majbur qilish yoki erga tegishiga to'sqinlik qilish, shuningdek tuhmat va haqorat qilish jinoyatlarining I va II qismlaridagi yengilroq shakli uchun javobgarlik JPKning 325-moddasiga ko'ra, jabrlanuvchining arizasi asosida kelib chiqadi. Agar jabrlanuvchi bunday holat uchun o'z sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazmaydi deb hisoblasa, ariza bermaydi va qilmish uchun jinoyat ishi qo'zg'atilmaydi.

Odam savdosi, odam o'g'irlash va zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish jinoyatlari ancha og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi bilan

ahamiyatlidir. Xususan, odam savdosi shaxsni olish-sotish, shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan jinoyatlarning kelib chiqishiga ham sababchi bo'ladi.

Odam savdosi bilan bog'liq alomatlar mavjud bo'lmagan holda uni o'g'irlash 137-modda bilan ta'qiqlangan jinoyatni keltirib chiqaradi. Odam savdosi va odam o'g'irlash jinoyatini sodir etishda 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs jinoyat sub'ekti bo'ladi.

Zo'rlik ishlatib boshqa bir shaxsni g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish shaxsning ozodligiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, u sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilish jazosidan farq qiladi. Chunki birinchi holat jinoyat holati bo'lsa, ikkinchisi jazo holatini anglatadi. Jinoyatni sodir etish jabrlanuvchini o'zi istamagan joyda bandi qilish, o'zi istagan joyda bo'lish huquqidan mahrum etishda ifodalanadi. Agar bunday holat mansabdorlik bilan bog'liq bo'lsa, mansabdor shaxsning harakati JKning 205, 206 va 234-moddalaridan biri bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Tuhmat jinoyati bilan shaxs bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi uydirma tarqatishda ayblaniladi. Bunda tarqatilgan ma'lumot real asosga ega bo'lmasligi, g'arazli niyatlarda amalga oshirilishi hamda jamoa o'rtasida ommalashgan holda tarqalishi majburiy shart sanaladi. Haqorat qilish jinoyati shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan tahqirlashda namoyon bo'ladi. Tahqirlovchi ma'lumot axloqiy me'yorlarga mos kelmasligi, shaxsni kamsitishga qaratilishi qilmishni huquqbuzarlik sifatida topilishiga asos bo'ladi.

Tuhmat va haqorat qilish jinoyatlari sodir etilganligi og'ir oqibatlar keltirib chiqarmasa va og'irlashtiruvchi holatlarda amalga oshirilmagan bo'lsa, harakat uchun avval ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi. Ushbu harakatlar nashr qilish yoki ko'paytirilgan matnda yoxud ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilsa hamda og'irlashtiruvchi holatlarda amalga oshirilsa, jinoiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqadi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari asosiy qonunimizning II bo'limida o'rnatilgan bo'lib, ushbu bo'limdagi normalar boshqa hujjatlar, shu jumladan Jinoyat kodeksi bilan ham qo'riqlanadi. Kodeksning Maxsus qismi birinchi bo'limi yettinchi bobi mazkur huquq va erkinliklar asoslarini qo'riqlovchi normalarni aks ettirgan. Moddalarda bayon etilgan jinoyatlarni shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar fonida ajratadigan bo'lsak, quyidagi shakl kelib chiqadi.

shaxsiy huquqlar	siyosiy huquqlar	iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar
• fuqarolarning teng huquqliligini buzish • shaxsiy hayot daxlsizligini buzish • shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish • fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish • xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish • vijdon erkinligini buzish	• jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish • saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish • saylov huquqining yoki ishonchli vakil vakolatlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish	• mehnat qilish huquqini buzish • voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish • mehnatga ma'muriy tartibda majburlash • mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish

33-rasm. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Mazkur jinoyatlar Konstitutsiyamiz bilan qo'riqlanadigan fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qiluvchi qilmishlardan iboratdir. Shaxsiy huquqlarga nisbatan fuqarolarning teng huquqliligini buzish, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish, xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish, vijdon erkinligini buzish jinoyatlari ta'sir qiladi. Ularning ayrimlari uchun jinoiy javobgarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kelib chiqadi.

SHaxsiy huquq va erkinliklarga qarshi qaratilgan jinoyatlar ichida vijdon erkinligini buzish anchagina e'tiborli bo'lib, u JKning 145-moddasida uch qismda bayon etiladi. Birinchi qism diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o'tkazilishiga to'sqinlik qilinishida namoyon bo'ladi. Ikkinchi qismi voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotga jalb qilish hamda bolaning o'zi va yaqinlarining ixtiyoriga qarshi dinga o'qitishning ta'qiqlanishini ifoda etadi. Ushbu jinoyatning uchinchi qismi ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Topshiriq

Yevropa millatiga mansub ayol uzoq vaqt turmushga chiqa olmay, o'zi bilan birga ishlaydigan erkak bilan yaqin aloqada bo'lib, farzand tug'ib oldi. Xotini bilan janjallardan bezib ketgan erkak uyini tashlab, uning oldiga kelib oldi. Bundan xabar topgan xotini erini qo'sh xotinlikda ayblab, sudga berdi. Eri esa ikkinchi ayol Yevropa millatiga mansubligi, shuning uchun u bilan shar'iy nikohdan o'tmaganligini aytib xotinining da'vosini rad etdi.

– Mazkur holatni huquqiy asosda tavsiflang

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risidagi qonunda belgilangan ijtimoiy munosabatlar 144-moddada bayon etilgan jinoyatning ob'ekti sanaladi. Mazkur jinoyat qasddan sodir etilib, fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qonuniy manfaatlariga, qolaversa davlat va jamiyat asoslariga putur yetkazadi.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari doirasidagi saylov huquqi bilan bog'liq jinoyatlar JKning 146 va 147-moddalarida ham o'rnatilgan. Ular saylov huquqi va uning amalga oshirilishiga taalluqli manfaatlar buzilishida namoyon bo'ladi.

Mehnat qilish huquqi va unga bog'liq iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi konstitutsiyaviy huquqlarga zarar yetkazilganlik uchun avval ma'muriy jazo qo'llanilishi zarur bo'ladi. Lekin ayolni homiladorligi yoinki yosh bolani parvarish qilayotganligini bilgan holda uni ishga olishdan g'ayriqonuniy bosh tortish yoki ishdan bo'shatib yuborish (148-modda II qismi) holati uchun avval ma'muriy javobgarlikka tortish talab qilinmaydi.

Mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzilishi holati yuz bersa, jabrlanuvchining arizasi jinoyat ishi ochish uchun majburiy shart sanaladi. Ushbu

jinoyatda o'zga shaxs tomonidan yaratilgan intellektual ijod natijalarini o'zga shaxs tomonidan o'zlashtirilishi hamda o'z nomidan e'lon qilinishi yuz beradi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Jinoyat kodeksining 66¹-moddasi nimani o'zida ifodalaydi?
 - a) jazodan ozod qilish institutini
 - b) javobgarlikdan ozod qilishni
 - c) yarashuv institutini
 - d) tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashni
2. Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan yangi ehtiyot chorasini toping
 - a) eksqumatsiya
 - b) kafillik
 - c) uy qamog'i
 - d) garov
3. Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlanmagan jazo chorasini toping
 - a) mol-mulkini musodara qilish
 - b) o'lim
 - c) qamoq
 - d) maxsus yoki harbiy unvondan mahrum qilish
4. 1994 yilgi Jinoyat kodeksida nechta moddada o'lim jazosi mavjud edi?
 - a) 34 ta
 - b) 23 ta
 - c) 13 ta
 - d) 11 ta
5. Jinoyat kodeksiga keyinchalik kiritilgan jazo turinig toping
 - a) majburiy jamoat ishlari
 - b) jarima
 - c) xizmat bo'yicha cheklash
 - d) ozodlikdan mahrum qilish
6. Hozirda qaysi sud tizimi mavjud emas?

- a) Ma'muriy sudlar
 - b) Iqtisodiy sudlar
 - c) Fuqarolik sudlari
 - d) Barcha sudlar mavjud
7. Qasddan badanga shikast yetkazish qaysi jinoyatlar tarkibiga kiradi?
- a) Hayotga qarshi jinoyatlar
 - b) Sog'liqqa qarshi jinoyatlar
 - c) Shaxs ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar
 - d) Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar
8. Jabrlanuvchining qisqa muddatli jismoniy, lekin uzoq muddatli ruhiy qiynalishi, ma'naviy azoblanishini keltirib chiqaruvchi jinoyatni aniqlang
- a) badanga og'ir shikast yetkazish
 - b) ayolni erga tegishga majbur qilish
 - c) ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish
 - d) qiynash
9. Jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan qilmishlar toifasiga kirmaydigan jinoyatni toping
- a) nomusga tegish
 - b) jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish
 - c) ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur qilish
 - d) 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish
10. Bolani almashtirib qo'yish jinoyatining sub'ekti kim bo'lishi mumkin?
- a) Tug'ruqxona xodimi
 - b) "Tez yordam" shifokori
 - c) Ambulatoriya hamshirasi
 - d) Bolaning qarindoshi
11. Qaysi jinoyat g'arazli va past niyatlarda amalga oshiriladi?
- a) Ko'p xotinli bo'lish

- b) Qo'shmachilik qilish
 - c) Fohishaxona saqlash
 - d) Javoblarning barchasi to'g'ri
12. Qaysi jinoyat shaxs ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga kirmaydi?
- a) odam savdosi
 - b) odam o'g'irlash
 - c) nomusga tegish
 - d) zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish
13. Bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiluvchi uydirma tarqatish qaysi jinoyat tarkibini tashkil etadi?
- a) Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan tahqirlash
 - b) Haqorat qilish
 - c) Tuhmat
 - d) Qiynash
14. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?
- a) odam savdosi
 - b) fuqarolarning teng huquqliligini buzish
 - c) shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish
 - d) fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish
15. Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash qaysi jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil etadi?
- a) Tuhmat
 - b) Haqorat qilish
 - c) Qiynash
 - d) Nomusga tegish

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Liberallashtirish tushunchasi va uning huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
2. Hayotga qarshi jinoyatlar tarkibiga nimalar kiradi?
3. Sog'liqqa qarshi jinoyatlarni tavsiflang.
4. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlarning xususiyatlarini ayting.
5. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni sanang
6. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar tarkibiga kiruvchi qilmishlarni sanang.
7. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar nimalardan iborat.
8. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarni tavsiflang.
9. Liberallashtirish o'zida qanday ma'noni ifodalaydi?
10. O'lim jazosi qanday jazo bilan almashtirildi?
11. Hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar ob'ektini tavsiflang.
12. Odam o'ldirish jinoyati qanday ko'rinishlarda amalga oshiriladi?
13. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatining xususiyatlari
14. Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazishni tavsiflang
15. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish jinoyatini tavsiflang

15 BOB. TINCHLIK VA XAVFSIZLIKKA QARSHI HAMDA IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR

Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar ijtimoiy xavfliligi jihatdan boshqalaridan ajralib turadi. Bu qilmishlar tarkibi urushni targ'ib

qilish, agressiya, genotsid, terrorizm, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish kabi jinoyatlardan iborat.

Urush bilan bog'liq jinoyatlar urushni targ'ib qilish (150-modda), agressiya (151-modda) va urushning qonun va udumlarini buzish (152-modda) qilmishlari bilan bog'liq. Ularning birinchisi urushni turli qarashlar, g'oyalar yoki chaqiriqlar yordamida targ'ib qilishda namoyon bo'ladi. Targ'ibot og'zaki, yozma shaklida plakat, bosma nashr yoki ijtimoiy tarmoqlarda olib borilishi mumkin.

Agressiya boshqa davlat hududiga bosqinchilik urushini rejalashtirish, tayyorgarlik ko'rish, uni boshlash va olib borishda ifodalanuvchi harakatdir. Bunday harakatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari bilan ta'qiqlanadi.

Urush olib borish tartib-qoidalari xalqaro standartlarda belgilangan bo'lib, unda jang harakatlarining mahalliy tinch aholiga qarshi qaratilmasligi, aholi yashash punktlarini vayron qilmaslik, kurash faqat harbiylarga qarshi olib borish kabi tartiblar o'rnatilgan. Ekstremistik oqim vakillari, ISHID, "Hizbut-tahrir", "Al-Qoida" kabi terroristik tashkilotlar tarafdorlari bunday qoidalarni nazar-pisand qilishmaydilar. Ular aholi yoki harbiy asirlarni qiynash, jismonan qirib yuborish, aholini majburiy ishlarga yoki boshqa maqsadlarda haydab ketish, hududlarni behuda vayron qilish, mulkni talon-taroj qilish kabi harakatlar orqali urush qonunlarini buzishadi. O'zbekiston bunday harakatlarni keskin qoralaydi.

Urush qoidalarini buzish genotsid (153-modda) kabi jinoyatlarga yo'l ochib beradi. Genotsid so'zining lug'aviy ma'nosi "urug'ni qirib yuborish" shaklini aks ettiradi. Bu jinoyat milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga ko'ra shaxslarni qirib yuborishda namoyon bo'ladi. Bunda jinoiy tajovuz aynan biror ijtimoiy guruhga qarshi qaratilgan bo'ladi.

Yollanish jinoyati boshqa davlat hududidagi qurolli to'qnashuv va harakatlarda moddiy manfaatdorlik uchun ishtirok etish bilan gavydalanadi. Shuningdek, mazkur jinoyat shaxsni yollash, o'qitish, moddiy ta'minot berish va undan foydalanganlik uchun ham javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Jinoyat kodeksining 154¹-moddasida chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o'xshash boshqa organlariga kirish yoki yollanish jinoyati o'rin olgan. Jinoyat boshqa davlatning organlariga xizmatga kirishi hamda yollanishi holatlari ta'qiqlanishini ko'zda tutadi. Bunda jinoyatning sub'ekti faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarosigina bo'lishi mumkin. Fuqaromiz xizmatga kirish yoki yollanish jinoyatini sodir etish barobarida O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan ham avtomatik ravishda mahrum etilishi nazarda tutiladi.

Terrorizm so'zi "qo'rqitish" ma'nosini anglatadi. U xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatlarning mustaqilligi, aholi xavfsizligiga putur yetkazish, tinch vaziyatni beqarorlashtirish, kishilarni qo'rqitish maqsadlarida amalga oshiriluvchi qasddan qilinadigan harakat bilan izohlanadi. Tajovuz davlat organi, xalqaro tashkilot, mansabdor shaxs jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan yo'naltiriladi. Biror faoliyatni amalga oshirish yoki undan tiyilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs hayoti yoxud mol-mulkiga xavf tug'diruvchi qilmish hamda uni amalga oshirish tahdidi tajovuz vositasiga aylanadi.

Terrorizm vaziyatni beqarorlashtirish, davlat organi faoliyatini izdan chiqarish maqsadlarida davlat va jamoat arboblari hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish holatini ham o'z ichiga oladi.

Terrorizm jinoyati bilan bog'liq rag'batlantiruvchi qoida ham JKdan o'rin egallagan. Terrorizmni tayyorlash jarayonida ishtirok etgan shaxs, harakat haqida tegishli organlarga xabar berish yoki og'ir oqibat kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rsa hamda uning harakatlarida boshqa jinoyat alomatlari bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan terroristik harakat haqida ma'lumotlarni xabar qilmaslik (155¹-modda), terroristik faoliyatni amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish (155²-modda) va terrorizmni moliyalashtirish (155³-modda) jinoyatlari ham terrorizm bilan aloqador jinoyatlar toifasiga kiradi. Ushbu jinoyatlarning har qanday ko'rinishda sodir

etilishi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqaradi. Tinch va osuda hayotga zarar yetkaziladi.

Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan yana biri milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish (156-modda) bo'lib, mazkur jinoyatning sodir etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida o'rnatilgan konstitutsiyaviy normalarga zarar yetkazadi. Ushbu moddada O'zbekistonda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi hamda millati, irqi, dini va boshqa farqlardan qat'iy nazar qonun oldida tengligi o'rnatilgan.

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish Konstitutsiya va qonunlarimizda o'rnatilgan teng huquqlilikka qarshi qaratiladi. Shu boisdan bunday harakatlarni qasddan sodir etish, ma'muriy va jinoyat qonunchiligi orqali ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar

Davlatga xoinlik qilish, O'zbekiston Prezidentiga va konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish, josuslik, qo'poruvchilik, davlat sirini oshkor qilish, davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish jinoyatlarining ob'ekti O'zbekiston Respublikasining xavfsizligidir. Mazkur jinoyatlarning sub'ektini 16 yoshga to'lgan fuqarolar tashkil etadi.

Davlatga xoinlik qilish jinoyati qasddan sodir etiluvchi qilmish bo'lib, mamlakat fuqarosi tomonidan bajariladi. Xoinlik qilish O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy daxlsizligi, xavfsizligi, mudofaa salohiyati va iqtisodiyotiga zarar yetkazishga olib keladi. Mamlakat suvereniteti uning mustaqilligini anglatadi. Mudofaa salohiyati harbiy tizim qudrati, kurolli kuchlar tarkibi, harbiy texnika va uning ta'minoti kabi omillar bilan o'lchanadi. Sotqinlik chet el davlati, tashkilotlari, razvedkachilariga davlat sirini yetkazish yoki mamlakatimizga qarshi dushmanlik faoliyatiga yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlatga xoinlik qilish josuslik jinoyatiga o'xshab ketadi. Ularning bir-biridan farq qiladigan jihati sub'ekti ko'rinadi. Josuslik chet el fuqarosi tomonidan amalga oshiriladi. Davlatga xoinlik qilish mamlakat fuqarosining ishidir. Boshqa jinoyatlardagi kabi ushbu jinoyatlarda ham aybini bo'yniga olib arz qilish, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, jinoyatning ochilishiga yordam berish holatlari uchun javobgarlikdan va jazodan ozod qilish nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsiz hisoblanib, uning hayoti, sog'lig'i, sha'ni qonunga muvofiq himoya qilinadi. Jinoyat kodeksining 158-moddasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga tajovuz qilish, uning badaniga qasddan shikast yetkazish, omma oldida yoki ijtimoiy tarmoqlar hamda matbuot orqali haqorat qilish, tuhmat qilish ta'qiqlanishi sanksiyalangan. Agar tajovuz qiluvchi Prezidentni hayotdan mahrum qilsa, jinoyat 97-modda bilan kvalifikatsiyalanadi.


O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyatining ob'ekti davlat suvereniteti, hududining bo'linmasligi hamda mamlakat xavfsizligidir. Jinoyatning amalga oshirilishi quyidagi harakatlarni sodir etilishiga bog'liq:

- amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof ravishda o'zgartirish;
- hokimiyatni bosib olish;
- qonuniy saylangan yoki tayinlangan vakillarni hokimiyatdan chetlatish;
- mamlakat hududiy yaxlitligini buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilish, shuningdek bunday mazmunli materiallarni tarqatish uchun tayyorlash, saqlash va tarqatish.

Mamlakat konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyatining ob'ektiv tomoni ushbu holatlar bilan tugamaydi. Davlat hokimiyati organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish, ularga parallel hokimiyat tuzilmalarini yaratishga urinish, bunday tuzilmalar yaratilgan holatlarda ularni tarqatib yuborish to'g'risidagi qarorlarni belgilangan muddatlarda bajarmaganlik, shuningdek davlat

hokimiyatini bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlash uchun fitna uyushtirish holatlari sodir etilganlik uchun ham 159-modda sanksiyalarida nazarda tutilgan jazolar qo'llaniladi.

Josuslik jinoyati O'zbekiston Respublikasi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etiluvchi jinoyat hisoblanib, uning o'z xususiyatlari mavjud.



34-rasm. Josuslik jinoyatining xususiyatlari

Qo'poruvchilik (161-modda) jinoyatining ob'ekti O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa tizimidir. Qo'poruvchilik mamlakat iqtisodiy strukturasi zarur yetkazish hamda odamlar orasida qo'rquv va talvasani vujudga keltirish uchun zavod, korxonalar, jamoatchilik foydalanishidagi inshootlarga zarar yetkaziladi yoki qo'poruvchilik harakati natijasida yo'q qilinadi.


Jinoyat davlat organlari faoliyatiga zarar yetkazish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish yoki iqtisodiyotga putur yetkazish maqsadlarini ko'zlaydi. Asosan davlatimiz kelajagini ko'ra olmaydigan tashqi va ichki dushman kuchlar tomonidan odamlarni qirib yuborish, aholi salomatligi ziyon yetkazish, mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat sirini oshkor qilish jinoyati bunday ma'lumotlar ishonib topshirilgan yoki xizmati, kasb faoliyati yuzasidan ulardan xabardor bo'lgan shaxs tomonidan sodir etiladi. Ma'lumotlar davlat siri ekanligi to'g'risida xabardor bo'lmagan,

xabardor bo'lishi mumkin ham bo'lmagan shaxslar ushbu jinoyatning sub'ekti bo'lmaydi. Davlat sirini oshkor qilish odamlar orasida, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, ma'ruza va yig'ilishlarda oshkor qilinishi jinoyatni tamom bo'lgan deb hisoblanishi uchun asos bo'ladi. Jinoyat qasd yoki ehtiyotsizlik tufayli kelib chiqishi mumkin. Agar jinoyatning sodir etilishi natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqsa, jinoyatning og'irlashuvi yuz berib, 162-moddaning II qismida nazarda tutilgan sanksiyalar qo'llaniladi.

Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish (163-modda) jinoyati davlat sirini oshkor qilishdan farq qiladi. Bu o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik shaklidagi ehtiyotsizlikdan kelib chiqadi. Jinoyat davlat siri yoki harbiy sirni ifoda etuvchi hujjat hamda ashyo yoki modda haqidagi ma'lumotning yo'qotilishi natijasida yuz beradi. Jinoyatning sub'ekti xizmati, kasb faoliyati yuzasidan ulardan xabardor bo'lgan shaxs bo'ladi. Og'ir oqibatlar keltirib chiqarilishi jinoyatni og'irlashtiradi. Og'ir oqibat ma'lumotlarni chet el agenturasiga ma'lum bo'lib qolishi bilan izohlanadi.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish va u bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar



35-rasm. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 3 bo'limidan o'rin egallagan. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni o'zgalar mulkini talon-taroj qilish, o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan, iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan, xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar tashkil etadi.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan va o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar bir-biridan farqlanadi.




36-rasm. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish va u bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish, firibgarlik hamda o'g'rilikdan iborat. Mazkur turdagi jinoyatlarning asosiy ob'ekti o'zganing mulki hisoblanib, ularning ayrimlari ikki ob'ektlilik bilan farqlanadi.

Bosqinchilik jinoyati o'zganing mol-mulki va fuqaroning sog'lig'i, hayotiga nisbatan uyushtirilgan tajovuz orqali namoyon bo'ladi. Bunda asosiy maqsad o'zganing mol-mulki egallab olishga yo'naltiriladi. Mulki talon-taroj qilish maqsadida amalga oshirilgan tajovuz hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatilishi yoki shunday zo'rlik bilan qo'rqitilishi yo'li bilan sodir etiladi.

Bosqinchilik jinoyati to'g'ri qasd va g'arazli maqsadlar asosida sodir etiladi. Jinoyatning sodir etilishi jabrlanuvchiga nafaqat mulkiy, balki juda kuchli ruhiy zarar ham yetkaziladi. Agar bosqinchilikni o'g'rilik bilan qiyoslasak, o'g'rilik mol-mulkni yashirin ravishda talon-taroj qilinishi bilan yuz beradi. Bunda iqtisodiy zararining ahamiyati kuchliroq seziladi. Bosqinchilik jabrlanuvchini pichoq, o'qotar qurol, sirtmoq kabi vositalar bilan qo'rqitib, uning mol-mulkini talon-taroj qilishda namoyon bo'ladi. Talon-taroj haqoratlash, qo'rqitish kabi holatlar bilan ham yuz berishi ehtimoldan xoli bo'lmaydi. Jinoyatning sub'ekti 14 yoshga to'lgan shaxslar bo'ladi. Jinoyat uchun belgilangan jazolar anchagina og'ir bo'lib, masalan bosqinchilik: juda ko'p miqdorda; o'ta xavfli retsivist tomonidan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan holatlarda 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilishi nazarda tutiladi.



37-rasm. Tovlamachilik jinoyati

Tovlamachilik jinoyati bosqinchilik jinoyati singari ikki ob'ektlilik bilan sanaladi. Bunda shaxsning mol-mulkidan tashqari, uning sog'lig'i, sha'ni va qadriyat qimmat ham jinoiy tajovuz natijasida zarar ko'radi. Tovlamachilikning bosqinchilikdan farqi shundaki, tovlamachilik tajovuzida jabrlanuvchining hayoti xavf ostiga qo'yilmaydi.

Har ikki jinoyatga qaraganda talonchilik ijtimoiy xavfliligidan kamroqligi bilan farqlanadi. Ushbu jinoyat JKning 166-moddasida bayon etilgan. Moddaning birinchi qismidagi holat – “o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-taroj qilish”

uchun jinoyat ob'ekti o'zganing mulki bo'ladi. Agar qilmish hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoki shunday yo'l bilan qo'rqitib sodir etilsa, jinoyat ob'ekti ikkita bo'lib qoladi. Ushbu jinoyat begona kishilarning ko'z o'ngida sodir bo'lib, bunda tajovuzni amalga oshiruvchilar surbetlarcha o'zganing mol-mulkiga tajovuz qiladi.

Topshiriq

Sud'yaning otasini uyiga o'g'ri kirdi va pullar hamda qo'lga kirgan narsalarni olib chiqib ketdi. Tezkor-qidiruv faoliyati natijasida o'g'ri qo'lga tushdi. Ish sudda ko'rilayotgan paytda sud'yaning otasi o'g'rini kechirishni va unga og'ir jazo bermaslikni o'g'ridan so'radi. Otasining gapi bilan sud'ya uch yillik axloq tuzatish ishlari jazosini tayinladi. Prokuror jazoning yengilligidan norozi bo'lib, hukmga protest keltirdi. Ish viloyat sudida ko'rib chiqilib unga boshqa jazo, ya'ni ikki yilu olti oylik ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Jazo og'irlashganidan norozi bo'lgan mahkum O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat yozdi.

– Oliy sud qanday yo'l tutishi kerak?

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish o'zganing mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar ichida o'ziga xos bo'lib, bu yerda ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulki talon-taroj qilinadi. Talon-taroj usuli o'zlashtirish yoki rastrata asosida yuz beradi. O'zlashtirish o'zganing mulkini o'z ixtiyoriga g'ayriqonuniy ravishda o'tkazib olishda namoyon bo'ladi. Rastrata esa o'zgaga tegishli bo'lgan mulkni mulk egasining rozilgisiz sotish, iste'mol qilish yoki hadya qilishda ifodalanadi. Mazkur jinoyat yarashilganlik munosabati bilan javobgarlik va jazodan ozod qilinishiga olib kelishi mumkin.

Agar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati ishonib topshirilgan mulkka zarar yetkazilishi bilan ajralib tursa, firibgarlik o'zganing mulki yoki unga bo'lgan huquqni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga kiritishda ifodalanadi.

O'zganing mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari ichida hayotda yeng ko'p uchraydigan o'g'rilik jinoyati bo'lib, u o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu jinoyat sub'ekti 14 yoshga to'lgan shaxs

bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi "O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli Qarori o'g'rilikning boshqa jinoyatlardan farqli jihatlarini aniqlash amaliyotida qo'l keladi.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari ichida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish va firibgarlik jinoyatlari sodir etilganda, yetkazilgan moddiy zarar qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llash ko'zda tutilmaydi.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar

Mulkiy zarar yetkazish aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan amalga oshirilganda, o'zganing mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq xususiyatlar mavjud bo'lmasa, bunday jinoyatlar JKning 170-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda zarar miqdori ancha miqdor, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorni tashkil etishi zaruriy shart sanaladi. Bunday jinoyatlar ishonchnoma asosida rahbar nomidan shartnomalar va boshqa bitimlarni tuzish vakolatiga ega bo'lgan xodimlar bilan bog'liq holatlarda uchrab turadi. Bunday holatlarda asosan foyda boy beriladi. Ushbu xususiyati bilan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish jinoyati o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyatidan ajralib turadi.

Jinoyat kodeksining 171-moddasida jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish jinoyati aks etgan. Moddaning dispozitsiyasi mulkning jinoiy yo'l bilan topilganligini bilgan holda, oldindan va'da bermay olish yoki o'tkazish jinoyat ekanligini tavsiflaydi.

Jinoyatning ob'ekti o'zgaga tegishli mulk bo'lib, jinoyatning sub'ekti uni jinoiy yo'l bilan topilganligini qilmish sodir etilgandan keyin bilishi ahamiyatlidir. Agar jinoyatdan oldin jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish va o'tkazishga va'da bersa, mazkur jinoyatning ishtirokchisiga aylanib qoladi.

Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni oldindan bilmagan holda olish yoki o'tkazish shaxs uchun javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Zotan, JKning 24-

moddasida belgilangan qoida asosida tahlil qilsak, shaxs jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish xavfli ekanligini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan, uning oqibatiga ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan bo'lsa, uning harakati qilmish aybsiz holatda sodir etilgan deb topilishi uchun asos bo'ladi.

Mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish jinoyatining sub'ekti mansabdor bo'lmagan shaxs sanaladi. Ob'ekti esa bunday shaxsga ishonib topshirilgan o'zga shaxsga tegishli bo'lgan mulkdir. Mulkka ko'p miqdorda zarar yetkazilishi uning talon-taroj qilinishi, shikast yetkazilishi, nobud qilinishida aybdorning mulkni qo'riqlash yuzasidan o'z vazifalarini vijdotsiz bajarishi bunda belgilovchi shart bo'ladi. Mulkka ko'p miqdorda zarar yetkazilishi ehtiyotsizlik, ya'ni o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik tufayli kelib chiqadi.

Ko'p miqdordagi zarar bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo'lgan miqdor sanaladi. Agar buncha miqdordagi zarar mansabdor shaxsning o'z vazifasini vijdotsiz bajarishi oqibatida yuz bersa, Jinoyat kodeksining 207 yoki 208-moddalari bo'yicha javobgarlik kelib chiqishi uchun asos bo'ladi.

O'zga shaxsga tegishli bo'lgan mulk ishonib topshirilgan shaxsga nisbatan jinoiy tajovuz uyushtirilishi yoki tabiiy ofatlar natijasida mulkning nobud bo'lishi, shikast yetkazilishi holatlari uchun jinoiy javobgarlik asoslari kelib chiqmaydi.

O'zgaga tegishli bo'lgan mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish ancha miqdor, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etsa, bunday qilmish uchun JKning 173-moddasida belgilangan jinoyat kelib chiqadi. Mazkur jinoyat ko'pincha o'zga shaxsga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkka qasddan zarar yetkazishda ko'zga tashlanadi.

Mulkni nobud qilish uni qayta tiklash imkonsizligini anglatadi. Bunda zarar ko'rgan mulkni ehtiyot qismlar bilan ta'mirlash imkoniyati bo'lmaydi. Shunday bo'lsada, qasddan harakat qilgan aybdor moddiy zararni uch karra miqdorda

qoplasa, unga nisbatan ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llanilmaydi.

Iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlar

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar o'zgalar mol-mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan jinoyatlardan tashqari yana uchta guruh jinoyatlar mavjud. Ular iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar hamda JKning XIII¹ bobidan o'rin olgan tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlardan iborat.

Iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan jinoyatlar Respublika manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish, pul-valyutaga oid, bankrotlik, raqobat, soliq va to'lovlar, qimmatbaho va rangli metallar hamda kommunal to'lovlar bilan bog'liq jinoyat qilmishlarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga foyda keltirmasligi aniq bo'lgan asbob-uskuna va texnologiyalarni mamlakatga olib kirish, o'rnatish va joriy etish uchun asos bo'lgan bitimni tuzish yoki unga ekspert xulosasini berish, shuningdek buning mamlakat uchun ko'p miqdorda zarar keltirishi ta'qiqlanuvchi holatdir. Yetkazilgan zarar uch karra qoplanganda yengilroq jazo tayinlanadi.

JKning 176,177 va 178-moddalari qalbaki pul, aktsiz markasi yoki qimmatli qog'ozlarni yasash, ularni o'tkazish, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish, chet el valyutasini yashirish jinoyatlarini aks ettiradi. Ushbu jinoyatlar ichidan chet el valyutasini yashirish mansabdorlik holati bilan bog'liq jinoyat sanaladi. Bunda korxona, muassasa va tashkilotlarda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega xodimlar banklar hisobiga o'tkazilishi lozim bo'lgan chet el valyutasini (dollar, yevro, rubl', yuan va boshq.) qasddan yashirib qolishi jinoyat asosini tashkil etadi. Agar ushbu jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxslar jinoyat aniqlangan kundan boshlab 30 kun ichida

valyuta o'tkazilishini ta'minlagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilishdan boshlab yengillashtiruvchi holatlar qo'llanilishi ham ko'zda tutiladi.

Yengillashtiruvchi holatlar soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish, qasddan bankrotlikka olib kelish kabi jinoyatlari uchun ham ko'zda tutilgan. Yengilliklar zarar bartaraf etilishi, aniqlangan kundan boshlab o'ttiz kun ichida zarar qoplanishi, shaxs tomonidan jinoyatning birinchi marta sodir etilishi kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Topshiriq

Mansabdor shaxsning poraxo'rligini bilib bir ishni bitirib berish uchun kattagina pul taklif qilishdi. Mansabdor rozi bo'lib, pulni olib kelishni buyurdi. DXX xodimlari tomonidan ishlov berilgan pulni mansabdor pulni sumkaga solishni imo qilib ko'rsatdi. Pul sumkaga solingach, pulni olib kelgan shaxsni joyida o'tirib turishni aytdi va sumka bilan chiqib ketdi. Pulni olib kirgan shaxs yarim soatlarcha kutib turdi va mansabdor qaytib kelmagach, tashqariga chiqib, DXX xodimlariga voqeani aytdi. DXX xodimlari idoraga bostirib kirishdi. Mansabdorni topishdi, lekin uning qo'llarida bo'yoq izlari ham, butun idorada pul ham yo'q edi.

- Holatga huquqiy baho bering.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, soliqlar yoki bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatlarining tarkibida og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmasa, oldin ma'muriy jazo qo'llanilishi majburiy shart hisoblanadi. Bunday jinoyatlarni uyushgan guruh, o'ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilishi yoki og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi, zarar miqdorining yuqoriligi mavjud bo'lsa, avval ma'muriy jazoning qo'llanilishi majburiy shart bo'lmaydi.

O'zbekiston yer ostidan qazib olinadigan qimmatbaho metallarga boy mamlakat sanaladi. O'zbekiston oliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan normativ hujjatlar bo'yicha yerosti boyliklari umummilliy boylik hisoblanib, ommaviy mulk tarkibiga kiritilgan. Shu bois qazib olinadigan rangli metallar davlatga topshirilishi lozim. Bunday qoidalarining buzilishi davlatga ko'p miqdorda

zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, aybdor JKning 185-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksiga elektr, issiqlik, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (185²-modda) bilan bog'liq jinoyat so'nggi vaqtlarda kiritilgan o'zgartish bo'lib, mazkur holat avval ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng kelib chiqadi. Issiqlik, elektr, gaz, vodoprovod tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish, shuningdek hisoblagichlar, plombalarga qasddan shikast yetkazish hamda ko'rsatkichlarni o'zgartirish mazkur jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil etadi.

Shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etgan bo'lsa, jinoyat aniqlangandan boshlab 30 kun ichida zararni qoplanishi javobgarlikdan ozod qilinishiga asos bo'ladi.

Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlarga xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlar, etil spirti, alkogol va tamaki bilan bog'liq bo'lgan, chigit, sifatsiz dori, noqonuniy tadbirkorlik, savdo yoki xizmat ko'rsatish, faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish, raqobatchini obro'sizlantirish kabi jinoyatlardan iborat.

Aholining salomatligi davlat va jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Ba'zi insofsiz tadbirkorlarning inson salamatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini cheklash maqsadida etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish va muomalaga kiritish og'ir oqibatlar keltirib chiqarmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilish uchun asos bo'ladi. Kodeksda belgilangan og'irlashtiruvchi alomatlar mavjudligi to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka olib keladi. Sifatsiz yoki qalbaki dori vositalari bilan qonunga xilof muomalada bo'lish ham ana shunday asoslarda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish jinoyatlari jamiyat uchun ijtimoiy xavfi o'ta yuqori bo'lmaganligi bois, yengillashtiruvchi holatlarga ega bo'lib, zararning 30 kunda qoplanishi, birinchi marta jinoyat sodir etilishi aybdorni javobgarlikdan ozod qiladi. Boshqa hollarda aybdorga ozodlikni

cheklash va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlash imkonini beradi.

JKning XIII¹ bobidan o'rin olgan tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli boshqa jinoyatlar xususiy mulk huquqini buzish, tadbirkorlik faoliyatiga aloqador jinoyatlarni o'z ichiga oladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga quyidagilarning qaysi biri kirmaydi?
 - a) urushni targ'ib qilish
 - b) talonchilik
 - c) agressiya
 - d) genotsid
2. Boshqa davlat hududiga bosqinchilik urushini rejalashtirish, uni boshlash va olib borish qaysi jinoyat tarkibini tashkil etadi?
 - a) Terrorizm
 - b) Agressiya
 - c) Bosqinchilik
 - d) Genotsid
3. Milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga ko'ra shaxslarni qirib yuborishda namoyon bo'ladigan jinoyatni toping
 - a) Urushning tartib-qoidalarini buzish
 - b) Agressiya
 - c) Genotsid
 - d) Qo'poruvchilik
4. Boshqa davlat hududidagi qurolli to'qnashuv va harakatlarda moddiy manfaatdorlik uchun ishtirok etishda ifodalanuvchi jinoyat qaysi?
 - a) Yollanish
 - b) Ekstremizm
 - c) Agressiya

- d) Qo'poruvchilik
5. "Urug'ni qirib yuborish" ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan jinoyatni toping
- a) Ekstremizm
 - b) Agressiya
 - c) Terrorizm
 - d) Genotsid
6. "Qo'rqitish" ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan jinoyatni toping
- a) Ekstremizm
 - b) Terrorizm
 - c) Agressiya
 - d) Genotsid
7. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?
- a) Davlatga xoinlik qilish
 - b) Qo'poruvchilik
 - c) Davlat sirini oshkor qilish
 - d) Bosqinchilik
8. Chet el fuqarosi tomonidan amalga oshiriluvchi jinoyat turini toping
- a) davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish
 - b) josuslik
 - c) qo'poruvchilik
 - d) davlatga xoinlik qilish
9. Odamlarni qo'rquv va talvasaga tushirish uchun zavod, korxonalar va boshqa inshootlarga zarar yetkaziluvchi jinoyatni toping.
- a) davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo'qotish
 - b) josuslik
 - c) qo'poruvchilik
 - d) davlatga xoinlik qilish

10. Davlat sirini oshkor qilish jinoyatining sub'ekti kimlar bo'ladi?
- a) milliy gvardiya askarlari va harbiylar
 - b) bunday ma'lumotlar ishonib topshirilgan shaxs
 - c) hokimiyat vakili, huquq-tartibot organi xodimlari
 - d) bunday ma'lumotlarni eshitgan har qanday shaxs
11. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlarga kiruvchi qatorni toping
- a) o'g'rilik
 - b) o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish
 - c) jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish
 - d) talonchilik
12. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga kiruvchi qatorni toping
- a) o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish
 - b) jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish
 - c) mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish
 - d) mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish
13. Ikki ob'ektki bo'lmagan jinoyat turini aniqlang
- a) bosqinchilik
 - b) tovlamachilik
 - c) o'g'rilik
 - d) talonchilik
14. Bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha miqdorni tashkil etuvchi miqdorni aniqlang
- a) ancha miqdor
 - b) ko'p miqdor
 - c) juda ko'p miqdor
 - d) ancha ko'p miqdor
15. Bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo'lgan miqdorni aniqlang

- a) ancha miqdor
- b) ko'p miqdor
- c) juda ko'p miqdor
- d) ancha ko'p miqdor

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni tavsiflang.
2. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar qaysilardan iborat?
3. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish jinoyatlarining xususiyatlarini aniqlang.
4. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar turlariga qanday jinoyatlar kiradi?
5. Iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlarni tasniflang.
6. Ko'p miqdordagi zarar, ancha zarar va juda ko'p miqdorni aniqlang.
7. Bosqinchilik va talonchilikning farqli jihatlarini ko'rsating.
8. Tovlamachilik va o'g'rilikning farqini toping.
9. Bankrotlikka oid jinoyatlarga nimalar kiradi?
10. Josuslik va xoinlik qilishning farqi nimada?

16 BOB. EKOLOGIYA, BOSHQARUV VA ODIL SUDLOVGA QARSHI JINOYATLAR

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar

Ekologiya sohasi inson yashashi uchun zarur bo'lgan atrof tabiiy muhitni avaylab-asrash bilan bog'liq munosabatlar tizimidan iborat. Mazkur sohasidagi jinoiy tajovuzlar qaratilgan tartib-qoidalar Jinoyat kodeksida emas, balki boshqa qonunlarda belgilangan. Yer kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi,

“Atmosfera havosini muhofaza qilish to’g’risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va unday foydalanish to’g’risida”gi, “O’rmon to’g’risida”gi va boshqa qonunlar Jinoyat kodeksida belgilangan jinoyatlar uchun blanket dispozitsiyalarni taqdim etadi. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (193-modda) jinoyati buni yaqqol isbotlaydi.

Ekologiya xavfsizligiga doir normalarni hamda talablarni buzish sanoat, transport, energetika, kommunal xizmat va boshqa ko’rinishdagi ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish va ishga tushirish normalarini mansabdor shaxs tomonidan buzilishi jinoyat ob’ektiv tomonining birinchi qismidan iboratdir. Bunday ob’ektlarni davlat komissiyasi a’zolari tomonidan qonunlarni buzib qabul qilinishi insonlar o’limi, ommaviy kasallanish, epidemiyalarning kuchayishi kabi og’ir oqibatlar keltirib chiqarishi bilan bog’liq holat ikkinchi qismni tashkil etadi. Jinoyatning sub’ektlari mansabdor shaxslar yoki bunday ob’ektlar uchun javobgar bo’lgan shaxslardir.

JKning 194 va 195-moddalarida o’rnatilgan jinoyatlarni sodir etilishi ham mansabdor shaxslar bilan bog’liq bo’ladi. Ushbu jinoyatlar atrof muhit ifloslanishi haqidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko’rsatish hamda ifloslanish oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko’rmaslikda ifodalanadi. Jinoyatlar aholi salomatligining xavf ostida qolishi, odamlarning kasallanishi, hayvonlar, parranda va baliqlarning qirilib ketishi kabi og’ir oqibatlar kelib chiqishiga olib kelishi tufayli kelib chiqadi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda) va yer, yerosti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (197-modda) jinoyatlari ham yetkazilgan zarar tufayli og’ir oqibatlar kelib chiqishini ko’zda tutadi. Farqli jihat qilmishni sodir etuvchi shaxsning mansabdor bo’lishi majburiy shart emas.

Mamlakatimizning sug’oriladigan yer zahirolari cheklanganligi sug’oriladigan yerlarni o’zboshimchalik bilan egallab olishga yo’l qo’ymaslik bo’yicha choralar ko’rmaslik qilmishini jinoyat qonunchiligiga kiritilishiga sababchi bo’lgan. Sug’oriladigan yerlar xalqimizning oziq-ovqatga bo’lgan talabini

qondirishda muhim o'rin egallaydi. Shu bois sug'oriladigan yerlarni ijaraga olgan, undan fermer sifatida foydalanayotgan shaxslar tomonidan boshqalarning bunday yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishiga to'sqinlik qilmasligi ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng kelib chiqsa, jinoyat sifatida topiladi. Birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs zararni bartaraf etsa, yer uchastkasi qaytarilishini ta'minlasa, javobgarlikdan ozod qilinishi qonunchilikda rag'batlantiruvchi omil sifatida o'rnatilgan.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning aksariyati ehtiyotsizlik shaklida sodir etiladi. Ulardan biri olovga ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lishga bog'liq bo'lib, shaxsning ehtiyotsizligi ekin maydonlari, o'rmon yoki daraxtlarga shikast yetishiga yoki ularning nobud bo'lishiga olib keladi. Olov natijasida zarar ko'rgan ob'ektlarning tiklanishi uzoq yillarga cho'zilishi mumkin. Bunday oqibat uchun javobgarlik 198-moddaning sanktsiyasida belgilangan jazoning qo'llanilishiga sababchi bo'ladi. Mazkur moddaning keyingi qismlarida nazarda tutilgan xatti-harakatlar qasddan sodir etilib, ko'p miqdordagi zarar bilan aniqlanadi. Qilmishning ijtimoiy xavfi yuqori bo'lganligi tufayli jazoning yengillashtirilishi yetkazilgan zararining uch karra qoplanishiga bog'liq bo'ladi. Shunda ham aybdor jazodan ozod qilinmaydi. Unga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlanadi.

Yetkazilgan zararining uch karra qoplanishi tufayli yuqoridagi jazoning yengillashuvi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (202-modda) jinoyati uchun ham o'rnatilgan. Bunda ov qilish, baliq tutish, kamyob va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini ovlash, shuningdek yovvoyi holda o'sadigan dorivor va boshqa o'simliklarni yig'ish yoki tayyorlash talablarini buzish oqibatida ancha miqdorda zarar kelib chiqishi kerak. Mazkur moddada belgilangan me'yor bo'yicha agar zarar O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonot yoki o'simlik turiga yyetkazilsa, aybdor moddiy zararni besh karra miqdorida qoplashi talab qilinadi.

Ekologiya sohasidagi boshqa jinoyatlar, jumladan 199, 200, 201, 203-moddalarida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar og'ir oqibatlarni keltirib

chiqarishi jinoyat sodir etilishining zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Mazkur jinoyatlar atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan turli qonun hujjatlarida belgilangan tartib-qoidalarini buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Topshiriq

Bir ayol firibgarlik yo'li bilan boshqa ayolning ishonchiga kirib, unga tegishli bo'lgan narxi 60 000 000 so'mlik tilla buyumlarni oldi va o'z ehtiyoji uchun ishlatib yubordi. Bu ish sudga oshirilib, tergov harakatlari olib borilayotgan paytda firibgar ayol kasallik tufayli tergov hibsxonasida o'ldi. Da'vogar pulini ololmay, firibgarning oila a'zolaridan tilla buyumlarini so'radi. Ular "Biz seni pulingni ko'rmaganmiz", deb pul berishdan bosh tortishdi. Shunda u tergov hibsxonasidagilar firibgar ayol o'limida aybdor va pulimni shular to'lashi kerak deb sudga da'vo qildi.

- Mazkur muammoni qanday hal etish kerak?

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimining buzilishi (204-modda) holati og'ir oqibat keltirib chiqarishi yoki ko'p miqdorda zarar yetkazilishini nazarda tutadi. Ko'p miqdordagi zararining qasddan qilingan harakat natijasida kelib chiqishi ushbu jinoyat uchun qo'llaniladigan jazoning og'irlashuvini keltirib chiqaradi.

Boshqaruvdagi mansabdorlik holatiga bog'liq jinoyatlar

Boshqaruv sohasidagi jinoyatlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining o'n beshinchi bobida aks etgan. Ushbu jinoyatlar 205-230-moddalardan o'rin egallagan. Mazkur jinoyatlarni mazmun-mohiyatini tahlil qilib chiqsak, ularning ko'plari bevosita mansabdorlik holatiga aloqador ekanligi ma'lum bo'ladi. Mansabdorlikka aloqador jinoyatlar 205-214-moddalarda aks etgan bo'lib, ularning sub'ekti mansabdor shaxs yoki jinoyat tarkibining mansabdorlikka aloqador jihatlar mavjuddir.

Mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sub'ekti 18 yoshga to'lgan fuqarolar sanaladi. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (205-modda) davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi

tomonidan o'z mansabidan qasddan foydalanishi orqali kelib chiqadi. Bunday harakatning fuqarolar huquq va manfaatlari yoki davlat va jamiyat manfaatlari ko'p miqdorda zarar keltirishi yoxud jiddiy ziyon jinoyatning tugallanganligini ifodalaydi.

Mansabdor shaxs atamasiga berilgan ta'rif Jinoyat kodeksining Maxsus qismi sakkizinchi bo'limida aks etgan. U o'z vakolatlari orqali huquqiy harakatlarni bajara olishi, huquqiy munosabatlarga kirisha olishi, mas'uliyatli vazifalar va javobgarlikni o'ziga olishi bilan oddiy xodimlardan ajralib turadi. Mansabdor shaxslarning qonun bilan belgilangan vakolatlar doirasida harakat qilishi, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi davlat va jamiyat manfaatlari ulkan foyda olib kiradi.

Mansabdor shaxsning o'ziga yuklatilgan vakolatlardan boshqa niyatlarda foydalanishi oqibatida fuqarolar, davlat va jamiyat uchun zarar va jiddiy ziyon ham kelib chiqadi. **Mansabni suiiste'mol qilish** mansabdor shaxsning o'z vakolatlari doirasiga kiruvchi harakatlarni qasddan bajarmasligi, o'zgalarga ta'sir o'tkazishi, ayrim shaxslarga yengilliklar berish yoki ular uchun sun'iy to'siqlarni vujudga keltirishda amalga oshiriladi. Mazkur jinoyat g'araz, qasos olish, amalparastlik kabi motivlar asosida vujudga keladi.

Mansabdor shaxsning o'z vakolatini suiiste'mol qilishi fuqarolar huquq va erkinliklariga ko'p miqdorda zarar yoki davlat va jamiyatga jiddiy ziyon yetkazilishi jinoyatning asosiy sharti sanaladi.

Jiddiy ziyon tushunchasi davlat, jamiyat va fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari moddiy hamda ma'naviy ko'rinishdagi ziyon yetkazilishini anglatadi. Jiddiy ziyon tushunchasini miqdor o'lchovlari mavjud emas. Uning darajasi moddiy va ma'naviy me'yorlar bilan yetkazilgan zarar miqyosida o'lchanadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (206-modda) jinoyati o'z mansabini suiiste'mol qilish jinoyatidan farq qilib, bunda mansabdor shaxs o'ziga berilgan qonuniy vakolatlar doirasidan qasddan chetga chiqadi. Suiiste'mol qilish o'z vakolati doirasida harakat qilinishida sodir etiladi. 206-

modda bo'yicha mansabdor shaxs o'zi bajarishi lozim bo'lgan xizmat vazifalariga kirmaydigan harakatlarni qasddan amalga oshiradi. Ushbu jinoyatda ham fuqarolar, davlat va jamiyat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishi majburiy shart sanaladi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-modda) avvalgi har ikki jinoyatdan farq qilib, ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash o'z xizmat vazifasini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikda ifodalanadi. Mazkur jinoyatda ham ko'p miqdordagi zarar yoki jiddiy ziyon jinoiy oqibat sanaladi hamda majburiy shart sanaladi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash natijasida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni mamlakatimizga chegaralar orqali qonunga xilof ravishda olib o'tilishi jazoning og'irlashuviga olib keladi.


Hokimiyat harakatsizligi mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatiga o'xshab ketadi. Ularning farqli jihati shundaki, mansabga sovuqqonlik bilan qarash ehtiyotsizlik tufayli sodir etilsa, hokimiyat harakatsizligi mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifasini qasddan bajarmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Mansab soxtakorligi jinoyatini mansabdorlik jinoyatlarining boshqa turlaridan ajratib turadigan xususiyati rasmiy xujjatlarga soxta ma'lumotlar kiritilishi, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib soxta hujjatlar tuzish hamda taqdim etishda namoyon bo'ladi. Mazkur jinoyat ko'p miqdorda zarar kelib chiqishini zaruriy shart sifatida belgilamaydi. Jinoyat g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda amalga oshiriladi.

Mansabdorlik jinoyatlari ichida jamiyatda yeng ko'p uchraydiganlaridan biri pora olish (210-modda) jinoyati bo'lib, ushbu qilmish ijtimoiy-iqtisodiy tizimga, bozor munosabatlariga, fuqarolik jamiyatining rivojlanish an'alariga, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga jiddiy zarar yetkazadi.

Pora olish tufayli jamiyatda korruptsiya avj oladi. Islohotlarning boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Sog'lom ijtimoiy muhitni izdan chiqaradi. Poraning predmeti pul, qimmatbaho taqinchoqlar, spirtli ichimliklar, moddiy qimmatga ega ashyolar, turistik yoki sanatoriyga yo'llanma shaklidagi moddiy naf ko'rish

imkonini beruvchi boshqa shakldagi imkoniyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Porani aybdorning o'zi yoki vositachi orqali olinishining ahamiyati yo'q. Muayyan g'arazli maqsadlarda sodir etilishi motivlari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Pora olish jinoyatining mohiyatini quyidagi sxema orqali osonroq anglab olishimiz mumkin.



38-rasm. Pora olish jinoyatining xususiyatlari.

Jinoyat kodeksining 211 va 212-moddalarida pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlar asosi o'rnatilgan. Jinoyatlar pora olish jinoyatiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi hamda mansabdor shaxsning bundan manfaatdorligi vujudga keladi. Pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarining sub'ekti mansabdor shaxs bo'lishi majburiy shart emas, ular 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs ekanligining o'zi yetarlidir.

Har ikki jinoyat uchun ham umumiy holat shundan iboratki, agar jinoyatning bajaruvchisi jinoyat sodir etilgandan boshlab 30 sutka mobaynida o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olib arz qilsa, pushaymonligini ko'rsatsa va jinoyat ochilishiga yordam bersa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Mansabdorlikka aloqador jinoyatlarning hammasi ham to'g'ridan-to'g'ri jinoyatga olib kelmasligi mumkin. JKning 213-214-moddalarining birinchi qismlarida belgilangan jinoiy qilmish uchun aybdor avval ma'muriy jazoga tortilishi lozim. Bunday holatning ma'muriy jazodan keyin sodir etilishi qilmishni jinoyat deb topish uchun asos bo'ladi.

213-moddada davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish holatini ifodalaydi. Ushbu jinoyatning 210-moddadan farqi shundaki, pora bunday organning mas'ul mansabdor shaxsiga emas, balki xizmatchi xodimiga beriladi. Mansabdor shaxs tuzilmalarga ta'sir o'tkazish, buyruq berish, huquqiy munosabatlarga o'zgartirish kiritish vakolatlariga ega bo'ladi. Oddiy xizmatchi xodim uchun bunday vakolat erkinligi berilmaydi. Xizmatchining pora evaziga qandaydir harakatlar yoki harakatsizliklarni amalga oshirishi davlat va jamiyat manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan vakolatga ega bo'lsa, u xizmatchi emas, balki mansabdor shaxs bo'ladi. Bunda jinoyat 210-moddada bilan kvalifikatsiyalanishi kerak.

Topshiriq

14 yoshli qizchani nomusiga tegib, keyin uni bo'g'ib o'ldirgan o'ta xavfli retsidivistni qo'lga olish operatsiyasi boshlandi. Tezkor-qidiruv organi xodimlari uni topganida retsidivist besh kishini garovga oldi. Ulardan birini qattiq jarohatladi va ikkinchisini o'ldirdi. Uni nishonga olgan mergan o'ng qo'l bilagiga qarata o'q uzdi. O'q retsidivistning bilagini teshib o'tdi va ortidagi temir ustunga tegib yo'nalishni o'zgartirdi hamda garovdagilarning biriga tegib uni o'ldirdi. Marhumning qarindoshlari merganni jazolashni talab qilishdi.

- Voqea qanday yechim topadi?

Basharti xizmatchiga tovlamachilik qilingan bo'lsa, 30 sutka ichida chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, o'z ixtiyori bilan arz qilishi va jinoyat ochilishiga yordam berishi xizmatchini javobgarlikdan ozod qiladi.

214-moddada xizmatchi qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishining ta'qiqlanishi bayon etiladi. Bunda xizmatchining o'zi bajarishi mumkin va lozim bo'lgan vazifani taklif etilayotgan porani olish evaziga bajarishi jinoyatning zaruriy sharti bo'ladi. Buning uchun ham moddaning birinchi qismida ma'muriy jazo birlamchi shart sifatida belgilangan.

Agar xizmatchining poradan manfaatdorligi ancha, ko'p yoki juda ko'p miqdorni tashkil etsa, takroran, tamagirlik, bir guruh shaxslar tomonidan,

uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilgan bo'lsa, ma'muriy jazo masalasining ahamiyati bo'lmaydi. Xizmatchi to'g'ridan-to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar

Boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar ma'muriy tizimga zarar yetkazishda ifodalanadi. Mansabdor shaxslar ishtirokida sodir etiladigan jinoyatlar yuqorida tahlil qilinganligi bois boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlarni umumiy asoslarda o'rganib chiqamiz.

Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish (215-modda) jinoyatining predmeti O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining bayrog'i, gerbi va madhiyasi sanaladi. Ushbu ramzlar konstitutsiyaviy normalar bilan himoyalangan bo'lib, ular davlatning obro'si, sha'ni, qadr-qimmati va mavqeini anglatadi. Hurmatsizlik qilish holati ramzlarni tahqirlashda, ramzlar ustiga haqoratlovchi so'zlar yozish va tasvirlarni chizish, madhiyani parodiya ko'rinishida masxaralash, bayroqni latta sifatida ishlatish kabi shakllarda ifodalanadi. Jinoyat sub'ekti 16 yoshga to'lgan shaxs bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar tuzishning o'z tartib-qoidalari mavjud bo'lib, ular "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun talablariga amal qilmagan holda jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarni g'ayriqonuniy ravishda tuzish, ular faoliyatini tiklash hamda faoliyatida qatnashish jinoyatning ob'ektiv tomonini ifodalaydi. Bunday jamoat birlashmalari siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, shuningdek, harbiy va yashirin diniy-ekstremistik tashkilotlar shaklida bo'lishi mumkin.

G'ayriqonuniy birlashma va tashkilotlarni tuzish bevosita jinoyat sodir etilganligini anglatadi. Bunday birlashma va tashkilot, oqim va sektalar faoliyatida ishtirok etishga undash ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi. Ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bunday undovlarning davom ettirilishi jinoyat sodir etilishi

faktini keltirib chiqaradi. Sodir etilgan keyingi harakat JKning 216¹-moddasi bilan javobgarlik kelib chiqishiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasidagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni diniy sohadagi ijtimoiy va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun sifatida e'tirof etiladi. Mazkur qonun diniy tashkilotlar bilan bog'liq masalalarga oid davlat siyosatini o'zida aks ettiradi. Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish ma'muriy jazoga sazovor bo'lib, quyidagi holatlarning qaytadan sodir etilishi jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi:

- diniy faoliyat bilan nolegal (yashirin) shug'ullanish;
- tashkilot rahbarlarining tashkilot ustavini ro'yxatdan o'tkazishni xohlamasligi;
- tashkilot a'zolarining bolalar va o'smirlar bilan maxsus yig'ilish o'tkazishlari;
- diniy marosimga aloqador bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa shakldagi to'garak va guruh tashkil etish va o'tkazish.

Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning prozelitizm (dindorlarni bir konfessiyadan boshqa konfessiyaga kiritish harakati) va missionerlik (dindorni bir dindan boshqa dinga kiritish harakati) shaklida amalga oshirilishi ham ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng kelib chiqadi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar uyushtirish yoki o'tkazish tartiblarini buzish (217-modda) holati ham yuqoridagi kabi ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kelib chiqadi.

Ta'qiqlangan ish tashlashlarga rahbarlikni amalga oshirish, shuningdek favqulodda holatlar joriy etilganda korxona, tashkilotlar faoliyatiga to'sqinlik qilish uncha og'ir bo'lmagan jinoyat turlariga kiradi. Ushbu jinoyat ikki holatdan birining sodir etilishi bilan namoyon bo'ladi. Birinchisi, ta'qiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilishda, ikkinchisi favqulodda holat e'lon qilingan sharoitda korxona, tashkilot va muassasa ishiga to'sqinlik qilishda ifodalanadi.

Hokimiyat vakili yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyati aksariyat hollarda bezorilik bilan bog'liq holda amalga

osHIRiladi. Mazkur jinoiy qilmish uchun Jinoyat kodeksining 219-moddasi ikkinchi qismida bunday shaxslarni o'z xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini bajarishdan voz kechish, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etishga majbur qilishning ta'qiqlovchi asoslari belgilangan. Bunday majbur qilish qamoqqa olingan shaxslarni ozod qilishga urinish kabi shakllarda yuz beradi.

Maxsus qismning 220, 221 va 222-moddalari sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etilishi bilan bog'liq munosabatlarda vujudga keladi. Jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarni saqlashning o'z tartib-qoidalariga ega bo'lib, u Jinoyat-ijroiya kodeksi bilan belgilanadi. Jazoning o'tash tartibini buzganlik, muassasa talablarini bajarmaganlik uchun intizomiy ta'sir choralari qo'llaniladi. Intizomiy ta'sir choralarining qo'llanilishidan keyin ham tartibbuzarlik davom etsa, ta'sir choralari og'irlashtiriladi. Bu qamoqdan qochish holatlari uchun ham qo'llaniladi.

Boshqaruv tartiblari O'zbekistonga kirish va chiqish, harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash, ma'muriy nazorat qoidalariga rioya qilish munosabatlarini ham tartibga soladi.

Jinoyat kodeksi 227 va 228-moddalari hujjat, shtamp, muhr, blankalar, avtotransport vositalari davlat raqamlarini egallash, nobud qilish, shikastlash yoki yashirish hamda qalbakilashtirish, sotish yoki foydalanish kabi holatlarni jinoyat deb topish asoslarini o'zida ifodalaydi. Bunday harakatlarning past niyatlarda sodir etilishi, pasport yoki boshqa shaxsiy hujjatlarga nisbatan yoki o'ta muhim hujjat, muhr, shtamp va blankalarga nisbatan ishlatilishi va og'ir oqibatlarga olib kelishi jazoning og'irlashuviga olib keladi. Bunday og'irlashuv davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish jinoyatini sodir etganlik uchun ham qo'llaniladi.

O'zboshimchalik jinoyati (229-modda) yuridik jihatdan belgilangan yoki faraz qilingan huquqqa asoslanib, o'zboshimchalik bilan harakat qilinishi natijasida fuqarolarning huquqlari va manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon keltirishida aniqlanadi. O'zboshimchalik bergan qarzini qaytarib olish maqsadlarida qarzdorning mulkini tortib olish, qo'lga tushgan kissavurni mustaqil sud qilish kabi kabi holatlarda ifodalanadi.

Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tizimiga 229-moddadan keyin bir qancha moddalar kiritilgan. Ularga yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish (229¹-modda), diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (229²-modda), belgilangan ta'qiqlar (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa ob'ektlarni qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash (229³-modda), yer berish tartibini buzish (229⁴-modda) jinoyatlari kiradi. Mazkur jinoyatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kelib chiqadi.

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish tegishli hokimiyat va kadastr ishlari bilan shug'ullanuvchi organlar ruxsatisiz yerning o'zlashtirilishi va unda inshootlar qurilishi bilan amalga oshiriladi. Qarovsiz, tashlandiq yerlarni o'zlashtirish qishloq ho'jalik ekinlari ekish maqsadlarida amalga oshirilsa va tegishli ruxsatnoma olib soliq to'lansa javobgarlik qo'llanilmaydi.

Diniy ta'limotdan saboq berish uchun, avvalo shaxsning o'zi rasmiy ta'lim maskanlarida qonuniy saboq olgan bo'lishi shart. Bu saboq oluvchilarni kelajakda turli ekstremistik oqimlarga kirib ketishlarini oldini olishga xizmat qiladi. Rasmiy muassasalarda ta'lim olinganlik ham xususiy tartibda saboq berish huquqini bermaydi. Buning uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Shaharsozlik va uy-joylarni qurish bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda ayrim hududlarga ta'qiq o'rnatilib, madaniy maskan, bolalar o'yingohi, istirohat bog'i yoki tarixiy ob'ekt joylashgan hududlarda faoliyat olib borish ta'qiqlanadi. Inshoot qurish boshlangan bo'lsa, inshoot buzib tashlanadi.

Yer berish tartibini buzish jinoyati shunday vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Yer kodeksi, shaharsozlik va uy-joy berish tartib-qoidalariga amal qilinmagan holda, masalan ortiqcha yer berish, yo'l uchun mo'ljallangan hududdan joy ajratish kabi holatlar mazkur jinoyat asoslariga mos keluvchi harakatlar hisoblanadi.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston Respublikasining sud tizimi odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat hokimiyatining mustaqil tizimi sanaladi. Odil sudlov ijtimoiy adolatni

ta'minlash maqsadlarini ko'zlaydi. Adolat o'rnatilishiga qarshi qaratilgan tajovuzlar odil sudlovga qarshi jinoyatlarni tashkil etadi.

Aybsiz kishini javobgarlikka tortish (230-modda) jinoyatining sub'ektlari surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror bo'lishi nazarda tutilgan. Bunda aybsizligi ayon bo'lgan shaxsni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlikda ayblab javobgarlikka tortish jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil etadi. Shaxsning aybsizligi uning qilmishida jinoyat tarkibining mavjud emasligi, bu shaxsning jinoyatga aloqasining yo'qligi, jinoyatni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lganligi yoki jinoyat amalda sodir bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) hamda tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (kalbakilashtirish) jinoyatlari bir-biriga o'xshab ketsada, ularning farqli jihatlari mavjud. Xususan, har ikki jinoyatda ham jinoyat-protsessual jarayoni mas'ul shaxslari jinoyat sub'ektlari sanaladi.

Dalillarni soxtalashtirish tergovga qadar dalillarni to'plash, tekshirish va baholash vaqtida hujjatlar va ashyolarga yolg'on ma'lumotlarni kiritish va o'zga buzib ko'rsatishlarda namoyon bo'luvchi soxtalashtirish shaklida amalga oshiriladi. Bunday ish isbotlashni amalga oshirayotgan shaxslar yoki isbotlashda qatnashish uchun jalb etilgan shaxslar tomonidan g'arazli va past niyatlarda bajariladi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) jinoyatining sub'ekti ham harakatni g'arazli va past niyatlarda sodir etadi. Bu harakat aynan aniq shaxsga nisbatan jinoiy ta'qib etish maqsadlarida amalga oshirilib, u jinoyatga aloqasi yo'qligi oldindan ayon bo'ladi. Jinoiy harakat natijasida noto'g'ri ayblanayotgan shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetish oqibati kelib chiqishi mumkin.

Odil sudlov amalga oshirilishi jarayonida jinoyat-protsessual faoliyatini olib boruvchi vakolatli shaxslardan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, ekspert yoki mutaxassisgina emas, balki sud tarkibi ham jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan. Uning javobgarligi vakolatiga bevosita bog'liq holda adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (231-modda) jinoyati asosida kelib chiqadi.

Sud tomonidan ish olib borilishida shaxsning aybsiz ekanligini anglashi, sud hujjati chiqarilishida buni bilishini anglatadi. Jinoyat sub'ektlari sud'ya yoki maslahatchilar bo'lishadi.

Sud hujjatini ijro etmaslik (232-modda) jinoyati sud tomonidan chiqarilgan hujjatda muayyan harakatni bajarish yoki undan tiyilish majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlashda namoyon bo'ladi. Sud hujjatini ijro etmaslik jinoyatining sub'ekti jinoyatni qasddan harakatsizlik shaklida amalga oshiradi. Bunday holat uchun avval ma'muriy jazo qo'llanilib, jazodan keyin ham bo'yin tovlashni davom ettirishi jinoyat sodir etilishini tugallanishini ko'rsatadi. Sud hujjatini ijro etilishiga to'sqinlik qilish ko'rilayotgan jinoyatning yana bir holati bo'lib, u sud hujjatini yashirib qo'yish, yo'qotish, ma'lumotni qasddan yashirishda ifodalanadi. Jinoyatning mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi jazo chorasini og'irlashtiradi.

Topshiriq

To'qayzorda o'zlashtirilgan va keyinchalik tashlab ketilgan yerga makkajo'xori ekan odamni ekin pishib yetilgan paytida nasha o'simligini yetishtirishda ayblab javobgarlikka tortishdi. Ma'lum bo'lishicha, ekinlar orasidan nasha o'simligi ham o'sib chiqqan ekan. Ekin ekan odam o'zidan oldin hosil olgan odamning ekan nashasi urug'idan o'sib chiqqanligini, bunga o'zining aloqasi yo'qligini aytdi.

- Uning javobgarlikka tortilishi to'g'rimi?

Jinoyat sodir etilishi natijasida ayrim holatlar uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining mulkiga band solinishiga yo'l qo'yiladi. Band solingan bunday mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish mulk ishonib topshirilgan shaxs tomonidan o'zlashtirish, rastrata qilish, shikast yetkazish orqali ancha miqdorda zarar yetkazilishida aks etadi. Agar bank yoki moliya-kredit tashkilotidagi pul mablag'lariga band solingan bo'lsa, bunday mablag'lar yuzasidan bank operatsiyalarini bajarish ham ushbu jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'ladi.

Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish bo'yicha yetkazilgan zarar uch karra miqdorda qoplanadigan bo'lsa, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llanilmaydi.

Sudgacha bo'lgan jarayonda shubha qilinayotgan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini sifatida jinoyat sodir etilishida ayblash uchun asoslar mavjud bo'lsa, qisqa muddatga ushlab turish, hibsga olish yoki hibsdan saqlash jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha ta'qiqlanmagan holat sanaladi. Huquq-tartibot organlari xodimlarining ushbu tartib-qoidalariga amal qilishlari talab etiladi. Har doim ham bunga erishishning imkoni bo'lmaydi. Ba'zan g'arazli va past niyatlarda, bila turib, g'ayriqonuniy asoslarda shaxsni qonunga xilof ravishda ushlab turish holatlari JKning 234-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning sodir etilishini keltirib chiqaradi. Buning sodir etuvchi sub'ektlar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror bo'ladi.

Jinoyat protsessida qiynoqqa solish, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki kamsituvchi muomala va jazo turlarini qo'llash, ko'pincha axborot olish, jinoyatga iqrorligini olishga erishish maqsadlarida qo'llanilish holatlari uchrab turadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi va boshqa shaxslarga nisbatan do'pposlash, urish, qo'rqitish, qiynash shaklidagi g'ayriinsoniy muomala ularga ruhiy, jismoniy zarar yetkazadi. Jinoyat tergov harakatlarini olib borishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan qasddan amalga oshiriladi.

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish (236-modda), yolg'on xabar berish (237-modda) va yolg'on guvohlik berish (238-modda), surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish (239-modda) jinoyatlari mansabdor bo'lmagan shaxslar tomonidan ham sodir etiladi.

Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi amaliyotda uchrab turadigan hodisa bo'lib, JKning 240-moddasi ushbu holat uchun javobgarlikni belgilab bergan. Moddaning dispozitsiyasiga ko'ra, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sudda guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatuv berishni yoxud ekspert tomonidan xulosa berishni rad etishi yoki bundan bo'yin tovlashi javobgarlikka sabab bo'ladi.

Moddaning ikkinchi qismida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlarining ko'rsatuv bermaganligi yoki bundan bo'yin tovlashi, shuningdek guvoh o'ziga qarshi ko'rsatuv berishni rad etganda javobgarlikka tortilmasliklari belgilangan.

Odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlardan yana biri jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish qilmishi bo'lib, u tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni aniq bilgan holda hokimiyat organlari yoxud huquq-tartibot organlariga xabar bermaslik bilan bog'liq bo'ladi. Moddaning dispozitsiyasidan anglashiladigan holat shuki, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar haqida xabardorlik holatida tegishli organga xabar bermaslik jinoiy harakat sifatida ko'zda tutilmagan. Binobarin, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar haqida xabar berish fuqarolik burchi sanaladi.

Odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlar ichidagi so'nggisi jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish (241¹-modda) qilmishi bo'lib, mazkur jinoyat mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladi. Jinoyatning ob'ektiv tomonini jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqishga mas'ul shaxs tomonidan jinoyatlarni hisobga olishdan qasddan yashirish tashkil etadi. Jinoyatning takroran yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi yoxud og'ir oqibatlarini keltirib chiqarishi jazoning og'irlashuviga sabab bo'ladi.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Ekologiya sohasi qaysi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi?
 - a) atrof muhitni qonun yo'li bilan himoyalashga bog'liq munosabatlar
 - b) tabiiy muhofaza qilinadigan ob'ektlarni himoyalashga bog'liq munosabatlar
 - c) atrof tabiiy muhitni avaylab-asrash bilan bog'liq munosabatlar
 - d) atmosferani muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlar
2. Blanket dispozitsiyalarga nimalar kiradi?

- a) dispozitsiya jkning boshqa moddalarida aks etadi
 - b) dispozitsiya boshqa qonunlarda aks etadi
 - c) dispozitsiya nizomlarda aks etadi
 - d) dispozitsiya mavjud bo'lmaydi
3. Mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sub'ekti necha yoshga to'lgan bo'lishi lozim?
- a) 14 yosh
 - b) 16 yosh
 - c) 18 yosh
 - d) 21 yosh
4. Davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi tomonidan o'z mansabidan qasddan foydalanishi orqali kelib chiqadigan jinoyatni toping.
- a) hokimiyat harakatsizligi
 - b) mansab soxtakorligi
 - c) hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish
 - d) mansabiga sovuqqonlik bilan qarash
5. Ehtiyotsizlikdan sodir etiladigan jinoyatni toping
- a) pora olish
 - b) mansab soxtakorligi
 - c) hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish
 - d) mansabiga sovuqqonlik bilan qarash
6. Qaysi jinoyat uchun sub'ekt 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak?
- a) pora olish
 - b) pora berish
 - c) pora olish-berishda vositachilik qilish
 - d) javoblarning barchasi to'g'ri
7. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish (215-modda) jinoyatining predmetiga nima kirmaydi?

- a) bayroq
 - b) konstitutsiya
 - c) madhiya
 - d) gerb
8. Dindorlarni bir konfessiyadan boshqa konfessiyaga kiritish harakati nima deb ataladi?
- a) fundamentalizm
 - b) missionerlik
 - c) prozelitizm
 - d) ekstremizm
9. Dindorni bir dindan boshqa dinga kiritish harakati nima deyiladi?
- a) fundamentalizm
 - b) missionerlik
 - c) prozelitizm
 - d) ekstremizm
10. Kim aybsiz kishini javobgarlikka tortish jinoyatining sub'ektiga kirmaydi?
- a) konvoy
 - b) surishtiruvchi
 - c) tergovchi
 - d) prokuror

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarni tushuntiring.
2. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni tasniflang.
3. Odil sudlovga qarshi jinoyatlarni tavsiflang.
4. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarga nimalar kiradi?
5. Blanket dispozitsiyalarga nimalar kiradi?

6. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish qanday kelib chiqadi?
7. Mansabni suiiste'mol qilish tushunchasini ta'riflang.
8. Jiddiy ziyon tushunchasini tavsiflang.
9. Sud hujjatini ijro etmaslik qanday namoyon bo'ladi?
10. Yolg'on xabar berish va yolg'on guvohlik berish jinoyatlarini farqini tushuntiring.

17 BOB. JAMOAT XAVFSIZLIGI VA TARTIBIGA QARSHI HAMDA HARBIY SOHADAGI JINOYATLAR

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

O'zbekiston aholisi tinch-totuv yashash erkinligiga ega bo'lib, fuqarolarning tengligi, ularning huquq va manfaatlarini davlat tomonidan himoyalaniishi buning kafolatidir. Davlat ijtimoiy munosabatlarni qo'riqlar ekan, jamoat xavfsizligi va tartibini ham ta'minlashga harakat qiladi.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi jinoyat qonunchiligi doirasida alohida bo'limda aks etgan bo'lib, u mazkur sohaga taalluqli jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Kodeks Maxsus qismining VI bo'limi ushbu jinoyatlarni o'zida jamlagan.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar jinoiy uyushma tashkil etish (242-modda) jinoyatidan boshlanadi. Jinoiy uyushma ishtirokchilikning yeng yuqori shakli sanaladi. U ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning birlashuvidan hosil bo'ladi. Ushbu jinoyat kesik tarkibli jinoyat hisoblanib, jinoiy uyushmaning tashkil etilishining o'zi oqibat kelib chiqishidan qat'iy nazar, tamom bo'lgan deb topiladi. Jinoiy uyushmani tashkil etish uyushmani, uning bo'linmalarini, tuzish yoki unga rahbarlik qilish, uning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatda ifodalanadi. Uyushgan qurolli guruhni tuzish, rahbarlikni amalga oshirish yoki unda ishtirok etish jinoyatni og'irlashtiradi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (243-modda) jamoat xavfsizligi bilan birga mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qarshi qaratilgan jinoyatdir. Jinoiy faoliyat natijasida topilgan pul mablag'lari yoki mol-mulk jinoyat predmeti bo'ladi.

Legallashtirish noqonuniy topilgan mulkni turli yo'llar bilan qonuniylashtirishga, yashirin holatdan oshkora holatga keltirishda ifodalanadi. Bunda pul yoki mol-mulkka o'tkazish, aylantirish, almashtirish yo'li bilan qonuniy tus beriladi. Jarayonda mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyi, tasarruf etish va ko'chirish usuli, mulkka haqiqiy egalik yoki uning kimga qarashliligi yashiriladi yoki sir saqlanadi.

Ommaviy tartibsizliklar jamoat amal qiladigan va bo'ysunadigan me'yorlarni buzish, o'zining harakati bilan boshqalarni ham shunday harakatlarga undash orqali kelib chiqadi. Bunda shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish, qirg'in solish, o't qo'yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish tartibsizlik kelib chiqishiga olib keladi. Aybdor tomonidan mazkur harakatlarni qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan boshqa narsalar ishlatib yoki ishlatish yo'li bilan qo'rqitib amalga oshirish jinoyatning zaruriy sharti sanaladi. Shuningdek, bunday ommaviy tartibsizliklarda faol ishtirok etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

244¹, 244², 244³-moddalarda belgilangan jinoyatlar mohiyatan bir-biriga yaqin bo'lib, diniy-ekstremistik g'oyalarni, ramziy belgilarini, har-xil uydirmalarni tayyorlash, tarqatish, diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik tashkilotlarni tuzish, rahbarlik qilish yoki ishtirok etish, diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, tarqatish kabi harakatlarni bajarish orqali namoyon bo'ladi.

Ekstremistik, fundamentalistik g'oyalar, tashkilotlar O'zbekiston Respublikasidagi tinchlik va osoyishtalikka rahna soluvchi harakatlarni o'zida ifoda etadi. Ekstremizm keskin chora-tadbirlar qo'llash harakati bo'lib, ta'qiqlagan usullar yordamida bo'lsa ham maqsadga erishishni o'zida aks ettiruvchi g'oyalardan iborat bo'ladi. Separatizm o'zida ayirmachilikni ifodalaydi.

Fundamentalizm hamma narsaning asosini faqat o'zlari ishonadigan ta'limotga bog'lash va taraqqiyotni rad etish g'oyalaridan tashkil topadi.

Maxsus qismning 244⁴ va 248¹-moddalarida o'rnatilgan me'yorlar bir-birining mantiqiy davomi sanaladi. Xususan, 244⁴-modda uchuvchisiz uchuvchi apparatlar, ularning butlovchi hamda ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda mamlakatga olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash, foydalanishni jinoyat sifatida e'tirof etadi. Jinoyatni sodir etgan shaxsning bunday apparatlar va uning qismlarini o'z ixtiyori bilan topshirishi javobgarlikdan ozod qilinish uchun asos bo'ladi.

248¹-modda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzishda ifodalanuvchi harakatlarni jinoyat deb topadi. Har ikki jinoyat holatida ham uchuvchisiz uchadigan apparat jinoyat predmeti hisoblanadi.

2020 yilda mamlakatga xavf solgan COVID-19 pandemiyasi Jinoyat kodeksiga bir qator moddalar kiritilishiga olib keldi. Ulardan biri 244⁵-modda bo'lib, u karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish holatini jinoyat sifatida ta'rifladi. Pandemiya munosabati bilan sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (257¹-modda) jinoyati qoidalariga ham o'zgartish kiritilib, jazo choralari og'irlashtirildi.

Moddalarga o'zgartishlarning kiritilishi pandemiya tufayli vujudga kelishi mumkin bo'lgan tartibsizliklarni oldini olish maqsadlariga qaratildi.

Shaxsni garov sifatida tutqunlikka olish (245-modda) jinoyati 155 va 165-moddalarda ko'zda tutilgan jinoyatlardan motiv va maqsadlari bilan farqlanadi. Mazkur jinoyatda garovga olingan shaxsni ozod qilish sharti sifatida davlat, xalqaro tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxsdan biron-bir harakatni sodir etish yoki undan o'zini tiyish talab etiladi. Garovga oluvchilar bunday harakatni sodir etish yoki sodir etmaslik garovdagi shaxsning hayotiga zomin bo'lishi mumkinligi bilan ta'sir ko'rsatishga urinishadi.

Kontrabanda (246-modda) jinoyati bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (182-modda) jinoyatiga o'xshab ketsada, ularning o'zaro farqli jihatlari

mavjud. Farq jinoyat predmetida namoyon bo'ladi. Kontrabanda kuchli ta'sir qiluvchi portlovchi moddalar va qurilmalar, radioaktiv materiallar, qurol-yarog', o'q-dorilar, giyovandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekistonga olib kirishda namoyon bo'ladi. Bundan boshqa narsalarni olib o'tish esa 182-modda bilan kvalifikatsiyalanadi.

Jinoyat kodeksida o'qotar qurollar, o'q-dori, shuningdek portlovchi moddalar va portlovchi qurilmalar bilan bog'liq jinoyatlar 247, 248 va 249-moddalardan o'rin olgan. Bunday vositalar va qurollarni qonunga xilof ravishda egallanishi (247-modda) hamda ularga qonunga xilof ravishda egalik qilish (248-modda) jinoyatlari qasddan sodir etiladi. Ushbu jinoyatlar ob'ektiv va sub'ektiv asoslar bo'yicha kvalifikatsiyalanganda, ularga uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun belgilangan jazolar qo'llanilishi ko'zda tutiladi. O'qotar kurol yoki o'q-dorini beparvolik bilan saqlash ehtiyotsizlik tufayli sodir etiladi.

Jinoyat kodeksining 250, 250¹, 251, 251¹, 252, 253, 254, 255, 255¹-moddalaridagi qoidalar pirotexnika buyumlari, portlash xavfi bo'lgan, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, radioaktiv moddalar, yadro qurilmalari va boshqa ommaviy qirg'in qurollari bilan bog'liq jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jinoyatlar o'zining ijtimoiy xavfliligi bilan jamoat tartiblarini yuqori darajadagi xavf ostiga qo'yadi. Bunday jinoyatlar tufayli kelib chiqadigan oqibatlar jamoat xavfsizligidan tashqari aholi salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Jamoat xavfsizligiga neft va gaz hamda ulardan olinadigan mahsulotlar quvurlarini, unga bog'liq ob'ektlar, aloqa, signalizatsiya vositalarini yaroqsiz holatga keltirish (255²-modda) qasddan sodir etiluvchi jinoyat sanaladi. Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyatning motivi va maqsadi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jamoat xavfsizligiga zarar keltiruvchi ayrim jinoyatlar mas'ul shaxslar tomonidan o'z vazifalariga to'g'ri yondashmaganliklari evaziga ehtiyotsizlik sababli kelib chiqadi. Zararli oqibat badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi bilan tugaydi. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (256-modda), mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish

(257-modda), tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (258-modda), yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (259-modda) holatlari mana shunday jinoyatlar jumlasiga kiradi. Mazkur jinoyatlar natijasida kamida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkaziladi. Bunday hollarda yarashuv qo'llanilishi mumkin. Agar jinoyat odamlar o'limi, va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelsa, qo'llaniladigan jazolar og'irlashadi.

O'ta muhim va toifalangan ob'ektlarning qo'riqlanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik (259¹-modda) qilmishi ham ehtiyotsizlik tufayli kelib chiquvchi jinoyat sanaladi. Bunda javobgarlik ob'ekt qo'riqlanishiga mas'ul bo'lgan shaxs uchun kelib chiqadi.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar

Transport vositalari kishilarimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilishi bilan foydalidir. Transport vositalariga egalik insonga ruhiy ko'tarinkilik berish xususiyatini ham unutmashimiz lozim. Undan foydalanishda belgilangan yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga amal qilish kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Transport harakati xavfsizligi bilan bog'liq jinoyatlarning ichida 260, 266 va 268-moddalarining birinchi qismida belgilangan holatlar uchun yarashuv instituti qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

Ularning birinchisi temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (260-modda) qilmishi bo'lib, uning sub'ekti bunday transport vositasini boshqaruvchi shaxsdir. Bunday transport vositalarini boshqarishda oddiy qoidalarining buzilishi yoki badanga yengil shikast yetkazilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Agar boshqarish xavfsizligi qoidalarining buzilishi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, jinoiy javobgarlik paydo bo'ladi. Bunda yarashuv qo'llanilishi mumkin, ammo shaxsning harakati odam o'limiga sabab bo'lsa, yarashuv qo'llanilmaydi.

O'zbekiston o'zining yer, suv va havo hududida suveren huquqlarga ega bo'lib, samoviy hududimizdan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish jinoyati 260¹-moddadan o'rin olgan. Jinoyat o'zida ikki holatdan birining sodir etilishi aks ettiradi. Birinchisi, bunday harakat ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishi, ikkinchisi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi holati. Agar harakat odam yoki odamlar o'limiga, halokatga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelsa, jazolar og'irlashtiriladi.

Shaxsning o'zi mustaqil holda mast holatda transport vositasini boshqarishi bilan transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan bunday mastni boshqarishga yo'l qo'yib berishining o'rtasida farq bor. 261-modda bo'yicha bunday mas'ul shaxs alkogol', giyovandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-idrokiga ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida mast bo'lgan shaxs bilan birga javbgarlikka tortilishi uchun asos bo'ladi. Badanga og'ir shikast yetkazilishi yoki odam o'lishi qilmishning jinoiy oqibati sanaladi.

262-moddada transportni ta'minlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish jinoyati belgilangan. Bunda ta'mirlash ishini bajarayotgan yoki transportning texnik holati va undan foydalanish uchun mas'ul bo'lgan shaxsning transport vositalar, aloqa yo'llari, signalizatsiya kabi va boshqa uskunalarning buzuqligini bila turib, foydalanishga chiqarishga ruxsat berishi jinoyatning ob'ektiv tomoni bo'ladi. Buning natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi, odamlar o'limi, halokat va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi jinoyatning tugallanishini anglatadi.

Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemasini egallab olish yoki olib qochish JKning 264-moddasi bilan jinoyat deb topiladi. Mazkur jinoyat 267-moddadan o'rin olgan transport vositasini olib qochish singari javobgarlikni keltirib chiqaradi. Har ikki jinoyatda ham qilmish qasddan sodir etiladi. Ularning farqi javobgarlikka tortish yoshida bo'lib, transport vositasini olib qochganlik uchun 16 yoshdan jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Temir yo'lining harakatlanadigan tarkibi, havo, dengiz yoki daryo kemasini egallab olish yoki olib qochish jinoyati bo'yicha 16 yosh javobgarlikka tortish yoshi hisoblanadi.

Jinoyatlar kvalifikatsiya qilinishida ularning motivi va maqsadi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Amaliyotda ko'p uchraydigan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (266-modda) jinoyati haydovchi tomonidan ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladi. Ushbu jinoyat blanket dispozitsiyali bo'lib, aybdor yo'l harakati qoidalarining qaysi qismiga rioya qilmaganligi aniqlanishi lozim. Jinoyat sub'ekti haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs bo'ladi. Qilmish sodir etilishi tufayli badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilsa, jabrlanuvchi va hodisani sodir etgan shaxs o'rtasida kelishuv orqali yarashuv yuz berishi mumkin. Hodisani sodir etgan shaxs yetkazilgan zararni qoplagach, jabrlanuvchi berilgan mablag'dan qoniqish hosil qilsa va kechirsa, yarashuv vujudga keladi. Mazkur holatda javobgarlik kelib chiqmaydi. Agar ushbu qilmish odam yoki odamlar o'limiga, halokat va boshqa og'ir oqibatlarga olib kelsa, yarashuv masalasi ko'rib chiqilmaydi.

Topshiriq

Bir odam do'konga kelib, bozor narxi 3 million so'mlik tilla taqinchoqlarni onasi kasal bo'lganligi uchun arzonroq, ya'ni 1,5 millionga ham sotishi mumkinligini aytdi. Sotuvchi uni qayta sotib pul qilish uchun uni 1 million 400 ming so'mga sotib oldi va savdoga qo'ydi. Oradan bir hafta o'tib, do'konga kirgan bir ayol bu taqinchoqlar o'ziga tegishliligini, bir hafta oldin uyiga o'g'ri kirib, uni o'g'irilib chiqib ketganligini aytdi. Buni qo'shnilar tasdiqlashi mumkinligini aytib chiqib ketdi. Sotuvchi uning gaplariga ishonmadi. Ayol IIB xodimlari bilan kelganda, u taqinchoqlarni 1 million 550 ming so'mga sotib yuborgan edi. Sotib olgan xaridorni esa eslab qololmagan edi.

– Voqea qanday yakun topadi?

Shuni yodda tutish lozimki, yo'l-transport hodisalari har doim ham haydovchining aybi bilan sodir etilavermaydi. Agar haydovchi yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan bo'lsa hamda yo'l-transport hodisasi yuz berishida uning aybi bo'lmasa, haydovchi jinoiy javobgarlikka tortilmasligini unutmaslik lozim.

Yo'l-transport hodisalarida yo'lovchi, piyoda, velosiped, ot-ulov transportining haydovchisi tomonidan ham harakat xavfsizligi qoidalari buzilishi uchraydi. Ularning harakati yoki harakatsizligi oqibatida yo'l-transport hodisasining yuz berishi natijasida xavfli oqibatlarning kelib chiqishi aybdorni 268-modda bo'yicha javobgarlikka tortishga olib keladi. Mazkur jinoyat ham ehtiyotsizlik natijasida ro'y beradi.

Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligi qarshi jinoyatlar bobidagi so'nggi jinoyat avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni qo'riqlash qoidalarini buzish (269-modda) qilmishidan iborat. Ushbu jinoyat avtomobil yo'llari hamda bunday yo'llar uchun ajratilgan mintaqada tegishli ruxsatga ega bo'lmay, yer osti va yer usti kommunikatsiyalarini o'tkazish, ta'mirlash hamda bajarishning shartlari va muddatlariga rioya etmaslik, o'zboshimchalik bilan ark, to'siq, shlagbaum va boshqa inshootlar qurish, yo'llarga turli narsalarni uyub qo'yish, yo'l ustini buzish harakatlari sodir etilishida namoyon bo'ladi. Bunday harakatning o'zi og'ir oqibatlar, ya'ni badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi, odamlar o'limi, halokatlar kabi yakunga olib kelmasa, ma'muriy shaklda jazo qo'llaniladi. Agar og'ir va mudhish holatlar kelib chiqsa, jinoiy javobgarlik muqarrar jazoga olib keladi.


Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar

Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar haqidagi tavsiflovchi ma'lumotlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining sakkizinchi bo'limida berilgan. Inson ruhiyati, salomatligi hamda jamoat xavfsizligi va tartibiga zarar keltiruvchi mazkur illatlar sog'lom turmushning kushandasi sanaladi. Bunga qarshi kurash yildan-yilga dolzarblashib, muammo esa o'tkirlashib bormoqda. Narkobiznesga qarshi kurashda ma'lum bir yutuqlarga erishilgan bo'lsada, kurash o'z ahamiyatini yo'qotmayapti.

Bunday vositalar va moddalar doirasida kelib chiqqan jinoyatlarni kvalifikatsiyalashda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 28 apreldagi "Giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof

ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 12-sonli Qaroridan ham foydalaniladi.

Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin.



39-rasm. Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar

Mazkur jinoyatlarning birinchisi ta'qiqlangan ekinlarni yetishtirish bilan bog'liqdir. Ta'qiqlangan ekinlar – ko'knor, kannabis (nasha) yoxud tarkibida giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlar sanaladi. Ularni ekish yoki yetishtirish qonunan ta'qiqlanadi. Ta'qiqlarga qaramay, bunday o'simliklarni ekish yoki yetishtirish jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil etadi. Ekish sharoiti, maydon kengligi, jinoyatning sub'ektiga qarab jazo miqdori ham og'irlashib boradi. Jumladan, bunday ekinlarni ekish va yetishtirish o'ta xavfli retsidivist tomonidan; uyushgan guruh yoki uning manfaatlarini ko'zlab; katta ekin maydonida sodir etilsa, og'ir jinoyatlar uchun qo'llaniladigan jazo choralari qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksining 271-moddasi giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash jinoyatini o'zida aks ettiradi. Moddaning dispozitsiyasidagi qoida bo'yicha egallash qonunga xilof ravishda, o'g'rilik yoki firibgarlik yo'li bilan qo'lga kiritiladi.

Qonunga xilof ravishda egallash o'zgan olib qo'yishni, hech kimning egaligida bo'lmagan joydan yig'ib olishni ifodalaydi. O'g'rilik yo'li bilan qo'lga kiritish o'zga shaxsga tegishli bo'lgan giyovandlik vositalari, psixotrop moddalarni yashirin ravishda talon-taroj qilish hisoblanadi. Firibgarlik o'zgani aldash, ishonchiga kirish yo'li bilan giyovandlik vositalari, psixotrop moddalarni qo'lga kiritishda namoyon bo'ladi.

Ko'pgina hollarda huquqbuzarlar giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda sotayotganliklarida huquq-tartibot organlari tomonidan qo'lga olinadi. Ularning xatti-harakatlari Jinoyat kodeksining 273-moddasi bilan kvalifikatsiyalanadi. Ushbu modda giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab, qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish, shuningdek ularni ko'p bo'lmagan miqdorda o'tkazish harakatlari sodir etilishini jinoyat deb topadi. Mazkur jinoyatda aybdorning maqsadi o'tkazishdan iborat bo'ladi. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni tayyorlash, olish, saqlash, tashish va jo'natishda ham barcha ishlar o'tkazish maqsadlariga yo'naltiriladi.

273-modda jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarini ham o'zida aks ettiradi. Agar ushbu moddada ko'zda tutilgan qilmishlar takroran, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida sodir etilsa, shuningdek, juda ko'p miqdorda, bangixonalar tashkil qilgan holda, o'ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilsa jazoning og'irlashuvi vujudga keladi.

273-moddaning birinchi qismida belgilangan qilmishni sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olib tegishli organlarga arz qilsa va bunday vosita va moddalarni topshirsa, jazodan ozod qilinadi.

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish (274-modda) jinoyatining ijtimoiy xavfliligi yuqori sanaladi. Boisi bunday harakatlar natijasida iste'mol qiluvchilarning safi kengayadi. Mazkur sohaga doir jinoyatlar soni ko'payib boraveradi. O'zgalarni giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga o'rgatishda taklif qilish, maslahat

berish, iltimos qilish, gijgijlash, masxara qilish, piching qilish, aldash, ustidan kulish kabi ishontirish va majburlash usullaridan foydalaniladi.

O'zgalarni giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etish bunday narsalarni sotish yo'li bilan sodir etilsa, aybdorning harakati 273-moddada ko'zda tutilgan jinoyat bilan birga qo'shib jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish (275-modda) jinoyati "Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonun talablarining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Ushbu qonun bo'yicha maxsus litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar davlat buyurtmalari asosida bunday vosita va moddalarni ishlab chiqarish huquqiga ega bo'ladi. Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoki jo'natishning qonunda belgilangan tartibini buzish jinoyat sodir etilganligini anglatadi.

Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadlarini ko'zlamay tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (276-modda) bilan bog'liq jinoyatlar 273-moddadagi qilmish bilan mohiyatan o'xshab ketsada, ularning farqi maqsadlarda ko'rinadi. Aybdorda giyovandlik vositalari va psixotrop moddalarni o'tkazish (sotish, almashtirish, ayirboshlash) maqsadi bo'lmasa, ya'ni "o'zimning iste'molim uchun edi" mazmunidagi fikr bayon etilsa, javobgarlik 276-modda bo'yicha kelib chiqadi. Sotish, ayirboshlash, almashtirish maqsadlari ifoda etilsa, qilmish 273-modda bilan kvalifikatsiyalanadi. O'tkazish maqsadlariga ega bo'lgan qilmish uchun jazolar ancha og'ir ko'rinishda bo'ladi.

Jamoat tartibiga qarshi va axborot texnologiyalari sohalaridagi jinoyatlar

Jinoyat qonunchiligidagi jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar bezorilik (277-modda) hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (278-modda) qilmishlaridan iborat. Har ikki jinoyatning

umumlashtirgan jihati jinoyatlarning jamoat tartibiga qarshi qaratilganligidir. Jamiyatda qaror topgan axloqiy qadriyatlarga zarar yetkazadi.

Bezorilik jinoyati jamoat tartibidan tashqari, fuqarolarning daxlsizligi, sog'lig'i va o'zgalarga tegishli mulkka qarshi qaratiladi. Bezorilik jinoyati jamiyatdagi yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish, shuningdek ancha miqdorda zarar o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish shaklida sodir etilishini ifodalaydi.

Jamiyatdagi yurish-turish qoidalari axloq qoidalari sanalib, uni qasddan mensimaslik uyatli so'zlarni aytish bilan cheklansa, qilmish ma'muriy javobgarlik tartibida mayda bezorilik hisoblanadi. Agar ruxsat berilmagan joyda spirtli mahsulot ichish, shilqimlik, jamoat joylarida yalang'och holda yurish kabi harakatlar mayda bezorilikdan yuqori turadi.

Bezorilik harakatidagi axloq qoidalari buzilishining do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish, o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoki nobud qilish bilan birga sodir etilishi qilmishni jinoyat sifatida topish uchun to'la asosni vujudga keltiradi. 277-moddaning II va III qismidagi harakatlarning sodir etilishi javobgarlik va jazoning og'irlashuvini keltirib chiqaradi.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (278-modda) jinoyati o'zida ikki holatni aks ettiradi. Birinchisi, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish hamda o'tkazish, ikkinchisi, bunday o'yinlar o'tkazish uchun qimorxonalar tashkil etish yoki saqlash.

Qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar pul vositasida o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Ushbu holat kimningdir hamyonidan ayrilishiga, kimnidir (asosan o'yin tashkil etuvchi) bundan boyib qolishiga olib keladi. O'ziga tegishli katta pullarning yutqazilishi shaxsni o'g'rilik kabi jinoyatlar sari yetaklaydi. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar ko'pincha g'irromlik asosiga quriladi. Vijdonsizlarcha yo'l tutilib, soddaroq odamlarning cho'ntagi qoqlab olinadi. Qimor o'yinlaridagi yutuq esa insonni halol pul topish yo'lidan chalg'itadi. Qimor o'yinlariga mukkasidan ketishiga olib keladi.

Qimorxonalar moddiy boyliklar va manfaatdorlikning boshqa turlariga asoslangan, mijozlar doimiy tashrif buyuradigan, qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar o'tkaziladigan hamda shunga monand jihozlangan joylardir. Qimorxonalarda buyurtma bo'yicha boshqa xizmat turlari ham ko'rsatilishi mumkin bo'lib, ular oziq-ovqat, ichimliklar, tamaki va alkohol mahsulotlari kabi narsalar savdosi, shuningdek boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi. Qimorxonani va bunday o'yinlarni tashkil etuvchilar jinoyat sub'ektlari bo'lib, mijozlar javobgarlikka tortilmaydilar.

Tavakkalchilik o'yinlarini televidenie orqali tashkil etilish holatlari ham mavjud bo'lib, bunday o'yinlar maxsus litsenziyaga ega yuridik shaxslar tomonidan tashkil etiladi. Ular olingan daromadning 50 foizigacha bo'lgan qismini yutuqlarga sarflashadi, 30-40 foiz atrofidagi daromadni davlatga soliq sifatida topshiradilar.

Jinoyat kodeksining XX¹ bobi axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardan iborat. Mazkur jinoyatlarning kelib chiqishida O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan me'yorlarga nisbatan jinoiy tajovuzning uyushtirilishi asosiy rolni o'ynaydi. Xususan, 278¹-moddaning dispozitsiyasi axborotlashtirish qoidalarini buzish holatlarini o'zida ifodalaydi. Bunda belgilangan himoya choralari ko'rmagan holda axborot tizimlar, ma'lumotlar bazasi va banklarini yaratish, joriy etish, uzatish, foydalanish davlat va jamiyat manfaatlariga ko'p, juda ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishi jinoyat deb topiladi.

Keyingi moddalarda ham kompyuter va telekommunikatsiya bilan bog'liq jinoyatlar o'rin olgan. Jumladan, komp'yuter axborotidan qonunga xilof ravishda foydalanish (278²-modda), komp'yuter tizimi, telekommunikatsiya tarmoqlaridan g'ayriqonuniy foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, o'tkazish yoki tarqatish (278³-modda), komp'yuter axborotini modifikatsiyalashtirish (278⁴-modda), komp'yuter sabotaji (278⁵-modda), zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish va tarqatish (278⁶-modda) va telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda foydalanish (278⁷-

modda) jinoyatlari axborot sohasidagi yetkazilgan zarar yoki jiddiy ziyon bilan jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga xavf soladi.


Ushbu jinoyatlardan komp'yuter axborotini modifikatsiyalashtirish komp'yuterda saqlanayotgan axborotni qonunga xilof ravishda o'zgartirish, shikast yetkazish, o'chirib tashlash, yolg'on axborotni kiritishda namoyon bo'ladi.

Komp'yuter sabotaji deb o'zganing mulkchiligiga tegishli bo'lgan komp'yuter uskunasi yoki xizmatda foydalanadigan komp'yuterni qasddan ishdan chiqarishi, komp'yuter tizimini buzishiga aytiladi.

Umuman komp'yuter sohasidagi jinoyatlar qasddan sodir etiladi. Xususan, zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish jinoyati axborotlarni qo'lga kiritish yoki zarar yetkazish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar

Harbiy sohadagi jinoyatlarning sub'ektlari 18 yoshga to'lgan harbiy xizmatchilar bo'ladi. Ular tomonidan harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar Maxsus qismning VIII bo'limidan o'rin olgan bo'lib, quyidagi boblarga ajratilgan:



40-rasm. Harbiy sohadagi jinoyatlar

Harbiy soha boshqa tizimlardan farqli ravishda, bo'ysunish printsiplariga qat'iy amal qilishni talab etadigan, qattiq intizom va metin irodaga asoslangan boshqaruvga ega bo'ladi. Bo'ysunish va harbiy tartiblarga rioya etish harbiy sohaning fundamental asoslaridir.

Bo'ysunmaslik jinoyati (279-modda) harbiy sohadagi bo'ysunish printsiplariga qarshi qaratilgan qilmish bo'lib, u buyruqni bajarishdan oshkora bosh tortish, shuningdek, buyruqni boshqacha tarzda qasddan bajarmaslikda yuz beradi. Bunday holatda uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun belgilangan jazo beriladi. Agar bo'ysunmaslik jangovar vaziyatda sodir etilsa, mazkur holat og'ir jinoyat sifatida e'tirof etiladi. Berilgan buyruq inson huquqlari va erkinliklariga qarshi qaratilgan bo'lsa, masalan harbiy boshliq tinch aholiga qarshi o'q otishga buyruq bersa, bo'ysunmaganlik uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi.

Topshiriq

Bir fermer o'z paxta maydoniga kirib qolgan qoramolni tutib oldi. ko'saklarni yegani uchun qoramol egasidan zararni undirib olmoqchi bo'ldi. Ikki hafta davomida uning egasi topilmagach, qassobga so'ydirib maktab va bolalar bog'chasi uchun savoblikka berib yubordi. Oradan bir hafta o'tib, qoramolning egasi topildi va fermerdan o'z molini pulini talab qildi.

- Muammoning yechimini toping

Bo'ysunmaslik qasddan sodir etiladi, ammo harbiy boshliq tomonidan berilgan buyruq ehtiyotsizlik orqasidan bajarilmasligi ham mumkin. Agar buyruqni bajarmaslik ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki og'ir oqibatlarga olib kelsa, jinoyat sodir etilgan deb topiladi.

Harbiy boshliq bilan munosabatlarda boshliqqa qarshilik ko'rsatish, uni o'z xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish, boshliqni o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, do'pposlash orqali badanga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish, boshliqni haqorat qilish kabi JKning 281, 282, 283 va 284-moddalarida o'rnatilgan me'yorlarning buzilishi buysunish printsiplari doirasida kelib chiquvchi jinoyatlardir. Mazkur jinoyatlardan sohada harbiylar subordinatsiyasi kanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi oydinlashadi.

Jinoyat kodeksi bir-biriga tobe bo'lmagan harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlarga oid ustav qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni ham tartibga soladi. Bu holat JKning 285-moddasida o'rnatilgan.

Ayrim jinoyatlar harbiy sha'n bilan bog'liq bo'lib, bunday harakatni bajarish axloqiy munosabatlarga xilofligidan tashqari, sharmandali vaziyatni ifodalaydi. Bunday jinoyat marodiyorlik (286-modda) bo'lib, u jangovar vaziyatda halok bo'lganlarning yoki yaradorlarning buyumlarini egallashda aks etadi. Jinoyat janggohlarda yoki jang harakatlari bo'lib o'tgan, yaradorlarga yordam ko'rsatish hududlarida yuz beradi. Mazkur harbiylar sha'ni, ularning qadr-qimmatini yerga uruvchi harakat qasddan sodir etilib, og'ir jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Jinoyat kodeksining XXII bobi (287-294-moddalar) harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlardan iborat bo'lib, ular harbiy qism yoki xizmat joyini tashlab ketish, dezertirlik, halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish, biron a'zosini mayib qilish yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash, qorovul xizmatini o'tash, ichki xizmatni o'tash yoxud garnizonda patrullik qilish, jangovar navbatchilikni o'tash va chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish bilan bog'liq qilmishlarda aks etadi.

Dezertirlik jinoyati (288-modda) harbiy xizmatdan butunlay bo'yin tovlash maqsadlarida harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketib qolishi, shunday maqsadda xizmat joyiga qaytib kelmasligidan iborat bo'ladi. Bunday qilmish ofitser yoki kontrakt (shartnoma) asosida o'tayotgan xizmatchi tomonidan sodir etilishi jazoning og'irlashuvini keltirib chiqaradi.

Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning ayrimlari faqat qasd shaklida, ayrimlari esa qasd va ehtiyotsizlikdan ham sodir etiladi. Qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga harbiy qism yoki xizmat joyini tashlab ketish, dezertirlik, halok bo'layotgan harbiy kemani tashlab ketish, biron a'zosini mayib qilish yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash jinoyatlari kiradi. Qorovul xizmatini o'tash, ichki xizmatni o'tash yoxud garnizonda patrullik qilish, jangovar navbatchilikni o'tash va chegara xizmatini o'tash qoidalarini buzish jinoyatlarida qasd bilan birga ehtiyotsizlik ham og'ir oqibatlar asosida jinoyat kelib chiqishiga olib keladi.

Harbiy soha tizimining barcha xizmatchilari harbiy mulkni saqlash va undan foydalanish tartibiga qat'iy rioya etishlari talab etiladi. Harbiy mulk tarkibiga

harbiy qism joylashgan hudud bino va inshootlaridan tashqari, qurol-yarog', o'q-dori, o'ziyurar o'qotar qurilmalar, radiotexnika va axborot texnologiyalari vositalari, harbiy va boshqa mashinalar, boshqa texnik apparatlar, havo va suv transporti vositalari hamda boshqa narsalar kiradi.

Harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish, ishdan chiqarish (295-modda), uni nobud qilish yoki shikast yetkazish (296-modda) turli shakllarda sodir etilishi mumkin. Jumladan, harbiy mulkni behuda sarflash, yo'qotish yoki ishdan chiqarish harbiy xizmatchining shaxsiy foydalanishi uchun berilgan yoki unga ishonib topshirilgan harbiy aslahalarni sotishi, birovga foydalanish uchun berishi yoki garovga qo'yishi yo'li bilan sodir etiladi.

Harbiy mulkni nobud qilish, unga shikast yetkazish jinoyati harbiy mulkni qasddan nobud qilish yoki shikast yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Harbiy mulkni saqlash va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa jinoyatlar qasd va ehtiyotsizlik oqibatida ham sodir etiladi. Bu holatlar qurol-yarog', o'q-dori, radioaktiv va portlovchi moddalar, jangovar va maxsus mashinalar, harbiy texnika uskunolari, uchish apparatlari, kemalarni boshqarish qoidalarini buzishda ko'zga tashlanadi.

Jinoyat kodeksining 24-bobi harbiy mansabdorlik jinoyatlaridan tashkil topgan. Ushbu jinoyatlar hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (301-modda) va xizmatga sovuqqonlik bilan qarash (302-modda) qilmishlarini o'z ichiga oladi. Mazkur jinoyatlarda nazarda tutilgan qoidalar boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan 205, 206 va 207-moddalarda belgilangan me'yorlar asosida kelib chiqadi. Ularning o'zaro farqi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar sifatida 205-207-moddalar bo'yicha fuqarolarga taalluqli mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi. 301 va 302-moddalar bo'yicha harbiy mansabdor shaxslar jinoiy javobgarligi belgilanadi.

Mavzu bo'yicha testlar

1. Jinoiy uyushmaga qaysi ta'rif mos keladi?

a) moddiy tarkibli jinoyat

- b) ishtirokchilikning yeng yuqori shakli
 - c) ehtiyotsizlikdan kelib chiquvchi jinoyat
 - d) formal tarkibli jinoyat
2. Keskin chora-tadbirlar qo'llashni yoqlovchi harakat nima deyiladi?
- a) ekstremizm
 - b) fundamentalizm
 - c) agressiya
 - d) konservatizm
3. Ayirmachilik bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi terminni toping.
- a) ekstremizm
 - b) terrorizm
 - c) agressiya
 - d) separatizm
4. Fundamentalizmning mohiyati nimada ko'zga tashlanadi?
- a) ayirmachilik bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi
 - b) keskin chora-tadbirlar qo'llashni yoqlaydi
 - c) hamma narsani o'zi ishonadigan ta'limotga bog'laydi
 - d) bosqinchilik harakatlarini targ'ib qiladi
5. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatiga o'xshab ketadigan jinoyatni toping
- a) agressiya
 - b) genotsid
 - c) kontrabanda
 - d) qo'poruvchilik
6. Quyidagi qanday holatlar uchun yarashuv instituti qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi?
- a) temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish
 - b) transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish

- c) transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarini buzish
 - d) transport vositasini olib qochish
7. Qonunga xilof ravishda egallash qanday harakatdan iborat?
- a) yashirin ravishda talon-taroj qilish
 - b) o'zgani aldash yo'li bilan qo'lga kiritish
 - c) o'zgani ishonchiga kirish yo'li bilan qo'lga kiritish
 - d) hech kimning egaligida bo'lmagan joydan yig'ib olish
8. Qaysi jinoyat uchun oqibat kelib chiqmasa ham jinoyat sodir etilgan deb topiladi?
- a) o'g'rilik
 - b) talonchilik
 - c) bezorilik
 - d) qasddan odam o'ldirish
9. O'zga shaxsga tegishli komp'yuterni yoki xizmatdagi komp'yuterni qasddan ishdan chiqarish, komp'yuter tizimini buzish nima deyiladi?
- a) komp'yuter sabotaji
 - b) komp'yuter avantyurasi
 - c) komp'yuter agressiyasi
 - d) komp'yuter sindromi
10. Jangovar vaziyatda halok bo'lganlar yoki yaradorlar buyumlarini egallashda aks etadigan jinoyat turini toping
- a) dezertirlik
 - b) avantyurachilik
 - c) marodiyorlik
 - d) militarizatsiya

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni tavsiflang.
2. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga nimalar kiradi?

3. Giyovandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning xususiyatlarini tushuntiring.
4. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga qaysi jinoyatlar kiradi?
5. Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarni tasniflang.
6. Legallashtirish jinoyatining xususiyatlarini tushuntiring
7. Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish asoslarini tushuntiring.
8. Ekstremizm, separatizm va fundamentalizmning farqlarini ayting.
9. Shaxsning mast holatda transport vositasini boshqarishi bilan bunday mastni transport boshqarishiga yo'l qo'yib berishning qanday farqi bor?
10. Jinoiy uyushmaning xususiyatlarini aniqlang.

TEST SAVOLLARI JAVOBLARI

№ Bob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1-bob	B	D	B	A	B	C	C	A	C	A	-	-	-	-	-
2-bob	B	D	B	B	C	B	C	A	B	C	-	-	-	-	-
3-bob	A	A	D	A	C	A	B	D	D	B	-	-	-	-	-
4-bob	D	B	B	A	A	D	B	B	D	C	-	-	-	-	-
5-bob	B	D	A	B	C	C	D	B	C	B	D	C	B	C	D
6-bob	C	C	C	B	A	D	C	B	C	C	-	-	-	-	-
7-bob	A	B	D	A	B	D	B	B	D	B	-	-	-	-	-
8-bob	B	A	B	B	C	C	A	B	C	A	-	-	-	-	-
9-bob	D	A	C	C	B	C	B	B	C	D	-	-	-	-	-
10-bob	B	C	B	B	B	B	C	D	B	C	-	-	-	-	-
11-bob	B	A	B	C	D	C	B	D	A	A	B	A	B	A	C
12-bob	C	D	B	D	B	B	C	D	B	C	-	-	-	-	-
13-bob	D	A	B	C	C	B	B	A	B	A	-	-	-	-	-
14-bob	C	C	B	C	A	D	B	D	D	A	B	C	C	A	B
15-bob	B	B	C	A	D	B	D	B	C	B	C	A	C	A	B
16-bob	C	B	C	C	D	A	B	C	B	A	-	-	-	-	-
17-bob	B	A	D	C	C	D	D	C	A	C	-	-	-	-	-

GLOSSARIY

1. **Aktsiya** – qimmatli qog'oz; u aktsiyani saqlovchining (hissadorning) hissadorlik (aktsionerlik) jamiyati foydasining bir qismini dividend sifatida olishga, hissadorlik jamiyati ishini boshqarishda ishtirok etishga jamiyat tugatilgandan so'ng uning qolgan mulkining bir qismini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi.
2. **Analoglar** – biror predmet, ashyo yoki boshqa narsalarga mohiyati, funktsiyasi, xususiyatlari bilan o'xshash bo'lgan, uningdek ta'sir qiladigan va o'rnini bosa oladigan ashyo, predmet yoki ijtimoiy munosabatlar.
3. **Ancha miqdor** – bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha bo'lgan miqdordan iborat bo'ladi.
4. **Ancha miqdordagi zarar** - bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 300 baravarigacha bo'lgan miqdorda baholanadigan zarar.
5. **Asosiy qonun** – mazmuni bo'yicha «Konstitutsiya» tushunchasiga mos keladi.
6. **Ayb** – bu shaxsning o'zi sodir qilgan, huquqqa zid hulq atvoriga ruhiy munosabatda bo'lishidir. U qasd va ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi.
7. **Bitim** – jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi
8. **Chet el fuqarosi** – boshqa davlatning fuqarosi maqomiga ega bo'lgan va o'sha davlatning himoyasidan foydalanuvchi shaxs.
9. **Davlat** – bu jamiyatning birligini, yaxlitligini ta'minlaydigan, davlat mexanizmi orqali jamiyat ishlarini boshqaradigan suveren ommaviy-siyosiy hokimiyatni amalga oshiradigan, huquqqa insonlarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlovchi umummajburiylik maqomini beradigan jamiyatning siyosiy tashkilotidir.
10. **Davlat organi** – davlat mexanizmining yuridik jihatdan rasmiylashgan, davlat-huquqiy vakolatlarga ega bo'lgan va davlat xizmatchilaridan tashkil topgan, davlatning muayyan vazifa va funktsiyalarini o'z kompetentsiyasi

doirasida amalga oshirish uchun moddiy vositalarga ega bo'lgan hamda tashkiliy va xo'jalik jihatidan alohida bo'lgan qismidir.

11. **Davlat shakli** – bu davlatdagi siyosiy hokimiyatni tashkil etilishi bo'lib, u o'zida davlatni boshqaruv shaklini, davlat tuzilishi shaklini va siyosiy rejimni mujassamlashtiradi.
12. **Davlat siri** – oshkor etilishi natijasida mamlakat harbiy-iqtisodiy salohiyati, mudofaa qobiliyati, xavfsizlik va boshqa manfaatlarga salbiy ta'sir qiladigan hamda og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar.
13. **Davlat sirlarining turlari** – davlat, harbiy va xizmat sirlaridan iborat bo'lib, mutlaq maxfiy, maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy va intellektual ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
14. **Demokratiya** – hozirgi tushunishda davlat tuzilishining konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi, xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining ajralmasligi printsiplarini' tirof etishga asoslangan.
15. **Fakul'tativ belgilar** – asosiy belgilarni to'ldirib, umumiy xulosalar chiqarishga yordam beruvchi qo'shimcha belgilar.
16. **Fitna** – hokimiyatni bosib olish yoki konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga qaratilgan jinoiy harakatni ikki yoki undan ortiq shaxslarning pinhona birlashuvi.
17. **Fuqaroligi bo'lmagan shaxs** – hech qaysi davlatning siyosiy yoki huquqiy himoyasiga ega bo'lmagan shaxs.
18. **Giyohvandlik vositalari** – giyohvandlik vositasi sifatida ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasida nazoratga olingan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar yoxud shunday moddalar mavjud bo'lgan preparat hamda o'simliklar.
19. **Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarning miqdori** – ushbu miqdorlar tegishli davlat organi xulosasiga muvofiq aniqlanadi.

20. **Huquq instituti** – mazmun mohiyatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan huquq normalari yig'indisini tashkil etuvchi tushuncha.
21. **Ijtimoiy xavflilik** – jamiyat, ya'ni odamlar uchun xavfli bo'lgan holat.
22. **Intellectual mulk** – adabiyot, san'at asarlari, ixtirolar yaratish, radio televidenie ko'rsatuvlarini tayyorlash, foydali modellar, sanoat namunalarini, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish va boshqa ijod qilish natijasi
23. **Ipoteka** – ko'chmas mulkni garovga qo'yish
24. **Jamiyat** – odamlarning uyushgan ehtiyojlari qondirilishini ta'minlovchi. Turli tashkilot va muassasalarning yig'indisi.
25. **Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi** – jinoyat sodir etilgan vaqtda qonunda yengilroq jazo ko'zda tutilgan, lekin Jinoyat kodeksiga keyinchalik og'irroq sanksiya kiritilgan bo'lsa, jazoni oldingi sanksiya bo'yicha qo'llanishini ifodalovchi holat.
26. **Jinoyatga suiqasd qilish** – jinoyat sodir etishdan ko'zlangan maqsadga erishilmagan holat. Bunda tajovuz shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetmay qoladi.
27. **Juda ko'p miqdor** – bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari va undan ortiq bo'lgan miqdorga teng miqdor.
28. **Juda ko'p zarar** - bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari va undan ortiq bo'lgan miqdorga teng zarar.
29. **Katta ekin maydoni** – ming kvadrat metr (1 ga) va undan ortiq bo'lgan ekin maydoni.
30. **Ko'p bo'lmagan miqdor** - bazaviy hisoblash 30 baravaridan 100 baravarigacha bo'lgan miqdorga teng miqdor.
31. **Ko'p miqdor** – bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo'lgan miqdor.

- 32.**Ko'pchilik uchun xavfli usul** – o't yoqish, portlatish, sov bostirish hamda odamlar halok bo'lishi yoki ko'p miqdorda zarar yetkazish xavfini tug'diruvchi usul.
- 33.**Kodeks** – tizimlashtirilgan huquqiy aktlar.
- 34.**Konstitutsiya** – davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilish tartibi va printsiplarini belgilovchi asosiy qonuni.
- 35.**Kriminologiya** – jinoyatchining shaxsi, oilaviy ahvoli, ijtimoiy muhit, uning o'ziga xos sifatlarni hamda jinoyatchilikning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.
- 36.**Litsenziya** – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma
- 37.**Majburiyat** – mol-mulkni topshirish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, zarar keltirish yoki mol-mulkni asossiz ravishda qo'lga kiritish bilan bog'liq holda qaror topadi, bu munosabatlar natijasida bitta tomon boshqasidan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni yoki qandaydir xatti-harakatlardan o'zini tiyishni talab qilishga haqli bo'ladi.
- 38.**Mansabdor shaxs** – davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bilan tayinlanadigan yoki saylanadigan lavozimlarda boshqaruv, xo'jalik va yuridik harakatlarni bajara oladigan vakolatli shaxs.
39. **Mualliflik huquqi** – fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri bo'lib, u fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni ifodalaydi.
- 40.**O'rtacha kattalikdagi ekin maydoni** – 250 kvadrat metrdan 1000 kvadrat metrgacha bo'lgan ekin maydonini o'z ichiga oluvchi hudud.
- 41.**Obligatsiya** – qimmatli qog'oz bo'lib, uni saqlovchining obligatsiyani chiqaruvchi shaxsdan obligatsiyaning unda ko'rsatilgan nominal qiymatini

- yoki boshqa mulkiy ekvivalentni ko'rsatib o'tilgan muddatda olish huquqini tasdiqlaydi.
- 42.**Poraxo'rlik** - pora olish, poa berish, shuningdek pora olish-berish jarayonida vositachilikni o'z ichiga oluvchi holat.
- 43.**Pornografik mahsulot** – badiiy qimmatga ega bo'lmagan, axloqqa mos kelmaydigan jinsiy aloqalar va bu bilan bog'liq behayo tasvirlar aks etgan foto va video mahsulotlar.
- 44.**Psixotrop moddalar** – insonning aql-idroki va ruhiyatiga sarxushlik bag'ishlovchi, oxir-oqibat sog'liq uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqaruvchi sintetik va tabiiy moddalar.
- 45.**Qimmatli qog'ozlar** – obligatsiya, veksel, chek, depozit, konosament, aktsiya, jamg'arma sertifikatlar hamda qonun bilan qimmatli qog'ozlar toifasiga kiritilgan boshqa hujjatlar.
- 46.**Sanktsiya** – huquq normasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat uchun belgilangan jazo turi, miqdori va boshqa huquqiy ta'sir chorasini belgilovchi element.
- 47.**Sir tutiladigan axborot** – egasining ruxsatisiz oshkor qilish mumkin bo'lmagan turli xususiyatdagi axborotlar.
- 48.**Suverenitet** – davlatning o'z hududida ustuvorlikka egaligi va tashqi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda mustaqilligi.
- 49.**Tamom bo'lgan jinoyat** – jinoyat sodir etilgan deb topish uchun yetarli bo'lgan, jinoyat tarkibining elementlari aks etgan ijtimoiy xavfli qilmish.
- 50.**Urush** – turli davlatlar yoki xalqlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar olib borish. Harbiy harakatlar yer, suv va havo kengliklarida olib boriladi.
- 51.**Vakolat** – fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsga beriladigan faoliyat doirasi.
- 52.**Valyuta** – erkin almashtiriladigan horijiy davlatning pul birligi (bu vazifani dollar, yevro, rubl va boshqa pul birliklari bajaradi).
- 53.**Valyuta operatsiyalari** – valyuta qimmatliklarini yoki unga bo'lgan huquqni olinishi, o'tkazilishi, almashtirilishi, foydalanilishi, tasarruf etilishi,

mamlakatga olib kirilishi va olib chiqib ketilishi kabi holatlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga 2019 yil uchun yo'llagan Murojaatnomasi. 28.12.2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga 2020 yil uchun yo'llagan Murojaatnomasi. 24.01.2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. "Xalq so'zi", 2019 yil 22 iyunь.
5. Mirziyoev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.// O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan ma'ruzasi. 7.12.2018 y.
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 345 b.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. -114-115 B.
9. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. 2016 yil 14 dekabrь.
10. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir.//O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2019 yil 7 dekabrь.

- 11.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7 dekabr.
- 12.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
- 13.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
- 14.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi.
- 15.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
- 16.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
- 17.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi.
- 18.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
- 19.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.
- 20.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
- 21.O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonuni.
- 22.O'zbekiston Respublikasining “Aloqa to'g'risida”gi Qonuni.
- 23.O'zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni.
- 24.O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni.
- 25.O'zbekiston Respublikasining “Davlat sirini saqlash to'g'risida”gi Qonuni.
- 26.O'zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to'g'risida”gi Qonuni.
- 27.O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni.
- 28.O'zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni.
- 29.O'zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni.
- 30.O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni.

- 31.O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni.
- 32.O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni.
- 33.O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
- 34.O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni.
- 35.O'zbekiston Respublikasining " Sudlar to'g'risida"gi Qonuni.
- 36.O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
- 37.O'zbekiston Respublikasining "Seleksiya to'g'risida"gi Qonuni.
- 38.O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni.
- 39.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni
- 40.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008 yil 12 dekabrda 23-sonli "Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 41.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 24 sentyabrda 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 42.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 27 iyunda 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 43.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008 yil 5 mayda 13-sonli "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi Qarori.

- 44.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi 23-sonli "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 45.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 11 oktyabrdagi 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 46.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011 yil 11 fevraldagi 1-sonli "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 47.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi Qarori.
- 48.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi 6-sonli "O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-taroj jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 49.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi 1-sonli "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 50.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 12-sonli "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 51.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi 21-sonli "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 52.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 28 apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
- 53.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentyabrdagi 19-sonli "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.

54. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000 yil 28 apreldagi 8-sonli "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarori.
55. Rustamboev M., Axrorov B. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. –T.: Adolat, 2019. 160-bet
56. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Darslik. –T.: Yangi asr avlodi, 2005. 664-bet.
57. Rustamboev M. Jinoyat huquqi. Darslik. –T.: ILM-ZIYO, 2006. 480-bet
58. Toxirov F. Shaxsga qarshi jinoyatlarning yuridik tahlili. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. 168-bet
59. Rustamboev M. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism. –T.: Adolat, 2016. 960-bet.
60. Kenjaboev D. Jinoyat-protsessual huquqi. Maxsus qism. Darslik. –T.: IIV akademiyasi nashriyoti, 2018. 568-bet
61. Saxaddinov S. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2014. 592-bet.
62. To'xtamurod Rustam. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh (Umumiy qism). –T.: Adolat, 2016. 608-bet.

Elektron manbalar:

1. www.Lex.uz
2. www.minjust.uz.
3. www.norma.uz
4. www.gov.uz
5. www.parliament.uz
6. www.Oliysud.uz
7. www.uza.uz

MUNDARIJA

№	Mashg'ulotlarning mazmuni	Beti
1.	Kirish	3
2.	1 bob. Jinoyat huquqining tushunchasi, predmeti va vazifalari	6
3.	2 bob. Jinoyat va javobgarlik asoslari	21
4.	3 bob. Jinoyat tarkibi, uning ob'ekti va ob'ektiv tomoni	34
5.	4 bob. Jinoyat tarkibining sub'ekti va sub'ektiv tomoni	49
6.	5 bob. Jinoiy jazolar	62
7.	6 bob. Jazo tayinlash asoslari	78
8.	7 bob. Jazodan ozod qilish asoslari	96
9.	8 bob. Jinoyatda ishtirokchilik	112
10.	9 bob. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar	128
11.	10 bob. Javobgarlikdan ozod qilish turlari	147
12.	11 bob. Sudlanganlik holati va uning huquqiy oqibatlari	166
13.	12 bob. Voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazo	179
14.	13 bob. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari	199
15.	14 bob. Liberallashtirish va shaxsga qarshi jinoyatlar	216
16.	15 bob. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi hamda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar	241
17.	16 bob. Ekologiya, boshqaruv va odil sudlovga qarshi jinoyatlar	259
18.	17 bob. Jamoat xavfsizligi va tartibiga qarshi hamda harbiy sohadagi jinoyatlar	277
19.	Test savollari javoblari	297
20.	Glossariy	298
21.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	302